O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiyasi fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

ЖАДИД АДАБИЁТИ ТАРИХИ

fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

5A120101 – Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha) yo‘nalishi uchun

TUZUVCHI: F.f.d. M. A. TOJIBOYEVA

ANDIJON-2021

Mazkur o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 6-apreldagi 137- sonli buyrug’I bilan tasdiqlangan o’quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **Tojiboyeva Muqaddas** - O`zbek тили ва adabiyoti kafedrasi

dotsenti, filologiya fanlari doctori

Taqrizchilar: **Karimov Xalimjon** - “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Shaxobov K - “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari вщyicha falsafa doktori

Mazkur o’quv uslubiy majmua Andijon davlat universitetining 2021-yil ___ avgustdagi ____ sonli Kengashda ko’rib chiqilgan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I. O'QUV MATERIALLARI ……..
MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

1-мавзу. Туркистон ўлкаси истилоси ва унинг бадиий адабиётда акс этиши

2-мавзу. Жадид адабиётининг манбалари, юзага келишининг ижтимоий-сиёсий ва адабий-эстетик омиллари

3-мавзу. Жадидчилик ва жадид адабиётини илмий ўрганиш босқичлари

4-мавзу. Жадид адабиётини даврлаштириш тамойиллари. Ўзбек маърифатпарварлик адабиёти

5-мавзу. Адабий мактаблар ва уларнинг ўлка ижтимоий, бадиий ҳаётида тутган ўрни

6-мавзу. XX аср бошидаги адабий баҳслар ва уларнинг адабий-эстетик тафаккур ривожидаги ўрни

7-мавзу. Жадид адабиётида Шарқ ва Ғарб маданияти масалалари талқини

8-мавзу. Жадид адабиёти: анъана ва янгилик уйғунлашуви
Жадид адабиётида лирика

9-мавзу. Жадид шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи

10-мавзу. Жадид адабиёти ва оқимлар

11-мавзу. Жадид насри ва унинг поэтик хусусиятлари. Романлардаги ижтимоий ва миллий руҳ тасвири йўсинлари

12-мавзу. Жадид драмаси ва унинг поэтикаси масалалари
Драмаларнинг оммавий ва бадиий идрок йўсинига таъсири

13-мавзу. Жадидчилик ва адабий танқид шаклланиши ҳамда ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари

14-мавзу. Ўзбек жадид адабиётида ижтимоий таҳлил

II. SEMINAR MASHG'ULOTLARI……..

1-mavzu. Xonliklar davri va Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti.

2-mavzu Ma'rifatparvarlik jadidchilik harakatidan oldingi ijtimoiy bosqich.

3-mavzu. Jadid adabiyotining mavzu. va shakl yangilanishlari

4-mavzu. XX asr boshidagi adabiy bahslar va ularning adabiy-estetik tafakkur rivojidagi o'rni.

5-mavzu. Jadid nasrining real hayot bilan hamohangligi

6-mavzu. Jadid she'riyatidagi oddiylikka intilish, jonli tilning badiiy tus olishi

7-mavzu. Jadid dramaturgiyasining ijtimoiy mohiyati

8-mavzu. Jadidchilik va milliy istiqlol g'oyasi

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu. Jadid adabiyoti yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillariga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish.

2-mavzu. Ma'rifatparvarlik harakati, uni paydo qilgan omillar va tarixiy vaziyat.

3-mavzu.O‘zbek ma’rifatparvar adabiyoti tarixida Feruz va K. Xorazmiylar ijodining siyosiy hamda badiiy ahamiyati.

4-mavzu. Turkistondagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy vaziyatni to‘g‘ri baholashda adabiy maktablar o‘rni. Muqimiy va Ibrat asarlari asosida.

5-mavzu. Jadid adabiyotida Sharq va G‘arb madaniyati masalalari talqin etilgan ilmiy asarlar ustida ishlash.

6-mavzu. Jadid she’riyatida poetik tafakkur tadriji masalasiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarni o‘rganish.

7-mavzu. Jadid nasri va dramasining poetik xususiyatlariga oid ilmiy adabiyotlar tahlili

8-mavzu. Romanlardagi ijtimoiy hayot aksi. Jadid hikoyalari, ulardagi mavzu. cheklanganligi, shakl va ifoda usuliga ko‘ra yangi badiiy tasvir vositalarini qabul qilishga moyilligi.

IV. MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI…….

1. Jadidchilik va milliy matbuot.
2. “Oyna” va “Al-Isloh” jurnallarida adabiyot materiallari.
3. Matbuotdagi mahs-munozaralar.
4. Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida ijtimoiy hayot.
5. Muqimiy ijodida ijtimoiy turmush manzarasining aks etishi.
6. Furqat ijodini o‘rganish muammolari.
7. Adabiy maktablarning ma’rifatparvarlik adabiyotida tutgan o‘rni.
8. Mustaqillik davri hamzashunosligi.
9. Hamza ijodi: lirikasi, nasri va dramaturgiyasi.
10. Jadid she’riyatining xos xususiyatlari.
11. Cho‘lpon she’rlarining mavzu. doirasi, tanlangan so‘z o‘zgachaligi va vazn tafovuti.
12. Cho‘lponning nasriy asarlari.
13. Jadid maktablari.
14. A.Avloniy va jadid adabiyotida ijtimoiy-estetik ideal muammosi.
15. Jadid nasrining o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni.

V. GLOSSARIY……..

VI. ILOVALAR……

Fan dasturi
Ishchi fan dasturi
Tarqatma materiallar
Testlar
Baholash mezoni

Ma’ruza matnlari

1-Mavzu: Туркистон ўлкаси истилоси ва унинг бадиий адабиётда акс этиши

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotini o‘rganish, uning tarixii, shakllanishi, rivojlanish jarayonlari jadidshunoslikda maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lgan emas. To‘g‘ri, sho‘rolar davrida Hamza, Abdulla Avloniy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy kabi jadid mutafakkirlarining faoliyati o‘zlari mansub bo‘lgan jadidchilik harakatiga qarshi qo‘yib o‘rganildi, ularning adabiy faoliyati davr siyosatiga, sinfiylik, partiyaviylik qoliplariga moslashtirildi (davr shuni taqazo qilar edi). Shu yo‘l bilangina ularning adabiy, pedagogik merosi saqlab qolindi va to‘liq bo‘lmasa-da, xalqqa yetkazildi.

XX asrning 80-yillari o‘rtalaridan boshlangan demokratik oshkoralik va qayta qurish jadidchilik harakati haqida cheklangan holda bo‘lsa ham ba’zi haqiqatlarni aytish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan, 1987 yilda O‘zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida, 1989 yilda O‘zFA va Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda Turkistonda jadidchilik harakatiga bag‘ishlangan sobiq ittifoq miqyosida ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishlarda jadidchilik harakatini kompleks – hamma ijtimoiy-siyosiy va gumanitar fanlar hamkorligida o‘rganish kerakligi ta’kidlandi.

Faqat Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyingina ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda ham tub sifat o‘zgarishlar amalga oshirildi: markazdan kelgan andozalar asosida emas, bor haqiqatni aytish, o‘z tariximizni o‘zimiz yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Jadidchilik harakati, uning tub mohiyati, buyuk rahnamolari va namoyandalari haqida keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.[1]

Turkistonda jadidchilik harakatini o‘rganish bilan xorijda nisbatan oldinroq shug‘ullana boshladilar. Bu sohada amerikalik E. Olvort[2], E.Lazzerini[3] ishlari

---

[1] Бу ҳақда қаранг: Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев. Автореферат дисс. докт. филос. наук. Т.: 1993. Ташкулов Д. Основные направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине X1X – первой четверти XX вв. Автореферат док. дисс. Юрид. наук. Т.: 1995. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ, 2000. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870 - 1917). Т.: Академия, 2000. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш.Т.: Университет, 1999. Алиев А. Маънавият, қадрият ва бадиият (Ватан фидойилари). Т.: Академия, 2000. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: Шарқ, 1998. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: борьба за свободу и независимость (1917-1918). Автореферат дисс. док. ист. наук. Т.: 1996. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Т.: Маънавият, 2002. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик). Т.: Маънавият, 2004. Абдуазизова Н. Миллий журналистика тарихи. 1-жилд. Т.: Шарқ, 2008. Абдуазизова Н. Миллий журналистика тарихи. 2-жилд. Т.: Маънавият, 2008. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т.: Ўзбекистон, 2009. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Т.: Ўзбекистон, 2008.

[2] Allworth Edward. Uzbek literary politics. London – Paris, 1964

ma’lum. Ayniqsa, XX asrning 80-yillaridan keyin turkiyalik Nodir Davlat[4], Ahad Andijon[5], yaponiyalik Xisao Komatsu[6], nemis Ingeborg Baldauf[7], amerikalik Adib Xolid[8] kabi olimlarning asarlari e’tiborga loyiq. Ularning ba’zi asarlari o‘zbek tilida ham nashr etildi.

1999 yilning 16–18 sentabrida Toshkentda “XX asr boshida Markaziy Osiyo: jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik” mavzu.sida ancha e’tiborli xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Uning tashkilotchisi O‘zbekision Respublikasi Prezidanti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining Tarix markazi hamda Germaniya Konrad-Adenauer jamg‘armasi edi. Uning ishida turli mamlakatlardan kelgan 20 dan ortiq mutaxasis olimlarning mavzu.ga oid ma’ruzalari tinglandi. Ular orasida Ingeborg Baldauf, Adib Xolid, fransiyalik Shantal Kelkeji, italiyalik Marko Buttino, niderlandiyalik Turaj Atabaki kabi taniqli olimlar bor edi. O‘zbek olimlaridan professorlar N.Karimov, B.Qosimov, B.Nazarov, H.Ziyoev, dotsentlar Sh.Turdiev, B.Do‘stqoraev, Sh.Rizaev kabilar ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Mustaqillik davrida jadid pedagogikasi va uning ba’zi bir namoyandalari haqida ma’lum ishlar amalga oshirildi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun “Pedagogika tarixi”[9] o‘quv qo‘llanmasi, “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” va boshqa asarlar[10] yaratildi. Ularda jadid mutafakkirlari faoliyati haqida qisqacha ma’lumot va asarlaridan namunalar yoki parchalar taqdim etilgan. Pedagog tadqiqotchilar jadidchilik pedagogikasi bo‘yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar[11].

2-мавзу. Жадид адабиётининг манбалари, юзага келишининг ижтимоий-сиёсий ва адабий-эстетик омиллари

XIX asrning 60-yillaridan boshlab Markaziy Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan o‘zbek xalqi tarixida yangi davr – mustamlaka davri boshlandi: “oq” va keyinroq “qizil” imperiya kishanlari ostida yashashga mahkum etildi. Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir” deb yozganidek, bu davrning ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, birinchi navbatda, uning adabiyotida to‘la o‘z

---

[3] Lazzareni E. Ismail Bey Gasprinskiy and Muslim modernism in Russia, 1878-1914. University of Washington, Ph. D., 1973

[4] Davlat Nodir. 1905-1917 yillari arasinda Rusiya Turklarinin Milli Mucadalsi Tarihi Anqara-1985

[5] Prof. Dr. A. Ahat Andican. Cedidizmden Bagimsizliga Haricte Turkistan Micadelesi. Istanbul – 2003

[6] Хисао Коматсу. Чиғатой гурунги. Туркчадан проф. Ҳ. Болтабоев таржимаси. ЎзАС, 1996 й. 21 сентябрь.

[7] Балдауф Ингеборг. XX аср ўзбек адабиёти чизгилар. Т., “Маънавият”, 2001

[8] Halid Edib Usuli Cedid Akimi Cedidciligin Kukleri (Arastirma). “Yedi iklim”. Aralik 2003

[9] Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. (Педагогика олий ўқув юртлари ва университетлар талабалари учун ўқув қўлланма) Т.: Ўқитувчи, 1996.

[10] Ўзбек педагогикаси антологияси. 2-жилд. Т.: Ўқитувчи, 1999. Йўлдошев Ж., Ҳасанов С. Жадид тарбияшунослиги асослари. Т.: Ўқитувчи, 1994. Зуннунов А. Педагогика тарихи. Т.: Шарқ, 2001.

[11] Иргашева Н. Просветительско-педагогические взгляды Мунаввара Кары Абдурашидханова. АКД кан. пед. наук. Т.: 1997. Ахатова Д.А. Просветительско-педагогические воззрения Абдурауфа Фитрата. АКД пед. наук. Т.: 1998. Аҳророва З. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари. Педагогика фанлари номзоди илмий даражаси учун дис-я. Т.: 2000. Аблаев Э.А. Прогрессивные педагогические идеи крымских татар второй половины Х1Х и начало ХХ вв. (на материале педагогического наследия И.Гаспринского). Дис.на соискание степени док. пед. наук Т.:1991.

ifodasini topdi, badiiy adabiyotda tub sifat o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Turkiston o‘lkasidagi XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragi milliy uyg‘onish, jumladan, uning yuqori bosqichi bo‘lmish jadidchilik harakatining vujudga kelishi va rivojlanishi adabiyotshunosligimizda xolisona o‘rganila boshlanganiga ham yigirma yil bo‘lyapti. Jadid adabiyoti milliy uyg‘onish va jadidchilik mafkurasining badiiy adabiyotdagi ifodasi sifatida maydonga keldi. Shu ma’noda, bu adabiyot mohiyat e’tiboriga ko‘ra yangi adabiyot edi. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotini ikki bosqichga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir: 1) Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining ilk bosqichi: manbalari va yuzaga kelishi – X1X asr ikkinchi yarmi. 2) Milliy va ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi – XX asr birinchi choragi.

Demak, jadid adabiyoti ilk mustalakachilik davri – XIX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining mantiqiy davomi sifatida maydonga keldi, uni istiqlol uchun siyosiy kurashlar bosqichiga ko‘tardi.

1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, hukumat ma’muriyati tomonidan mustamlaka o‘lkani har tomonlama zabt etish, moddiy va ma’naviy boyliklarini to‘la egallash hamda unga abadiy hukmronlik qilish maqsadida ba’zi bir ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar amalga oshirildi: rus va rus-tuzem maktablari tarmog‘i yil sayin kengaytirib borildi, nashriyot-matbaa ishlari yo‘lga qo‘yildi, o‘lka ma’naviyatini, iqtisodiy imkoniyatlarini o‘rganuvchi ilmiy jamiyatlar tashkil etildi. Xuddi shu davrdan boshlab millatni zamon ilm-ma’rifatidan bahramand qilish uchun kurash olib borgan Komil Xorazmiy, Furqat, Sattorxon Abdug‘afforov, Sharifxo‘ja qozi, Muhiddinxo‘ja qozi, Rojiy Marg‘inoniy, Ishoqxon Ibrat, Saidrasul Saidazizov (Aziziy), Jo‘rabek Qalandarqori o‘g‘li, Toshxo‘ja Asiriy kabi yangicha ma’rifatparvarlik darg‘alari yetishib chiqdi. Mana shu mutafakkirlar milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining jadidchilik bosqichiga ko‘tarilishida ma’naviy zamin vazifasini bajardilar. Bunday uzviylikni Qo‘qon xoni Xudoyorxonning kenja o‘g‘li, general Jo‘rabekning kuyovi Fansurullohbek (taxallusi Xisrav – taxminan 1867 yilda tug‘ilib, 1920-yillarning oxirida sho‘ro zindonida halok bo‘lgan – U.D.) faoliyatida yaqqolroq kuzatish mumkin. Dastlab an’anaviy she’riyatdan faoliyatini boshlagan, yangicha ma’rifatparvarlik oqimi namoyandalari bilan yaqin aloqada bo‘lgan Fansurullohbek jadidchilik harakatining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li bilan hamkorlikda “Xurshid” nomli ilk jadid gazetasining tashkilotchisiga va faol muallifiga aylandi. Bu haqda matbuotimiz tarixini chuqur o‘rgangan yozuvchi Ziyo Said quyidagilarni yozadi: “Xurshid” 1906 nchi yil sentabr oyidan boshlab haftada bir martaba chiqib turdi. Toshkant “Jamiyati xayriya”si to‘g‘risida targ‘ibot olib bordi... Noshir va muharriri Munavvarqori ibni Abdurashidxon. Fansurullo Xudoyoro‘f gazetaning eng atoqli va eng yaqin yozishuvchisi”.[12]

[12] Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихи учун материаллар. Самарқанд – Тошкент, 1927, 47-бет.

3-мавзу. Жадидчилик ва жадид адабиётини илмий ўрганиш босқичлари

Дунё адабиётшунослигида жадидчилик даври адабиётининг шаклланиш, ривожланиш ва поэтик хусусиятлари муайян даражада кузатилган, жамият ҳаётидаги ва ижтимоий-сиёсий жараёнлардаги тутган ўрни кўрсатилган. Айни пайтда, жаҳон адабиётининг узвий қисми бўлган ўзбек жадидчилик даври адабиётини ўрганишдаги муаммолар кўп қатламли бўлиб, давр адабиётига хос алоҳида хусусият, анъанавийлик, ворисийлик, янгилик ва ўзгаришларни тадқиқ этиш бугунги адабиётшунослик ва адабий алоқалар йўналишларида тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Ушбу ҳолат, айниқса, Шарқ халқлари адабиётларида деярли бир вақтга тўғри келиши уларнинг ўзига хосликларида муштараклик касб этиши билан ҳам белгиланади.

Жаҳон адабиётшунослигида жадид маърифатпарварлик адабиёти билан боғлиқ масалалар, хусусан, жадид адиблари асарларининг матни ва маъно қатламларини чуқур ўрганиш, жадид адиблари ижодини янгича йўналишда татқиқ этиш, ҳар бир ижодкор шахсияти ва ижодий меросини тарихий нуқтаи назардан баҳолаш аллақачон табиий жараёнга айланганлиги нуқтаи назаридан бу йўналишларда амалга оширилаётган илмий тадқиқотлар муҳим илмий-назарий аҳамият касб этади.

Ўзбек жадид адабиёти ва унга мумтоз адабиётнинг таъсири масаласи жаҳондаги бир қатор илмий марказлар ва олий таълим муассасаларида, жумладан, Indiana University, Columbia University (USA), Humbold Universitât (Germany), Tokio University (Japan), Azərbaycan Dövlət Mədəniyyət və İncəsənət Universiteti, шунингдек, Ўзбекистон Фанлар академияси Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Тошкент давлат шарқшунослик институти ва Андижон давлат университетида илмий-амалий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Хориж адабиётшунослигида жадид адабиётининг ўрганилиши натижасида қатор, жумладан, қуйидаги илмий натижалар олинган: туркий халқлар ўз ўтмишларининг маданий жиҳатдан истиқболсиз эмаслигини кашф қила бориши натижасида ўз тарихини қайта идрок этаётганлиги ҳақидаги фикрлар илгари сурилган (АҚШ халқаро илмий тадқиқотлар маркази – IREX); мумтоз адабиёт ва унинг замонавий адабиётдаги кўринишлари масаласига эътибор қаратилиб, бир қатор жадид адиблари, жумладан, Фитратнинг “Ҳинд сайёҳи баёноти” қиссаси мумтоз насрий асарларга боғлаб изоҳланган (Stanford University, АҚШ); Фитратнинг “Ўзбек адабиёти намуналари”га кирган мумтоз манбалар ва бадиий асарлари ўртасидаги муносабат ўрганилган (Tokyo University, Япония); мумтоз анъаналарнинг асар таркибидаги ўрни масаласи аниқланган (Columbia University, АҚШ); “Ўткан кунлар” романининг баён услуби ҳақида тўхталиб, бу асарни структурал жиҳатдан таҳлил қилиш орқали муаллиф халқ достонлари

услубидан кенг фойдалангани, “Меҳробдан чаён” романи эса, бу услубдан узоқлашиш йўсинида битилгани қайд этилган (Washington University, АҚШ); XX аср ўзбек романлари тарихий аспектда ўрганилар экан, “Ўткан кунлар” поэтикасидаги тарихий асарлар излари тадқиқ этилган (University of Wisconsin-Madison, АҚШ); Чўлпон шеърияти, ижодкор шахсияти ва унинг тарихий меросга муносабати масаласи кузатилган (Bilkent University, Туркия); Туркистондаги миллий тикланиш жараёнида бадиий санъатнинг ўрни, адабиётнинг ўтмиш анъаналарига муносабати масаласи ўрганилган (University of Texas at Austin, АҚШ). Шунингдек, Алишер Навоий ижодининг турк шоири Аҳмад Пошога таъсири давомий бўлиб, уни XX аср шоирларига нисбатан ҳам қўллаш мумкинлиги эътироф этилган (Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти); А.Қодирийнинг ҳар иккала романи уйғунликда қиёсий талқин этилар экан, романларда икки ечимлилик, яъни халқ эртаклари ва реалистик жиҳатлар мавжудлигига алоҳида тўхталинган (Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети).

Жаҳон адабиётшунослигида ўзбек жадид адибларининг ҳаёти ва фаолияти, асарларининг мафкуравий жиҳатларини ўрганиш, жадид адибларининг номаълум асарларини излаб топиш ва илмий муомалага киритиш, мумтоз адабий анъаналарнинг жадид адабиётига таъсирини очиб бериш каби устувор йўналишлардаги илмий тадқиқотлар муҳим назарий аҳамиятга эга бўлиб, улар З.Мирзаевaнинг XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилишига доир тадқиқотларида таҳлил этилган[13].

Адабиётшуносликда XX аср бошларидаёқ ўзбек жадид адабиётига мумтоз адабиётнинг таъсири масаласини ўрганишга киришилган бўлса-да, шўро адабиётшунослигида жадид адиблари ҳаёти ва адабий фаолияти қатағон қилингани сабабли бу илмий ҳаракат муайян муддат тўхтаб қолиб, ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб айрим тадқиқотлар амалга оширилган. Э.Каримов, Б.Қосимов, А.Алиев ва тожик олими Х.Мирзозода илмий тадқиқотлари ушбу жиҳатдан эътиборга сазовордир[14]. XX асрнинг 80-йиллари охири ва мустақиллик даврида О.Шарафиддинов, У.Норматов, Н.Каримов, Б.Қосимов, Б.Назаров, Ҳ.Болтабоев, Ш.Ризаев, И.Ғаниев, Д.Қуронов, Б.Каримов, У.Жўрақулов каби адабиётшунослар жадид адабиётини изчил равишда тадқиқ этдилар[15].

---

[13] Мирзаева З. XX ўзбек адабиётининг хорижий тадқиқотчилари. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016; XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. – Тошкент: Akademnashr, 2017.

[14] Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Ташкент: Фан, 1975; Қосимов Б. Излай-излай топганим. – Тошкент, 1981; Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Тошкент, 1983; Алиев А. Абдурауф Абдураҳим ўғли Фитрат. – Тошкент, 1991; Мирзозода Х. Основные вопросы идейно-эстетического развития таджикской поэзии 20-х годов: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Душанбе, 1968.

[15] Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994; Норматов У. “Ўткан кунлар” ҳайрати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Каримов Н.Ф. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 1993; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Назаров Б. Фитрат маърифатининг гултожи // Шарқ юлдузи. – 1991. № 8. –Б. 8–9; Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1996. 367 б.; Ўша муаллиф. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашр., 2007; Ризаев Ш.Т. Ўзбек жадид

Ушбу олимлар илмий тадқиқотларида жадид адиблари ижоди изчил ўрганилган, уларнинг миллий адабиёт тарихидаги ўрни кўрсатилиб, маҳорати масалалари чуқур очиб берилган. Бундан ташқари, Навоий ижодида Фирдавсий анъанаси, Навоий ва ижодий таъсир масалалари ҳамда мумтоз адабиётнинг Ҳамза, Қодирий ижодига таъсири ҳақида баъзи ишлар амалга оширилган[16]. Н.Афоқованинг "Жадид шеърияти поэтикаси" тадқиқотида эса масаланинг А.Авлоний, Ажзий, Чўлпон ижоди билан боғлиқ қирралари таҳлилга тортилган[17].

4-мавзу. Жадид адабиётини даврлаштириш тамойиллари. Ўзбек маърифатпарварлик адабиёти

XX asrning 10-yillaridan boshlab drama janrining ilk namunalari, "milliy romanlar" ham yaratila boshlandi. Ma'lumki, millatning o'zligini tanitish uchun birgina maorifning o'zi kifoya qilmas edi, uning mavjud ahvolidan, nodonlikda, jaholatda kechayotgan hayot fojialaridan ogoh qilish kerak edi. Mustamlakachilik siyosati tufayli o'lkaga kirib kelayotgan va ayniqsa yoshlarning axloqiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ichkilikbozlik, qimorbozlik, maishiy buzuqlik kabi qabih odatlar jadid mutafakkirlarini qattiq tashvishga sola boshladi. Ilmsiz, nodon yoshlar usti yaltiroq yaramas ishlarga tez beriladilar. Buning natijasida vujudga kelayotgan fojiali voqealarning mudhish oqibatlarini yoshlar, ayniqsa, ularning ota-onalari – keng xalq ko'zi o'ngida namoyish qilish kerak. Buning uchun teatr kerak edi. Mana shunday ulug' maqsad natijasi o'laroq "Padarkush" dramasi dunyoga keldi, ya'ni u Mahmudxo'ja Behbudiy axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Drama "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" nomi bilan 1911 yilda yaratilgan bo'lsa-da, uning nashr etilishi ancha qiyin kechdi. Toshkent va Samarqand senzurasi asar nashriga ruxsat bermadi. Rossiya senzorlari bilan kurashaverib, ancha tajriba orttirgan muallif kitobning titul muqavasiga "1812 yili rus-fransuz muhorabasining Borodino maydonidagi ruslar g'alabasining yuz yilligiga bag'ishlanadi" so'zlarini kiritib, Tiflis senzoridan ruxsat olishga muvaffaq bo'ladi va 1913 yilda Samarqandda alohida kitob holida bosmadan chiqaradi. Asar boshidan oxirigacha ilm-ma'rifatga da'vat ruhi bilan sug'orilgan. 3 parda, 4 manzarali mazkur e'tirof etilgan birinchi

---

драматургиясининг шаклланиш манбалари: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 1995; Ғаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Тошкент: Камалак, 1994; Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, 1998; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2004; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Тошкент: Университет, 2000; Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.

[16] Ҳомидов Ҳ. Навоий ижодида Фирдавсий анъанаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985; Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968; Мўминов Ғ. Традиция ва маҳорат / Ҳ.Ҳ.Ниёзий поэзиясида традиция ва новаторлик масаласи. – Тошкент: Фан, 1968; Аҳмедов Ш. Ҳамза лирикасининг хусусиятлари (девон мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1992; Соатова Н. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романида эпик тасвир анъаналари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

[17] Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Т.: Фан, 2005; Жадид шеърияти поэтикаси. – Тошкент, 2006.

o‘zbek dramasining teatr sahnasiga chiqish jarayoni ham yengil kechmadi, salkam bir yil vaqt ketdi. Shunga qaramay, dramani Turkiston shaharlaridagi havaskor teatr truppalari katta mamnuniyat va qoniqish bilan kutib oldilar, hatto yangi truppalarning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarida, “Oyna” jurnalida, qardosh turkiy xalqlar matbuotida ko‘plab maqolalar bosilgan: “Samarqandning o‘zbek va tatar yosh va taraqqiyparvarlari bir bo‘lib, o‘zbekcha “Padarkush” va tatarcha “Oldaduk va oldanduk” asarlarini Samarqand qiroatxonai islomiyasi naf’iga 1914 yil 15 yanvar oqshominda Samarqandda qo‘ymoqchi bo‘ldilar va ham ushbu g‘ayratli o‘zbek va tatarlar birlashib, Xo‘qand va Buxoro va o‘zga Turkiston shaharlarinda milliy tiyotrlar ko‘rsatmoqchidurlarki, niyat va g‘ayratlari shoyoni shukronadur. Idorag‘a kelgan maktublarg‘a qaraganda, Xo‘qand va Toshkanda ham “Padarkush” fojiasini sahnada qo‘ymoq uchun mashq qilmoqda emishlar. Agarda g‘ayratlik yoshlar milliy tiyotrg‘a rivoj bersalar, yana boshqa asarlar-da tartib va nashr qilinur”.[18]

“Padarkush” dramasi birinchi marta Samarqand teatr havaskorlari tomonidan 1914 yil 15 yanvar (yangi hisob bilan 1914 yil 28 yanvar)da namoyish qilindi. O‘lka ma’naviy hayotida buyuk ahamiyat kasb etgan bu voqea Turkiston o‘lkasining Qo‘qon, Andijon, Namangan, Buxoro, Kattaqo‘rg‘on shaharlarida ham havaskor teatr guruhlarining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi, ushbu drama ta’sirida besh yil davomida 30 ga yaqin turli mualliflarning dramalari yaratildi. Bu haqda Abdulla Qodiriy so‘zlariga e’tibor bering: “1913 yilda chiqqan “Padarkush” pesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborganimni o‘zim ham payqamay qoldim”.

Drama muallifi e’tiborni otalar va bolalar muammosi – o‘g‘il tarbiyasida ota-onaning o‘rni masalasiga qaratadi. E’tibor bering, dramada ota kattagina boy, ammo bu boylik tarbiya ko‘rmagan bolani ham, otani ham fojia girdobiga tortib ketadi. Oila va maktab tarbiyasi birgalikda, uzviy olib borilgandagina o‘z oldiga qo‘ygan ulkan vazifani bajara oladi, degan fikr asarni harakatga keltiruvchi kuchdir. Ota tarbiya ko‘rmagan, dunyo voqealaridan butunlay uzilib qolgan, hatto muomala madaniyatidan ham bexabar, uning domla, ziyoli bilan bo‘lgan muomalasi Toshmurod (o‘g‘li)ning otasi bilan bo‘lgan muomalasiga o‘xshab ketadi, ya’ni otaning tarbiyasizligi, johilligi o‘g‘lida ham o‘z aksini topgan.

Dramaning 1914 yil 27 fevralda Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li hamda Abdulla Avloniylar boshchiligidagi “Turon” truppasi tomonidan shaharning eng katta sahnasi – “Kolizey” teatri sahnasida namoyish etilishi ma’naviyatimiz tarixida buyuk voqea deb baholandi. Tomoshaga xalq **“mo‘ri malah”** (gazeta so‘zi – U.D.) kabi oqib keldi, albatta, teatr sahnasi hamma kelganlarni sig‘dira olmadi. Spektakl namoyishi oldidan Munavvarqori tomoshabinlarga qarata teatr san’ati va uning millat ma’naviyatidagi ahamiyati haqida nutq so‘zladi, pardalari va manzaralari orasidagi antraktlarda jadid maktabi o‘quvchilari drama g‘oyasiga hamohang jaholatni, nodonlikni qoralovchi, ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi Avloniy she’rlarini musiqa sadolari jo‘rligida xor bo‘lib,

[18] “Ойна” журнали, 1913, 10-сон.

timsollarga bo‘lib o‘qidilar. Bu ulkan voqea haqida shoir To‘lagan Xo‘jamyorov - Tavallo maxsus uch she’r bitdi. Ularning birida shunday dil so‘zlari bor edi:

Cho‘x munavvar etdi olamni Munavvar qorimiz,
Ko‘rdimiz ravshanlig‘idin fe’limiz, atvorimiz.
Ibrat oling, yoshlar, deb to‘kdi ko‘zdin yoshlar,
Nutqida tahrir etib, bizlarni yo‘qu borimiz.
Chin ko‘ngildin biz eshitduk, chin ekan aytgan so‘zi,
Shuncha bid’atlarni bilduk, voy biz iqrormiz.
Sahnag‘a qo‘ydi “Padarkush” fojia Behbudidin,
Bahra oldi o‘risu arman, o‘zbaku totorimiz...
Bas, Ubaydullo, Karimbeku Nizomiddinlara,[19]
Jumla qatnashganga to o‘lguncha minnatdormiz.
Barchadin avval kelib joy oldi, o‘lturdi, ko‘ring,
Foydalandi, ibrat oldi necha parhezdorimiz.
Ko‘b umid birlan, Tavallo, boz bir o‘ynasa deb,
Belni bog‘lab, o‘zni chog‘lab bunda xizmatkormiz.

Asarning teatr sahnasida katta muvaffaqiyat qozonishida Zaki Boyazidskiy, Sidqiy Ruhillo, Ilyos Oshqozorskiy, Aliasqar Asqarov kabi qardosh tatar va ozarbayjon teatr arboblarining xizmatlarini ham alohida ta’kidlash kerak. Shularga qaramasdan, “Padarkush” dramasining taqdiri u darajada silliq kechmadi: o‘zbek ziyolilari o‘rtasida teatr san’atini islom axloqiga, e’tiqodiga zid, uni buzuvchi harakat sifatida baholovchilar ham bor edi. Eng keskin kurash atoqli pedagog, islohotchi-mudarris, shoir Saidahmad Vasliy va marg‘ilonlik ulamo Fazlulvahhob bilan Behbudiy o‘rtasida kechdi. Saidahmad Vasliydek zukko ulamoning “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914 yil 83-sonida bosilgan “Shariati islomiya” maqolasidagi da’volariga faqat Behbudiygina asosli javob berishi mumkin edi. Shunday bo‘ldi ham. Behbudiy “Oyna” jurnalida e’lon qilgan “Tiyotr nadur?” maqolasida Vasliy qarashlarini Qur’oni karim oyatlaridan, Hadisi sharif so‘zlaridan namunalar keltirib rad etadi va shunday xulosa chiqaradi: “Tiyotru nadur? Javobig‘a tiyotr ibratnamodir, tiyotr va’zxonadir, tiyotr ta’ziri adabiydir... So‘zni(ng) qisqasi, tiyotr xonalari masxarabozxona bo‘lmay, balki ibratxonadir. Va anda mushaxxis bo‘laturg‘onlar “o‘yunchi va masxaraboz” bo‘lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdirlar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasinda mushaxxislar ham kibor va muhtaram sinflar qatorindadir. Xususan, o‘z kissasi naf’ig‘a mushaxxislik qilmay, balki maktab va o‘z millati naf’ig‘a mushaxxislik qilganlarni(ng) qadri du bolo ziyodadir”[20].

Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining yana bir muhim jihati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. “Padarkush” kitobi muqavasida asarni sahnaga qo‘yish uchun muallif (Behbudiy)dan yozma ravishda ruxsat olish talab etilgan. Bundan asosiy maqsad teatr tomoshasidan tushadigan mablag‘ni faqat xayrli ishlarga sarflash kerakligi ta’kidlangan. Ammo shunday ta’kidlarga qaramay, ba’zan shaxsiy manfaat, boyish yo‘lida urinishlar ham bo‘lib turgan. Bu

[19] Убайдулла Хўжаев, Каримбек Норбеков, Низомиддин Хўжаевлар - жадидчилик ҳаракатининг йирик намояндалари.
[20] “Ойна” журнали, 1915, 7-сон.

haqda Behbudiy quyidagilarni ma’lum qiladi: “Ba’zi tarafdan yozilgan xatlarga qaraganda, ba’zan tiyotrni maktab va jamiyat foydasig‘a qo‘yulub, ammo oqchasi barvaqfi e’loni sarf qilinmabdir va tiyotr oqshomi xilofi adab ba’zi harakatlar bo‘lubdir. Oning uchun majburan e’lon qilamizki, ba’d ushbu fojiani qo‘ymoqchi bo‘lgan muhtaram zodlar avvalan muharrirdan qog‘oz ila javob va nimani(ng) foydasig‘a qo‘ymoqlarini bildurib, so‘ngra ishga harakat etsunlar”[21]. Shuning uchun ham drama tomoshasidan tushgan mablag‘ yuzasidan to‘la hisobot, asosan, “Oyna” jurnali va “Sadoyi Turkiston” gazetasida e’lon qilingan.

Xuddi shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning estetik qarashlari, teatr tomoshasidan kuzatgan maqsadlari namoyon bo‘ladi. Jadid dramasi bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan olim Shuhrat Rizaev mutafakkirning bunday olijanob faoliyati haqida quyidagilarni yozadi: “Teatrdan birlamchi maqsad yangi, g‘oyat ta’sirchan san’at turi bilan millatning ma’rifiy-madaniy saviyasini ko‘tarish, ilm va o‘qimoqqa da’vat etish bo‘lsa, ikkinchidan, ta’kidlaganimizdek, teatr – tomoshalar vositasida muayyan mablag‘ topib, “usuli savtiya” maktablari, boshqa xil o‘quv yurtlari, xayriya jamiyatlari, matbuot va boshqa madaniy ishlarga moddiy yordam ko‘rsatish edi”.[22]

Shu tariqa, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi o‘zbek milliy sahna san’tining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim zamin yaratdi. O‘lkaning turli shaharlarida teatr havaskorlarining dramtruppalari faoliyat ko‘rsata boshladi. 1914-1915-yillarda Abdulla Avloniy boshchiligida “Turon” dramtruppasi mazkur spektaklni butun Farg‘ona vodiysi shaharlarida namoyish etdi, unda mahalliy teatr havaskorlari ham faol ishtirok etdilar. “Padarkush” dramasi o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan, dunyo taraqqiyotidan butunlay uzib tashlangan millat ahlini dahshatga soldi: bunday yashash mumkin emas, dunyo xalqlari bilan hamqadam bo‘lmoq kerak. Buning uchun millatdoshlar turmush tarzini isloh qilmog‘i kerak, turli-tuman to‘yu ma’rakalarga sarf qilinadigan mablag‘larni ilm-ma’rifatga, farzand tarbiyasiga xarjlamoq, bir necha yillar musofirlikda bo‘lsa ham, farzandlarni taraqqiy etgan mamlakatlar oliy o‘quv yurtlariga yubormoq, sinfiy ayirmalarni yig‘ishtirib qo‘yib, ilmga chanqoq yoshlarni xayriya jamiyatlari ko‘magida bo‘lsa-da, o‘qitmoq kerak.

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodini o‘rgangan chet el tadqiqodchilaridan nemis olimasi professor Ingeborg Baldaufning quyidagi fikrlari mutafakkir faoliyatiga berilgan juda to‘g‘ri bahodir: “Mahmudxo‘ja faoliyatining g‘oyat o‘ziga xosligidan qat’i nazar, u Qrimdagi Gasprali, Qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari O‘rta Osiyoning xalq muallimi edi”[23].

O‘tgan asrning 10-yillaridan e’tiboran nasrning yangi shakllari vujudga kela boshladi: munozara, qissa, hikoya janrlarining ilk namunalari yaratildi. Shu nuqtai nazardan, Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Rahbari najot” qissalari, Cho‘lponning “Do‘xtir Muhammadyor” hikoyasi, Anbar Otinning

---

[21] “Ойна” журнали, 1914, 47-сон.
[22] Ризаев Ш. Жадид драмаси. Тошкент, 1997, 59-бет.
[23] Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. Т.: Маънавият, 2001, 26-бет.

“Qarolar fasafasi” risolasi o‘zbek adabiyotida yangi nasriy janrlarning shakllanishi va taraqqiyotida muhim voqea bo‘ldi.

Abdurauf Fitrat “Munozara” asarini 23 yoshida – Istanbul dorilfununida talabalik yillari yozib tugatdi. Asarning to‘liq nomi “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi” bo‘lib, 1909 yilda yozib tugatildi va 1911 yilda Istanbulda nashr etildi. Muallif asarni fors-tojik tilida yaratgan, 1912 yilda “Turkiston viloyatining gazeti”da Hoji Muin tarjimasida bosildi, keyin esa Mahmudxo‘ja Behbudiyning so‘ngso‘zi bilan alohida kitob holida nashr etildi.

“Munozara” butun Markaziy Osiyo ziyolilari o‘rtasida katta e’tibor qozondi. Toshkentda Pushkin jamiyatining raisi polkovnik Yagello uni rus tiliga 1911 yildayoq tarjima qilib, 1912 yilda alohida kitob holida nashrdan chiqardi. Asarning nomlanishidan ko‘rinib turganidek, farangi Buxoroning mudarrisi – ziyolilarining yetakchisi bilan munozara qiladi. Munozara “usuli jadid” va “usuli qadim” ustida ketsa-da, asar Buxoro amirligining iqtisodiy, ma’naviy, ta’limiy, siyosiy manzarasini butun borlig‘i bilan namoyon qiladi. Bu munozarada ilgari surilgan g‘oya ko‘proq farangi savollariga mudarrisning javoblarida keng ko‘lamda ochiladi. Dunyoviy va diniy bilimlar sohibi, dunyo ko‘rgan, hatto musulmon dini ahkomlaridan ham katta bilimga ega farangi buxorolik mudarrisning ilmsizligidan, johilligidan, musulmon farzandlarining qismati shunday mutaassib ulamolar qo‘liga topshirib qo‘yilganidan afsus chekadi. Ko‘p hollarda mudarrisning javoblaridagi mantiqsizlik uning fikriy doirasining nihoyatda torligini, dunyoviy bilimlardan mutlaqo xabarsizligini namoyish qiladi.

XX asr – ilm-fan, kashfiyotlar asri. Jahonga 400 dan ziyod buyuk olimlarni hadya etgan Buxoro bugun zulmat qa’rida. Nega shunday? 200 dan ortiq madrasasi, 400 dan ortiq maktabu kutubxonasi, o‘nlab qiroatxonayu qorixonalari va bu o‘quv muassasalarini bemalol iqtisodiy ta’minlashga qurbi yetadigan million tangaga yaqin vaqf mulki bo‘la turib, buyuk badbaxtlik iskanjasida azob chekmoqda. Buxoroning bechora mardumlari dunyoning izzati va oxiratning sharafi bo‘lmish ilm-ma’rifatdan mahrumdirlar.

Mudarris, umuman, taraqqiyotdan, dunyo sivilizatsiyasidan bexabar, hatto handasa, jug‘rofiya, tib, aljabr kabi ilmlarni chuqur tasavvur eta olmaydi. Mudarris aqidasicha, “hamma odamlar tahsili ilmga rag‘bat qilsalar, boshqa ishlar egasiz qoladi”. Demak, hamma ilm bilan mashg‘ul bo‘lsa, boshqa kasbu korlar qolib ketadi, dunyo xarob bo‘ladi. Mudarris javoblaridan shu narsa ayon bo‘ladiki, Buxoro ulamolari hatto Qur’oni karim va Hadisi sharif da’vatlaridan nihoyatda uzoqlashib ketganlar. Ular Muhammad (s.a.v.)ning “Ilm dunyoning izzati va oxiratning sharafidir”, “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”, “Ilmni Chindan bo‘lsa ham izlang” kabi muborak so‘zlari bilan ummatlarini ilm-ma’rifatga da’vat etganligini idrok qilishdan mahrumdirlar. Ularning ko‘pi hatto biror oyat yoki hadisni to‘g‘ri o‘qib, to‘g‘ri sharhlab bera olmayd, 25-30 yil madrasada arab tili o‘qib, bu tilda erkin gaplasha olmaydi. Buxoro ruhoniylarining nodonligi, islom ahkomlarini buzib talqin qilishlari “har kuni bir Abu Ali, Forobiy, Ulug‘bek, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy kabilarni jahonga hadya etib, shu tariqa o‘z sharafli dovrug‘ini jahon xalqlari qulog‘iga zirak qilib taqqan” Buxoroi sharifni

zulmat qa'riga mahkum etdi. Shuning uchun ham ular qozilik, a'lamlik va hatto mudarrislik mansablarini egallash uchun har qanday qabihlikdan, noshar'iy yo'llardan qaytmaydilar.

Farangi (Farangi qiyofasida ko'proq Fitratning o'zi ko'zga tashlanadi – U.D.) Buxoro amirligi o'tmishda ikki million aholiga ega bo'lgani, amir Muzaffarning mag'lubiyati, johil ulamolarning, "nodonlik sahrosi uyquchilarining dastyorligida" aholisi uch barobar, hududi o'n barobar kamayib ketganligini, amirlik Rusiya vassaliga tushganini, bu g'aflat, bu jaholat yana bir oz muddat davom etsa, "jahongir bobokaloningiz sha'ni-izzatiga xiyonat qilsangiz, nom-nishonsiz, sharafsiz, izzatsiz rohat uyida azal-abad uxlayajaksiz", degan achchiq haqiqatni aytadi. Farangining bu haqiqat so'zlari hatto Buxoroi sharifning "zabardast" ulamolari haqida iftixor bilan so'zlayotgan mudarrisni ham dahshatga soladi: "Birodar, meni vahimaga qo'ydingiz. So'zlaringizning haybatidan jonim tan qolibidan chiqib, parvoz etishiga oz qoldi. Azbaroyi xudo, ayting, bizning ilojimiz nima? Bu dardi bedavoning chorasi qaysi? Qaerga boraylik? Nima qilaylik? Qaysi tuproqni boshimizga sochaylik? Qachon bu falokat holatidan va istiqbol mushkulliklaridan dimog'imizg'a xalos bo'lishlik bo'yi yetib keladi?"

Mudarrisning savollariga javoban Farangi bu qadar g'aflat va tanballikdan, jaholat va mute'likdan qutulishning birdan-bir yo'li sifatida jadid maktablari ochish zarurligini aytadi. "Usuli jadid" maktabi xabarini eshitishi bilanoq mudarris yana jazavaga tushadi. U Buxoroda "usuli jadid" maktabi bir qatla ochilganiyu bir yil faoliyat ko'rsatgani, Rusiya fuqarosi tatar mudarrisining ko'rsatmasiga muvofiq "ulamoi buzrukvorlar" bu maktabni tezda yoptirganliklari to'g'risida gapiradi. Bu o'rinda mudarris 1908 yil oktabr oyida Buxoro shahri ichida – Darbozai Sallohxona guzarida Mirza Abdulvohid Munzim (1875-1934) Sadriddin Ayniy bilan birgalikda o'z uyida ochgan birinchi "usuli jadid" maktabi haqida gapiryapti. Darhaqiqat, bu maktab katta shuhrat qozondi, tantana bilan imtihonlari ham o'tkazildi. Ammo Rusiya elchixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. Bu ishda Rusiya hukumati oxrankasining maxfiy a'zosi, qozonlik tatar mudarris Mulla Qamar hamda elchixona xodimi, poraxo'rlikda nom chiqargan Shulga ismli kimsa katta faoliyat ko'satdilar. Mudarris "usuli jadid" maktabiga qarshi chiqqan "Rusiya fuqarosi tatar mudarrisi" deganda, Mulla Qamarni ko'zda tutgan.

Farangi "usuli jadid" maktablarining nimasi harom, noshar'iy ekan? O'quvchilaridan birortasi nafratangiz harakat qildimi? Kitoblarida birorta kufr kalima yozilgan ekanmi? Bolalarining og'zidan birorta noshar'iy so'z chiqdimi? Usuli jadid bolalari tahorat va nomozda sustlik qildilarmi? Usul muallimining bilimi yetuk emasmi? kabi savollarga mudarris faqat ijobiy javob beradi, hatto "usuli jadid" maktabi bolalari bilimlarda ham yuqori darajada ekanliklari, muallimi Buxoroning ilmda tanho olimi hamda islom jonkuyarlaridan ekanligini aytadi. Mudarris "usuli jadid" maktabi va muallimi haqida shunday ijobiy fikrlarni aytsa-da, uning o'zi bu maktabni yopishda ishtirok etgan. Bunday mutaassiblikdan hayratga tushgan Farangi bu maktabni yopish nasroniylar ishi ekanligini, maktabni yopishda katta faoliyat ko'rsatgan tatar-no'g'oy mudarrisi ularinig odami ekanligini ta'kidlaydi: "Mulohaza qilib ko'ring, nasroniylar butun himmatlarini islom dinini rad qilishga qaratgan shu vaqtda shariati Muhammadiyaga qarshi

kuniga bir necha jild kitob ijod va nashr qilinmoqda. Istanbul, Hind, Misr ulamosi soatma-soat ularning kitoblariga raddiya yozishga kirishganlar. Bu yil 1328 (milodiy 1910 yil)da Afg‘onda va Payg‘ambaringizning shaharlari Madinai munavvarada bunday maktab ochganlar. Xususan, Madinada bu maktabi sharifaning ochilishi katta bayram bo‘ldi. Siz qaerdan olib gapiryapsiz? Hech kim “bu maktab haromdir, bolalaringizni kofir qilib qo‘yadi” demadi... Fitnaangiz va xiyonatkorligi hammaga ma’lum bo‘lib turgan ajnabiy bir kimsa o‘z maishatining ta’mini uchun yolg‘on gap tarqatsa-yu siz e’tibor bersangiz... Bu yolg‘on gapni no‘g‘oy odam islom dushmanlari tarafidan turib yoyganini fahmlamadingizmi?”

Fitrat xalq o‘rtasida ilm-ma’rifatni keng tarqatish, ulamolarning musulmon dini ahkomlarini chuqurroq tushunib yetishlari uchun “Qur’oni karim” oyatlaridan va “Hadisi sharif” so‘zlaridan namunalar keltiradi, ularni sharhlaydi. Ayniqsa, “Qur’oni karim”ni o‘qib, savobini ota-onalari arvohiga bag‘ishlashdan nariga o‘tmaydigan ba’zi bir din peshvolarini qattiq qoralaydi. “Qur’on” o‘liklar uchungina emas, ayniqsa, tiriklar uchun, hayotda jamiyat taraqqiyoti uchun dasturul amal ekanligini Farangi tilidan bayon etadi: “Agar ilmga rag‘bat dunyo xarobalig‘iga va ba’zi ishlarning egasiz qolishiga sabab bo‘lsa, Payg‘ambaringiz hikmatlari bilan o‘zining barcha ummatlarini ilm tahsiliga da’vat etmagan bo‘lur edi. Binobarin, Buxoro ishlari shu qadar jaholatga botganki, aholi ilmli bo‘lg‘onidan keyingina tartibga tushadi... Taassufki, siz musulmonlar toifasi Qur’on va Hadisning ma’nolaridan juda yiroqlashib ketgansiz. Shu alfoz bilan Qur’onni o‘qib, savobini faqat ota-onalaringiz ruhiga bag‘ishlab o‘rganib qolgansiz. Boshqacha fikr qilmaysizki, bu muborak majmua (Qur’oni karim)ni Hazrat Hakimi Azal (Alloh) o‘zining buyuk farishtasi orqali olamning oqillariga bekorga jo‘natmagan edi. U (Alloh)ning amrlarini amalda qo‘llaylik, uning taqiqlaridan saqlanaylik**. Biz, farangilar, diningizning dushmani esak-da, diniy xusumatimiz taqozo qig‘anidek, Qur’on va Hadislaringizni kuydirish o‘rniga ulardan o‘z manfaatimiz nuqtai nazaridan foydalanmoqqa, chanqog‘imizni qondirmoqqa o‘rgandik. Uning amrlarini amalga oshirdik va favqulodda taraqqiyotga erishdik**. Va sizlar g‘aflatda qolib, Qur’onning saodatli hukmlaridan hamda hikmatli xabarlaridan bahra ololmay, tanazzul tubiga tushdingiz**”** (Ta’kid bizniki – U.D.). Demak, Fitrat shunday xulosaga keladi: Musulmon Sharqi ma’naviyati Yevropa taraqqiyotining asosini tashkil qiladi.

Abdurauf Fitrat asarning “Xotima”sida Buxoro amiri Said Olimxonga ochiq murojaat qiladi. Muallif amirni musulmonlarni qaro asirlikdan, zulmatdan, haqoratlardan, muqaddas Vatanimizni jaholat botqog‘idan, dini sharifimizni tahqirlardan qutqarishga da’vat etadi: “Ey, Buxoro millatining mehribon otasi! Raiyat holig‘a tushunib rahm qilg‘in, muborak vujudingga Haq taolo tarafidan topshirilgan Muhammadning nurli shariatiga xizmat qilib, yiqilgan millatning nurli fikrlariga va maorif taraqqiyotining tavsiyasiga iqdom qil”.

Fitrat vatandoshlariga, dindoshlariga murojaat qiladi, ularni g‘aflat og‘ushidan qutulishga, “otash aroba”, “o‘t kema”, “teleg‘rof”, “tipog‘raf” kabi ming turli hunarlar zohir etayotgan ovrupoliklar bilan qadam-baqadam bo‘lishga, musulmonlarning sunniy, shia, zaydiy, vahhobiylar ixtiloflariga barham berishga,

buning uchun birdan-bir najot yo‘li – ilm-ma’rifatga keng yo‘l ochishga, jadid maktablari tarmoqlarini kengaytirishga da’vat etadi.

Butun jadid adabiyotida bo‘lganidek, Fitrat ijodiy faoliyati davomida ayol zoti mavqeini yuqori ko‘tardi, uning ilm nuridan bahramand qilish uchun kurashdi. Chunki ayollarga e’tibor necha-necha asrlar mobaynida jamiyat diqqat markazida bo‘lib kelgan. Besh asr muqaddam buyuk Alisher Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonida yetti olimga dono maslahatchi hisoblangan Iskandarning onasi Bonu timsolini yaratdi:

Ki: “Bonuki davrondin ogoh erur,
Bilik ichra davr ahlig‘a shoh erur”.

Afsuski, XX asr boshlariga kelib, ayol zoti ilm-ma’rifatdan, ma’naviyatdan bebahra bo‘lib qoldi, uning zimmasiga faqat “tavallud va tanosul”, ya’ni tug‘ish va nasl qoldirish yuklatildi. Mudarrisning fikricha, 37 yoshgacha davom etadigan o‘qish tufayli “silsilai tanosul” (nasl qoldirish silsilasi) buziladi. Mudarris fikrlarining asossizligini Fitrat Hadisi sharifning “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” da’vatini keltiradi va mushkul hamda nuqsonli tahsil usulini butunlay o‘zgartirish kerakligini ta’kidlaydi. “Usuli jadid” tahsilida bekorga sarf bo‘ladigan vaqt keskin qisqartiriladi, qiz bolani olti yoshida maktabga berib, o‘n sakkiz yoshida tahsil oxiriga yetkaziladi. Bunday tahsil islom uchun zararli emas, aksincha, behad foydalidir. “Usuli jadid”ga muvofiq oson usul bilan qisqa muddatda ayollar ham, erkaklar ham ilm-ma’rifatli bo‘ladilar.

Umuman, “Munozara” asari nafaqat Buxoro amirligida, balki butun Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining yanada jonlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Sadriddin Ayniy ta’biri bilan aytganda, Fitrat ushbu asarida shariat yo‘lida “usuli jadid”dan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berdi, natijada, o‘lkada jadid maktablari qaytadan ochila boshladi.

She’riy asarlar bilan barobar nasriy asarlarga ham ehtiyoj, qiziqish kuchayib bordi. Xronologik jihatdan birinchilardan bo‘lib, Mirmuhsin Shermuhamedov “milliy ro‘mon” yaratishga bel bog‘ladi va ba’zi parchalarni 1914 yili “Turkiston viloyatining gazeti” (75-79-sonlari)da e’lon qildi. Asar to‘liq bo‘lmasa-da, ba’zi bir fikrlarni aytish imkonini beradi. Muallif asarni “Befarzand Ochildiboy” deb nomlagan, parchadan ma’lum bo‘ladiki, asarda ikki obraz: Ochildiboy – kattagina boy, farzandsizlik azobida yashaydi. Qulahmad – kambag‘al, ikki o‘g‘lining xatna to‘yini o‘tkazishga ham qo‘li kaltalik qiladi. Bu hol uni Ochildiboydan qarzdor qilib qo‘yadi. Asarda nodonlik, jaholat qattiq qoralanadi, ilm-ma’rifat ulug‘lanadi. Muallifni romanni yozishga undagan shart-sharoit, maqsad haqida o‘zi tomonidan yozilgan “E’tizor” (“Uzrnoma”)da quyidagilarni bayon qiladi: “... Oramizda bo‘ladurgan qoidaga xilof va bid’at ishlarimizni maqola ila yozib biturub bo‘lmaslig‘iga ko‘zim yetib, shul odatlarimiz uchun ro‘mon yozib, el ko‘zig‘a vositasi-la ko‘rsatishga majbur bo‘ldim. Shoyad, muhtaram o‘qig‘uvchilarg‘a malol kelmasa, agar malol keladurgan darajada bo‘lsa, gazet orqali pro‘test chiqarsunlar. Chunki ikkinchi yozilmasdan to‘xtatilur. So‘zimni zo‘rlab o‘qutmakchi emasman, ibrat uchun yozilgan edi. Inshoolloh, bekorga qolmasa kerak, deb bir tarafdin umidim ham bordur. Bul so‘zlarni demakdin murod, manim bul ro‘mon uchun qalam tutganimdin bir zot (sabab) bo‘lib, huzuriga chaqirib

aytadurki, “gazetalarda aylagan mazammating sob bo‘lib, emdi bebismilloh shayton kitobni bitmakka tushdingmi? Na dunyo, na oxiratg‘a foydasi yo‘q narsag‘a urunib, doimo rangingni ko‘knori kabi sarg‘oyturib yurasan. San g‘iybatchini jabringdan qachon qutulamiz, axir?” Mana so‘z... Ko‘zi ochilib, zamonadan ibrat olmagan har kimsa nima desa desun, ammo man o‘z maslagimda davom etaman”.[24]

Yuqoridagi so‘zlardan ko‘rinib turganidek, jadid mutafakkirlari tomonidan millatning o‘zligini tanitish borasidagi bu xayrli ishi ham ta’na va dashnomlar, ta’qib va tazyiqlar, kurashlar jarayonida o‘ziga yo‘l ochib bordi.

Milliy roman yaratish borasidagi izlanishlar Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Gazeta va jurnallarda maqolalar yozib, qalami charxlangan, rus, tatar hamda turk adabiyotidan ancha xabardor Hamza 1914 yilda “Yangi saodat” asarini yaratdi va 1915 yili “Madoro” kutubxonasi noshirligida bosmadan chiqardi. Muallif o‘z asari janrini “milliy ro‘mon” deb belgilagan. Romanga ushbu bayt epigraf qilib olingan:

O‘qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,
Tilingni jahldan qutqar, g‘ami millat bila o‘tgil.

Asarda Abdulqahhor ismli ancha katta savdogar boy “dunyo ham oxiratning saodati” bo‘lmish ilm-ma’rifatni egallash o‘rniga ichkilik, qimor kabi qabih ishlarga berilib ketadi va butun mol-dunyosini barbod qiladi. Oqila xotini Maryam har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o‘z umrini o‘g‘li olti yoshli Olimjonni va uch yoshli qizi Hadichani tarbiyalashga bag‘ishlaydi: Olimjonni “usuli jadid” maktabida o‘qitadi. O‘z odobi, ilmga chanqoqligi bilan Olimjon jadid muallimining mehrini qozonadi. Muallim unga otalarcha mehr-muruvvat ko‘rsatadi. U voyaga yetgach, singlisi Hadichani ham o‘qitadi va yaqin maktabdosh do‘sti o‘qimishli Ahmadjonga uzatadi, darbadarlikka duchor bo‘lgan otasi Abdulqahhorni yana o‘z oilasiga qaytaradi. Ilm-ma’rifatli Olimjon oilasini yangi saodatga musharraf etadi.

Muallifning romandan ko‘zlagan asosiy maqsadi millatni “jaholat va g‘aflat zindoni”dan “dunyoning haqiqiy xurshidi va mohitobi” - ma’rifat gulzoriga yetaklashdir. Bunga erishishning birinchi omili insonlarda ilm-ma’rifatga nisbatan rag‘bat, muhabbat uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchisi o‘quv muassasalarini davr talablari asosida tubdan o‘zgartirish zaruratidir. Chunki mavjud eski maktablar yoshlarni o‘qishdan bezdiradi. Mana, asar muallifi orzu qilgan ilm maskani - maktab: “Oh, bu qandoq joy? Taning rohat oladi. Bu dunyoning bog‘chasi va jannati desang ham rostdur. Mana, qandoq oq uylar, qandoq pokiza kursilar, bular yozmoq uchun kerakli doskalar, hisobga cho‘tlar, tomosha qilmoqqa xaritalar. Bular hammasi ilm o‘rganmoq uchungina hozirlangan. Mana, ilm qandoq aziz ne’mat. Dunyoda ilmdan ham ortiq lazzatli, shirin ne’mat bormi? Yo‘q , albatta. Mana, ilm o‘qiydurgon kishilar shoh, gado, boy, faqir bo‘lsun, mundoq ulug‘ joy hammasiga ham barobardur”.

Hamza “Yangi saodat” asarida yana bir muhim masalaga - xalq ongiga singib ketgan “Xudo bersa bo‘ladi-da”, degan e’tiqod (buni Hamza fasod e’tiqodlar

[24] “Туркистон вилоятининг газети”, 1914, 25 сентябр.

jumlasiga kiritadi)ga qaratadi. Mutaassiblar tomonidan singdirilgan bu e'tiqodga asosan odamlar "bersang yeyman, ursang o'laman" qabilida ish tutib, o'zlarida hech bir harakat bo'lmaydi. Muallif bunday asossiz e'tiqodni keskin fosh etadi: "Xudo bersa bo'ladi-da, degan johil ota-bobolarimizning asossiz so'z va fasod e'tiqodlaridir. Xudo zolim emas, birovga berib, birovga bermay qo'ymas. Xudoyi taborak va taolo saodat - ilmda, razolat – jaholatda, har bir ish bandaning o'z harakatiga muvofiq, deb o'z kalomida takror xabar bergan".

Asarda Abdulqahhorning ilmsizligi, johilligi tufayli katta mashaqqatlarga yuz tutgan oila ahvolini, miskin, g'arib Olimjon ruhiyatini tasvirlashda Hamza sentimental bo'yoqlardan, shu bilan birga, asarning ko'p o'rinlarida lirik chekinishlardan ancha keng foydalangan. Bu bilan asarning o'ta ta'sirchanligiga erishgan. Shuning uchun "Al-isloh" jurnalida e'lon qilingan "Yangi saodat" romani haqidagi taqriz-maqolada asarning ta'sirchanligiga alohida e'tiborni qaratgan: "Yangi saodat" ismli 46 sahifali turkiy va Turkiston shevasida bir milliy ro'monning yangidan tab' bo'lub, nashr qilinuvi bizni ko'p masrur etdi. Xalqni o'quv va yozuv tarafig'a targ'ib qilmoq uchun hozirgacha Turkiston shevasinda buningdek ta'sirli ro'mon nashr o'linmamish, desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Bu ro'monning muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy janoblari va noshiri "Madoro" kutubxonasidir".[25]

Hamzaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasiga kirgan "Birinchi bo'lim" to'plamida "Dilog'on" ohangi bilan aytiluvchi "Ko'zni oching, qardoshlar!" she'rida shunday misralar bor:

Tashlab Nihon ko'ngilda bo'lgan illatni,
Kinu buzg'u adovat, fisqu g'iybatni.
Sunniy, shiiy so'zlarni barbodlashaylik,
Millat yo'lin ko'plashib obodlashaylik.
Ulfatlashib yozlashib ham qishlashaylik,
Teatr yasab, konsertlar olqishlashaylik.

1915 yilda nashrga tayyorlangan ushbu to'plamdan joy olgan yuqoridagi misralar Hamzaning dramaturgiyaga – sahna san'atiga alohida ahamiyat berganligini ko'rsatadi. U 1915 yildan faoliyat ko'rsata boshlagan va uning tashkilotchilaridan biri bo'lgan Qo'qon teatr truppasi uchun sahna asarlari – dramalar yozishga alohida e'tibor qaratdi. 1915 yilda yozilgan "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi uning bu sohadagi birinchi qadami edi. Ushbu dramadan keyin u "O'ch", "Muxtoriyat yoki avtonomiya" (1917), "Kim to'g'ri?", "Boy ila xizmatchi" (1918) kabi dramalarini yaratdi. Uning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi bevosita jadid ma'rifatparvarligi ruhida yozigan bo'lib, "Yangi saodat" "milliy ro'mon"idagi g'oya yetakchilik qiladi. "Yangi saodat"da ilmsizlik, jaholat tufayli parokanda bo'lgan Abdulqahhor oilasini uning o'g'li yosh Olimjon ilm-ma'rifat orqali saodatli qiladi. Dramada esa jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma'rifat, taraqqiyot fidoyilari Mahmudxon va Maryamxonlarni fojiaga olib keladi. Ushbu 4 pardali fojia 1915 yilda yozilib, 1916 yilda Toshkentda "Matbaai G'ulomiya"da jadid ma'rifatchisi, Hamzaning yaqin do'sti

[25] "Ал-ислоҳ" журнали, 1915, 15 июл.

savdogar boy Saidnosir Abdulhay o‘g‘li Mirjalilov (1884 - 1938) noshirligida bosmadan chiqqan. Muallif asarning janrini “Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi” deb belgilaydi. Asarning bosh qahramonlari Maryamxon va Mahmudxonlar – zamonasining ilg‘or ziyolilari. Ular millat farzandlarini ilm-ma’rifatli qilishdek ulug‘ orzular og‘ushida romantik xayollar bilan yashaydilar, ularning sevgisi ham nihoyatda pokiza va samimiydir. Dramaturg asarda, ayniqsa, Maryamxon obraziga alohida e’tiborni qaratadi: uning butun qarashlari Mahmud obrazidan ko‘ra Maryam qiyofasida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, Maryamxonning bu darajaga yetishida Mahmudxonning xizmatlari katta, ilm-ma’rifat yo‘liga olib chiqqan ham Mahmudxondir. Mana, Maryamxonning hayotdagi maqsadi, hayotining bosh maslagi: “...Afandim, emdi tezdan ijtihod etingizkim, ikkovimiz qo‘limizni tutushib, zulmatda qolmish bu millatni, siz quyoshi bo‘ling-da, men mohitoboni bo‘lib, qorong‘u vatanni yorutaylik, siz-da erlarimizning holindan, ban mazluma oilalarimizning holindan g‘azetalarga yozishib, bir-birlarimizni ogohlashtiraylik. Chin maqsadimiz bo‘lgan qizlar maktabi ochaylik.”

Hamza pedagogik asarlarida o‘zining ma’rifatparvarlik, maorifparvarlik qarashlarini ko‘proq didaktik usullarda ifodalagan bo‘lsa, drama va “milliy ro‘mon”larida badiiy timsollar vositasida o‘quvchilarga taqdim etdi.

Jadid mutafakkirlari 1917 yil Fevral o‘zgarishlarini katta mamnuniyat bilan qarshi oldilar: qisqa vaqt ichida shoir Sidqiy Xondayliqiy “Rusiya inqilobi”, Xurshid “Hurriyat mevasi” dostonlarini yaratdilar va nashr ettirdilar. Sidqiyning “Rusiya inqilobi” asari o‘zbek adabiyotida Fevral inqilobini keng epik planda aks ettiruvchi ilk doston sifatida vujudga keldi. Milliy uyg‘onish davri ijodkorlari Oktabr o‘zgarishiga salbiy munosabatda bo‘ldilar. Fitrat uni “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi – bolshavik balosi!”[26] deya baralla yozgan bo‘lsa, “Turkiston muxtoriyati”ni buyuk orzu-umid bilan qarshi oldi, uni “milliy laylatulqadrimiz” deya olqishladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Yashasin, Turkiston muxtoriyati!” deb xalqqa murojaat qildi. Ammo o‘z faoliyatining dastlabki yilidanoq munofiqona siyosat olib borgan sovet hukumati 3 oyga bormasdan 20 fevralda Turkiston muxtoriyatini qonga botirdi. Sho‘ro hukumatining bunday qabih, fojiali siyosatini Abdulla Avloniy 1919 yildayoq “Afg‘on sayohati” publitsistik asarida keskin fosh etishga jur’at etdi:

Dunyo kezdim, ko‘bni ko‘rdim, hech haqiqat ko‘rmadim,
Hurriyat nomin eshitdim, lek adolat ko‘rmadim.
Maslaku maqsadg‘a ishlarmiz, deya lof urdilar,
Ishlamak-da so‘zlariga hech sadoqat ko‘rmadim.
Qayda ul insoniyat, qay musovot, ohkim,
Tillariga dillarin aslo layoqat ko‘rmadim.
Majlisu minbarda og‘izdan chiqar ozodliq,
Joyi xilvatgohda bir to‘g‘ri niyat ko‘rmadim...

Sho‘ro hukumatining dastlabki yillaridan e’tiboran jadid mutafakkirlari adabiy-badiiy, ilmiy-ma’rifiy tashkilotlar vujudga keltira boshladilar. Mana shunday uyushmalardan dastlabkisi **“Chig‘atoy gurungi**” edi. Fitratshunos olim

[26] “Ҳуррият” газетаси, 1917, 7 ноябр, 48-сон.

professor Hamidulla Boltaboev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Fitrat 1918 yilda Toshkentdalik chog‘ida madaniy inqilob sari yuz burdi. Chor Rossiyasining azaliy maqsadi – o‘lka xalqlarini ruslashtirish siyosati sho‘ro hukumati davrida yangi, yuqori pallaga ko‘tarildi: proletariat madaniyatini vujudga keltirish shiori ostida o‘lka xalqlarining boy madaniy-adabiy merosiga nigilistik munosabat avjiga chiqdi. Abdurauf Fitrat mana shunday sharoitda 1918 yilning oxirida “Chig‘atoy gurungi” nomli adabiy-ma’rifiy uyushma tashkil qildi. Uning faollari Fitratdan tashqari, Cho‘lpon, Elbek, Botu, Shokirjon Rahimiy, Mannon Ramz, G‘ulom Zafariy, Mirmulla Shermuhamedov, G‘ozi Yunus, Qayum Ramazon va boshqalar edi. Uning “Chig‘atoy gurungi” deb nomlanishi bejiz emas edi. Chig‘atoy Chingizxonning o‘g‘li bo‘lib, Movarounnahr – Amudaryo, Sirdaryo bo‘ylari, Yettisuv, Koshg‘ar hududlari unga meros sifatida berilgan va tarixda “Chig‘atoy ulusi” deb yuritilgan. “Chig‘atoy ulusi” adabiyoti va madaniyatining eng gullagan davri XU asr – Alisher Navoiy davrini “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti o‘z dasturiga asos qilib oldi. Shu ma’noda, tashkilot mo‘g‘ul istilosi va undan keyingi davrlarda yaratilgan adabiy-madaniy boyliklarni asrab qolish, ular ustida ilmiy- tadqiqot ishlari olib borish va nashr etish ishlarini maqsad qilib qo‘ydi. Ikkinchidan, gurung a’zolari o‘zbek tilining sofligi va mustaqilligi uchun kurashdilar. Bu haqda Fitratning o‘zi “Yopishmagan gajaklar (O‘rtoq Boybo‘latovga ochiq xat)” maqolasida quyidagilarni yozadi: “Toshkentda panturkizm fikri bilan sug‘orilgan to‘dalar tashkil bo‘ldi. Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida “ish” ko‘rildi. Maktablarda usmonli adabiyoti ona tili darslari o‘rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti shiorlari ostida “Chig‘atoy gurungi” tashkil qilindi”.[27]

Demak, Fitrat Vatanining istiqbolda Rossiyadan ham, Turkiyadan ham mustaqil bo‘lishini orzu qilgan. Davlat tili masalasi kun tartibiga qo‘yilgan bir vaqtda Fitrat Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon bilan hamkorlikda “Ona tili” darsligini va imlo qoidalariga bag‘ishlangan “Bitim yo‘llari” asarini, 1922 yilda “O‘zbek yosh shoirlari” she’rlar to‘plamini bosmadan chiqardi. “Gurung” uch yilcha faoliyat ko‘rsatib, 1922 yilda tarqatildi.

“Nashri maorif.” Sho‘ro hukumati “Chig‘atoy gurungi” tashkilotini tarqatib yuborganidan keyin ham ziyoli fidoyilar xalqni ilm-ma’rifat nuridan bahramand qilishdek muqaddas ishlarini davom ettirdilar. Munavvarqori Abdurashidxonov 1922 yilning so‘nggi oyidan “Nashri maorif” (“Maorif tarqatish”) nomli jamiyat tuzadi. Jamiyatning asosiy vazifasi Turkiston o‘lkasida Oktabr to‘ntarishi tufayli parokandalikka yuz tutgan maorif, madaniyat va san’at ishlarini tashkiliy asosda yo‘lga qo‘yish va jonlantirish, yangi ochilayotgan maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish edi. Uning asosiy faollari Ubaydulla Xo‘jaev, Cho‘lpon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Mannon Ramz, Salim Tillaxonov va boshqalar edi. Sho‘ro hukumatining ta’qibi ostida bo‘lgan Munavvarqori jamiyatga raislik qilish mas’uliyatini eng yaqin hammaslak shogirdi Shokirjon Rahimiyga yukladi. “Turkiston” gazetasining 1923 yil 1 yanvar sonida Shokirjon Rahimiy va jamiyat faollari imzosi bilan “Nashri maorif” jamiyatining maorifparvar yoshlarga,

[27] Фитрат А. Танланган асарлар. 4 жилдлик, 3-жилд, Т.: Маънавият, 2003, 232-бет.

muallimlarga murojaati e’lon qilindi. Murojaatda quyidagi masalalarga e’tibor qaratilgan edi: “...Toshkandning butun o‘zbek maorifparvar yoshlari va mas’ul maorif-madaniyat ishlarining umumiy yig‘ini Turkiston maorif ishlarining susayishi va maorif xodimlarini(ng) orasidagi janjallarning sabablarini yaxshi onglab bilmakni lozim topib, shunga maxsus bir hay’at sayladi. Maorif ishlarimizning eng og‘ir va buxronlik bir vaqtida shu ishni pastlash va yo‘qotishdan qutqarib qolmoq uchun birlashgan Toshkand o‘zbek maorif-madaniyat xodimlari butun o‘lkadagi maorifparvar o‘zbek shovvoz (yosh)larga shu birlashishni samimiy bir tantana bilan e’lon qilmoq barobarida ularga quyidagi takliflarni qiladur:

1. Butun o‘lkadagi o‘zbek maorif-madaniyat xodimlari o‘z oralaridagi barcha janjal va bitishmasliklarni tashlab, qo‘lni-qo‘lga berishib, maorifning yuksalishi uchun ortiq darajada g‘ayrat bilan ishlasinlar.

2. Xalqni maorifga va maorifni xalqqa yaqinlashdirmoq uchun qo‘llaridan kelgan har bir choraga kirishsinlar.

3. Turkiston o‘zbeklarining maorif va madaniyat ishlarini to‘g‘ri bir yo‘lga qo‘ymoq uchun Toshkandda “Nashri maorif” isminda bir jamiyat ochish harakatiga kirishildi. Shu jamiyat rasmiylashgandan so‘ng matbuotda e’lon qilinishi bilan darhol shu jamiyatning har yerda sho‘balarini ochishga kirishsinlar... Shunga yaqindan aralashmoq va umumiy dushmanimiz bo‘lgan jaholat bilan kurashmakka barcha o‘zbek maorif-madaniyat xodimlarini da’vat etamiz”.

1923 yilda “Nashri maorif” qoshida “Ko‘mak” uyushmasi tuziladi. Uning asosiy maqsadi Rossiya, Ozarbayjon, Germaniyaga o‘qishga yuborilgan va yuborilayotgan talabalarga iqtisodiy yordam ko‘rsatish edi. 1924 yil boshida Shokirjon Rahimiy Toshkent viloyat xalq maorifi bo‘limiga rahbarlik lavozimiga ko‘tarilishi munosabati bilan “Nashri maorif” jamiyati Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligiga o‘tdi va shu yiliyoq uning faoliyati to‘xtatildi. Jamiyat “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti kabi uzoq faoliyat ko‘rsata olmagan bo‘lsa-da, anchagina muhim ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Parokandalikka yuz tutgan maorif va madaniyat xodimlarini bir maqsad sari birlashtirdi, Ozarbayjon, Germaniya, Turkiyada ta’lim olayotgan talabalarga ham iqtisodiy, ham ma’naviy yordam ko‘rsatdi. Bu ishda, ayniqsa, Munavvarqori, Fitrat va Fayzulla Xo‘jaevlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

“Chig‘atoy gurungi”, “Nashri maorif” jamiyatlaridan keyin tuzilgan “Qizil qalam” (1926 yil, Shokir Sulaymon boshchiligida), “Yosh leninchi” gazetasi qoshidagi to‘garak” (1927 yil, Sotti Husayn rahbarligida), “Proletar yozuvchilar uyushmasi” (1928) sovet mafkurasi dastyoriga aylanib bordi.

Xulosa qilib aytganda, jadid yozuvchi va shoirlari o‘z millatini boshqa taraqqiy etgan millatlar kabi farovon, Vatanini obod va ozod ko‘rishni orzu qildilar, buning uchun kurashdilar. Shu ma’noda, jadid ma’rifatparvarligi mustaqillik, milliy istiqlol g‘oyalari bilan uzviy bog‘lanib ketdi. Shunga qaramasdan, jadid adabiyotining dastlabki namunalarida badiiyatdan ancha yiroq, quruq deklarativ chaqiriq ham ko‘zga tashlanib turadi. Jadid adabiyotida badiiy yuksak, haqiqiy ma’nodagi san’at darajasiga ko‘tarilgan asarlar 1920-yillarning

boshlaridan vujudga kela boshladi. Bu davrda, haqiqiy ma’noda, Fitrat o‘zbek dramaturgiyasi va adabiyotshunosligining yaratuvchisi, Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining otasi, Cho‘lpon yangi o‘zbek she’riyatining boniysi sifatida qisqa umri davomida buyuk vazifani amalga oshirdilar. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” asari mualliflari juda to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek “... bu davr (Milliy uyg‘onish davri – U.D.) Furqat, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi ijodi chinakam jahoniy miqyosga ega shaxsiyatlarni yetkazdi. U adabiyotimizning bugungi avlodi uchun ham ilhom manbai, mahorat maktabi bo‘lib turibdi”.

5-мавзу. Адабий мактаблар ва уларнинг ўлка ижтимоий, бадиий ҳаётида тутган ўрни

XX asr bo‘sag‘asida shakllana boshlagan milliy uyg‘onish, istiqlol, mustaqillik uchun kurashgan, jadidchilik harakati nomini olgan mutafakkirlar guruhi yetishib chiqdi. Bu guruh millatning o‘zligini tanitish, milliy-ozodlik harakatini shakllantirish va uni amalga oshirishdek ulug‘ vazifani o‘z oldiga qo‘ygan hamda butun Turkiston o‘lkasini harakatga keltirgan buyuk kuch edi. Bu harakatning rahbarlari, namoyandalari chet el ilm maskanlarida ta’lim olgan yoki taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan, Sharq va G‘arb ma’rifati, ma’naviyatini egallagan ilmga chanqoq ilg‘or yoshlar edilar. Ular mustamlaka zulmi iskanjasida xarobaga aylanib borayotgan ona-Vatan jarohatlariga malham izladilar.

Jadidlar, birinchi navbatda, maorifni, maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirish, millatni ma’nan uyg‘otish uchun kurash olib bordilar. Ular o‘zbek xalqining ming yildan ortiq taraqqiyot tarixiga ega bo‘lgan tafakkur gulshanidan bahra oldilar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslandilar, shu bilan birga, turk dunyosi xalqlarining ma’naviy rahnamosi Ismoilbek Gasprinskiyning o‘qish-o‘qitish, maktab va madrasa islohotiga oid fikrlari ta’sirida bo‘ldilar, ozarbayjon xalqining hur fikrli demokratlari Jalil Mamadqulizoda, Aliakbar Tohirzoda Sobirlar bilan yaqin hamkorlikda bo‘ldilar, ularning turkiy xalqlar o‘rtasida mashhur bo‘lgan “Mulla Nasriddin” jurnali, “Xo‘p-xo‘pnoma” majmuasi o‘zbek ziyolilari o‘rtasida ham katta e’tibor qozondi. Ismoilbek Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi Rossiya imperiyasi ostida yashovchi g‘ayriruslar – turkiy xalqlarning maorifidan tortib, iqtisodiy-siyosiy sharoitigacha qiziqdi. Ismoilbek Gasprinskiy bir maqolasida yozgan edi: “Suyukli do‘stlarim, bizning uchun eng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya)ga yetishish vositasidir. Madaniy turmush esa insonning yashash maqsadi, usulidir”.[28]

O‘qituvchilar sha’niga yonib aytilgan ushbu so‘zlarni hayajonsiz o‘qish mumkin emas. Hamma vaqt, har qanday siyosiy tuzumda o‘qituvchi jamiyatni olg‘a yetaklovchi asosiy kuch bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Millat taqdirini o‘ylagan, uning nurli istiqbolini ko‘rishdek buyuk maqsad hayotlarining mazmuni

bo‘lgan o‘zbek jadid mutafakkirlarini larzaga soldi bu so‘zlar. Shuning uchun ham ular millatni jaholatga mahkum etuvchi mutaassiblikning, jaholatning dushmani sifatida maydonga chiqdilar, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish ishiga boshchilik qildilar. Ismoilbek Gasprinskiy Turkiyada chiqadigan “Tasviri afkor” gazetasiga bergan intervyusida nima sababdan maorifga birlamchi masala sifatida qarashini ochiq bayon qilgan edi: “Hokim va mahkum qaysi millat bo‘lishidan qat’iy nazar, uning sog‘lomligi maorif bilanligiga ishoningiz. Uni eng mukammal port bilan ta’minlang, oxirgi taraqqiyotni uning qo‘liga tutqazing. U millat bundan aslo foydalana olmaydi. Aksincha, o‘sha mamlakatdagi bunday unsurlar sivilizatsiyadan boshqa unsurlarni istifoda etib, maorifdan mahrum bo‘lgan millat avvalgidan yanada ko‘proq qashshoqlik va zalolatga duchor bo‘ladi. Bu millatni eng yaxshi va eng yangi harbiy uskunalar bilan ta’minlang, maorifdan mahrum bo‘lgach, bulardan hech bir foyda ko‘ra olmaydi. Har bir narsadan avval maorif lozimdir, bir yurtda temir yo‘l, bank, yo‘l ma’muriyatidan avval mutlaqo maktab lozimdir. Hatto maktab har narsadan ustun va muqaddaski, unga hech narsani tenglashtirib bo‘lmaydi. Aks holda millat mahv va nobud bo‘lishi muqarrardir”.

1906–1914 yillarda Tiflisda chiqqan, musulmon dunyosida katta e’tiborga ega bo‘lgan “Mulla Nasriddin” jurnalining asoschisi va bosh muharriri Jalil Mamadqulizoda Toshkentda Abdulla Avloniy va Samarqandda Siddiqiy-Ajziy bilan yaqin adabiy-madaniy, ma’rifiy aloqada bo‘ldi. Abdulla Avloniy 1914 yilda nashr qilgan “Turon” gazetasi uchun ushbu jurnal bosmaxonasidan kerakli uskunalar, harflar olib kelgani ma’lum, Saidahmad Siddiqiy-Ajziyning “Anjumani arvoh” (“Ruhlar anjumani”), “Mir’oti ibrat” (“Ibrat oynasi”) kabi dostonlarini Toshkent va Samarqandda chiqarish mumkin bo‘lmagan bir paytda bu asarlar Tiflisda mazkur ozarbayjon mutafakkirlari yordamida dunyo yuzini ko‘rdi. “Xo‘p-xo‘pnoma” majmuasining muallifi Aliakbar Tohirzoda Sobirga o‘zbek shoirlari So‘fizoda va Siddiqiy-Ajziylar samimiy munosabatda bo‘ldilar, uning she’riyatidan ta’sirlandilar, bu maslakdoshlarni mustamlaka zulmi ostida yashovchi millatlar dardi birlashtirdi.

Orenburg va Ufada chiqib turgan gazeta va jurnallar Turkiston o‘lkasida katta e’tibor qozondi, ayniqsa, mahalliy ziyolilar diqqatini o‘ziga tortdi. Agar biz mashhur “Sho‘ro” jurnalini varaqlar ekanmiz, uning sahifalarida, uning sahifalarida Turkiston maorifi va madaniy hayotiga oid juda ko‘p maqolalar, she’rlar, munozaralar chop etilganining guvohi bo‘lamiz. Chunki bosh muharrir, mashhur olim, din peshvosi Rizo Faxriddin jurnal faoliyatini Turkiston madaniy hayoti bilan bog‘lagan, uning e’tibori Turkiston ziyolilari o‘rtasida katta bo‘lgan. (Bu ulug‘ mutafakkir nomini akademik-yozuvchimiz Oybek ham “Qutlug‘ qon” romanida mamnuniyat bilan tilgan olgan). Ushbu jurnalda tatar shoiri Bahrombek Davlatshoevning “Turkiston xalqina xitob” sarlavhali she’ri bosilgan. Unda XX asr boshlaridagi o‘zbek jadid she’riyatiga xos dilga yaqin bunday misralar mavjud:

Bir er yo‘qmu seni uyqudan uyg‘otguvchi, ey millat?
Tutib egning funun yo‘lini ko‘rsatguvchi, ey millat?
Turib ibrat ol, o‘tmay vaqt, ko‘p yotguvchi, ey millat?
Eshit so‘zim, fano dengizina botguvchi, ey millat?
Nechun uyg‘onmayursan olamning faryodi zorindan.3

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, turkiy xalqlar maorifi va ma’naviyati taraqqiyoti tarixida, ayniqsa, “usuli jadid” maktablarining Turkiston o‘lkasida keng tarqalishida Ismoilbek Gasprinskiyning xizmatlari alohida e’tiborga sazovor. Jadid mutafakkirlari boshida dahshatli qatag‘on bulutlari quyuqlashayotgan, Gasprinskiyning hatto nomini tilga olish mumkin bo‘lmagan bir payt Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma’nodagi rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkent okrug madaniyatchilar qurultoyida so‘zlagan ma’ruzasida quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: “Jadidlikka qanday baho berish to‘g‘risida quyidagi asoslarni keltiraman: jadid maktabi qay vaqtda va kimlar qo‘li bilan vujudga chiqdi? Mana buni tekshirish uchun 20 yil ilgariga qarash, albatta, lozim. Hozirg‘i paytda o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan kishilar Maskov va boshqa joylarg‘a borib o‘qishni havas qilsa, avvallari savodi chiqqan bir kishi Buxoro borib o‘qishni o‘zi uchun bir sharaf, deb bilar edi. Chunki ular bilimni faqat dingina deb bilar edilar. Muhit shuni taqozo qilar edi. Jadid maktabi tashkil qilg‘onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarning yetishtirgan kishilari edil. Ular yolg‘iz Boqchasaroyda chiqadurg‘on Ismoil Gasprinskiyning gazetasini o‘qidilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edi”4.

Ismoilbek Gasprinskiy 1881 yilda bosmadan chiqargan “Rusiya musulmonligi” asaridayoq Rossiya imperiyasi tasarrufidagi musulmon xalqlar, shu jumladan, Turkiston xalqlari ta’lim-tarbiya va maorif tizimini tubdan isloh qilish loyihasini kun tartibiga qo‘ydi. Bu turkiy xalqlar tafakkuridagi buyuk inqilob edi. Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni bosib olgach, o‘ta qabih siyosatni – assimilyatsiya siyosatini olib bordi. Bu siyosatga ko‘ra, imperiyada juda katta nufusga ega bo‘lgan turkiy xalqlarni tili, dini, madaniyati, tarixidan mahrum etish va ularga gegemon rus millatining tili, dini, madaniyatini va urf-odatlarini singdirish, bir so‘z bilan aytganda, o‘tmishda buyuk madaniyatga, tarixga ega bo‘lgan musulmon turklarini yutib yuborish, ruslashtirish siyosatini qo‘lladi. Bu siyosatni rus mustamlakachilari Ivan Grozniy (1530 - 1584) davridayoq Qozon tatarlariga nisbatan qo‘llay boshlagan edilar. Ivan Grozniy yerli aholining muhtasham masjid va madrasalarini cherkovlarga aylantirgan, kichik va o‘rtamiyonalarini buzib tashlagan, o‘zlarini majburan cho‘qintirgan edi. Bunday o‘ta vahshiy siyosat tufayli qanchadan-qancha millatlarning faqat nomlarigina qolgani tarixdan ma’lum. Ismoilbek Gasprinskiyning “Rusiya musulmonligi” asari mana shu siyosatga keskin qarshi yozilgan edi. U Chor Rossiyasining bu vahshiyona siyosatiga qarshi hamjihatlik, hamkorlik va teng huquqlilik siyosatini taklif qildi, faqat taklif qildi emas, talab qildi: “Muhtaram rus vatandoshlar, bizga bilim va yorug‘lik kerak. Bizning talabimizni jiddiy qabul qiling: bizga yorug‘lik va bilim bering. Buning uchun ona tilimizda o‘qish va yozishni o‘rganishga ruxsat kerak.”5

Mutafakkirning ta’lim-tarbiya tizimini qayta tuzish haqidagi fikr-mulohazalariga e’tibor bering: o‘tmishda musulmon maktab va madrasalarida ilmi tibbiyot (meditsina), ilmi hikmat (fizika), ilmi kimyo (ximiya), ilmi nabotot (botanika), ilmi nujum (astronomiya), ilmi handasa (geometriya) va boshqa aniq fanlar yuqori saviyada o‘qitilgan. Musulmon Sharqining Bag‘dod, Samarqand kabi shaharlarida har bir madrasada 20-30 mudarris (professor) aqliy mushohadaga

asoslangan ilmlardan dars bergan. Hozirgi musulmon madrasalari programmasi arab kitobiy tili, ilohiyot va aqidaparastlikdan nariga o‘tmaydi, o‘qitish metodi esa quruq tushunmay yodlashga asoslangan. Agar rus birodarlar necha asrlar davomida qanchadan-qancha tafakkur fidoyilarini tarbiyalab yetishtirib bergan eski madrasalarni hozirgi zamon ilmlari zaminida tiriltirsalar, vatan uchun, insoniyat uchun ulug‘ ishni bajargan bo‘lur edilar. Bu ish u darajada mushkul emas, hatto katta mablag‘ ham talab qilmaydi. Buning uchun Rossiya tasarrufidagi Qozon, Ufa, Orenburg, Boqchasaroy, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Boku, Astraxan kabi musulmon markazlaridagi 9 – 10 madrasani qayta tashkil qilish va rus musulmonlarining hozirgi zamon aqliy rivojiga moslashtirish kerak. Ularni shunday tashkil etish kerakki, bu madrasalarda geografiya, tarix, tabiiy fanlar, arifmetika, pedagogika asoslari, rus qonunchiligi kabi umumta’limiy fanlar ona tilida olib borilsin. Ularda universitet yoki Lazarev nomidagi Sharq tillari institutini bitirganlar dars berishi kerak. Bu qayta tiklangan madrasalarga “oliy” yoki “birinchi darajali” madrasa maqomini berish mumkin. Yangi tashkil etilgan o‘n madrasa uchun har yili sarflanadigan 80 – 100 ming so‘mni hatto musulmon xayriya jamiyatlari yig‘ib berishi mumkin. Natijada, o‘n yil ichida johil, nodon mutaassiblar o‘rnini taraqqiyparvar ruhoniylar, bilimdon ulomolar, hozirgi befahm, ilmsiz mullalar o‘rnini esa o‘z ishiga mohir pedagoglar egallagan bo‘lar, shu yo‘l bilan ibtidoiy maktablarni qayta tashkil qilish imkoniyati ham paydo bo‘lar edi.

Mahalliy talabalar uchun ochilgan rus va rus-tuzem maktablari o‘lik tug‘ilgan muassasaga o‘xshaydi. Uni bitirgan bolalar rus hayotining tashqi ko‘rinishinigina egallab, o‘z millatining eng yaxshi urf-odatlarini, an’analarini, ma’naviyatini, tarixini butunlay yo‘qotgan, ma’rifat va taraqqiyotga tish-tirnog‘i bilan qarshi kurashayotgan razil kishilardir. Shuning uchun ham I.Gasprinskiy fikricha, ma’naviy barkamollik, millatni takomillashtirish an’anaviy ta’lim–tarbiya maskanlarida, ya’ni maktab va madrasalarda faqat ona tilida amalga oshirilishi kerak. Savol tug‘iladi: nima uchun Ismoil Gasprinskiy ona tili va maorif masalasiga bu darajada birlamchi vazifa deb qaraydi? Uning fikricha, millatning o‘zligini belgilovchi asosiy omil ona tili va maorifdir. Shuning uchun ham I.Gasprinskiy keyinroq e’lon qilgan maqolalaridan birida yozgan edi: “Til birligi masalasi bizning hayotimizda hayot-mamot masalasidir. Va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz. Biz uchun orqaga chekinmoqqa yo‘l yo‘q. Yashasin millat!”6

Hatto hozirda ham tez-tez quloqqa chalinib turadigan, mustabit tuzum davrida Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi masalasiga baho berishda takrorlanaverib, siyqasi chiqib ketganko‘chirma mavjud. Bu ko‘chirma K.Marks va F.Engels yozishmalaridan olingan: “Rossiya Sharqqa nisbatan progressiv rol o‘ynaydi... Rossiyaning hukmronligi Qora dengiz va Kaspiy dengizi hamda Markaziy Osiyo xalqlari uchun madaniylashtiruvchilik rolini o‘ynaydi”. Rossiyaning mustamlakachilik siyosatini xas-po‘shlovchi bu so‘zlar aslida boshqa munosabat bilan va boshqacharoq shaklda aytilgan. X1X asrning 80 – 90-yillarida ham bunday so‘zlar rus zobitlari, gubernatorlik ma’murlari tomonidan aytilgan. Masalan, Turkiston general-gubernatori S.Duxovskiy general M.Chernyaevning vafoti munosabati bilan musulmonlarga qarata yuzsizlarcha bunday degan edi:

“Chernyaevni podshoh hazratlari sizlarga tinch va xotirjamlikda yashashingiz uchun yuborganini ko‘rib turibsiz. Yana 30 yil o‘tib, bolalaringiz katta bo‘lishib, keksayishadi va ular ham tinchlik va xotirjamlikda yashab, general Chernyaevni minnatdorchilik bilan eslashadi”7. Bu so‘zlar mustamlaka xalqni abadiy tobelikda saqlash maqsadida aytilgan so‘zlardir.

“Keyingi yillarda, - deb yozadi Ismoilbek Gasprinskiy, - Rossiyaning Sharqqa nisbatan buyuk madaniylashtiruvchilik missiyasi haqida tez-tez eshitishga va o‘qishga to‘g‘ri keladi. Yaxshi. Ammo bu missiya nimada o‘z ifodasini topishi kerak? Nahotki, hozirda kechayotgan siyosat: qozilarni uezd boshliqlari bilan, noiblarni politsiya boshliqlari bilan, beklikni oblast yoki gubernya bilan, ushrlarni jon boshiga olinadigan soliqlar va boshqa to‘lovlar bilan, kimxob to‘n va chakmonlarni dvoryanlik yoqalari bilan almashtirish orqali bu missiyani bajarish mumkin bo‘lsa?”8.

I.Gasprinskiy Rossiyaning mustamlaka o‘lkalarga nisbatan bunday “madaniylashtiruvchi missiyasi”ga keskin qarshi chiqdi, mustamlaka xalqlarni Yevropa madaniyatidan uzoqda, jahon taraqqiyotidan, ilm-fan yangiliklaridan uzilgan, biqiq holda saqlab kelayotganini qattiq fosh etdi. Shu o‘rinda Gasprinskiy Angliya hukmronligi ostida Hindistonda olib borilayotgan ma’rifiy-ma’naviy ishlarni misol qilib keltiradi va Rossiya musulmonlari orasida ham vaqtli matbuotni tashkil qilish hamda rivojlantirish masalasini alohida ta’kidlaydi: “Hindistonda Angliya hukmroligi ostida ancha e’tiborli mahalliy adabiyot, vaqtli matbuot vujudga keldi va rivojlandi. Hozirda u taraqqiyot uchun xizmat qilmoqda, inglizlarga, ularning tiliga biror zarar yetkizayotgani yo‘q, aks holda, bunday g‘oyaning vujudga kelishidayoq yo‘q qilishdan tortinmagan bo‘lur edilar”9.

Ismoilbek Gasprinskiyning “Rusiya musulmonligi” asari nashridan bir yil o‘tar-o‘tmas, Turkiston o‘lkasiga kirib keldi. Bu asar o‘lkada faoliyat ko‘rsatayotgan Ilminskiy gumashtalari – missionerlar qulog‘i ostida momaqaldiroqday gumburladi. Asar 1882 yil 30 avgustda Turkiston o‘qituvchilar seminariyasida o‘tkaziladigan an’anaviy avgust kengashining asosiy mavzu.si sifatida muhokama qilindi. Mavzu.: “G‘ayrirus musulmonlar maorifiga qanday bosh qonun-qoidalar asos qilib olinishi kerak?” Ma’ruzachi – missioner I.A.Miropiev. Kengash seminariya va rus maktablari o‘qituvchilari uchun yo‘llanma maqomida o‘tdi. Ushbu mavzu.ning I.Miropievga ishonch bilan topshirilishi bejiz emas edi, u ham xuddi N.Ostroumov kabi Qozon diniy akademiyasining musulmonchilikka qarshi missionerlik fakultetini tugatgan va 1879 yilda N.Ilminskiy tomonidan N.Ostroumov, N.Voskresenskiy va I.Sofiyskiylar bilan birga o‘z vazifasiga ko‘ra Toshkentga yuborilgan edi. N.Ostroumov 1879 yilda yangi ochilgan ushbu Turkiston o‘qituvchilar seminariyasining direktori va pedagogika o‘qituvchisi, N.Voskresenskiy mazkur seminariya pedagoglar soveti kotibi va ilohiyot o‘qituvchisi, M.Miropiev esa tarix va geografiya o‘qituvchisi etib tayinlangan edilar.

Kengash nihoyatda tantanavor vaziyatda o‘tdi: unda Turkiston general-gubernatori A.K.Abramov boshchiligidagi oliy ma’muriyat a’zolari, pravoslav cherkovining oliy ruhoniylari, seminariya, rus maktablari o‘qituvchilari, o‘quvchilarning ota-onalari ishtorok etdilar. Afsuski, kelajagi hal qilinayotgan va

Rossiya imperiyasida nufus jihatidan ikkinchi o‘rinda turgan musulmonlardan biror kishi taklif etilmadi. M.Miropiev “Rusiya musulmonligi” asarini ancha chuqur o‘rgangan va muallif ilgari surgan asosiy tezislarni inkor qiladi: u Gasprinskiy tavsiya etgan hamkorlik, hamjihatlik, tenglik yo‘lini emas, assimilyatsiya yo‘lini qo‘llab-quvvatlaydi va ruslashtirishning eng qudratli richagi – rus maktablari va ularda olib boriladigan rus tili darslaridir, degan tezisni ilgari suradi.

Ma’lum xalqning assimilyatsiyaga moyilligi ikki holatga: birinchisi tug‘ma, o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, ikkinchisi uning yuksak taraqqiyotga, sivilizatsiyaga erishganligiga qarab belgilanadi. Rus sivilizatsiyasi hozirgi musulmon sivilizatsiyasidan ancha yuqori, bu to‘g‘rida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas. Ammo tarixdan ma’lumki, - deydi Miropiev, - ruslarda assimilyatsiyaga beriluvchanlik tug‘ma xususiyatlari ham bor. Shuning uchun ham g‘ayriruslar (musulmonlar)ni ruslashtirish siyosatini qat’iy olib borish kerak: “Vaqt o‘tish jarayonida madaniylashgan xristianlik bilan to‘qnashuvda musumonlikning obro‘sizlanishi uchun kurashish kerak. Shu ma’noda, o‘quv yurtlariga islom aqidalarini kiritish xristianlikka nisbatan dushmanlikni, adovatni vujudga keltiradi. Demak, g‘ayrirus musulmonlarimiz maorifini tashkil qilishdagi **birinchi va bosh prinsip ularni ruslashtirish bo‘lmog‘i kerak. Ikkinchi bosh prinsip musulmonlarni islom dinidan chetga tortish, buning uchun islom asoslarini buzish, aqidalarini nazar-pisan qilmaslik bo‘lmog‘i kerak** (ta’kid Miropievniki – U.D.). Men qat’iy ishonamanki, musulmonlar maorifini tashkil qilishda asos qilib olinishi kerak bo‘lgan bu ikki asosiy qonun-qoida vatanimiz kelajagi uchun katta foyda keltiradi va Turkistonning yangi oliy mahalliy ma’muriyati ushbu tavsiya qilingan qonun-qoidani qabul qilish bilan bizning yosh Turkiston o‘lkamizga kirib kelayotgan va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ishimizga (ruslashtirishga – U.D.) zarar keltirayotgan turli-tuman o‘quv tizimlaridan himoya qilgan bo‘lur edi.”10

Savol tug‘ilishi tabiiy: nima sababdan Ismoilbek Gaspralining “Rus musulmonligi” asari muhokamasi davlat siyosati darajasida aynan Toshkent shahrida o‘tkazildi? I.Gasprinskiy Rossiya imperiyasida eng katta nufusga ega bo‘lgan Turkiston musulmonlariga, uning buyuk tarixi, o‘tmish ma’naviyatiga katta e’tibor va umid bilan qarab kelgan. Shuning uchun mutafakkirning ham amaliy, ham ijodiy faoliyatida Turkiston mavzu.si alohida o‘ringa ega. “Dor ur-rohat musulmonlari”, “Xotinlar o‘lkasi”, “Madaniyati islomiya”, “Mukolamai salotin”, “Turkiston ulamosi” kabi asarlariga e’tibor bering. U har qanday tazyiq va to‘siqlarga qaramay, turkiy xalqlarni birlashtirish, ularga o‘zligini tanitishdek muqaddas ishni umrining oxirigacha izchil davom ettirdi.

Ismoilbek Gasprinskiy “Rusiya musulmonligi” asarida ilgari surgan ona tili va maorif, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini ommalashtirish, turkiy xalqlar ziyolilari e’tiboriga yetkazish uchun matbuot kerakligini juda yaxshi bilar edi. “Tarjimon” gazetasi mana shunday ulug‘ maqsadni amalga oshirish uchun vosita sifatida katta mashaqqatlar evaziga dunyoga keldi. Uning bu faoliyatini Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy kabi ulug‘ mutafakkirlar, pedagoglar qo‘llab-quvvatladilar. Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi Rossiya imperiyasi

ostida bo‘lgan musulmon xalqlarini millat, vatan istiqboli haqida o‘ylashga majbur etdi. Bu gazetaning ko‘pgina mushtariylari ham Turkiston o‘lkasining ziyolilari edi. Gazetaning birinchi soni Boqchasaroyda 1883 yil 10 aprelda dunyo yuzini ko‘rdi.

Rossiya musulmonlari maorifida tub o‘zgarish yasagan “usuli savtiya” – “tovush metodi”ga asoslangan “usuli jadid” maktablarining vujudga kelishi ham Ismoilbek Gasprinskiy faoliyati bilan bog‘lanadi. U 1884 yilda “usuli jadid” maktabi ochadi va 12 o‘quvchini 40 kunda savodli qiladi. Bunday tovush metodiga asoslangan maktab istagi unda ancha ilgari – Yevropa mamlakatlarida, Fransiyaning Sorbonna universitetida o‘qib yurgan kezlaridayoq paydo bo‘lgan edi. Chunki Yevropa maktablari XU111 asr oxirlaridayoq analitik-tovush metodiga o‘tgan edi. Ismoilbek Gasprinskiy bu faoliyatida erishgan yutuqlari haqida mamnuniyat bilan quyidagilarni yozadi: “Zamonamizda dunyoda yashamoq uchun insonlar ziyoda bilmiya va ziyoda cholishmiya muhtojdirlar. Har bir odam zarurati diniyasini o‘rgandikdan so‘ng har ko‘p ishda va muomalada lozim o‘lan bilik, hunar, sanoe’ va kamolati soira bilmasi lozimdir. Bular hammasi tahsil va ta’lim ila maydonga kelur. Bizning musulmonlar yolg‘iz bir miqdor Kalomi sharif o‘qumoq va ba’zan bir-ikki satr qoralamoq tahsili ichun besh sana maktaba vorub kelurlar va olajak bu tahsil ichun yoshlig‘i(ni) va zamon tahsili(ni) favt edarlar. Agar maktablar go‘zal bir usulda kunilursa, besh sanalik tahsil daha mukammal o‘laroq ikki sanada tamom edilub, qolgan uch sanada daha xiyla ma’lumot va ilm qozonmoq mumkin o‘lajakdir. Bunga binoan 1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktabi usuli jadida qo‘ymish edim. Samarasi umidimdan ziyoda o‘ldi. Bir qoch maktablar daha usulimni qabul aylab, isloh o‘ldilar. Soir viloyatlardan usul ko‘rmiya kelib-kedanlar o‘lib, bu soyada har tarafdan ikki yuzdan mutajoyiz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar”.

Mohir pedagog maktab ochish, yangicha o‘qitish usulida dars birish bilan cheklanib qolmadi. Rossiya musulmonlari maorifida “usuli savtiya” – “tovush metodi”da yaratilgan “Xo‘jai sibyon” (“Bolalar muallimi”) nomli birinchi barqaror alifbo darsligining muallifi ham Ismoilbek Gasprinskiy bo‘ldi. Bu darslik tezda Turkistondagi usuli jadid muallimlariga ham yetib keldi, uning ta’sirida XX asr boshlarida o‘ndan ortiq alifbo darsliklari yaratildi. 1898 yilda I.Gasprinskiy “usuli savtiya” metodining qonun-qoidalari: o‘quv rejasidan tortib, darsxonaning holatigacha, yillik imtihonlaridan tortib, namunali dars jadvaligacha, o‘qituvchi kursisining o‘rnidan tortib, o‘quvchilarning joylashishigacha – hammasi haqida batafsil ma’lumot beruvchi “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” metodik asarini bosmadan chiqardi. O‘zbek jadid maorifchilaridan Ishoqxon Ibrat kutubxonasida ushbu asarlardan bir necha nusxadan bo‘lgan va ulardan yangi ochilayotgan jadid maktablari o‘qituvchilari o‘qitish jarayonida foydalanganliklari ma’lum.

Ismoil Gasprinskiy 1891 yilda Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiyga o‘lkadagi maktab va madrasalarni tubdan isloh qilishga qaratilgan maktub bilan murojaat qiladi. U ushbu maktubida mahalliy maktablarda o‘qitish tartiblarini soddalashtirish, 6 yilda ibtidoiy maktabda beriladigan bilimni, xat-savodga o‘rgatishni 2 yilda amalga oshirish va shu yo‘l bilan iqtisod qilingan 3 – 4

yilni musulmonlar turmush tarzini, sharoitini va maktabini buzmagan holda rus tilini o‘qitishga sarflash masalasini qo‘yadi. Buning uchun ba’zi bir ilg‘or madrasalarni oliy darajada qayta qurib, isloh o‘tkazish orqali “oliy madrasa” tashkil qilish, rus tili, rus qonunshunosligi va pedagogika fanini asosli o‘rgatib, mahalliy millat farzandlaridan o‘qituvchilar tayyorlash kerakligini ta’kidlaydi.

E’tibor bering, I.Gasprinskiy “Rusiya musulmonligi” asarida ilgari surgan nazariy fikrlarini amalga oshirish masalasini qo‘yyapti. U ushbu maqsadda Boqchasaroydagi “Zanjirli” madrasasini Odessa sobiq general-gubernatori X.X.Roppning yordami bilan butunlay qayta ta’mir qilganini va o‘qituvchilar tayyorlaydigan “oliy madrasa”ga aylantirganligini misol sifatida keltiradi hamda bunday ezgu niyatni amalga oshirishga Turkiston general-gubernatorini ham da’vat etadi: “Mavjud madrasalardan ba’zi biri “oliy” darajada qayta qurilib, isloh qilinsa, ...ular ham diniy, ham pedagogik xizmat qilish huquqiga ega bo‘lur edilar. Rus tili, rus qonunshunosligi va pedagogikani asosli o‘rganish “oliy madrasa” kursining asosi bo‘lmog‘i lozim. O‘quvchilar mulla yoki xo‘jalik (o‘qituvchilik – U.D.)ka nomzod bo‘lganlar guberniya o‘quv yurtlari direksiyasi va musulmon diniy boshqarmasining vakili yoki ishonchli kishilari kuzatuvida imtihon topshirganidan so‘ng o‘z maktablarida bir vaqtning o‘zida musulmoncha va ruscha o‘qitishni tashkil qilishlari mumkin bo‘lur edi. Ana shundagina hech narsaga ishonmaydigan kishilarda ham islom dinining buzilmasligiga zarracha shubha qolmas edi. Bu o‘rinda vaqfga boy Boqchasaroy shahridagi “Zanjirli” madrasasi o‘rnak bo‘la oladi. U sobiq muvaqqat Odessa general-gubernatori janob X.X.Roppning yordami bilan butunlay qayta ta’mirlandi.”11

1883 yilda Toshkentda o‘tkazilgan Turkiston o‘lkasidagi rus o‘quv yurtlari rahbarlari va muallimlarining 1-qurultoyida Sattorxon Abdug‘afforov xuddi shunga o‘xshash taklif bilan chiqqan edi: “Rus maktablariga musulmon muallimi kiritilib, unga yerliklarning bolalarini mahalliy tilga, joyiga qarab, sart yoki qirg‘iz tiliga o‘rgatish hamda musulmon dinidan boshlang‘ich ta’lim berish vazifasi yuklatilsa, mahalliy kishilarning bunday maktabga nisbatan hammaga ma’lum va hamma ta’kidlayotgan ishonchsizligi tugatilgan bo‘lur edi”.12

Sattorxonning bu oqilona taklifi qurultoy raisi Miropievning keskin qarshiligiga uchradi. U Rossiya maorif vaziri D.Tolstoyning “Turkiston o‘lkasidagi davlat tasarrufidagi maktablarda musulmon dini ham, musulmon tili ham o‘qitilmasligi kerak” degan buyrug‘iga yopishib olib, Sattorxonga qarshi o‘zining shovinistik qiyofasini ko‘rsatuvchi, rus ma’murlarining Turkiston xalqlarini ruslashtirishga qaratilgan siyosatini ifodalovchi quyidagi fikrini bayon qilishdan uyalmadi: “O‘z dinida mutaassiblik mavjudligini inkor qiluvchi musulmonlarga aslo ishonmaslik kerak”.13

Ismoilbek Gasprali fikrlariga e’tibor bering: bir so‘z bilan aytganda, u pedagogik oliy o‘quv yurti haqidagi orzu-intilishlarini kun tartibiga qo‘ygan.

Gubernator A.Vrevskiy xatni o‘rganib chiqish uchun N.Ostoumov va V.Nalivkinga topshiradi. Ostroumov ustozi N.Ilminskiy o‘gitlariga amal qilib, ancha vaqtdan beri I.Gasprinskiy faoliyatini kuzatib borar, uning “Rusiya musulmonligi” asari bilan tanishib chiqqan va “Tarjimon” gazetasining e’tibori, mushtariylari Turkiston o‘lkasida kun sayin oshib borayotgani uni qattiq

tashvishga solayotgan edi. Ostroumov, albatta, I.Gasprinskiy takliflarini keskin rad etdi. Uning javobida millat sha'niga qattiq botuvchi shunday so'zlar bor: "Turkiston musulmonlari maorifini qayta qurish navbatda turgan masaladir. Biz bu masalani o'z o'rnida, masalaga aloqadorligi xalq maorifi vazirligi tomonidan e'tirof etilmagan janob Gasprinskiyning ko'rsatmalarisiz hal qilamiz. Rossiyada rus bo'lmagan xalqlarning maorifi masalasida g'ayrirus tatarning emas, maorif vazirligining rus millatiga mansub bo'lgan a'zosining ko'rsatmalari kerak. Bo'ysundirilgan xalqning zabt etuvchilar darajasiga tenglashuvi masalasining bo'sundirilganlarga ishonib topshirib qo'yilishi hali tarixda bo'lmagan. Bu – bema'nilik! ...Menda hech shubha yo'qki, u (I.Gasprinskiy) o'zini Rossiyadagi "yosh tatarlar partiyasi"ning rahbari deb tasavvur qiladi va o'z ta'sirini hatto turkistonliklarga ham tarqatishga zo'r beradi. Baxtga qarshi, u hozirda ko'p narsaga erishyapti. Uning maslakdoshlari Toshkentda ham bor."14

V.Nalivkin ham N.Ostroumov fikrlarini qo'llab-quvvatladi va general-gubernator A.Vrevskiy Ismoilbek Gaspraliga javob yozishni o'rinsiz deb bildi. Bu voqeadan keyin I.Gasprinskiy Turkistonda maorif tizimini tubdan isloh qilish masalasini yig'ishtirib qo'ymadi, aksincha, faolroq ishga kirishdi.

1892-1893-yillarda Buxoro amiri Abdulahad Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohati davomida Boqchasaroyda ham bo'ladi, Ismoilbek bilan uchrashib, uzoq suhbatlashadi. Bu suhbatda u amirga "usuli savtiya" maktabi, uning afzalliklari haqida batafsil ma'lumot beradi va Buxoroda ham bunday maktab ochish kerakligini ta'kidlaydi. Amir Abdulahad Ismoilbekni Buxoroga taklif qiladi, u bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

1893 yilda Ismoilbek Gasprinskiy maslakdoshi Majid G'anizoda bilan Buxoroga keladi, Samarqand va Toshkentda bo'ladi. Buxoro amiri Abdulahad bilan uchrashib, uning roziligi bilan Buxoroda bitta usuli jadid maktabi ochishga muvaffaq bo'ladi. Ma'lumotlarga qaraganda, I.Gasprinskiyning Turkiston o'lkasiga kelishi Samarqand maorif ahllarining ham e'tiborini qozondi. U Buxoroda ochgan maktabidan tashqari, Samarqandda ham yana bir xususiy usuli jadid maktabini ochishga muvaffaq bo'ldi. Bu haqda Gasprinskiy "Tarjimon" gazetasida keyinroq maqola ham bergan: "Maktabning dovrug'i har tarafga yoyilib, tez savod chiqarishiga ko'ra turkistonliklar bu maktabga o'zlaricha munosib nom ham berganlar. Bu ham bo'lsa, "mashinali maktab" edi. Og'izdan-og'izga ko'chib, maktab dovrug'i maorif boshlig'i qulog'iga yetib bordi va rasmiy ruxsatsiz ochilganligi sababidan mirshablar tomonidan yopib qo'yildi. Lekin ko'zlangan maqsad amalga oshirilgan edi. Turkiston aholisining diqqat e'tibori jalb etildi."15

Darhaqiqat, usuli savtiya maktablari ochishda dastlabki dadil va xayrli qadam tashlangan edi, maktab mustamlakachilar tomonidan yopib qo'yilgan bshlsa-da, u bolalar savodini nihoyatda tez chiqargani uchun "mashinali maktab" deb nom olgan, uning dovrug'i Toshkent, Farg'ona vodiysi shaharlariga ham tez tarqalgan edi. General-gubernatorlik ta'qibi va mutaassib ulamolar tazyiqi ostida Buxoro amiri Abdulahad ruxsati bilan ochilgan jadid maktabi ham yopildi, uning evaziga mustabitlar 1894 yilda Buxoroda bitta rus-tuzem maktabi ochadilar va rus o'qituvchilari bilan ta'minlaydilar. Shundan so'ng 1893 yildan e'tiboran Toshkent,

Samarqand va Farg‘ona vodiysi shaharlarida dastlab tatar maorifchilari tomonidan jadid maktablari ochila boshladi, ammo ularning ham faoliyati uzoqqa bormadi. O‘qituvchilari tatar millatiga mansub bo‘lgani uchun gubernatorlik tomonidan yopib qo‘yildi. Bu bilan hukumat ma’murlari mustamlakachilik mafkurasining ustunlaridan bo‘lmish N.Ilminskiy ko‘satmalariga amal qildilar. E’tibor bering, Ilminskiy o‘z maslakdoshi Sinodning ober-prokurori K.P.Pobedanossevga yo‘llagan maxsus maktubida uni nimalardan ogoh bo‘lishga da’vat etadi: “Olimlardan va o‘ta bilimli o‘qituvchilardan ehtiyot bo‘linglar. O‘ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga nisbatan ularni qattiq kuzatuv ostiga olinglar. Rus bilimini olmagan, rus tilini bilmaydigan fanatik biz uchun ruscha bilim olgan tatarga qaraganda yaxshiroq, yanada yomoni aristokrat, undan ham yomoni universitet bilimini olgan kishidir. Biz uchun eng munosib odamlar rus tilini yaxshi bilmasligidan qizaradigan, anchagina xato bilan yozadigan, gubernatordangina emas, oddiy ma’murlarimizdan qo‘rqib turadigan kishilardir.”16

Nihoyat, Gasprinskiyning Turkistonga birinchi safaridan 8 yil keyin 1901 yilda Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan dastlabki usuli jadid maktabi ochildi. Buning davomi sifatida 1903 yilda Samarqandda Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan shunday maktablar tashkil etildi. Turkistonda yetishib chiqqan eng buyuk islohotchilardan biri bo‘lgan Munavvarqori Gasprinskiy ergashib, usuli jadid maktablarida o‘qituvchilik qildi ham usuli jadid maktablari uchun zamonaviy o‘qituvchilar tayyorlashda faoliyat ko‘rsatdi. Bu bilan kifoyalanmagan Munavvarqori usuli jadid maktablari uchun dastlabki darslik kitoblarini shaxsan o‘zi yaratdi. U tarbiyalab yetishtirgan aka-uka Eshonxo‘ja va Husanxo‘ja Xoniy, aka-uka Sobirjon va Shokirjon Rahimiy, Salimxon Tillaxon o‘g‘li, Shorasul Zunnun, Qayum Ramazon kabi o‘qituvchilarning g‘ayrati bilan Toshkentda usuli jadid maktablarining miqdori 16 taga yetdi. Buning natijasi o‘laroq Toshkentda tezlik bilan amalga oshirilgan bu harakatlar avval Qo‘qon, keyinroq esa Xiva va Buxoro xonliklariga yoyildi hamda qisqa fursat ichida bu diniy markazlarda yuzga yaqin usulijadid maktablari ochildi.

Shunday qilib, Ismoilbek Gaspralining Rossiya tasarrufidagi turkiy xalqlarning islom dinidan ajralmagan holda zamonaviy ta’lim tizimiga o‘tish uchun olib borgan kurashlari muvaffaqiyatli davom etayotgan edi. Bu yuksak muvaffaqiyat, albatta, Ismoilbek Gasprinskiy hayotida yuz bergan eng baxtli hodisalardan biri edi.

6-мавзу. XX аср бошидаги адабий баҳслар ва уларнинг адабий-эстетик тафаккур ривожидаги ўрни

Ўзбек мумтоз адабиётига ворислик масалалари хусусида сўз юритилганда, унинг аниқ шакллари бўлган жиҳатлар, яъни мумтоз жанрларнинг янги адабиётдаги яшаш “тарзи”, аруз вазни, унинг XX аср бошларидаги

ўзгаришлари ҳамда қофия ва бадиий санъатлар ҳақидаги қарашлар Фитрат, Чўлпон ва Вадуд Маҳмуд мақолаларида ўз аксини топган.

Фитрат “Форс шоири Умар Хайём” (1929) рисоласида улуғ шоир ва аллома яшаган давр хусусида гапириб, Хайём ижод билан машғул бўлган даврдаги адабий жанрлар, хусусан, *маснавий, қасида, ғазал, рубоий* каби жанрларнинг хос хусусиятларини аниқлайди. Маснавий ҳақида сўз юритар экан, Асадий, Фирдавсий, Дақиқий каби шоирлар бу жанрда “донг қозониб”, Низомий эса форс тилидаги достончиликни юқори босқичга кўтарганини айтади. Қасида жанри “сосоний, ғазнавий, хоразмшоҳий саройлари ҳукмдорларини” ҳимоя қилиш руҳида битилганини қайд этади.

Фитрат Саъдий Шерозийни ғазал ва маснавий шаклини ривожлантиришга ҳаракат қилган шоир сифатида эътироф этади, у ҳақда “қасидачилиққа қарши исён байроғини кўтарди... ғазалчилик ва маснавийчиликни илгари бостирмоқ истади”, деб ёзади. Кўринадики, қасида кўҳна адабий жанр сифатида мавжуд бўлса, ундан кейинги шеъриятда ғазал ва маснавийга мурожаат этиш орқали жанр имкониятлари кенгайгани ҳақида назарий хулосага келади.

Фитрат қарашларида рубоийнинг илдизлари миллий адабиётимизда пайдо бўлгани, форс адабиётидаги рубоийлар турк шеърларининг таъсирида шаклланган и таъкидланади. Унсурий, Асжадий, Фаррухий, Фирдавсий томонидан уларнинг ҳар бири бир мисрадан айтилган рубоийни келтириш орқали улар орасида Унсурийни рубоийнависликда бошқалардан юқори эканлигини эътироф этади. Фитрат домла форс шоирлари ва шеърий шакллар ҳақида ёзар экан, *мусаммат, қитъа, мустаҳзод* каби жанрларни ҳам эътибордан соқит қилмаган ҳолда шоирлар ҳар бир шеърий шаклда бирдай ижод қилмаслиги, бирлари маснавийда, бирлари ғазалчиликда, айримлари қасидачиликда устун эканлигини айтиб, рубоийчиликни бутун дунёга танитган бирдан-бир шоир Умар Хайём бўлганига алоҳида урғу беради. Шу ўринда туркий шеъриятда рубоийнинг ўрни ҳақида сўзлаб, Бобур

рубоийнависликда улуғ шоирга яқинлашган бирдан бир ижодкор эканини таъкидлайди.

Фитрат адабиётга “фикр, туйғуларимиздағи тўлқунларни сўзлар, гаплар ёрдами билан тасвир қилиб, бошқаларда ҳам худди шу тўлқунларни яратмоқдир”[29] дея таъриф берган бўлса, шеърга алоҳида эътибор қаратиб, “вазн ва қофияси бўлған ҳар бир сўз тўдасини” шеър деб аташ янглиш эканлигини кўрсатади, форс-тожик адабиётшуносларининг бу борадаги “шеър қофияси, вазни бўлган гапдир” деган таърифига ҳам танқидий муносабатда бўлади.

Фитрат “эски ёзғучиларимиз асарнинг бирлигини сақламоқчи бўлиб, “аммо ровиёни ахбор ва ноқилони осор андоқ ривоят қилурларким” деб ҳикоя қаҳрамонларининг туғилган кунидан бошлаб вафотига қадар бўлиб ўтган воқеаларни бир йўсинда тизишликни оқламайди, бу ўқувчиларни “бездиради ва уларнинг миясига оғирлик қилади” деб ҳисоблайди. Чўлпоннинг “Қор қўйнида лола” ҳикояси эски шаклда “Андоқ ривоят қилурларким...” деб бошланмагани, муаллиф тўғридан-тўғри воқеалар ичига кириб боргани ўринли эканини тасдиқлайди. Демак, Фитрат талқинидаги шоир Чўлпон шеъриятда янгиланишлар тарафдори бўлгани каби насрда ҳам анъанавий ровийликни бевосита воқеалар тасвири билан алмаштириб реалистик услуб тамойилларига яқинлашди.

Фитрат ишқ мавзусида “эски-янги шоирлар” кўп ёзгани, “фикрларнинг бир-бирига ўхшағанлари очиқ кўринадур” дейиш билан бирга бу мавзуда янги шаклда шеърлар ҳам пайдо бўлганлигини қайд этиб, Чўлпоннинг “Кетдингми мангуга ташлаб, Қолдимми қайғуларим-ла?” мисраси билан бошланувчи шеърини бунга мисол қилиб кўрсатади.

Фитрат “услубнинг хусусий ҳоллари” деб белгилаган бадиий санъат турларидан жонлантириш ҳақида “инсондаги даражада тириклиги бўлмаган нарсаларга, жониворларга инсондаги тирикликнинг ҳолларини, сифатларини тақмоқдир” деб таъриф беради. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун”

[29] Фитрат. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма. – Б.21-22.

достонидаги Мажнунга қайғудош бўлган *гул, булбул, оғоч* тасвирини жонлантириш санъатининг “жонли бир ўрнакидир” дея баҳолайди. Жадид шоирларидан Чўлпон ва Элбекдан мисоллар келтириш орқали уларни “жонлантириш санъатининг чиройлик ўрнаклари” эканини таъкидлайди.

“Адабиёт қоидалари”да муаллиф “Сўраш” деб номланган санъатга мумтоз шеъриятдан Лутфийнинг “Боқмас менга жанона, ажаб ҳолат эмасму?” деб бошланувчи ғазалини мисол келтириш билан “чинликни йўқотмасдан, кучли туйғуларни англатган”ини эътироф этади. Чўлпоннинг

“*Бир-ики яхши сўз айтдик,*
Ҳолимни онглағанингми?”

деб бошланувчи шеърини “билмасликка солиш”, яъни тажоҳули орифонанинг “кучли ўрнаги” сифатида қайд этади. Демак, бу ўринда ҳам мумтоз поэтик санъатларга мурожаатда шоир Чўлпон самарали ижод қилаётгани таъкидланади. Фитрат “қаршилик” санъатига Бобур, Боту, Чўлпондан мисол келтираркан, бу ўринда мумтоз ва замонавий деган айирмаларга бормайди. Балки ушбу санъат мумтоз шеъриятда ҳам, замонавий шеърларда ҳам бирдай қўлланила оладиган санъат тури эканлигини ёзади. Бобурнинг “Юз ёмонлиғ кўриб ондин телба бўлдунг, эй кўнгул, Яхшиликни кўз тутарсан ул паривашдин яна” байтида ҳам, Ботунинг “Ёруғликни севатурған бизнинг тинуқ кўнглимиз, Қачонғача қоронғулар ичра қолар бўғулуб” мисраларида ҳам қаршилик санъати борлигини аниқлайди. Аммо олим “қаршиликнинг энг яхшиси “фикрлар”аро қаршиликдир” деб белгилайди ва бунга мисол қилиб, Чўлпоннинг “Мен ва бошқалар” шеърини ҳамда Бобурнинг “Эл барча пушаймон бўлуру тавба қилур, Мен тавба қилибмену пушаймондурмен” байтини келтиради[30]. “Қайтиш” (ружуъ) санъатининг “сўнгғаги фикрнинг бурунғи фикрдан кучли бўлиши лозим” бўлишлик талаби билан Навоий шеъриятига юзланади.

[30] Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Б.73.

Бунинг давомчиси сифатида Ботунинг “Йиғлаб турдим, йиғлаб турдим эмас, унда тийрак ўлдим” мисрасини беради. Аммо биринчи мисрадаги фикрдан кейинги фикр кучсизроқ чиқса, “қайтишнинг маъноси қолмайди” дея таъкидлайди[31].

“Аруз ҳақида” рисоласида “инқилобдан кейин ўзбек совет адабиётида аруз жуда оз ишлатила борди, бунга ижтимоий сабаблар бор эди” дейиш билан арузга танқидий кўз билан қараганликларининг сабабини тушунтириб берди. “Аруз вазни шеър вазнларининг бой ва энг музикалиларидан бири-дир... аруз системаси шундай бир системаки, уни яхши ўрганган одам шунга мувофиқ янги-янги вазнлар ҳам туза олади... Арузнинг энг жонли, ўйноқи ва энг музикали вазнлари шу қўл текизилмаган қисмда туради” деб замондош шоирлар шеърларидан намуна олади. “Булардан (яъни аруз вазнидан – Т.М.) фойдаланиш, албатта, фойдали иш. Букун ўзбек совет шоирларидан баъзилари аруз вазнларида муваффақият билан фойдаланмоқдалар” дея Ғафур Ғулом мухаммаси ва Усмон Носирнинг маснавий вазни – мутақорибда ёзган шеърини мисол тариқасида келтиради. Бунинг натижасида Фитрат янги шеърият ҳар “иккала системадан фойдаланишга тиришса бўлур” тарзида хулосага келади[32]. Бу билан “Аруз ҳақида” рисоласи замонавий шоирлар учун амалий дастур ҳам бўлиб хизмат қилиши мумкинлигига ишора қилади.

Демак, Фитрат XX аср бошлари жадид шеърияти мумтоз анъаналарни давом эттира олиш билан мумтоз адабий жанрлар, бадиий санъатлар, аруз вазнини қўллаш борасида фаоллик кўрсатганини таъкидлайди. Чўлпон, Боту, Ғафур Ғулом ва Усмон Носир каби замонасининг пешқадам шоирлари ижодида бу анъаналар давом этаётганлигини асосли мисоллар билан исботлай олди.

Вадуд Маҳмуд “Фузулий Боғдодий” мақоласида ворислик ва адабий таъсир масаласини ўрганишда Навоий-Фузулий-Амирий муносабатини асос қилиб олган. Мақолада “Фузулийнинг Туркистонга таъсири” сарлавҳали

---

[31] Кўрсатилган асар. – Б. 74.
[32] Абдурауф Фитрат. Аруз ҳақида / Танланган асарлар. 5-жилд. – Б. 230.

махсус бўлим ажратиб, унда буюк озарбойжон шоирининг Абдулҳамид Чўлпон лирикасига таъсирига алоҳида тўхталади. Бундай таъсир натижасида ёзилган "ғарб туркчасида"ги уч бандлик *"Илк аввал гўзими ишқ ила очдим"* деб бошланувчи шеърини келтиради[33]. Мумтоз адабиётнинг XX аср шеъриятига таъсирининг яққол намунаси бўлган ушбу муносабатни эътироф этган ва Вадуд Маҳмуд мақоласини чуқур таҳлил қилган озарбойжон олимаси Гулшан Алиева-Қанғарли мунаққид ҳақида шундай хулоса қилади: "Вадуд Маҳмуднинг "Фузулий Боғдодий" мақоласи XX асрнинг 20-йилларидан эътиборан янги босқичга қадам қўйган ўзбек фузулийшунослигининг илк илмий-назарий изланишлари каби ўзидан кейинги жиддий тадқиқотлар яратилишига асос бўлди. Маълум маънода тўлалигича озарбайжон-ўзбек адабий-маданий алоқаларининг ривожланишида етарлича муҳим рол ўйнади. Шунга кўра ҳам ўзбек фузулийшунослигининг кейинги босқичларидаги ютуқларини изларканмиз, биз Вадуд Маҳмуд тадқиқотига қайта-қайта мурожаат қиламиз"[34].

Вадуд Маҳмуд Фузулий шеъриятини ўрганиш кераклиги ҳақидаги умумий фикр билан чекланмай, балки унинг изидан бориб, вазнда ва ҳатто тилда "ғарб туркчасига" эргашишнинг амалий намунасини берган шоир Чўлпон шеърини тақдирлайди (ушбу шеърнинг бадиий хусусиятлари кейинги фаслларда таҳлилга тортилган – М.Т.). "Бу кунги шеърларимиз ва санъаткорларимиз" тадқиқотида "Бу эски ва янги адабиётнинг хусусиятларида кўриндики, янги адабиёт эскидан назм техникаси эътибори билан анча айри ва асл хусусиятларга моликдир. Фақат кўрайлик, қани, бизнинг шоирлар бу хусусиятларни қанча ўзлаштирганлар ва қанча муваффақ бўлганлар... Бу робиталарни эски шеърга уста Фитрат билан янги шеъримизнинг биринчи намояндаси Чўлпоннинг оз-моз риоя қилғанини

[33] Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б.48.
[34] Алиева-Канғарли Г. Фузулийшунослик тарихи ва назарияси. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2012. – Б. 263.

кўрамиз”[35], – дейиш билан мумтоз вазн ва бадиий воситаларнинг замонавий шеъриятда қўлланилиш “техникаси”га эътибор қаратади.

Чўлпон “Ўзбек билим ҳайъати” эътиборига ҳавола қилинган “500 йил” мақоласида[36] Навоийнинг ҳижрий-қамарий йил ҳисобида 500 йиллик тантанасини ўтказиш талаби билан мурожаат қилиб, “Навоийнинг босилмаган асарларини топиб босдиришга, лозим кўрилганларини босдириш чорасини кўриш” ва Навоийнинг мукаммал таржимайи ҳолини эълон қилинишини талаб қилади.

Чўлпоннинг мумтоз адабиёт манбаларига муносабати масаласи кескин акс этган мақолаларидан бири “Улуғ ҳиндий” асаридир. Мақолада ёзилишича, “Эски адабиёт билан янги адабиётнинг ўртасида қолған шарқли ёш чинакам чучмал бир вазиятдадир. Эски адабиёт бир ширин, янгиси яна ширин, ғарбники тағин – яна ширин. Қайси биттасига кўпроқ берилсин? Бири биридан ширин ахир!”[37] деб мумтоз манбаларга мурожаатда “йўлсизлиқ” ҳолидан сўз очади. Мумтоз шоирлардаги “бир хил”лик Чўлпонни қониқтирмайди. Аввало, бу ерда “бир хил” дейилганда шоир кўпроқ вазн хусусиятини назарда тутган. Қолаверса, мумтоз адабиёт намуналаридаги анъанавий бир хил бошланмалар шоирни мураккаб ҳолга солади. Бундан ташқари, татар, озарбойжон, турк насридаги айрим асарларни санаб ўтаркан, “улар шу қадар озки...” деган хулосага келади. Чўлпон бу ўринда мумтоз шеъриятни бутунлай рад қилмайди, балки янги ғарб руҳидаги реалистик насрга ташна эканлигини ёзган эди. Шунингдек, шоир мумтоз анъананинг бутунлай йўқ бўлиш тарафдори ҳам эмас, балки анъанавийлик билан замонавийлик ўртасига “олтун кўприк” қурган Тагорни эътироф этмоқчи бўлган холос. Чўлпоннинг бу қарашлари “Тагўр ва тагўршунослик”[38] мақоласида янада аниқроқ кўринади: “Тагорнинг энг катта

[35] Маҳмуд В. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б.83.
[36] Чўлпон. 500 йил / Асарлар. 4-жилд. – Б. 20.
[37] Чўлпон. Улуғ ҳиндий / Асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.31-32.
[38] Чўлпон. Тагўр ва тагўршунослик / Асарлар. 4-жилд. – Б. 33-38.

ва Шарқ руҳи билан Ғарб асосини бирлаштирган асари” хусусида гапираркан, шоир уни бир адабий мактаб яратувчиси сифатида таништиради.

Шоирнинг “Увайсий” мақоласида Ғулом Зафарийнинг “Ҳалима” операсида куйга солиб айтилган Увайсий ғазали ва “Ироқ” муносабати билан келтирилган

Забонингни кетургил, эй шакарлаб, тўти гуфтора,
Нечукким, марҳамат бўлсин неча мандек дилафгора, –

байти орқали ушбу ғазал таҳлилига киришилган[39]. Чўлпон шоиранинг “Карбалонома”, “Девон”, “Хитой сафари” (Муҳаммад Алихонга бағишланган) асарларига баҳо бериб, унинг бадиҳагўйликда шуҳрат қозонгани ва бир тўртликда “анорни қандай гўзал ва санъаткорона тасвир қилган”ини таъкидлайди. Бу мақола орқали Чўлпон мумтоз шеъриятнинг гўзал намуналарини қадрлаш билан бирга унга кўр-кўрона эргашиш эмас, балки миллий анъаналарни янги заминга пайванд қила оладиган адабий асарлар ёзиш кераклигини уқтиради. Бундай фикрнинг давомини унинг “Базм-чолғи тўдаси” мақоласида ҳам ўқиймиз: “Чинакам бизнинг чолғимиз йўқолиб кетишидан сақланмоғи лозим, куйларимиз унутилиш ва бузилишдан асралмоғи даркор... Бизнинг вазифамиз – ўшаларни тор бурчаклардан кенг майдонларга олиб чиқиш, ўсдириш, парвариш қилиш, тарбия беришдир”[40]. Бу сўзлар тамомила мумтоз адабиётга ва унинг юксак адабий тури бўлган шеъриятга ҳам тааллуқлидир. Чўлпон дунёқарашидаги ушбу йўналишни чуқур англаган У.Султонов ўзининг номзодлик диссертациясида Чўлпоннинг “изланиш, тажрибалар, жаҳон адабиётини ижодий ўрганиш хусусидаги фикрлари янги давр адабиёти принципларини қарор топишида ижобий таъсир кўрсатди”[41] деган хулосага келади.

---

[39] Чўлпон. Увайсий / Асарлар. 4-жилд. – Б. 45.
[40] Чўлпон. Базм-чолғи тўдаси / Асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 96.
[41] Султонов У. Чўлпоннинг адабий-танқидий қарашлари. Филология фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 87.

Демак, Чўлпон мумтоз адабий жанр ва тимсолларга муносабатда уларни рад этиш йўлидан бормаган, аксинча, мумтоз адабиётнинг чексиз бадиий имкониятларини ўрганиш орқали замонавий шеърият тараққий этиши мумкин эканини кўрсатиб берган. Мавзу юзасидан хулосаларимиз шундай:

1. Адабий жараён ҳодисасини ўрганишда *анъана ва янгилик*, маданий меросга *ворислик* ва *адабий таъсир* масалалари адабиётшуносликнинг муҳим илмий муаммолари саналади. Мумтоз адабий меросга ворислик мавжуд анъаналарни янгилашда, уларни янги давр шароитига мос ҳолда келажакка ҳам тақдим қилишда кўринади.

2. Жадид адабиётида таъсирланишни икки аспектда кузатамиз. Биринчи ҳолат нисбатан фаол бўлиб, унда жадид шоирлари тўғридан-тўғри улуғ ижодкорлар асарларига мурожаат қиладилар. Иккинчи тур боғланишда ижодкорлараро муносабат бевосита амалга ошиши мумкин (буни Д.Дюришин "генетик алоқадорлик" деб атаган), даврлараро муносабатда эса бевосита таъсирдан ташқари, "таъсир этувчи" ва "таъсирланувчи" ўртасида учинчи объект орттирилиши мумкин экан.

3. Араб-форс шеърияти билан ўзбек адабиёти ғоя ва мотивлар, тимсоллар силсиласи, ифода шакллари, шеър навълари ва насрий жанрлардан тортиб бадиий воситаларгача муштарак бўлгани маълум. Бу анъана ва адабий таъсирнинг бир минтақада мавжуд бўлган бир неча адабиётлар кесимида ўрганилиши лозим бўлган масалалардандир. Адабий анъана доирасига ўтмиш адабиёти эришган ютуқлар, тўплаган тажрибаларнинг ҳаммаси ҳам эмас, балки унинг муайян давр ижодкорлари томонидан долзарб деб топилган, боқий қадрият сифатида баҳоланган ва ўз ижодий фаолиятларида намуна деб ҳисоблаган қисмигина киради.

4. Ҳар бир авлод ўтмиш адабиётига муносабатда бўлар экан, унга фаол ижодий ёндашади, салафлар тажрибасини ўз даври қўйган бадиий-эстетик вазифаларни бажаришга хизмат қилдиради. Жадид адабиёти ҳам мумтоз адабий манбаларга мурожаат масаласида Қуръони карим, Ҳадиси шарифга оид манбалар асосида миллат тарбиясига киришмоқ истагини ифода қилган.

Фитрат, Абдулла Авлоний, Беҳбудий каби ижодкорларнинг ислом тарихига оид ихчам рисолаларида Носириддин Рабғузийнинг “Қисаси Рабғузий”, Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асарларида тилга олинган сиймо ва анъанавий тимсолларга мурожаат қилинган.

5. Жадид олимлари мумтоз адабиётнинг илк даврида юксак маърифатпарварлик ғоялари, жумладан, Юсуф Хос Ҳожиб ва Адиб Аҳмад Югнакий ижодидаги маърифий тарбия масалаларини ўз замонасининг адабиёти ва амалий фаолияти билан боғлаш учун “Мунозара”, “Ҳинд сайёҳи баёноти”, “Нажот йўли” (Фитрат) каби асарларда маърифатга чорловчи қаҳрамон тимсолини киритди ҳамда маърифий ғояларни ўз ҳолича адабий тамойил сифатида адабиётга олиб кирдики, бу ҳолат Авлоний, Ибрат, Ажзий ижодида ҳам бош тамойилга айланди.

6. Ўзбек жадид адабиётининг форс мумтоз достончилигига алоҳида эҳтиром билан қараганини Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асарига муносабатда кўришимиз мумкин. Фитрат Фирдавсий ижодига бир неча мақолалар бағишлади, Чўлпон “Шоҳнома” сюжети, мотивлари, тимсоллар тизими ва қаҳрамонларини жадид адабиёти билан боғлашга ҳаракат қилди. Фитрат ва Чўлпон “Шоҳнома” мавзулари асосида яратилган саҳна асарлари ҳақида ёзилган мақола ва тақризларида жадид адиблари мумтоз адабиётнинг қайси жиҳатларидан озиқланганини кўрсатиб бердилар.

7. Алишер Навоийдай буюк сўз соҳири ижодига муносабатда унинг ўлмас анъаналари: тимсоллар тизими, поэтик воситалар, ифода ва баён услуби орқали замонавий адабиёт ўзлаштириши лозим бўлган жиҳатларни тарғиб этиб, ҳар бир ижодкор бу беназир ҳикмат ва санъат мактабидан озиқланиши лозимлигини ўзларининг назарий қўлланма ва мақолаларида эслатдилар, амалда қўллаб-қувватладилар.

8. Вадуд Маҳмуднинг Фузулий ҳақидаги мақоласида адабий таъсир масаласи – Навоий-Фузулий-Амирий муносабатида кўрсатиб берилди. Фузулий ижодининг ўзбек шоирларига таъсири жиҳатидан Абдулҳамид Чўлпон лирикасига тўхталиб, бу таъсир натижасида ёзилган “ғарб туркча-

сида”ги шеърларни таҳлил қилиш орқали Фузулий анъаналарининг давомийлигини қайд этиш билан адабий ворисликнинг яна бир шаклини аниқлаб берди.

9. Жадид олимларидан Фитратнинг ишларида мумтоз бадиий санъатларга муносабатда “услубнинг хусусий ҳоллари”, “сўз ўйунлари” каби таснифлар орқали ўнлаб бадиий санъатларнинг жадид шеърияти поэтикасидаги ўрни кўрсатиб берилди. Мумтоз бадиий санъатлардан фойдаланиб, самарали ижод қилаётган Чўлпон, Боту, Элбек каби шоирларнинг шеърлари таҳлилга тортилди, асар бадиийлигини таъминлашдаги ўрни илмий асосланди.

10. Аруз вазнига муносабатда Фитрат “Аруз ҳақида” тадқиқоти орқали бу вазн “музей экспонати” (Абдулла Қаҳҳор) эмас, балки адабий жараёнда фаол қўлланилаётган вазн экани, Ғафур Ғулом, Ҳамид Олимжон, Усмон Носирнинг шеъриятини бойитиб турган омиллардан бири бўлганини асосли мисоллар билан исботлаб берди.

11. Чўлпоннинг мумтоз адабиёт манбаларига муносабатда кескинроқ айтилган танқидий мулоҳазалари, мумтоз анъаналарни рад этувчи қараш деб эмас, балки уларга мурожаат этишда “бир хил”ликдан қутилиш учун янги замин билан пайвандлаш зарурати нуқтаи назаридан талқин қилиниши мумкин.

7-мавзу: Жадид адабиётида Шарқ ва Ғарб маданияти масалалари талқини

Ҳар қандай миллий адабиёт ўз тараққиёти давомида тарихий-маданий янгиланиш шароитида ўзигача ўтган бадиий меросга таянади, ўтмиш адиблари ижодини қайта идрок этади ва уларнинг ижодий хусусиятларини ўзида мужассам этади. Мумтоз бадиий меросга ворислик ана шу анъаналарни янгилашда, уларни янги давр шароитига мос ҳолда келажакка ҳам тақдим қилишда кўринади. Шунинг учун ҳам адабий жараён ҳодисасини ўрганишда

анъана ва янгилик, маданий меросга *ворислик* ва *адабий таъсир* масалалари адабиётшуносликнинг муҳим илмий муаммолари саналади.

Анъана ва ворислик нафақат бадиий адабиёт, умуман, санъатга хос ҳодиса, балки у фалсафий категория бўлиб, жамият тараққиётининг муҳим омили экани ўз даврида аниқлаб берилган. “Бутун тарих давомида, – деб ёзади файласуфлар, маданий меросдан фойдаланиш ва уни ўзлаштириш жараёни икки хил аспектда содир бўлган. Ворисликнинг биринчи (“вертикал”) аспекти ўтмиш билан ҳозирги замоннинг ўзаро боғлиқлигини ифодалайди. Бошқа бир (“горизонтал”) аспекти эса бир даврда мавжуд бўлган маданиятларнинг ўзаро таъсири жараёнидаги ворислик кўринишидир”.[42] Гарчи формал бўлса-да, бундай қараш адабий анъана ва ворислик муаммосига ёндашишнинг икки хил йўлини белгилаб беради. Иккинчи йўналишни Д.Дюришин “Адабиётни қиёсий ўрганиш назарияси” китобида “Ички алоқалар” номли махсус боб келтириб, унда бевосита ва билвосита таъсирланиш ҳоллари мавжудлигини ажратиб кўрсатади. Бевосита таъсирланишда икки объект: таъсир қилувчи ва таъсирланувчи иштирок этадиган бўлса, билвосита таъсирда учинчи объектга эҳтиёж туғилади ва бу объект биринчи ва иккинчи объектларни боғловчи вазифасини бажаради[43]. Бу ўртада турувчи объект бирор шоир ижоди, бирор асар ёки айрим асардаги мотив, сюжет ва тимсоллар бўлиши мумкин. Жадид адабиётида таъсирланишнинг ҳар икки жиҳатини кузатамиз. Энг кўп учраган биринчи ҳолат бўлиб, унда жадид шоирлари тўғридан-тўғри улуғ ижодкорларга боғланади. Масалан, Авлоний ғазалларининг Навоийга боғланиши, Қодирий асарларининг Бобур насри билан боғлиқ жиҳатлари каби. Иккинчи тур боғланишда Авлоний ҳикоятларида, бир жиҳатдан, Саъдийнинг “Гулистон” асарининг таъсири яққол кузатилса ҳам бу анъана жадид насрига етиб келгунга қадар Навоий ёки Хожа ҳикоятларида қўлланилгани туфайли, Саъдий-Авлоний муносабатида Навоий ёки Хожа асарлари билвосита “ўрта

---

[42] Баллер Э.А., Исмоилов Ф.Ю. Ворислик нима? – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.21.
[43] Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: 1975. – С. 118-119.

объект” вазифасини бажаради. Демак, “адабий таъсир назарияси”да ижодкорлараро муносабат бевосита амалга ошиши мумкин (буни Д.Дюришин “генетик алоқадорлик” деб атаган), даврлараро муносабатда эса бевосита таъсирдан ташқари, “таъсир этувчи” ва “таъсирланувчи” ўртасида учинчи объект орттирилиши мумкин экан.

Юқорида баён қилингани каби “вертикал” аспектда вақт нуқтаи назаридан адабиётдаги ҳодисалар, улуғ адиблар тажрибаси, тимсоллар тизими, бадиий воситалар ва бошқа бадиийлик унсурлари ўзидан кейинги давр ҳодисаларига таъсири орқали юзага чиқади. Чунки ҳар қандай тараққиёт у ёки бу даражада ўзигача бўлган адабиёт билан ворислик алоқалари асосида шаклланади. Бу жиҳатни биз бир тил ёки бирор ҳудуд ҳамда минтақа адабиёти мисолида кўришимиз мумкин. Бундан ташқари, айрим улуғ даҳолар тажрибалари, уларнинг ижодий тамойиллари бир миллат ёки минтақа ва адабий муҳит ҳудудидан тошиб чиқиб, бутун дунё маданиятига ўз таъсирини ўтказиши ҳам мумкин. Бу ҳодисани жаҳон адабиётшунослари Фирдавсий, Низомий, Яссавий, Данте, Жомий, Навоий, Шекспир, Бальзак, Пушкин, Толстой ва шу каби юзлаб улуғ даҳолар ижодий тажрибасининг оммалашуви тарзида кўрсатганлар. Олмон олими Макс Верли ёзишича, “умумжаҳон маданий жараёнига ўз анъаналари, ифода тарзи, тараққиёт йўллари билан кириб келган Европа адабиёти, нафақат анъана ва ворисликнинг боғловчи воситаси сифатида қатнашган, балки бадиий адабиётдаги поэтик моҳият (субстанция)лар кристаллашувига ҳам таъсир кўрсатган”.[44] М.Верли бундай “адабий анъаналар бирлиги”ни немис адабиёти мисолида ҳам баён қилиб, Гёте ижоди ўзидан кейинги ҳамма даврларда нафақат Германия адабиётига, балки жаҳон адабиётига таъсир кўрсатган манба эканини ёзади. Худди шундай ҳолатни Марказий Осиё адабиётига, умуман, ислом маданияти таъсирида ривожланган адабиётларга нисбатан ҳам кузатиш мумкин. Чунки араб-форс шеърияти билан ўзбек адабиёти ғоя ва

[44] Верли М. Единство литературной традиции / Общее литературоведение. – М.: Иностр. литература, 1957. – С. 218.

мотивлар, тимсоллар силсиласи, ифода шакллари, шеър навълари ва насрий жанрлардан тортиб бадиий воситаларгача муштарак бўлгани маълум. Бу анъана ва адабий таъсирнинг адабиётлараро кесимида ўрганилиши лозим бўлган масалалардан биридир. Адабий анъана ва ворислик муаммосини ўрганишда кўпроқ олимлар форс ва туркий адабиётларнинг ўзаро муносабатида иш кўрадилар. Масалан, “Навоий ва адабий таъсир масалалари” китобига жамланган мақолаларда Алишер Навоий ижодига таъсир этган омиллар сифатида Фирдавсий, Низомий, Саъдий, Ҳофиз ижоди, илмий манбалар сифатида Арасту, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Ибн Рушд кўрсатилади[45]. Бу тўпламдаги бошқа мақолаларда эса Навоий ва замонамиз (И.Султон), Фоний ва Ҳофиз (А.Мирзоев), Навоий ва Самарқанд шоирлари (В.Абдуллаев), Навоий ва Хусрав Деҳлавий (Ё.Исҳоқов), Навоий ва Ҳасан Деҳлавий (А.Ҳайитметов), Навоий ва Ҳусайн Бойқаро (С.Ғаниева) ва ҳоказо тарзида масала қўйилган[46]. Кўринадики, бу ўринда адабий таъсир масаласида юқорида файласуфлар тавсия этган “вертикал” ҳамда “горизонтал” аспектлар аралаш ҳолда қўлланилган. Шунингдек, мазкур тўпламда Навоий даҳоси билан унинг салафлари, Навоий ва замони, Навоий ва кейинги улуғ адиблар ижодидан тортиб Навоий ва шўро адабиёти масалаларигача (Ҳ.Ёқубов мақоласи) қамраб олишга ҳаракат бўлган. Проф. Н.Каримов олмон олимаси Зигрид Клайнмихелнинг “Алишер Навоий ва Аҳмад Пошо” тадқиқоти хусусида тўхталиб, “шу вақтга қадар XX аср туркий халқлар адабиёти, шу жумладан, ўзбек адабиёти ва фольклори билан шуғулланиб келгани учун унинг Навоий ижодига қизиқиши ва айниқса, ўзбек адабиётшуносларига номаълум бўлиб келган ўзбек-турк адабий алоқалари тарихини муҳим бир саҳифасини ёритиб бериши камина учун кутилмаган янгилик бўлди”, деб ёзиш билан мазкур ижодий жараёнга назирагўйлик нуқтаи назаридан ёндашади: “Зеро назирагўй шоирларнинг асосий мақсади устоз шоирлардан

[45] Зоҳидов В. Навоий дунёқарашининг асосий манбалари / Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 3-27.
[46] Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968.

ғазал ёзиш санъатини ўрганиш, улардан бадиий маҳорат бобида сабоқ олишдир”[47].

Проф. М.Муҳиддинов “Адабий анъана ва ижодий ўзига хослик” асарида “ўзбек адабиёти тарихининг бир қатор муҳим масалаларини чуқурроқ ўрганиш, Навоий ижодининг асосини, салафлар шеърияти билан муштарак кўринган жиҳатларини ёритишга ҳаракат... китобхонларнинг Шарқ адабиёти ҳақидаги билимларини кенгайтиришга кўмаклашади”, деб ёзади[48]. Биргина Навоий ижоди билан боғлиқ адабий анъана, издошлик ва таъсир масалаларини эмас, балки бу умумҳодисани ифода қилаётган тушунча ва истилоҳларнинг назарий мазмунига эътибор қаратсак, масала яна ҳам мураккаброқ кўриниш олади.

“Адабиётшунослик луғати”да адабий анъанага шундай таъриф берилган: “Адабий анъана – ўтмиш адабиёти тўплаган ижодий тажрибалар қаймоғи, даврлар ўтиши билан аҳамияти ва долзарблигини йўқотмаган, боқий қадриятга айланиб, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган қисми. Демак, адабий анъана доирасига ўтмиш адабиёти эришган ютуқлар, тўплаган тажрибаларнинг ҳаммаси ҳам эмас, балки унинг муайян давр ижодкорлари томонидан долзарб деб топилган, боқий қадрият сифатида баҳоланган ва ўз ижодий фаолиятларида намуна деб ҳисоблаган қисмигина киради. Ҳар бир авлод ўтмиш адабиётига сайлаб муносабатда бўлади, унга фаол ижодий ёндашади, салафлар тажрибасини ўз даври қўйган бадиий-эстетик вазифаларни бажаришга хизмат қилдиради. Шунга кўра, адабий анъана ва янгилик ҳамқадамлиги қонуний ҳодиса бўлиб, бу иккиси диалектик алоқадаги бирликни ташкил этади ва адабиёт тараққиётининг муҳим ички омилига айланади”[49]. Ўзбек жадид адабиёти ҳам янгиланган шароитда тараққий этишга юз тутган экан, у миллий адабиётимизнинг кўрки бўлган, “боқий қадриятлар сифатида” авлоддан-авлодга ўтиб келган, жаҳон адабий-

[47] Қаранг: Каримов Н. Алишер Навоий ва Аҳмад Пошо / Адабиёт ва тарихий жараён. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2013. – Б. 18, 23.
[48] Муҳиддинов М. Адабий анъана ва ижодий ўзига хослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.4.
[49] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.12.

бадиий хазинасини бойитган Алишер Навоий, Бобур каби буюк шоир ва мутафаккирлар ижодидан маънавий озиқланган, уларда барқарор бўлган маърифий ғоялар, анъанавий тимсоллар, бадиий воситалар ва шу каби адабий унсурлардан унумли фойдаланган. Агар биз анъанага айланган ғоялар ва адабий тажрибалар моҳиятини дунёқараш нуқтаи назаридангина бир-бирига яқин бўлган адиблар ижоди мисолида олиб қарайдиган бўлсак, адабий анъана ва унга ворислик моҳиятини чеклаб қўйган бўламиз. XX аср бошларида кузатилган адабий-тарихий ворислик ўзбек адабиётининг бугуни ва эртаси учун муайян миқёсда асос бўлиши мумкин. Шарқ мумтоз адабиёти тарихига ва ўтмишда яшаб ижод қилган адиблар ижодига мурожаат қилиши, улар яратган маънавият хазинасини тадқиқ ва таҳлил қилиш бугунги кун адабиётининг илдизларига чуқурроқ назар ташлаш имкониятини беради. Шунинг учун ҳам жадид адабиётидаги собит анъаналар хусусида сўз юритганда, аввало, мумтоз адабиётдаги маърифий-эстетик қарашлар, уларнинг янги давр адабиётида ҳам давомийлигини кузатиш мумкин.

Жадид адабиётининг буюк намояндалари сифатида Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Абдулҳамид Чўлпон, Вадуд Маҳмуд танилган бўлса-да, бу адибларнинг ўзлари ҳам бундай юксакликка эришув сабабларини мумтоз адабиётдан ўрганганликлари боисидан деб билдилар. Янги (жадид) адабиёт ўзининг тараққиёти ва келажаги учун мумтоз адабиётдан нималар олди, қандай эстетик тамойиллар асосида тараққий топди?!

XI-XII асрларда яратилган достонлар замирида ётган маърифатпарварлик қарашлари ўзбек адабиёти тарихининг илк намуналаридан тортиб то ҳозирги адабий жараёнга қадар етакчи ғоя сифатида хизмат қилгани маълум. Маърифатпарварлик миллий уйғониш даври ўзбек адабиётининг асосий моҳиятини ўзида қамраб олганини Фурқат ва Аваз Ўтар, Анбар отин ва Ҳамза ижоди мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Бу ўлмас ғоялар жадидчилик даврига келиб, адабий жараёндаги барча ижодкорлар томонидан қўлланилган адабий тур ва жанрлар, шакл ва услубларга ўз таъсирини ўтказа бошлади. Бунинг ёркин далили Беҳбудий ва Ҳожи Муъин драматургияси, Авлоний ва

Ҳамзанинг маърифий дарсликлари, Қодирий ва Чўлпоннинг илк насрида етакчи ғоя сифатида кўзга ташланади. Насрий асарларда асосий ғояга айланган маърифатпарварлик Исҳоқхон Ибрат, Каримбек Камий, Абдулла Авлоний, Сиддиқий Ажзий, Тўлаган Тавалло, Аваз Ўтар сингари XX аср бошларида яшаган шоирлар ижодида асосий мавзуга айлангани сир эмас.

XX аср бошларида кўплаб маърифатпарвар адиблар ижодида муқаддас ислом тарихига мурожаат, шонли тарихнинг айрим лавҳаларини китобхонларга эслатиш орқали уларни маърифатга чорлаш мотивларини кузатиш мумкин. Бу жиҳатдан Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Амалиёти ислом” (1908), “Тарихи ислом” (1909), “Мухтасари тарихи ислом” каби дарсликлари[50] ҳамда Авлонийнинг “Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом” (1910)[51], Абдурауф Фитратнинг “Мухтасар ислом тарихи” (1914, форс тилида)[52] асарлари аҳамиятлидир. Бу ихчам рисолалар ислом тарихидан умумий сабоқ бериш билан бирга унинг айрим мутаассиблар томонидан киритилган схоластик қоидаларнинг ислоҳ қилиниши нуқтаи назаридан ҳам эътиборга молик. Ифода тарзи жиҳатидан эса улар худди бадиий асарлардек равон ўқилади. Шу билан бирга бу рисолалар пайғамбарлик тарихининг муҳим нуқталарини китобхон кўз ўнгида жонли тарих лавҳаларидай берилиши билан ҳам эътиборлидир.

Фитрат ўтмиш адабиётига мурожаат этар экан, биринчи навбатда, мумтоз адабиётдаги маърифатчилик ғояларини янги шароитда давом эттириш лозимлигини англади. Туркий достончиликнинг илк манбалари саналган “Қутадғу билиг” ҳамда “Ҳибату-л-ҳақойиқ” каби асарларда бошланган илм-маърифатга даъват масаласини жадидчиликнинг бош ғояси даражасига олиб чиқди. Ўзининг “...Мунозара”, “Ҳинд сайёҳи баёноти”[53], “Нажот йўли”[54] каби

---

[50] Беҳбудий М. Тарихи ислом / Мухтасари тарихи ислом (Исломнинг қисқача тарихи) / Танланган асарлар. 3-нашри. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 9, 20.

[51] Авлоний А. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом (нашрга тайёрловчи Р.Баракаев). – Тошкент: Ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008.

[52] Фитрат. Мухтасар ислом тарихи (форс тилидан Ҳ.Болтабоев таржимаси) / Танланган асарлар. 5-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 36-62.

[53] Фитрат. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударрисниng жадид мактаблари хусусинда қилған мунозараси; Ҳинд сайёҳи баёноти (форс тилидан Ҳ.Болтабоев таржимаси). Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 46-169.

асарларида ҳам ушбу адабий тамойилга амал қилди. Маълумки, Адиб Аҳмад Югнакий “Ҳибату-л-ҳақойиқ” асарида илм одобига бағишланган ҳадисларни жамлаб, унга шеърий шарҳлар ёзган эди. Айни таълимий достонлар панд-насиҳат оҳангида бўлиши билан шўро даври олимларининг эътиборига тушган ва достонлардаги дидактик мотивларга таяниш кейинги даврлар туркий адабиётида ҳам, жадид адабиётида ҳам анча сезиларли акс этган. Проф. А.Ҳайитметов “Адабий меросимиз уфқлари” китобида мумтоз таълимий асарларга изоҳ бераркан, уларнинг насиҳат-ўгит тарзида шакллантирилганини қайд этиб ёзади: “...насиҳат қилиш одамларнинг ўзаро муносабатларини, бир-бирига меҳр-оқибатини яхшилайди. Насиҳат – бу ҳаётий, илмий, ақлий тажриба бўлиб, кишилар бу тажрибаларидан насиҳат орқали қанча кўп фойдалансалар, уларнинг ҳаёти, ўзаро дўстлиги ҳам шунча яхши бўлади”[55].

Адабий издошлик шароитида ғоя ва мотивлардан ташқари, тимсоллар анъанавийлиги ёки бошқача қилиб айтганда, анъанавий тимсоллар билан иш кўриш жадид шеъриятига хос устивор жиҳатлардан экани намоён бўлди. Мумтоз адабиётда фаол қўлланилган тимсолларга қайта мурожаат этилди, давр талаби билан уларнинг моҳияти янгиланди, айримлари асл ҳолида иштирок этсалар ҳам уларнинг қўлланилиш доираси янги асарлар ҳисобига бойиб, кенгайиб борди.

Ўзбек мумтоз ва жадид адабиётида Фирдавсий “Шоҳнома”си анъаналарининг ўзига хос ўрни бор. Бу жиҳатдан проф. Ҳ.Ҳомидий шундай ёзади: “Биз Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” достонидан тортиб Фурқат маснавийсигача “Шоҳнома” таъсири, анъанани кўрамиз, шоир ва ёзувчиларимизнинг Фирдавсий даҳосидан файз топганликларининг гувоҳи бўламиз”[56]. Айни ҳолат жадид адабиётида, аввало, “Шоҳнома”нинг озарбойжон шоирлари Алиаскар Собир, Рашид Афандизода томонидан

---

[54] Фитрат. Нажот йўли / Танланган асарлар. 5-жилд (форс тилидан Ш.Воҳид ва Г.Музаффарзода таржимаси). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 62-208.
[55] Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 28.
[56] Ҳомидов Ҳ. Навоий ижодида Фирдавсий анъанаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б. 4.

туркчага ўгирилган таржимаси (1906) га муносабатда кўринади. Чўлпон бу ҳақдаги мақолада “Шоҳнома” сюжети, мотивлари, тимсоллар тизими ва қаҳрамонларини жадид адабиёти билан боғлашга ҳаракат қилиб,[57] достоннинг “Сухроб” қисми ҳақида сўз юритади ва бу мумтоз достоннинг таржима этилиши янги яратилажак достонларга бир йўлланма бўлганлигини эслатади. Шамсиддин Хуршиднинг “Фарҳод ва Ширин”, “Заҳҳоки морон” каби драмалари “Шоҳнома”даги сюжетлар асосида ёзилган.[58] Бу асарлар ҳақида XX асрнинг 20-йиллари матбуотида бир неча мақолалар берилди, улардаги анъана ва издошлик муносабати ҳақида даврнинг Фитрат каби етук олимлари томонидан фикрлар билдирилди[59].

Адабий ворислик хусусида махсус тадқиқот яратган рус олими А.Бушмин ёзади: “Тарихий анъаналарга ворислик жамият бадиий тафаккури тараққиётида қонуний ҳол саналади. Бу қонуниятларнинг илмий тўғри ёритилиши бадиий ижод жараёнига онгли равишда таъсир этишнинг зарур шартидир”[60]. Чунки “Адабий анъана, – деб изоҳ берилади “Адабиёт энциклопедияси”да, – дунёни ижодий ўзлаштириш давомида адабий тажрибада синалган эстетик қарашлар, мотив, сюжет, жанр, услуб кабилар янги давр ижодкорлари томонидан қабул этилиб жорийланиши; муайян даврда эришилган ижодий ютуқларни янги авлод ўзлаштириб, ижодий ёндашган ҳолда ривожлантирмаса, у анъанага айланмай, ўша давр доирасида қолиб кетади. Оламни бадиий идрок этишда авлодлардан ўтиб келган тажрибаларга издошлик, собитлик билан бир қаторда уни янгилаш, ўзига хослик асосида такомиллаштирилганда ҳар қандай бадиий топилма анъанага айланиши мумкин”[61]. Худди шу каби мумтоз адабий манбаларга мурожаат этиш унинг мазмун ва шаклий имкониятларидан фойдаланиш

---

[57] Чўлпон. “Шоҳнома”нинг туркча таржимаси / Асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 25-31.
[58] Хуршид. Фарҳод ва Ширин / Хуршид асарлари каталоги. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – Б. 31-76.
[59] Фитрат. “Фарҳоду Ширин” достони тўғрусида // Аланга. 1930. 1-сон. – Б.14-17; 2-сон. – Б.9-14; Қайта нашри: Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.105-134; Фитрат. “Заҳҳоки морон” муносабати ила // Иштирокиюн. 1919. 23 октябр.
[60] Бушмин А. Преемственность литературного развития / Наука о литературе. – М.: Современник, 1980. – С.140.
[61] Адабиёт энциклопедияси. Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – Б. 218.

жадид адабиётининг ривожланишига сабаб бўлди ва бу ҳаракат ҳозирги адабий жараён учун ҳам муҳим ҳисобланади[62].

Адабий жараён тараққиёти учун “қонуний ҳол” саналган “адабий ворислик ўз истилоҳий қамрови доирасига адабий таъсир ва издошлик тушунчаларини олиши мумкин. Бироқ адабий ворислик таъсирланиш натижасида вужудга келган мотив, сюжет, тимсол ва қаҳрамонларни, бирор адабий ҳодисага таяниб, унга издошлик позициясида туриб қабул қилишликни эмас, балки адабий тажрибадаги мавжуд самарали жиҳатларни қабул қилиш, уларга эгалик қилиш орқали ворислик туйғусини шакллантиришни назарда тутади”[63].

Абдулла Авлоний “Санойи нафиса” мақоласида нафис (бадиий) санъатларнинг ибтидоий шакллари хусусида сўз юритаркан, мумтоз адабиётнинг илк даврини шундай тавсифлайди: “Мана бу даврни саноеъ нафисанинг адабиёт даври дейилур. Лекин аввалги санъатларига қараганда, сўнгги санъатлари аввалгидан муҳимроқ ва яхшироқ бўлиб, мутаассир бўлмоқ ҳар кимга насиб бўлмас эди”[64]. Сезиладики, мумтоз асарлардан таъсирланмоқ ҳар кимга ҳам насиб қилмайди, бунга эришиш, яъни мутаассир бўлмоқ учун ижодкорнинг диди, савияси ва бадиий тайёргарлиги ўша мумтоз шоирларга яқин бўлиши керак. Мана шу маънода жадид шоирларидан мумтоз адабиётнинг ўзлари учун беназир маънавият хазинаси деб билганлар, имкон қадар ундан ўз асарларида истифода қилишга ҳаракат қилганлари муайян даражада тайёргарлиги бор адиблар ҳисобланади.

“Адабий таъсир, деб ёзилади – “Адабиёт энциклопедияси”да, – муайян бир адабиётга юксак даражада ривожланган бошқа бир адабиётнинг, бир ижодкорга бошқа бир даҳо ижодкорнинг муносабати. Адабий таъсир ҳар қандай адабий жараён учун қонуний ҳол бўлиши мумкин. Кўламли бу

---

[62] Проф. Н.Жабборов “Замон. Мезон. Шеърият” китобида Навоий ва А.Орипов, Бобур ва С.Саййид ижодий муносабатларини ўргангани ушбу фикрнинг далилидир. Бу ҳақда қаранг: Жабборов Н. Шеър аҳлининг икки жаҳонгири / Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.112-131; 153-166.

[63] Адабиёт энциклопедияси. Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – Б.220.

[64] Авлоний А. Санойи нафиса // Инқилоб. 1922. 1-сон. – Б. 39-41. Қайта нашри: Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилд (нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.235-236.

жараён адабиётлараро, ижодкорлараро ва даврлараро муносабатга киришади”[65]. Акад. В.Абдуллаев “Навоий ва Самарқанд шоирлари” мақоласида адабий таъсирнинг бевосита жанрлараро ва вазнлараро жиҳатларига эътибор қаратган ва Васлий Самарқандий, Абдулмуталлиб Фаҳмий каби шоирлар ижодидаги Навоий таъсирини аниқ кўзга ташланиб турган асарларни таҳлилга тортган. Чунончи, муаллиф ёзади: “Васлийнинг... мақсади тирикликда маърифат аҳлига ривож бериш эканлигини уқтиради ва шу ниятда Навоий ғазалига тахмис тўқиб, орзу-ниятларини ифодалайди. Яна тўғрироғи, Навоий мисралари мафҳумини айнан такрорламайди, балки уларга уланган мисралари билан замонавий руҳ, мазмун, ҳис-туйғу, мақсад ва маслакларини ифодалашга уринади”[66].

Д.Дюришин асарида Ғарбда кенг тарқалган “таъсир назарияси”ни танқид остига олиб, “такрор, механик тақлид ва қулларча нусхакашлик”ка қарши алоҳида боб доирасида фикр юритган. Бу ўринда ўзаро таъсирдаги умумий жиҳатларни ўрганиш билан бирга “таъсирдан қутилиш”, ўзига хослик касб этиш учун ҳаракатлар ҳам назарда тутилади. Ушбу жараёнда адабий асарларнинг услубий жиҳатларини ўрганиш кўзланган натижага олиб келиши мумкин. Фитрат “Адабиёт қоидалари”нинг “Услубнинг умумий, хусусий ҳоллари” бўлимида “шеърий услубларнинг ҳаммасида топилиши матлуб бўлған ҳолларға услубнинг умумий ҳоллари”, “тасвирий услубда топилиши матлуб бўлған ҳолларға услубнинг хусусий ҳоллари” деб тасниф қилади. Услубнинг умумий ҳоллари сифатида “наҳвга кўра тузуклик”, “сўз тузишда софлик”, “оҳанг”, “очиқлик”, “уйғунлик” кўрсатилади. Бу бадиий жиҳатлар таъсир объектига ҳам таъсирланувчига ҳам тегишли бўлиб, уларни ўзаро яқинлаштирувчи имкониятлар ҳисобланади. Услубдаги хусусий ҳоллар эса ҳар бир муаллифнинг ўз истеъдоди табиати, асарининг ички талаби ва яшаётган давр тақозосидан келиб чиққан ҳолда анъанага муносабат билдиришликдир. Айни мана шу ҳоллар ижодкорнинг ўзига хос қиёфасини

[65] Адабиёт энциклопедияси. Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – Б.224.
[66] Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.86.

белгилашга ёрдам берувчи воситалардир. Адабий таъсир ҳам, анъана ва ворислик муносабати ҳам ижодкор ўзига хослигининг шаклланишида муайян вазифани ўтайди. Жадид адибларининг мумтоз анъаналарга ворислик муносабатидан келиб чиқадиган натижа ҳар бир ижодкорнинг бетакрор ўзлигини топишга ёрдам беришлигидир.

8-мавзу. Жадид адабиёти: анъана ва янгилик уйғунлашуви Жадид адабиётида лирика

ХХ аср бошларида бутун Шарқ мамлакатлари бўйлаб тарқалган жадид адабиёти маърифатпарварлик ва миллиятпарварлик руҳида ривож топиши учун мумтоз адабиётда кенг қўлланилган шеърий жанрларни истифода этиш билан бирга мумтоз жанрлар имкониятини кенгайтиришга, янги замон адабиёт олдига қўйган мазмун ва мавзуларни акс эттиришда адабий жанрларни ичдан янгилашга ҳаракат қилдилар.

Исҳоқхон Ибрат қайси адабий тур ва жанрда ижод қилмасин, уларнинг яратилишида мумтоз адабий анъаналарга суянган. Ибрат шеърларида мумтоз адабиётнинг барча шакл ва жанрлари ўз аксини топган. Шоир ғазалларида муҳаббат, инсонийлик, эзгулик, ҳаётийлик, халқчиллик каби анъанавий мавзулар давом эттирилди. Ибрат ғазалларининг адади нисбатан оз бўлса-да, уларда мумтоз ғазалга хос сифатларнинг аксланганини кузатамиз:

Ўшал булбул қилар афғон, саҳар вақти чаман ичра,
Қўнар гул деб тикан узра саҳар вақти чаман ичра[67].

Шоир Навоий изидан бориб “саҳар вақти чаман ичра” радифи ва *гул, булбул, чаман, тикан, афғон* каби сўзлар воситасида ўзининг руҳий ҳолатини ифода қилади. Анъанавий тимсоллардан фойдаланиш шоирга поэтик фикрни таъсирчан тарзда тимсолли баён қилиш имконини беради. Мумтоз шеъриятдаги *ошиқ ва маъшуқа, гул ва булбул* каби тимсоллар воситасида шоирнинг кечинмалари ифодаланиб, ғазалга ўзига хос янгича руҳ бағишлайди, рамзий маъно юклайди. Ғазалда шоир “саҳар вақти чаман ичра” радифини ҳар байтда келтириш билан мумтоз ғазалиётдаги бир неча сўзлардан радиф ясаш усули орқали унинг ички мазмунидан келиб чиққан ҳолда янгича маъно юклайди. Шоир мумтоз адабиётнинг етакчи жанри бўлган ғазалда жиддий ижтимоий фикрларни, ўша давр тартиб-қоидаларидан норозилик кайфиятини, аччиқ танқидий муносабатни бадиий юксак шаклда ифодалашни ҳам ўзига хос тарзда ижодий ривожлантирган.

Ибрат асарларидаги ижтимоий қарашларни фақатгина анъана таъсирига тўлиқ боғлаш тўғри эмас, албатта. Ибратнинг ўзига хос дунёқараши ва фалсафаси замона воқеа-ҳодисаларига беъэтибор эмаслигидадир. Шоирнинг “Бўлубдур” радифли ғазали фикримизга яққол далил бўлади. Ғазал 21 байтдан ташкил топган. Маълумки, адабиётшунослик илмида ғазалнинг

[67] Ибрат, Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.59.

ҳажми борасида бир тўхтам белгиланмаган[68]. Мақсуд Шайхзода жанр ҳажмини аниқлашда “поэтикага доир илгари ёҳуд сўнгги даврларда ёзилган асарларни кўздан кечирсак, аксарият ғазалнинг 5-15 байт доирасида турганини маъқул, деб билганлар. Алишер Навоий қитъаларининг бирида ўз ғазалларининг ҳажмини “Навоий шеъри тўққиз байту ўн бир байт, ўн уч байт”[69] деб кўрсатиб ўтган. Бу фикрни Шайх Аҳмад Тарозийнинг “Фунуну-л-балоға” асарида ҳам учратамиз: “Ғазалнинг аксари йигирма байт бўлур. Ва ақалли беш байт. Андин ўксук бўлмас. Магар қофия тобилмаса, тўрт байт қилурлар. Ул ҳам зарурат ҳукмидин жойиздур”[70]. Шунингдек, XIX асрда яшаб ўтган ҳиндистонлик олим Қобул Муҳаммад “Ҳафт қулзум” (“Етти денгиз”) асарида ғазал ҳажми ҳақида қуйидаги маълумотлар берилган: “...Ғазалнинг чегараси 11 байтдир, баъзилар ғазалнинг чегараси 12 байт, баъзилар 19 байтгача бўлади, дейдилар. Аммо айрим сўнгги давр шоирлари 21 байтгача бўлади, дейдилар. Биз 27 байтли бир ғазални ҳам учратдик. Лекин ғазалнинг чегараси 19 байтгачадир, ундан ортиқ бўлса, уни қасида дейдилар”[71]. Демак, мумтоз шеъриятда ғазалнинг фаол қўлланган ҳажм миқдори 11-13 байт бўлган. Шу маънода қуйида биз таҳлилга тортмоқчи бўлган Ибрат ғазалининг ҳажми 21 байтдан иборатлиги тасодифий ҳол эмас. Ижтимоий қарашлар, ўз замонасига оид муҳим масалалар, ҳаёт ва ҳақиқат йўлидаги ҳаракатларни ғазал мисраларига сингдириш унинг ғазаллари ҳажмини катталаштирган. Адабиётшунос Н.Афоқованинг “жадид шоирлари ғазаллари ичида кўпбайтли ғазаллар ҳам салмоқли қисмни ташкил қилади. Бундай кўпбайтлилик, асосан, маърифий ва ижтимоий ғазаллар доирасидадир”[72] деган фикри Ибрат ижодида ўз тасдиғини топади.

Жадид шеърияти ўзининг бутун тараққиёти давомида мумтоз адабиёт анъаналарини янгилашга интилганини проф. Ҳ.Болтабоев шундай таъкидлайди: “Жадид маданияти маънавий ҳаётда темурийлар даври адабиётининг чўққиси саналган Алишер Навоий ижодини ўзига намуна билиб, ўзига сингдириш орқали янги ада-биётни юксалтиришга йўл топди. Жадидчилар назарида Навоий даҳоси ва ундан кейин яратилган маънавий хазинани “ўзлаштирмасдан туриб” янги адабиёт яратиши ва унинг жаҳон адабиётлари сирасига кўтарилиши мумкин эмас, деб қабул қилинди”[73]. Навоий ижодиёти Шарқ мумтоз адабиётининг мазмун ва шакл, таъриф ва тасвир усулларини ўзида акс эттириши билан бирга жадид шеъриятининг тараққиётига кучли таъсир ўтказди. Туркий шеърият тарихида Чўлпон

---

[68] Бу ҳақда қаранг: Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент, 1978; Носиров О ва бошқалар. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 13; 18-19; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ НМАК, 1999. – Б. 211; Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 385-386.

[69] Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. III том. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 703.

[70] Шайх Аҳмад Тарозий. Фунуну-л-балоға / Шарқ мумтоз поэтикаси (нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашр., 2006. – Б. 123.

[71] Кўчирма О.Носиров ва б.нинг “Ўзбек классик шеърияти жанрлари” китобидан олинди. – Б.13.

[72] Афоқова Н. Жадид ғазалиёти. – Тошкент: Фан, 2005.

[73] Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашр., 2007. – Б. 68.

лирикасининг юқори мавқеъини таъмин этган ҳодиса бу фикр ва туйғунинг юксак бадиий шаклда табиий равишда ифода қила олганлигида кўринади.

Дарҳақиқат, мумтоз шеъриятдаги тимсоллар анъанаси, вазн, қофия ва уларнинг мазмун билан боғлиқлиги Чўлпон шеъриятини янги босқичга олиб чиқди. ХХ аср жадид шеъриятида янгича тимсоллар ва вазн ихтирочиси бўлган шоир мумтоз анъаналарга содиқлик масаласида ҳам айрича йўл тутди. У мумтоз шеъриятнинг шунчаки тақлидчиси бўлиб қолмай, балки туркий шеъриятни янги тимсоллар тизими билан бойитган, кўҳна вазн имкониятларига янги мазмун бағишлаган шоир сифатида шеърият тарихига кирди.

Чўлпон гарчи янги давр шоири сифатида Умархон, Фазлий, Муқимий сингари мумтоз адиблар ижодига “бир хил, бир хил, бир хил...” деб қараган бўлса[74] ҳам у ўз ижоди орқали мумтоз шеъриятдаги турли хил шакл ва воситаларни истифода қилиб, ўз шеърларида “ҳар хил”ликка эришди. Чўлпон ғазаллари улуғ шоирлар ижодини давом эттириш билан кўҳна ғазал имкониятларини янги поэтик мазмун билан боғлай билганида ҳам аксланади. Демак, шоир Чўлпон шеъриятининг гўзал ва юксак бўлишида ғазал жанри муайян даражада хизмат қилган.

Ўзбек мумтоз шеъриятидаги энг фаол жанрлардан бири бўлган ғазал ХХ аср бошларида янги шеъриятга ўтиш даврида ҳам етакчи мавқе эгаллади. Жадид шеъриятида ҳеч бир ижодкор йўққи, у ғазал каби кўҳна ва жозибали поэтик жанрнинг имкониятлари доирасида ўзини синаб кўрмаган бўлсин. Ғазал жадид шоирлари мурожаат этган энг фаол жанр бўлиш билан бирга шоирлар шуурини янги замонавий шеъриятни қабул қилишга тайёрлади. Айтиш мумкинки, шоирлар истеъдодини ўзига хос тарзда имтиҳон қилиб, уни даврнинг ижтимоий мавзуни ҳам акс эттириш сари йўналтирди. Шу билан бирга ғазал жанрининг жадид шоирлари ижодида қўлланилиши бутун ХХ аср давомида уни фаол давом эттириш учун адабий замин ҳозирлади. ХХ аср шоирлари мана шу кўҳна жанрни ўзларига олтин кўприк билиб, ижодларини адабиётнинг ўтмиши билан боғлаш учун муҳим ришта деб ҳисобладилар.

ХХ аср бошларида шеъриятнинг барча жанрларида кузатилгани каби фикр, оҳанг ва шакл янгилигига интилиш кичик жанрлар доирасида ҳам юз берди. Мумтоз шеъриятнинг нисбатан кичик жанрлари ҳисобланган *рубоий, қитъа, фард* кабилар янги ўзбек шеърияти ва поэтикасининг шаклланиш босқичларида таянч омиллардан бўлган. Янги давр адабиётидаги ўзига хос услуб ва шакллар шубҳасиз шу даврга қадар яратилган адабий анъаналар заминида пайдо бўлди. Жадид адиблари ижодида кичик жанрларнинг пайдо бўлиши асрлар давомида Шарқ адабиётида сайқал топиб келган мўъжаз шакллар асосига қурилган.

Табиийки, ҳар бир адабий жанрнинг ўз қонуниятлари, адабий мезонлари ва ривожланиш имкониятлари бўлади. Рубоий проф. Фитрат қўлланмаларида қисқа ва лўнда таърифланади: “Тўрт мисраълигина бўлиб, 1-, 2-, 4- мисраъи

[74] Чўлпон. Улуғ ҳиндий / Асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 32.

қофиядош, учинчи мисраъи қофиясиз бўлган тизмаларга *рубоий* дейиладир. Рубойи форси(й)ча махсус бир тизим шаклидир... Бунинг махсус вазни бордир”[75]. Дастлаб халқ оғзаки ижодида мавжуд бўлган тўртликлар кейинроқ араб-форс-турк адабиётидаги рубоий шаклининг пайдо бўлишига замин ҳозирлади. Бунинг таъсири ўзбек адабиётида ҳам сезилди, вақт ўтган сайин рубоий ҳазаж баҳрининг ахрам ва ахраб шажараларида битилиб, ишқий, ахлоқий, сиёсий-фалсафий мавзулардаги шеър сифатида ўзбек шеъриятининг пешқадам жанрига айланди. Рубоий форс адабиётида Рудакий, Умар Хайём, ўзбек шеъриятида Алишер Навоий, Бобур, Огаҳий ижодида тўла шаклланди, фалсафий, ахлоқий, ишқий-дидактик фикрни ихчам ифодаловчи бадиий юксак рубоийларнинг энг яхши намуналари яратилди.

Авлоний, Ибрат, Ҳамза, Чўлпон, Боту, Элбек тўртликларида гарчи вазн ўзгаришлари юзага келган бўлса-да, шакл, мазмун, тимсол ва тасвир йўллари билан устозларнинг анъаналарига қатъий таянган шеърият вужудга келди.

Мумтоз адабиётда яратилган рубоийлар мавзуси хилма-хил бўлганлиги тайин. Бобур рубоийлари ижтимоий воқелик муносабатларини акс эттириш нуқтаи назаридан янада салмоқлироқ бўлди:

Кўнгли тилаган муродиға етса киши,
Ё барча муродларин тарк этса киши,
Бу икки иш муяссар ўлмаса оламда,
Бошини олиб бир сориға кетса киши[76].

Айни мавзуда Абдулла Авлоний ижодида шундай рубоий бор:

Гуллар хазон ўлмиш, тикони қолмиш,
Боғлар барбод ўлмиш, хазони қолмиш,
Золим фалак бу элларга қаҳр этмиш,
Хонавайрон, синган қозони қолмиш[77].

Ушбу мисралар мумтоз рубоийнинг қофия талабларини ўзига сингдирган. Рубоийда келтирилган қофиялар зиммасига шоир илгари сурган ижтимоий, маънавий, маърифий-тарбиявий муаммолар моҳиятини очиб бериш, асар мазмунини кучайтириб ифодалаш, мантиқий асослаш, асосий масалага урғу бериш вазифаси юклатилган. Кўринганидек, *тикони, хазони, қозони* қофиялари шоирнинг ғоявий-бадиий ниятини амалга оширишга хизмат қилган, воқеани ёркин ва таъсирчан қилиб ифодалашда муҳим восита бўла олган. Бу рубоийнинг қофия жиҳатларини ёқлаган ҳолда вазндаги айрим сакталикларни қайд этиш лозим. “Адабиёт ёҳуд миллий шеърлар” мажмуасининг учинчи жузи қуйидаги тўртлик билан бошланади:

Қалам қаросидур огоҳ достонимдин,
Ҳазин қайғум эшитинг у таржумонимдин.
Нечун фараҳ бўлайин, оҳ безиё кўрурам,

---

[75] Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма / Танланган асарлар. 4-жилд. – Б.39-40.
[76] Бобур. Асарлар. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашр., 1965. – Б. 144.
[77] Авлоний А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 248.

Келан замонимни, Ҳижрон, кечан замонимдин[78].

Яъни, кечмишимдан огоҳ бўлгани учун қалам қора рангда, унинг таржимонлиги орқали ҳазин қайғум элга эшиттирилади. Фараҳ бўлмаётганимнинг сабаби келгуси замонимни ўтган замонимдан нурсиз кўраётганимдадир. Бу ўринда "Ҳижрон" тахаллусли шоирнинг фараҳли ўйлари келажакни соғиниш ҳижрони билан ҳам боғлиқдир. Чунки эртани безиё, нурсиз кўриш шоирнинг бадбинлигидан эмас, балки миллат устига келаётган хавф (мустамлакачилик)нинг яқинлигидадир. Авлонийнинг ушбу тўртлиги мавзуга муносабат нуқтаи назаридан Бобур рубоийларига эргашганини тасдиқлайди. Шоир кечирган "достони", "ҳазин қайғуни" айтган таржимони (қалам) ва келаси замонни ўтган даврига нисбатан безиё деб билган гумонлари тўртликка асосий мавзу бўлган.

Авлоний тўртликларидаги асосий хусусият улардаги ғоянинг теранлиги ва мазмуннинг бойлигидир. У қандай мавзуга бағишланган бўлмасин, шоир ўз миллати, Ватанининг саодати йўлида жонини тиккан давр кишисининг лирик тимсолини яратган. Шоирнинг лирик қаҳрамон тилидан айтган хитоблари миллатпарварлик пафоси даражасига кўтарилган:

Маориф уйини болосидур ўйу ватаним,
Фунун боғини раъносидур гулу чаманим,
Ғубора дўнса ғамим йўқ вужуда зири ваҳм,
Ғариб миллатимнинг хокидур гўру кафаним[79].

Шоирнинг ватан ҳақидаги ўйлари маориф маскани, фанлар боғининг чамани бўлиб, агар вужудига ваҳм ғубори қўнса, бу ғариб миллат тупроғининг заррасидир, деб айтади. Тўртликдаги *ватаним, чаманим, кафаним* каби ўзаро қофиядош сўзлар шеърдаги асосий тимсоллар саналади, улар воситасида мисраларга қўшимча маъно ва туйғу юкланган. Шоирнинг юқоридаги шеърлари ҳар бир шеърхон учун одоб ва ахлоқ, инсонийлик ва жаҳолатнинг барча кўринишларидан сабоқ берувчи таълим мактаби вазифасини ўтай олади. Авлоний тўртликларининг умумлашма шаклида келган тўртинчи мисрасида қиссадан ҳисса чиқариш худди мумтоз рубоийдаги каби фалсафий якунга олиб боради.

Шарқ адабиётида *қитъа* кенг қўлланилган жанрлардан бўлиб, ҳажман икки байтдан бир неча байтгача бўлган матлаъсиз ғазални эслатади. Қитъа мавзу жиҳатидан ҳам ўзига хос, унда ижтимоий ҳаётнинг турли муаммолари, фалсафий-ахлоқий масалалар ечими ихчам, ҳикматга йўғрилган тарзда тасвирланади. Мумтоз шеъриятда энг кўп қитъа ёзган шоир Алишер Навоийдир. Шоирнинг 300 дан ортиқ қитъалари икки байтдан тортиб ўн-ўн бир байтгача бўлиб, қитъачиликни тўлақонли жанр даражасига кўтарилишида муайян вазифани бажарган. Навоий қитъаларидан бирига "Бу дунёда умрин риёзат била ўткарганнинг тавба ва ул дунёда жазо талаби" деб сарлавҳа қўйган. Авлоний жанр асоратига тушиб қолмасдан, ўз мақсадларига кўра

[78] Кўрсатилган манба. – Б.127.
[79] Кўрсатилган асар. – Б. 126.

қитъага мазмун жиҳатдан янгиликлар киритади, қитъаларни миллатпарварлик ғояларини илгари суришга йўналтиради:

Бинг айшимни қилурам ҳадя биргина ғамга –
Ки, айшу хобу хаёлу ғамим банга йўлдош.
Агарчи бахти қаройам, ки ҳеч ғам чекмам,
Чароки, бахтим эрур ҳоли миллата ўхшош.

Қитъа мумтоз адабиёт вакиллари ижодида нисбатан кам учрайди. Огаҳий ижодида ҳаммаси бўлиб атиги саккизта қитъа бор. Аммо кам бўлса-да, у қитъалар мазмунида муҳим масалалар қўйилган.

Чўлпоннинг қитъалари композиция томонидан пухта, уларда фикр ва мақсад бир бутунликни ташкил қилади. Чўлпоннинг қуйидаги қитъасида чуқур ижтимоий-маиший фикрлар ифодаланган:

Милтираган хира чироқсен, йўқсил,
Ел қаттиқроқ келиб урса, ўчарсен.
Ёр алдаган севгучининг руҳидай
Бир лип этиб йўқликларга кўчарсен[80].

Бунда “йўқсил” сўзи пролетариат маъносида эмас, балки даврнинг тало-туплари аро сарсон бўлган, милтираган хира чироқдай пилпиллаб турган, қаттиқроқ ел келишидан чўчиб, ёрини алдаган маъшуқанинг руҳидай йўқлик-ларга кўчиши тасвир этилади.

Алишер Навоий девонида ҳар бир қитъага мавзуи ва мазмунидан келиб чиққан ҳолда сарлавҳа берган эди. Чўлпоннинг “Хизматчи бола қўшиғи” қитъасида сарлавҳа остида “Торт наърангни, Хитой” пьесасида ўзини ўлдираётган хизматчи бола айтади” мазмунида изоҳ берилиши, бошқа бир қитъасининг “Ўлимдан кучли” деган сарлавҳа остига қўшимча равишда (қитъа) изоҳини орттириши мумтоз анъана давом этаётганлигини тасдиқлайди. Бироқ Чўлпон анъанавий қитъа шаклидан диалог-суҳбат (худди мумтоз шеърдаги “-дедим, -деди” ёки “саволу жавоб” каби) қуради ва бунинг воситасида ўлим билан ҳаёт қаршилантирилади. Бу мунозарада инсонни улуғловчи ҳикматнамо фикр илгари сурилади:

– Ўлим, сендан кучли бошқа куч борми?
Тарафингдан бир марҳамат бўлганми?
– Мендан кучли, мендан қувватлилар бор:
Мана, мендан ҳеч қўрқмайлар одамлар[81]

Бу савол-жавоб тариқасида айтилган ҳикмат орқали Инсон улуғланади, унинг қудрати яна бир бор таъкидланади. Кўринадики, Чўлпон қитъа жанрига хос мазмун, яъни қисқа сатрларда ҳикмат беришни, маънонинг сўнгги мисрада “портлаши”, мазмун табиатидан келиб чиқиб унга мувофиқ санъатларни қўллай билиш каби жиҳатларни яхши ўзлаштирган.

Шуни эсга олиш лозимки, қитъаларда агар матлаъ сақланса, улар *аава* тарзида, матлаъсиз келса *бава...* каби, агар қитъа маснавий усулида қофияланса, *аабб* қофия тизимига эга бўлади. Жадид шеъриятида бундай

[80] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 76.
[81] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б. 93.

қофияланишнинг барча турлари учрайди. Мазкур жанр хусусиятларини монографик планда ўрганган проф. Р.Орзибеков ўз тадқиқотида ёзади: “XVI–XIX асрлар қитъачилигида а) ғазал-қитъалар; б) туюқ-қитъалар; в) таърих-қитъалар; г) маснавий-қитъалар; д) чистон-қитъалар; е) рубоий-қитъалар шаклида белгилаб ўрганиш мумкин”[82]. Шундай экан, қитъа жанри бирор бир мустақил мумтоз жанрнинг парча, бўлаги маъносида қўлланилиб, ўша жанрга хос қофия тизимини ўзида акс эттирган. Шу сабабли юқоридаги Чўлпон қитъаси *аа бб* тарзида маснавийга монанд равишда қофияланган. Бундан маълум бўладики, жадид шеърияти мумтоз шеърнинг барча кичик жанрларининг шакл ва қофия талабларини ўзида акс эттирган бўлиб, уни мазмун жиҳатдан янгилашга ҳаракат қилган.

Жадид шеъриятининг бошқа бир вакили Боту (Маҳмуд Ҳодиев) устозлари каби мумтоз анъанавийликдан чекинмади. Шоирнинг “Навоийга” сарлавҳаси билан ёзилган қитъасида улуғ даҳога эҳтиромини шундай ифодалайди:

Кўрганми сендек шоирни асринг,
Маънога манба ҳар назму насринг.

Шеърингда бўлган нозик наволар
Кўп туйғуларни ҳар вақт даволар[83]...

Навоийнинг “назмию насри” ҳар бир ҳикматга манба эканлиги, шеърларидан таралган “наво”лар киши “туйғу”ларига “даво” бўлишлигини қатъий тасдиқлайди. Навоий ўз устозлари ҳақида “Уч кишининг сўзи нашъа ва маънисидин ўз сўзида чошни исбот қилмоқ ва бу маънидин мубоҳот қилмоқ” сарлавҳали қитъасида сўз юритиб, “соҳири хинд”, яъни Хусрав Деҳлавий; “Исо нафаслиқ ринд” – Ҳофиз Шерозий; “қудсу асарлик ориф” Абдураҳмон Жомийдан таъсирланганини муҳаббат билан қайд этган эди[84]. Боту эса юқорида Ҳазрат Навоийнинг ўз салафларини улуғлашидан нафланиб, қитъада Навоий ижоди шоир учун маҳорат мактаби бўлганини таъкидлаган.

Фитратнинг “Парча” сарлавҳаси билан берилган қитъаси бор:

Ур, ур!.. Сенинг тирноқларинг нозли, нозли урдиқча,
Юрагимнинг битиб қолган яралари очилсун!

Чолғи қили сенинг нозли тирноғинг-ла титраркан,
Умидимни қоплаб турган қора булут йиртилсун![85]

Қитъада шоирнинг мусиқа санъатига муҳаббати яққол сезилади. “Урдиқча” танбурни чалиш учун мўлжалланган, бармоққа кийиладиган нохун (тирноқ) бўлиб, мусиқа асбобини бусиз чалиш мумкин эмас. Шундай экан, танбурдан таралган куйнинг қудрати нозик тирноқлар устидаги “урдиқча”-нинг титроқ ҳаракатлари орқали “юракдаги битиб қолган яралар”га малҳам

---

[82] Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент, 1976. – Б. 30.
[83] Боту. Ёз куни / Шеърлар. – Б.118.
[84] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.516.
[85] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. – Б. 41.

бўлиб, қалбни қамраб олган “қора булут”ни очиб ташлашга қодир. Шоир қитъада рамзий ифодалар (“битиб қолган яралар”, “қора булут”) орқали даврнинг ижтимоий ҳодисаларига ишора қилади. Қитъадаги такрирлар (“Ур-ур”, “нозли-нозли”), маънони кучайтиришга, шеър оҳангдорлигини оширишга хизмат қилади. Фитрат қитъасини “парча” деб номлаши шу билан изоҳланадики, олим “Адабиёт қоидалари” қўлланмасида арабча истилоҳлар: назмни *тизим*, насрни *сочим* тарзида ўзбекча сўзлар билан ифодалагани ёдга келади[86]. Шу каби “қитъа” истилоҳи ҳам унинг мазмунидан келиб чиққан ҳолда *парча* деб сарлавҳаланган. Бундай “парча”лар Фитрат замондоши Элбек шеърий тўпламларида ҳам мавжуд:

“Ўт, ўт ичидан ўтинг бор бўлса”,
Ёт, ёт ичида кучинг йўқ эрса,
Енг, енг ичида енгинг келишса,
Ён, ён ичида ёнинг куйишса [87].

Мумтоз шеъриятда ўзига хос из қолдирган мутасаввиф шоир Сўфи Оллоҳёр ижодида *“Ўт ўт ичидан ўтинг бор эрса”* мисраси учрайди. Бунда мумтоз шоир агар юрагингда ўтинг бор бўлса, ўт орасидан ўтасан мазмунини ифода қилган эди. Мисрада “ўт” сўзи уч марта учраса ҳам мазмун такрорланмайди. Чунки бу сўз бир ўринда “ўтмоқ” феъли, иккинчи ўринда “олов”, учинчи марта эса “юрак ёлқини” маъноларида келиб, тажнис санъатини ҳосил қилади. Элбек устозининг бу пурҳикмат мисрасини давом эттириб, иккинчи мисрада агар бегоналар орасида кучинг йўқ бўлса, ётгин, яъни мағлубиятга учрайсан. Учинчи мисрада енгин, ғалаба қозон, тор имконият доирасида енгинг келса. Тўртинчи мисрада ёнгин, атроф ичида дард чекаётганларга раҳминг келса, яъни “ёнинг куйишса” фикрлари орқали ўзининг мустабид тузумга қарши ғояларини ифода қилади. Шоир давр талабидан келиб чиқиб, ижтимоий маъно ифодалаш учун мумтоз қитъа жанрининг имкониятларини кенгайтириб, устозлар йўлини давом эттириб, янги оҳорли “парча” яратган.

Элбек бошқа бир ўринда “парча” сарлавҳаси билан берилган қитъасида:

Субҳнинг сиймин ёқаси йиртилиб, сир бўлди фош,
Ҳимралиб, минг тўлғаниб, кўзлар сузиб чиқди қуёш.
Соқчи ойнинг, нурли ойнинг юзлари сўлди ювош,
Чарчаган чўпон каби мудраб уфққа қўйди бош[88]

деб ёзади. Субҳнинг кумушранг ёқаси йиртилиб, сир фош бўлди, яъни: қуёш эшилиб, минг тўлғаниб, кўзларини сузиб уфқда кўринди. Туни билан соқчилик қилган нурли ойнинг юзлари аста-секин ўчди, бамисоли хориган чўпон ёнбошлаганидай қуёш уфққа бош қўйди. Қитъада муаллиф поэтик тимсолларнинг давомли талқинини бермайди, биргина чўпон тимсоли орқали мантиқни ўз замонасига қараб тортгандай бўлади. Шоир мумтоз

---

[86] Қаранг: Фитрат. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма. 4-жилд. – Б. 17–24.
[87] Элбек. Мунгли қушим. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1999. – Б. 40.
[88] Элбек. Кўрсатилган асар. – Б. 76.

бадиий санъатлар: истиора, ташхис, таносуб, ташбиҳ ва бошқа имкониятлардан фойдаланиб, гўзал тимсоллар яратган. Давр шоирдан меҳнат кишиси тасвирини талаб қилганда, замонавий талқиндаги тимсолни мумтоз шеъриятга хос санъатлар билан безаган. Аввал мумтоз талабларни ўзига сингдира олган шоирлар қитъа жанрига "парча" сифатида ёндашиб, уни мазмунан бойитишга уриндилар. Бу ҳолатни Авлоний, Фитрат, Чўлпон, Боту, Элбек каби қитъанависларнинг айрим асарлари таҳлили орқали кузатдик.

Фард "якка", "ягона" маъноларини билдирувчи мумтоз лириканинг энг кичик жанридир. Шеър байтини ташкил қилган икки мисра ўзаро қофиядош, баъзи ҳолларда эса қофиясиз бўлиб келиши мумкин. Мутахассисларнинг аниқлашича, Алишер Навоийнинг "Хазойину-л-маоний" асаридан ўрин олган 86 фарддан 83 таси қофияли, 3 тасигина қофиясиз келган фардлардир[89]. Фард мазмун жиҳатидан фалсафий-таълимий характерда бўлса-да, унда шоирларнинг ахлоқий фикрлари кўпроқ берилади. Навоийнинг файласуфона руҳдаги фардлари мақол ва ҳикматлар даражасига кўтарилган:

Етар чу ризқинг, агар хорадур ва гар ёқут,
Ўзунгга юклама андуҳ тоғин, истаб қут [90].

Навоий фардда инсон ўз ризқини кўпайтириш учун тоғдек ғам чекиши керак эмас, ўзига насиб этган неъмат билан кифояланиш лозимлигини уқтиради. Абдулла Авлоний эса "Адабиёт ёҳуд миллий шеърлар" тўплами иккинчи жузи бошланмасида келтирилган фардида:

Феъли инсоннинг ҳақиқий фоили виждонидур,
Ҳокими қонуни ҳукми ҳосили виждонидур[91]

деб ёзади. Фарднинг мазмунига кўра, инсоннинг феъли виждони буюрганини бажарувчидир, ҳокимнинг қонуни эса виждоний ҳукмлар ҳосиласидир. Шундай экан, Авлоний ҳазрат Навоийдан уққан ҳикматини мантиқан давом эттириб, инсон ўз виждони доирасида иш тутиши, виждоний ҳукмлар ҳосиласини ўзи учун дастуруламал деб билиши лозим, деган хулосага келади. Фардда фақатгина шакл ва жанр талаблари доирасидагина эмас, балки мазмун ва мантиқ жиҳатидан ҳам Навоий фардлари анъаналари янгиланаётганлигини кузатамиз. Мазмуни жиҳатидан таълимий характерда бўлган ушбу фардда:

Хомам тўкиюр хуни жигардин ғазалиёт,
Ойинаи ҳар миллат эрур тил, адабиёт[92], -

яъни адабиёт ҳар бир миллат тилининг ойнаси бўлгани каби қаламимдан тўкилаётган ғазаллар ҳам менинг жигар қонимдан яралгандир, менинг кўнглимда кечган дарду ҳасратлар "хуни жигар" сифатида зуҳур бўлганидек, адабиётда ҳам халқнинг, инсониятнинг қалбидан кечган дардлар ойнадагидек аксланади, деган маънони уқамиз. Фард мазмунига кўра қон бўлган жигардан тўкилган ғазаллар қаламга олинаркан, бу асарлар миллатнинг ойнаси бўлган тил ва адабиётга хизмат қилиши лозим. Шунинг

---

[89] Бу ҳақда қаранг: Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.207-208; Носиров О. в.б. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 170-172.
[90] Алишер Навоий. МАТ. IV жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 470.
[91] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 1-жилд. – Б.91.
[92] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 1-жилд. – Б.165.

учун ҳам жузга шоирнинг Ҳофиз Шерозийдан қилган таржимаси, миллат ва халқ шаънига айтган ғазал ва манзумалари жамланган. Ҳар иккала фард ҳам Авлоний “Адабиёт ёҳуд миллий шеърлар” тўпламидаги жузларнинг бошланмаси сифатида берилган.

Мумтоз шеъриятдаги кичик жанрлар орасида фард нисбатан кам учрагани туфайли бўлса керак, бундай камёб жанр жадид шеъриятида ҳам биргина Авлоний ижодида учради. Авлоний фарднинг ҳар икки қофияланиш усули *(аа, аб)*ни қўллаган ҳолда мустақил фардлар яратди.

Маълумки, фард жанри алоҳида мустақил асар ҳисобланади, аммо мумтоз адабиётда айрим асарлар (масалан, ҳикоят)ни хотималовчи қисм сифатида келганини ҳам кузатамиз. Абдулла Авлоний мана шу хусусиятдан туркум шеърларининг мазмунини умумлаштирувчи байт сифатида фойдаланган. Авлоний мумтоз насрдаги ҳикоятлар сўнгида бериладиган қиссадан ҳисса чиқариш тарзида ёзилган фардларни ёки девонининг ҳар бир жузига ўзига хос сўзбоши тарзида ёзилган фардларни ҳам шеърлар тўпламига киритган.

Кўринганидек, XX аср шеъриятининг шаклланиши ва тараққий этишида, жанрлар такомилида мумтоз адабиёт анъаналарининг таъсири яққол сезилади. Бу эса жадид шоирлари ижод мундарижасини кенгайишига сабаб бўлган. Салафлар анъанаси шоирлар ижодининг кенг қамровли тус олишини ҳам таъминлайди. Янги давр шоирлари учун мумтоз шеъриятдаги кичик жанр нафақат шеърий шаклдан фойдаланиш имкониятини, балки ўз даврининг ижтимоий воқелигини кенг ва рўйи рост очиб беришда қулай бадиий восита бўлиб ҳам хизмат қилади.

9-мавзу. Жадид шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи

Поэтик тимсоллар маълум ижодкорлар томонидан ишланиб, қиёмига етказилса ҳам муайян адабий муҳит доирасида шаклланиб, мукаммаллик касб этади ва маълум вақт оралиғида анъанага айлана боради. Жамиятдаги инсонлар тафаккурининг ўзгариши билан поэтик тимсолларда ҳам янгиланиш содир бўлади[93]. XIX асрнинг сўнгида яшаб ижод этган шоирлар ижодида поэтик тимсоллар соф дунёвий, ижтимоий, миллий ва рамзий асосга қурила бошлади. Шу билан бир қаторда мумтоз анъанавий шеърият таъсирида ўзлашган тимсоллар таркибида, уларни қўлланилиш доирасида ҳам ўзгариш, янгиланишлар юз берди. Бу жараён ижодида ёрқин акс этган шоирлардан бири Чўлпондир. Профессор Д.Қуронов “Биз Чўлпонни ҳақли равишда янгича ижодкор деб атаймиз... Айни пайтда, ҳеч бир ижодкор, ҳатто энг буюк истеъдод соҳиблари-да ўзини вояга етказган халқ маданияти таъсиридан буткул узилиб кетолмайди. Табиийки, Чўлпон шеърияти ҳам қуруқ жойда юзага келгани йўқ, унинг йиллар билан ўлчанувчи мумтоз адабиётимизнинг энг яхши анъаналари унга асос бўлиб хизмат қилди. Буни, хусусан, Чўлпон шеъриятида “ошиқ” ва “ёр” образлари талқинида ҳам

[93] Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – Москва, 1984.

кузатамиз”,[94] деб ёзган эди. Анъанавий поэтик тимсоллар: *«ошиқ», «маъшуқа», «рақиб», «дўст»* шоир шеъриятида янгича талқинлар, *биринчидан*, шоир эътиқоди, истеъдоди табиати ва унинг янгиликка интилиш нияти билан боғлиқ ҳолда, *иккинчидан* эса, ижтимоий ҳаёт талаблари ва мавжуд зиддиятларни енгишга ҳаракат тарзида юзага чиқди. Мумтоз адабиётда энг фаол, тимсоллардан бири *ошиқ* бўлиб, бу тимсол жадид шеъриятида кенг планда тадқиқ этилган. Бу поэтик тимсол Чўлпон шеърларида «булбул», «қул», «кўнгил», «жон», «дарахт» кабилар билан мутаносибликда, яъни таносубий муносабатда келади. У қайси кўриниш ёки тимсол воситасида ифодаланмасин, барибир “ошиқ” тимсоли орқали шоирнинг “мен”и тасвирга олинади:

Кенг толада кийик ўйнар,
Кийик кўзин йигит ўйлар,
Кийик кўзи кўнгил тортар,
Ошиқ кўрса дарди ортар[95].

Шоир истиора воситасида маъшуқани “кийик” тимсоли орқали поэтик идрок этади: кенг далада ўйнаётган кийик, ўз юртида эмин-эркин юрган маъшуқадир. Кийик кўзли ёр ошиқ дилини тортади ва буни кўрган ошиқнинг дарди ортиб, унинг муҳаббати янада алангаланади[96]. Шоирнинг хулосасига кўра, Тангри севгини яратар экан, у бек, хонларнинг ўрдаларида маскан тутиши, душманларнинг ёвлашиш “ҳунар”и эмас. Мумтоз адабиётдаги муҳаббат мавзуси Чўлпон шеъриятида эрк тимсолида ўзининг янгича талқинини топади. Яъни севги дала-яйловларга тарқалган бўлиб, у эрклиликни ёқтиради, шунинг учун ҳам кийик тимсоли ва “яйлов” мажози билан боғланади.

«Пўртана» (1920) шеърида ошиқ тимсоли анъанавийдек туюлса-да, нозик дидли, тез фаҳмли ўқувчи бошқа бир маънони ҳам топа олади.

Кўпиклар… у оппоқ, саноқсиз кўпиклар
Юлдуздек жимирлаб туралар;
Кўпиклар… у кичик, чиройлик кўпиклар
Ошиқнинг кўнглидан уралар[97]…

Бу ердаги «*ошиқ*» шоирнинг ўзи. Асарнинг ўтган асрнинг 20-йилларида ёзилганига эътибор берадиган бўлсак, большевиклар томонидан берилган ваъдалар асли пучлиги, босқинчилик сиёсатининг бошқача кўриниши эканлигини зиёлиларимиз кейинроқ тушунди. Бизнингча, ушбу шеър ҳам мана шундай кечиккан идрокнинг бир намунасидир. «Оппоқ», «саноқсиз» кўпиклар – миллатимизга берилган ёлғон ваъдалардир. Ачинарлиси шундаки, улар «ошиқ»нинг кўнглидан урганлигидир. Негаки, халқ ҳали ўзининг ҳолини идрок қила олиш имкониятига эришган эмас эди. Замон ва

---

[94] Қуронов Д. “Йўл эсдалиги”да тагмаъно қатламига доир // Шарқ юлдузи. 1998. 1-сон. – Б. 162.
[95] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.106.
[96] Ёрнинг “кўз” (Навоий), гул (Огаҳий), дил (Бобур) деган талқинлари мавжуд бўлиб, “кийик кўзли ёр” тимсоли ҳам учраши мумкин, бироқ ёрга “кийик” сифатида мурожаат этиш ва уни шу тимсол орқали англатиш жадид шеъриятида биргина Чўлпон шеърларига хос.
[97] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.54.

тузум ўртасидаги номутаносиблик, халқни зўрлик билан саводсизлик ботқоғига итариш натижаси ўлароқ халқ ўзлигидан жудо бўлган. Шунинг учун ҳам «ошиқ» тимсоли орқали шоир сиймоси намоён бўлиб, у мустабид тузум қаршисида зоҳиран, ҳам ботинан ҳимоясиз халқ ҳолига ачинади. Чўлпон соддадил элнинг янги бир қиёфасини, ишонувчанлигини юқоридаги каби яширин маънолар орқали очиб бераркан, *пўртана* тимсолига қўшимча маъно юклайди. Энди пўртана мумтоз шеъриятдаги анъанавийликдан узоқлашиб, ҳақсизликка қарши исён тимсолига айланади. Натижада шеър ўч олишга чорловчи сўзлар билан якунланади: "Кўп эзган душмандан, паст жондан Ўчни ол, ўчни ол, ўч ол..."

"Шарқ қизи" шеърида "ошиқ" сўзи ўз маъносида ҳам, кўчма маънода ҳам кўзга ташланади:

Айталарким, совуқ, ғамли қора қиш
Ўтиб кетиб, келмиш чиройлик баҳор.
Гулга ошиқ бўлиб, сайрар эмиш қуш,
Гул ҳам ул қушларга нозланиб қарар.

Булбулнинг гулга ошиқ бўлиши адабиётимиз учун анъанавий ҳол. Лекин шеърнинг иккинчи бандида бошқачароқ ўхшатмага дуч келамиз:

Айталар талада ер бети тамом
Кўм-кўк духобадан кўйлаклар киймиш.
Хўрозлар чақириб, юзин очса тонг,
Сабонинг лабини ошиқлар эммиш[98]...

Хўш, сабонинг лабини эмаётган ошиқлар ким? Бу ҳам эркни кутаётган халқ тимсолидир. Қишда баҳорга интиқ ерлар яшил бахмал – духоба кийган фурсатни кутаётган миллат.

Шоир шеъриятида "*маъшуқа*" тимсоли ҳам ўзига хос тасвирга эга. «*Маъшуқа*» тимсолининг *«Тангри», «халқ», «маърифат», «малак», «хаёл»* шакллари мавжуд. Бу шакллар бевосита ижтимоий мазмунни ифодалашда шоирга қўл келади. Унинг "Ўзбегим" шеъри (1919)да қуйидаги лавҳа чизилган:

Сўлқилдаб келасан, ўзбегим,
Маърифат отига отланиб,
Бир мири топган боладай —
Оғзингни иржайтиб... суюниб.
Дунёда ҳамма халқ қизиққан
Гавҳардек бебаҳо от эди.
Ҳуррият бўлганда сен келдинг,
Минайин семирган отга деб[99]

мисраларида шоирнинг аламли кечинмалари ўз аксини топган. Маърифат отига отланишга даъват шоир ижодидаги маъшуқа тимсолини ифодалайди. Маърифат ўз номига кўра Яратган билан боғлиқ. Аммо шоир бу ўринда

[98] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 50.
[99] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б.30.

«маъшуқа» тимсоли орқали Аллоҳни эмас, ижтимоий ўзликни ёқлайди ва унга интилади.

Хаёл, хаёл... Ёлғиз хаёл гўзалдир,
Ҳақиқатнинг кўзларидан қўрқамен.
Хаёлдаги юлдузларким, амалдир,
Оловимни алар учун ёқамен.

Гўзал хаёл, кел, бошимда гул ўйнат,
Маним истак-тилагимни эркалат![100]

Шеър мазмунидан билиш мумкинки, лирик қаҳрамон руҳиятида хаёл поклик рамзи. У ҳақиқатга элтувчи кўприк – агар у тоза дилда макон тутган бўлса. Шунинг учун ҳам шоир хаёл уммонига ғарқ бўлади. Шоир учун хаёл ижтимоий ҳаёт изтиробларидан фориғ бўлиш воситаси эмас, маъшуқага етишиш учун "ошиқ"нинг ягона йўли. Акс ҳолда шоир онгли бўла туриб, инсонлар тилида сўзлашишга қодир бўлмаган яратиқлар билан тиллашмаган бўларди. У бутун коинот меҳвари бўлмиш – инсон, яъни ошиқ. Унинг тилаги соф. Хаёли эса ёрга етишишга кўмак берувчи дўстдир. Бу тимсол (хаёл) мумтоз ижодкорларда ҳам учрайди, аммо мумтоз шоирлар ижодидаги хаёл Чўлпондан фарқли равишда бу шоирларнинг ёри, маъшуқаси реал шахс ёки Аллоҳ бўлса, Чўлпоннинг ёри ҳақиқат, истиқлол ва эрк. Шу билан бирга мустабид тузум зуғумида ўртанаётган миллат.

Айни йўналишда Чўлпон шеърларидаги "маъшуқа" тимсоли талқинида уни ватанга менгзаш, ёр муҳаббати орқали диёрга бўлган муносабатни ифодалашни проф. Д.Қуронов шундай қайд этган: "Мумтоз шеъриятимизда фаол қўлланиладиган мазкур рамзларга Чўлпон янги маъно юклади: унинг талқинида "ёр" – юрт озодлиги-ю, "ошиқ" – эркка ташна кўнгил. Яъни мутасаввуф шоирлар интилган маънавий эстетик идеал Ҳақ бўлса, Чўлпон интилиб яшаган ижтимоий-эстетик идеал Юрт озодлиги бўлиб қолди. Бундан англашиладики, Чўлпон ижодиётидаги рамзлар, асарлари қатидаги ботиний мазмун мумтоз шеъриятимиздан туртки олган ҳолда тушунилиши лозим. Зеро, Чўлпон тасаввуф шеъриятидан нафақат қуруқ шаклни, руҳини-да ўзлаштиргандек"[101].

Инсон бадиий тафаккури ҳамиша янгиланиб, ўзгариб боради. Ҳар қандай қонуният вақт ўтиши билан ўзининг шакл, мазмун ёки рамзлар моҳиятидаги эврилишлари билан ўқувчи диққатини тортиб келган. Шарқ мумтоз поэтикаси ўзининг тамал тошини аруз тизими ёрдамида X асрдаёқ қўйган эди. Бироқ ўша даврдаги насиҳатомуз, панднома руҳидаги мисралар XV асрга келиб соф бадиий-эстетик жозиба касб этди. Бобур даври адабий муҳитида бу жараён бироз ҳиссий эврилишларни намоён этиш ҳолатига кирган бўлса, миллий уйғониш даврида янги адабий қиёфада гавдаланди. Неча асрлик анъаналар бирданига ўзгариб қолмайди, албатта. Бунинг бошида бирор

[100] Кўрсатилган асар. – Б. 76.
[101] Қуронов Д. "Йўл эсдалиги"да тагмаъно қатламига доир // Шарқ юлдузи. 1998. 1-сон. – Б.162.

ҳодиса туради. Биз биламизки, барча даврлар учун хос бўлган бадиий ғоя асар яратилган давр сиёсий-ижтимоий аҳволи билан боғлиқдир.

Чўлпоннинг кўпчилик битикларида давр воқеалари, унинг инсон ҳаётида қолдирган қора излари кўзга ташланиб туради. Шоирнинг “Сезги” деб номланган шеърида юқоридаги фикрлар янада ойдинлашади:

Боқчаларда сўлди гуллар, сўлди гуллар сезмадим,
Қип-қизариб, ботди кунлар – ботди кунлар сезмадим.

Шеърнинг бошланишидаёқ самоларни макон тутган шоир қалбини инсонлар орасига – Ерга олиб тушади. Гулларнинг сўлғин ҳолати – бу шунчаки гул билан боғлиқ ҳодиса эмас. Негаки, гулларнинг сўлганлигини сезмаган шоир кунларнинг қизариб ботиши ва қизариб ботган кунларнинг эртаси булутли эканига ишора қилади. Бу ҳолат самовий туйғулар ҳам, илоҳий сезгилар ҳосиласи ҳам эмас. Аслида шоир яшаётган, у ҳис қилиб турган давр оғиқларининг бадиий ифодасидир.

“Сезги” шеъри ғазал жанрининг *рамали мусаммани маҳзуф* тизимида ёзилган. Шеърда ғазал шакли ва унда учраган *гул, боғ, соч, кўз, юз* каби тимсоллар айнан сақланган. Бироқ мазмун бошқа. Маърифатдан йироқлашиб борган омма учун ҳиссиётларга йўғрилган сатрлардан кўра муаллиф давр кишилари учун зарур бўлган ҳолат ва уларнинг англови чегарасидан ташқарига чиқиб кетмаган усулни танлаган.

Бир йироқ йўл, ким унинг йўқдир кети – йўқдир кети;
Чанг ва тупроқ бўлди, кетди, унда кўпларнинг бети.

Шоир назарда тутган йироқ йўл – бу маърифатдир. Маърифатсизлик ботқоғига ботган кишилар жамоаси учун маърифатдан бошқа ҳамма нарса одатий. Одатий бўлган нарсалар қуршовида бўлган одамгина ўзини хотиржам сезади. Агар ноодатийлик қуршовида қолганда эди, инсон ўз маърифатсизлигини англаб, ундан тезроқ қутулиш пайида бўлар, шоир айтмоқчи йироқ масофага қисқарган ва алалоқибат кўпларнинг юзи маърифатсизликдан чангу тупроққа қоришмаган бўларди. Шунинг учун шоир маърифатсизликни минг жаҳаннамдир дея таърифлайди. Бу каби талқин шоирнинг “Уйқу” шеърида ҳам намоён бўлган. Чўлпон шеър аввалида

Жим туринг, шовқинламанг, уйқу ичида ул пари,
Юрма, тек тур, эй шамол, юрсанг-да юр, бир оз нари!

дея таърифлаганда гўзал ҳис-туйғуларга берилмай, ғазалнинг кейинги байтларида бошқача руҳий кечинмаларга дуч келади. Ғазал ўз номи билан *уйқу*. Ундаги тимсоллар Шарқ мумтоз анъаналарини давом эттирган. Бироқ асарда илгари сурилган ғоя ўзгача.

Бу ётиш, бу уйқу, бу қандай ширин, қандай гўзал,
Жонланар, юз кўрсатар синган ва ястанган амал[102].

Жаҳолат уйқусига ботган халқнинг ўз иши ўзича гўзал. Шоир ҳар икки шеърида ҳам дилбар сатрлар қаърида жуда қаттиқ киноя пардалайди. Аслида ҳам маърифат ва жаҳолат ўртасидаги кескин тўқнашувлар вақтида илоҳий муҳаббат, комиллик ҳақида гапиришнинг ўзи бўлмасди. Қолаверса,

[102] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б.68.

ўша давр муҳитидан келиб чиқиб оддий бармоқ тизимида ёзилган шеърдан кўра азалий удумлар, анъаналар халқ учун одатий шаклга янгича маъно ва мазмунни сигдириб, миллатни уйғотишни муҳим деб билган Чўлпон том маънода ўз олдига қўйган мақсадига ета олган деб ўйлаймиз.

Шоир Абдулла Авлоний ҳам жадид шеъриятида анъанавий тимсоллар бадиий талқинини давом эттирди:

Баҳор ўлса, шаби ҳижрон ҳамиша зор ўлур булбул,
Гулининг ишқида фарёди хушгуфтор ўлур булбул[103] .

Арузнинг ҳазаж баҳрида ёзилган мазкур ғазал 11 байтни ташкил қилади. Шеърдаги ошиқона кечинмалар баёни, маъшуқанинг мафтункор жамоли тасвири анъанавий гул (маъшуқа) ва булбул (ошиқ) тимсоли орқали тўла очиб берилган. Ёр ишқида жафо чеккан ошиқнинг руҳий изтироблари – ҳижрон азобида "зор ўлган", ишқ ўтида фарёд чеккан ва муҳаббат йўлида жонидан-да кечишга тайёр бўлган ошиқ (булбул)нинг изтиробли севги тарихи бадиий бўёқларда тасвирланади. Кейинги байтларда айрилиқдан абгор бўлган ошиқнинг оҳу нолалари, Аллоҳдан ўзга унинг сирдоши қолмагани, ҳижрон қисмати уни ҳар кўйга солгани, бир сўз билан айтганда, ҳажр азобини чеккан лирик қаҳрамон кайфияти шундоқ бўртиб турибди:

Худодан бошқа йўқ бечоранинг бир воқиф асрори,
Бўлур нолони гирён, ҳажр ила бемор ўлур булбул.

Шоирнинг лирик қаҳрамони исёнкор курашувчи шахс қиёфасида ечими мушкул бўлган муаммолар гирдобида, ушалмас хаёллар, ажойиб орзулар дунёсида намоён бўлади:

Етса умрингни(нг) баҳори, келгусидур булбулинг,
Бўлғуси гуллар, чаманлар булбулистон, чекма ғам[104].

Байт мазмунидан кўринадики, агар шоирнинг умри етса, унга гуллар ошно бўлиб, чаманлар булбулистонга айланишига умидланади. Авлоний ғазалларида *ёр, ошиқ, гул, булбул, ағёр* тимсоллари янгича руҳ ва янги маъноларда ўз аксини топганини жадид адабиётининг билимдони, профессор Бегали Қосимов тўғри қайд этиб, "классик адабиётимизда минг йиллардан бери ишланиб келган *гул, булбул, ёр, ағёр, май, чарх* (дунё) каби образлар бу давр адабиётида, жумладан, Авлоний ижодида бошқача оҳанг, бошқача мазмун касб этди... Авлоний гул ва булбул образларига янги маъно юклайди. Шоир шеърларида ёр образи – илм, маърифат, тараққиёт, халқ тушунчаларини; ағёр – нодонлик, жаҳолат, зулм, истибдод аҳли маъноларини ифодалайди ва ҳоказо. Бу образларнинг аксарияти ўзларининг илгариги маъноларидан бутунлай узоқлашган ва замон талабига мос янги мазмун, ўзга оҳанг касб этганлар", деган хулосага келади[105]. Авлонийда гул ва булбул тимсоллари "Таърифи гул", "Садойи булбул", "Фиғони булбул" сарлавҳали

---

[103] Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Б. 185.
[104] Кўрсатилган асар. – Б.121.
[105] Бу ҳақда қаранг: Қосимов Б в.б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 298-300.

ғазалларида учрайди. “Фиғони булбул” ғазалида *гул, булбул, гулзор, қафас* каби таносиблар силсиласида кузатамиз:

Жаҳон боғини гулзоринда фарёд этди бир булбул,
Ўтурди нағмазоринда гулин ёд этди бир булбул.

Мумтоз адабиётдаги анъанавий гул (маъшуқа), булбул (ошиқ), қафас (ҳижрон) тимсоллари Авлоний ижодида муҳаббат кечинмалари бўлиб эмас, Туркистон дарди, қиёфаси сифатида ўзга бир тасвирда намоён бўлади. Гул – бу бағрига ботган тиконлар заҳмидан озор топган Туркистон. Булбул – Туркистоннинг келажаги учун курашаётган қаҳрамон. Маълум бўладики, Авлоний ҳам шоир Чўлпон сингари тимсоллар тизимидан ўз даври қўйган бадиий-эстетик вазифаларни бажаришда фойдаланган.

Авлоний ижодида “булбул” тимсоли қуйидагича талқин қилинади:

Қўнуб гул шохига булбул дер: Эй инсонлар, инсонлар,
Қилурсиз тобакай ғофил ётиб афғонлар, инсонлар.

Туринг уйқуни ташланг, илм олинг, ёшлик ғаниматдур,
Йўқ эрса, бўлғунгиздур жаҳл учун қурбонлар, инсонлар...[106]

Булбул Чўлпон ижодида ошиқ, яъни миллат тимсоли сифатида гавдалантирилса, Авлоний шеърида гул шохига қўнган булбул инсонларга мурожаат этиб, уни курашга чорловчи даъваткор сифатида намоён бўлади. У инсонларга қарата тобакай ғафлатда ётиб, афғонлар чекасиз, ёшликни ғанимат билиб, илм олишга чоғланинг, акс ҳолда, жаҳолат қурбони бўласиз, дея нидо қилади.

Чўлпон ижодида кўзга ташланган анъанавий тимсоллардан бири бу – адашган инсон тимсолидир.

Кеча кўрдим уни: Будда ёнида
Риёзатнинг фойдасини ўқурди[107].

Шоир эътиқодни ўз миллатининг қадрияти сифатида эмас, балки бутун Шарқ олами учун олий қадрият саналган исломий қарашлардан келиб чиққан ҳолда талқин қилади.

Чўлпон ижодидаги яна бир тимсол бу инсон ботинида доимий ғалаён қилиб турувчи исённинг шайтон воситасида шеър замирига сингдирилганлигида кўринади. Маълумки, исён ҳаддан ошиб чегарадан ташқарига чиқса, у шайтоний сифат касб этиши мумкин. Чўлпоннинг “Тан бердим” деб номланган шеърида номи такрорланмаса ҳам *шайтон* тимсолига урғу берилади. Бу шайтон инсон ички дунёсида мудраб ётган, доим ҳам бош кўтаравермай аҳёнда-аҳёнда муайян туртки туфайли қайта бош кўтариб, исён қилади. У умиддан, шукурдан ҳоли, ўз-ўзича эркин, ҳеч нарсадан қониқмайди. Шунинг учун ҳам унда исёнга мойиллик доимийлик касб этади:

Томирингда исёнчи қон, тўхтамасдан югуриб,
Сени доим бир талваса қучоғида сақлайдир;

---

[106] Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Б. 151.

[107] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б. 28.

Алангали тили билан “келгуси”ни ҳақлайдир.
Сен ҳам букун, юзларингни келгусига ўгуриб,
Уни мақтаб, алқайсен.
Ўтканларга ёмон “гина” сақлайсен…[108]

Расулуллоҳ (с.а.в.)дан *“Шайтон инсоннинг қон томирларида юради*[109]*,* деган ҳадис бор. Шу маънода одам ўзидаги шайтоний сифатларни билмагунича шайтон қиёфасини била олмаслиги мумкин. Бу каби сифатлар Юсуф Хос Ҳожиб, Хожа Аҳмад Яссавий, Сулаймон Боқирғоний, Адиб Аҳмад Югнакий, Алишер Навоий каби мумтоз шоирлар ижодида талқин этилган. Айниқса, Ҳазрат Навоий биргина “Маҳбубу-л-қулуб” асарида йигирмадан ортиқ шайтоний сифатларни келтириб, инсон кўнглида уларга ўрин берилиши инсонни махлуққа яқинлаштириб қўйишини таъкидлагани бежиз эмас.

ХХ асрга келиб аксарият жадид шоирлари, жумладан, Абдурауф Фитрат, Тавалло, Сўфизода ижодида Шайтон янгича талқинда бадиий тимсол сифатида қайта ишланади. Хусусан, Фитратнинг “Шайтоннинг Тангрига исёни” асари (1924)да у ақл ва хийланинг рамзи сифатида талқин қилинар экан, унинг ўзи хусусида айтган “Раҳбарим – фан, пайғамбарим – билимдир...» деган сўзлари янгиланган поэтик моҳиятни англатишда ёрдам беради. Бунда шоир:

Раҳбарим – фан, пайғамбарим – билимдир...
Муовини миям билан тилимдир.
Топингумдир ёлғизгина ўзимга,
Ишонгумдир икки очиқ кўзимга.
Ёлғиз ўзим қутулдим деб юрмайман,
Бошқалардан хабар олмай турмайман[110].

деб ёзар экан, Шайтоннинг Тангрига исёни шундаки, у фақатгина топинишдан қочмайди, балки у амалиётга, фан ва билимга, мияси ва тилига шунчалар ишонадики, натижада фақат кўрганларига ишониш орқали “Топингумдир ёлғизгина Ўзимга” деган хулосага келади. Табиийки, бу ҳолат мумтоз адабиётда ишланган ўзи топинмай қўйган ва Унга топингувчиларни ҳам йўлдан урадиган Иблис эмас, балки фақат ўзигагина топиниб, ўзини ўзи учун Тангри деб белгилаган Шайтон (худбин) тимсолидир[111]. Поэтик тимсолнинг ХХ аср бошларига келиб, бу қадар кескин тарзда талқин қилиниши шоир яшаб турган ижтимоий шароит ва асар яратилган муҳит билан боғлиқдир.

Қуръони каримнинг Аъроф сурасида шундай ёзилган: “Аниққи, Биз сизларни яратдик, сўнг сизларга сурат бердик, сўнгра фаришталарга: “Одамларга сажда қилинглар” дейишимиз билан улар сажда қилдилар. Магар иблис сажда қилгувчилардан бўлмади. (Аллоҳ) деди: “Сенга буюрган пайтимда нима мени сажда қилишдан тўсди?” (11-12 оятлар). “Мен ундан (Одамдан) яхшироқман. Мени оловдан яратгансан. Уни эса лойдан яратдинг”

---

[108] Кўрсатилган асар. – Б.89.
[109] Муҳаммад Исмоил ал-Бухорий, ал-Жомиъ ас-саҳиҳ, тўрт жилдлик. 2-жилд, – Тошкент: 1997. – Б.382.
[110] Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 231.
[111] Каримов Н. Фитратнинг шайтонга исёни // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993. – 20 август.

деди у. (Аллоҳ) деди: “У ҳолда ундан (жаннатдан) тушгин. Сен учун унда кибру ҳаво қилиб юриш жоиз эмас. Бас, чиқ! Албатта сен хор бўлгувчилардандирсан” (13-оят)[112].

Кўринадики, Қуръони каримда тилга олинган воқеа замонлар ўтиши билан мумтоз адабиётда муайян мақсадни ифода қилишда қўлланилган, жадид адабиётига келиб давр талаби билан улар ижтимоийлик касб этган.

Чўлпоннинг “Хаёли” (1920) деб номланган шеърида келажак ҳақида “бахт ва саодат”ни ваъда қилган Шахс эсга олинади. Бу ёлғон ваъда ва пуч ўйлар шоир наздида “шайтоний хаёллар”дан ўзга нарса эмас:

...Қулоғимга” “ол бахт” деб эшитилган
Азонларни шайтоний деб ўйладим;
Шунинг учун бахт берган малакка
Турли-туман афсоналар сўзладим...[113]

Мумтоз шеъриятда анъанавий тимсол сифатида танилган Шайтон XX аср бошларидан шайтоний сифатларнинг йиғиндиси тарзида идрок этилади. Жадид шоирлари ижодидаги Шайтони лайн, унинг хатти-ҳаракатлари, инсониятга етказган зарарлари билан бирга кўпроқ Ҳақ йўлдан оздирувчи, шаҳвоний ниятларнинг ижросига ундовчи, қабиҳ ишларнинг амалга ошишига кўмаклашувчи куч сифатида тавсифланиб, бевосита махлуқ эмас, балки салбий хусусиятлар йиғиндиси бўлган мажоз сифатида талқин этилади. Ана шу маънода Чўлпоннинг “шайтон”и хаёлий, ўткинчи шарпадай таассурот қолдиради. Шеърнинг кейинги мисраларида босинқираган шоирнинг тушида қўрқинч каби гавдаланган Шайтон қаршисида лирик қаҳрамон қўлида синган қилич, тешилган қалқон, устига бало тоғи йиқилган ва ётган ҳолда кўринади:

Кет, эй шайтон, босирқадим... қўрқаман;
Кет-кет. Қилич синган, қалқон тешилган.
Кўрасанми? Мен эзилган, ётаман,
Устимга-да бало тоғи йиқилган.

Шеър сўнгида охирги дамда қаҳрамон яна малакка мурожаат қилиб, ундан бир бор қарашни сўрайди:

Сўнгги нафас, охирги дам, эй малак,
Кел, бир қара, сўнгра йиқилсун фалак.

Ёрнинг нигоҳи шоирга сўнгги дамда Шайтон етказган заҳматларга қарши бир тиргак сифатида куч беради. Юқорида айтилган Фитрат шеърий драмасидаги Шайтон билан Чўлпон шеърларидаги шайтоний тимсоллар ўртасида яқинлик бор. Бу яқинлик ҳар икки шоирнинг шайтоний хулқларга, шайтоний ваъдаларга бўлган муносабатида ҳам кўзга ташланади. Фарқ шундаки, Фитрат талқинидаги шайтон муайян маънода илм ва фанга таянган, бироқ илоҳий қарашларга қарши чиқиб, инсониятни ўзига тобелантирмоқчи бўлган куч сифатида кўринган эди. Чўлпон шеърларидаги шайтон тимсоли кўпроқ номарғуб сифатлар, шайтоний ўй ва хаёлларнинг ижрочиси сифатида

---

[112] Қуръони карим / Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б.101.
[113] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б.49.

кўзга ташланади. Ҳатто шеър сўнгида унинг қулоғига эшитилаётган азон товушлари ҳам шайтоний сифат касб этади. Чунки ёлғон ваъдалар гирдобида қолган шоирнинг ўйида ҳаёт эмас, бамисли гўзал афсона гавдалангандай.

Маълум бўладики, Чўлпоннинг мумтоз адабиётга бўлган муносабати унинг поэтик имкониятлари очилишига туртки бўлди. Шоир Навоий ва Бобур ғазалларидаги каби ёр ва диёр мавзусида вазмин, улуғвор шеърлар ҳам ёзди. “Дарё бўйи”, “Бизнинг Ватан”[114] каби ғазалларида мавзу моҳияти жиҳатидан мумтоз шеърият анъаналарига содиқ ҳолда тимсоллар яратган бўлса-да, булар мавзу объектининг аниқлиги билан мумтоз шоирлар ижодидан фарқ қилади. Масалан:

Бу Учқўрғон, ажаб, оби-ҳавоси дилнавоз эрмиш,
Хусусан, дарёнинг қирғоқлари куз фасли соз эрмиш...[115]

Кўриниб турибдики, ғазал “дарё” тимсоли асосига қурилган. Тасвир объекти бўлган Учқўрғон дарёсининг хусусиятлари байтма-байт очиб берилиши натижасида ғазалда воқеабандлилик юзага келади. Бу жиҳатдан Чўлпон шеъри мумтоз шеъриятдаги якпора ғазалларга яқинлашади. Уларнинг ҳар байти мазмунан воқеабанд бўлиб, ғазалдаги ягона мақсадни тушунишга ёрдам беради. Ғазалнинг моҳиятидаги воқеабандлик баён-тасвир объектига, бадиий санъатларнинг қўлланилиш даражаси ва кўламига ҳам таъсир қилади. Учқўрғоннинг Норин дарёси билан боғлиқ тасвири ташбиҳ ва ташхис санъатлари асосига қурилган. Шоир тасвир объекти бўлган дарёнинг зилол сувлари, унинг роҳатбахш қирғоқлари ҳақидаги таассуротларини ёрқин тасвирлаш ва тимсолли ифодалашда ташбиҳ имкониятларидан кенг фойдаланган. Шоир қўллаган ташбиҳ санъатининг *ташбиҳи сареҳ* турида “бир нарса иккинчи бир нарсага ташбиҳ воситалари ёрдамида тўғридан-тўғри ўхшатилади”[116]. Ғазалда рамзий тасвир сифатида ташхис санъатидан изчил фойдала-нилганлиги шоир бадиий маҳоратининг юксаклигини далиллайди. Ғазалдаги асосий тимсол – дарё. Шоир бадиий тимсолнинг сифатини ҳар томонлама изчил тасвирлашга эришган, яъни сувларнинг “талотум айлаши”, “телба мажнундек чопиши”, қирғоқлар эса “йўлда ғоз туриши”, тунда сув юзида “ойларнинг ўйнаши” ва уларнинг “минг турфа нозлари” – буларнинг бари мусалсал (занжирли) ташхис санъатини вужудга келтиради. Занжирли ташхислар замирида эса ташбиҳ билан алоқадорлик ётадики, тасвирий воситаларнинг бундай ўзаро алоқадорлиги ва шоир томонидан фаол қўлла-нилиши натижасида фавқулодда жонли лавҳа яратилади. Мумтоз шеърият-даги бу жиҳат Чўлпоннинг индивидуал услуби билан уйғунлашиб, поэтик маҳорат касб этади. Норин дарёсининг гўзаллигини кўрган шоирнинг таъби жўш уриб, гарчи ўзини “аруздан баҳрасиз” деб билган бўлса ҳам аруз тизимида дарё оқимига ҳамоҳанг тарзда ғазал айтишга киришади:

Кўриб Норинни таъби жўш уриб бир-икки сўз айтган

---

[114] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б. 280, 301.
[115] Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Б.280.
[116] Бу ҳақда қаранг: Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘ZBEKISTON, 2014. – Б.232.

Аруздан баҳрасиз бир Чўлпон отлик бенамоз эрмиш.

Шеъриятда қадимдан “кўз ёш” тимсоли аксарият ҳолларда муҳибнинг маҳбуба томонидан берилган озорлари эвазига тўкилиши сифатида берилган. Сиддиқий Ажзий анъанавий *кўз ёш, дарё* тимсоли орқали ўзига хос гўзал бир манзара чизгани маълум:

Надур, ё Раб, бу гирён чашми хунборим таманноси?
Бани ғарқи бало тўфони этмишдур бу дарёси[117]

Кўринганидек, шоир байтда лирик қаҳрамон – ошиқнинг руҳий кечинмаларини тасвирлашда *“чашми гирён” (кўз ёш)* тимсолидан фойдаланган, яъни ошиқ шундай кўз ёш тўкадики, унинг кўз ёшларидан *дарёлар* пайдо бўлади, дарёлар эса давомли кўз ёшлардан *тўфон*га айланади ва у тўфон шоирнинг ўзини ҳам ғарқ қилади. Шоир ошиқ кўз ёшини дарёга, кўз ёшларининг шиддатини эса тўфонга менгзайди, унинг оқибатини ғарқ бўлиш билан якун топтиради. Шоир ошиқнинг ўз маҳбубасига бўлган интилиши ва садоқатини исботлашда асосий детал сифатида кўз ёшидан фойдаланган.

1. XX аср бошлари адабий меъёрлари мумтоз шеъриятдаги маъно ва сурат якдиллигини тасдиқлаб, уларда ўзаро уйғунликни таъминлайди. Бундай уйғунлик ҳосил қилинишида бадиий санъатларнинг ҳам муайян роли бор. Мумтоз шеъриятда фаол бўлган бадиий санъатларнинг адабиётимизда қўлланилиши уларни келажакда ҳам истеъмолда эканлигини таъминлаган эди. Мумтоз шеърий воситаларга мурожаат қилиш орқали жадид шеърияти, ўз навбатида, мумтоз анъаналарни давом эттириш билан бирга уларнинг янги маъно қатламларини очишга интилганини кузатиш мумкин.

2. Жадид шоирлари ижодида мумтоз анъаналар жанр ва образлар кўлами жиҳатидан ривож топиб, уларни шеърият равнақи учун хизмат қилдирилган бўлса, аруз вазнининг азалий қонунлари, хилма-хил баҳрлари, уларнинг оҳанг хусусиятлари ҳам ушбу шеъриятда чуқур ўзлаштирганлигининг гувоҳи бўламиз. Мумтоз шеърият билан янги адабиёт ўртасида кўприк вазифасини ўтовчи жадид шоирлари ижоди шўро адабиётининг бошида турган Ғафур Ғулом, Ҳамид Олимжон каби шоирлар ҳам аруз вазнига муваффақиятли тарзда ёндашиш учун замин ҳозирлади.

3. Авлоний шеъриятида арузнинг машҳур ва кам қўлланилган вазнлари мумтоз шоирлар ижодидаги каби фаол истеъмолда бўлиши билан бирга давр нафаси аниқ сезилган назм намуналарида арузнинг қатъий талаблари бузилиши баробарида бармоқ вазнига яқинлашиш ҳоллари сезилади. Бу ўринда ҳижоларнинг чўзиқ ва қисқалиги, вазнга тўла мос келмаслиги кузатилса-да, бироқ байтдаги ҳижолар сони ўзаро тенг келиши орқали вазн янгиланганини кўрамиз.

4. Абдулҳамид Чўлпоннинг мумтоз вазн хусусиятларини сингдирган шеърларида арузнинг энг ёқимли ўлчовларидан *ҳазаж*, *рамал баҳрлари* фаол қўлланилган. Маълумки, ҳазажи мусаммани солим вазни Навоий, Огаҳий ижодида кенг истеъмолда бўлиб, улар шеърларининг кўпчилик қисмини шу

[117] Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.143.

вазнда ёзишган эдилар. Бу анъана XX аср шеъриятида ҳам изчил давом этганлигини Чўлпон ижоди мисолида яққол кўришимиз мумкин.

5. Рубоий вазнлари ҳазаж баҳри доирасида “йигирма тўрт навъ, мажмуъи ўн вазндин” (Бобур) равон чиққан, вазн туфайли тил қоидасига ҳам, маънога ҳам, бадиий воситаларга ҳам зарар етмаган. Қолаверса, фикрни ифодалашда ортиқча сўзлар туширилиб қолдиргани рубоийнинг мўъжазлигини таъминлаган, сўзларни иқтисод қилиб ишлатиш билан ҳам кўп маъно бериш мумкинлигини кўрсата олган.

6. Мумтоз шеъриятдаги каби XX аср шеъриятида ҳам қофия асар ғоясини ифодалашда, образлар характерини очишда, маъно ва фикрларни таъкидлашда, шеър мазмунини реал ифодалашда катта аҳамият касб этади. Қофия шеърнинг асоси бўлиб, қофия учун танланган сўз ўз жилоси ва маънавий теранлиги билан шеърнинг бадиий жиҳатдан юксаклиги, мисралар оҳангдошлигини таъминлайди. Қофия орқали ўқувчи диққати муҳим бир нуқтага жам қилинади, унинг тасаввурида асардаги лирик тимсолнинг маънавий олами, ички ҳис-туйғулари гавдаланади.

10-мавзу. Жадид адабиёти ва оқимлар

11-мавзу. Жадид насри ва унинг поэтик хусусиятлари. Романлардаги ижтимоий ва миллий руҳ тасвири йўсинлари

Жадид адиблари бадиий адабиётнинг турли жанрларида, хусусан, эпик турнинг кичик жанрларида ҳам ғоявий етук ва бадиий юксак асарлар яратганлари маълум. Бундай асарлар эса ўз-ўзидан туғилмаган. Улар мумтоз адабиётнинг бошланғич вакилларидан тортиб, ўзига даврдош адиблар ижодига қадар бўлган маданий бойликларни ўрганган, улардан энг сараларини танлаб олган, ўзлари учун маълум маънода ўзлаштирган. Асарлари адабий манбалар заминида майдонга келди, замонавий тус олди, уларнинг қонуний давоми бўлди.

Шарқ мумтоз адабиётида панд-насиҳат, ўгит, таълим-тарбия руҳида дидактик асарлар ёзиш анъанаси XI асрда Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари билан бошланди. Кейинроқ Шарқда Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибату-л-ҳақойиқ” (XII–XIII), Кайковуснинг “Қобуснома” (XII–XIV), Шайх Саъдийнинг “Гулистон” (XIII) асарлари ақл ва ҳикмат дарслигининг давоми сифатида пайдо бўлди. Мазкур асар муаллифлари ҳаётий тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда ўзларининг ахлоқий-тарбиявий қарашларини турли шакл ва йўналишларда баён этдилар. Яхшилик ва ёмонлик, эзгулик ва ёвузлик каби умумий ном билан аталган хислатларга ҳар бир муаллифнинг ўз

қарашлари ранг-баранг ҳаётий тажрибаларга таянган ҳолда талқин этилган. Бу борада Муслиҳиддин Саъдийнинг панд-насиҳат руҳидаги ҳикоялар ва шеърий афоризмлар мажмуаси бўлган “Гулистон” асари асрлар мобайнида мумтоз насрнинг “баржастаси” сифатида юксак ахлоқий-таълимий сарчашма мақомида ўзбек китобхонлари қалбига ўз таъсирини ўтказибгина қолмай, бундаги ибратли лавҳалар адаб оламининг кўркам намунаси сифатида бадиий адабиётга теран кириб борди ва янги бадиий асарларнинг яратилиши учун ғоявий-маънавий сарчашма бўлиб хизмат қилди. Шу ўринда проф. Н.Жабборовнинг Саъдий анъаналарини Фурқат ижоди билан боғлаб: “Маълумки, муайян тарбиявий аҳамиятга эга бўлган фикр баёнидан сўнг унга мос ҳикоят келтириш услуби Шарқ адабиётининг хос хусусиятларидан. Саъдийнинг “Гулистон”, Жомийнинг “Баҳористон” асарлари худди шу услубда ёзилган”[118] деган хулосасига таянган ҳолда “Гулистон” ва “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарлари ўртасидаги яқинликни кузатиш мумкин. Дидактик ҳикоялар жамланмасидан тузилган бу асар китобхон учун таълим дарслиги сифатида кириб келган бўлса, ўзбек адабиётининг тараққиёти учун асосий бой манба, қолаверса, ижодкорлик мактаби бўлиб хизмат қилди. Бу эса XX аср адабиёти вакиллари, жумладан, Саъдийнинг “Гулистон”, Жомийнинг “Баҳористон” асарлари бўлди. Саъдий мазкур пандномада ҳаёт фаолиятида кузатган воқеа-ҳодисаларни баён этиб, улардан ахлоқий хулосалар чиқаради. Маълумки, “Гулистон” асари дебоча ва 8 бобга тақсим қилинган бўлиб, ҳар бир боб маълум мақсад билан жамланган кичик ибратли ҳикоятлардан ташкил топган. Бу ҳикоятлар асар умумий композициясини ташкил қилади ва ўзаро таълимий-маънавий жиҳатдан боғланиб туради. Дебочада китобнинг ёзилиш сабаблари баён этилган. Асарнинг асосий қисми ёзувчининг ўз даврида бўлиб ўтган энг муҳим сиёсий ва иқтисодий-ижтимоий воқеаларни акс эттириш баробарида ахлоқий меъёр қоидаларни талқин этувчи сарлавҳалар остида кетма-кет берилади.

XX аср адабиёти тарихида наср, хусусан, ҳикоя жанрининг такомиллашувида Абдулла Авлонийнинг “Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ” асари алоҳида ўрин тутади. Мазкур асар услуб, шакл ва мазмун жиҳатидан машҳур адиб Шайх Саъдий (1184–1292)нинг “Гулистон” асарини эслатса-да, унда Саъдий билан бир қаторда, Алишер Навоий, XVI асрнинг машҳур ҳикоянависи Хожа ҳикояларининг ҳам таъсири кўзга ташланади. Аввало, Авлоний асарини “Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ” деб номланишининг ўзидаёқ зийрак китобхон уни Саъдийнинг “Гулистон” асари билан алоқаси борлигини ҳис қилади. “Туркий гулистон” Саъдийнинг “Гулистон”и каби бутун бир сюжетга эга эмас, яъни алоҳида-алоҳида кичик пандномалар жамланмасидан ташкил топган. Маълум бўлганидек, Саъдий мажмуасида шаклан кичик, аммо мазмунан даврнинг катта ва муҳим ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий, таълимий-ахлоқий масалаларини дидактик характерда ёритиб берувчи ҳикоялар жамланган бўлиб, унда ифодаланган ғоя турли

[118] Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 179.

тимсоллар воситасида тез ва таъсирли етиб боради. Саъдий “Подшоҳлар одати баёни”, “Дарвешлар ахлоқи баёни” деб сарлавҳаланган дастлабки бобларда ахлоқ ва одобга оид таълимий қарашларини қуруқ панд-насиҳат орқали эмас, балки реал бадиий тимсоллар воситасида, ҳаётий ва фактик материаллар асосига қурилган ҳикоятлар тарзида тартиблаган. Асарнинг дастлабки икки бобида элликдан ортиқ адолатпарварлик, халқпарварлик ғояларини илгари сурувчи, ўз даврининг ахлоқини танқид қилиб, шоҳларнинг адл ва инсофли, раият ғамини чекувчилардан бўлишларини истаб, уларга диёнат билан юрт бош-қарган султон ва хоқонлар фаолиятини намуна қилиб кўрсатувчи дидактик ҳикоятлари ўрин олган. Ҳар бир ҳикоят материал нуқтаи назаридан чуқур дидактика билан суғорилган, шунинг учун ҳам ўқувчи онгига тез етади. Шарқ мумтоз адабиётида кенг ўрин берилган дидактик йўналишда Кайковуснинг “Қобуснома”, Жомийнинг “Баҳористон”, Навоийнинг Маҳбубу-л-қулуб, Хожанинг “Мифтоҳу-л-адл” асарлари яратилган. Саъдий асарининг подшоҳлар ва дарвешлар ҳақидаги бобида адолат ва зулм, тўғрилик ва ноҳақлик, ақл ва уқувсизлик каби ахлоқий тушунчаларни султонлар, вазирлар, зоҳидлар тимсоли орқали очиб беради. Мана шу масалаларни ўзида сингдирган қуйидаги ҳикоятга эътибор қаратайлик: Бир подшоҳ асирини ўлдиришга фармон беради. Шўрлик асир ҳаётдан умидини узиб, подшоҳни боплаб сўка бошлайди. Зероки: “Киши жондан умид узгани замон, кўнглида борини этади баён” деган халқ мақоли бор. Подшоҳ вазирларидан унинг нима деётганлигини сўрайди. Софдил вазирларидан бири: “Эй подшоҳи олам: “Ҳар кимки ғазабин ичига ютар, у гуноҳ қилганнинг гуноҳин ўтар” деяпти, деб жавоб берди. Шунда подшоҳнинг раҳми келиб, асирни афв этади. Софдил вазирнинг пойини қирқиб юрадиган иккинчи вазир гапга аралашиб: “бизнинг мавқеимизда бўлган одамлар подшоҳ ҳузурида фақат рост сўзлашлари лозим. Бу асир подшоҳни ҳақорат қилди ва шаънига ёмон гаплар айтди”, дейди. Подшоҳ бу гапни эшитиб, қош-қовоғини уйиб: “сен айтган рост гапдан кўра, унинг ёлғони менга кўпроқ маъқул тушди, чунки унинг ёлғони хайрихоҳлик юзасидан айтилган эди, сеники эса, жиноятга бошлаш учун айтилди, донишмандлар: “Фитна қўзғатувчи ростдан, маслаҳатли ёлғон яхши” деганлар”[119] деб жавоб беради.

Саъдийнинг бу кичик ҳикояси яхшилик ва ёмонлик, одиллик ва золимлик, эзгулик ва тубанликни кўрсатувчи кўзгу хизматини бажаради. Навоий “Маҳбубу-л-қулуб” асарининг “Сариунноснинг афъол ва аҳволининг кайфияти” (“Турли тоифа кишиларининг феъллари ва ахволларининг хусусиятлари”) деб аталган қисмида жамиятдаги турли табақадаги кишиларнинг ўз вазифаларига нисбатан ҳалол бўлиши, мансабини суистеъмол қилмасликлари ҳақида фикр юритар экан, адолатли ва золим подшоҳлар, раиятпарвар ва жоҳил вазиру амалдорларнинг “афъол”и ва “аҳвол”ини бадиий лавҳаларда рўйи рост очиб беради. Улуғ Навоий

[119] Саъдий. Гулистон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашр., 1968. – Б. 21-22.

адолатли султонларни “одил шоҳ кўзгу ва бу анинг учасидир. У ёруғ субҳ, бу анинг қоронғу кечасидур” деб таърифласа, золим шоҳлар фаолиятини шундай тавсиф этади: “Ободлар анинг (золим подшоҳнинг – Т.М) зулмидин вайрона, кабутар тоқчаларни бойқушға ошиёна... Ноҳақ қон тўкмак анга пеша, кимки жони бор анга андеша”[120]. Кўринганидек, Навоий қарашлари Саъдий қарашларига ҳамоҳанг. Ҳар икки асар қаршисида жамият ҳаёти учун катта аҳамиятга эга бўлган дидактик ва фалсафий масалалар туради ва шу жиҳатдан ҳам булар Шарқ мумтоз бадиий тафаккури тарихида алоҳида мавқега эга. Бу қисқа муқоясадан кўринадики, аҳлоқий-таълимий масалалар даврдан-даврга ўтишда ўзига хос кўринишга эга, ҳамоҳангликни сақлаган, бир-бирини тўлдиради.

XX асрда жамиятдаги ижтимоий ўзгаришлар, аниқроғи, социал табақалашув – шоҳ, вазир ва бошқа сарой атрофидаги мансабдорлар деб юритилган ҳодисалар барҳам топганлиги боис дидактик масалалар шахс тимсоллари орқали эмас, жамият эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда педагогик асар сифатида майдонга чиқди. Авлоний “Туркий гулистон...” асарида Саъдий ва Навоий тилга олган таълимий масалаларга мурожаат этган, ҳар икки асардаги ҳикояларнинг мазмуни ва ғоясини қабул қилган, ўз ғоявий мақсади йўлида манба сифатида фойдаланган. Авлоний ҳикматлар мажмуаси бўлган бу асарлардан сюжетнинг асосини олиб, жамиятнинг ижтимоий ҳаётидан келиб чиққан ҳолда ижодий ёндашиб, уларни ўз асарига киритди. Асар таълимий йўналишда бўлганлиги боис унда ахлоқий-таълимий масалалар назарий-дидактик қоидалар асосида ёритилди.

“Диёнат” деб сарлавҳаланган ҳикояда аввал диёнат тушунчасига таъриф берилиб, сўнгра диёнатли бўлиш ва унинг самараси ҳақида ҳикоя келтирилади. Шу тарзда асарда охирига қадар 65 та ҳикоялар берилган. Бу тартиб мумтоз ҳикоятлардан фарқли равишда ҳар бир мавҳум тушунча асос қилиб олинган ҳолда давом эттирилади. Маълум бўлишича, Авлоний қўллаган бу дидактик усул, умуман, ҳикмат айтиш ёки ахлоқий таълим бериш учунгина эмас, балки таърифи келтирилган тушунчани ҳаётий мисол орқали асослаш муҳим эканлигига эътибор қаратади. Авлоний келтирган ҳикоялар сарлавҳа, таъриф, мавзуга дахлдор ҳадислардан намуналар, айрим ўринларда ҳадислар ўрнида мақоллар, хулоса ёки қиссадан ҳисса тарзида шеър (қитъа, тўртлик) тартибида берилган. Бундан мақсад хулосаловчи фикрни шеърга кўчириш орқали муаллиф китобхонни тайёр дидактик хулоса билан таъминлаш эмас, балки шеър завқини туюш, унинг ҳам санъат, ҳам ҳикмат эканлигига ўқувчи

---

[120] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўртинчи том: Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 12.

эътиборини қаратишдан иборат эди. “Яхши хулқлар” деб сарлавҳаланган ҳикояда “яхши хулқ нима, унга қандай эришмоқ мумкин?” деган саволга батафсил жавобни қисқа ва лўнда қилиб тушунтиради: “Яхши хулқ – бир қисми ўз нафсимизга, бир қисмини бир-биримизга қарши ишлатмак учун керакли бўлган яхши хулқлар: фатонат, диёнат, исломият, назофат, ғайрат, риёзат, қаноат, шижоат, илм, сабр, ҳилм, интизом, миқёси нафс, виждон, ватанни суймак, ҳаққоният, назари ибрат, иффат, ҳаё, идрок ва зако, ҳифзи лисон, иқтисод, виқор, хавф ва ражо, итоат, ҳақшунослик, хайрихоҳлик, мунсиллик, садоқат, муҳаббат ва афвдур” дея яхши хулқнинг 34 та турини белгилаб беради[121]. Яхши хулқли бўлиш учун эса “ота-она, муаллим устодларимиз ҳазратларининг ҳикматли насиҳатларини жон қулоғи бирла тинглаб, доим хотирда тутмак, ахлоқи яхши кишилар бирла улфат бўлмак, ахлоқи бузуқ ёмон кишилардан қочмак лозим”лигини айтиб ўтади. Яхши хулқ кишининг зийнати эканлигини Пайғамбар ҳадисларидан намуна келтириш орқали яна бир бор таъкидлайди: “Расули акрам набиййи муҳтарам саллаллоҳу алайҳи васаллам: “Исломиятда бузуқлик йўқдур, бузуқликни устига олув ҳам йўқдур. Исломиятда энг мўътабар кишилар яхши хулқ эгаларидур”, демишлар”. Адиб ҳикоятнинг сўнгида фикрларининг хулосаси сифатида келтирган:

Яхши бирла юрса, ҳар ким мақсуди ҳосил бўлур,
Юрса нодонлар ила бир кун боруб қотил бўлур.
Катталар қилган насиҳатни кичиклар олмаса,
Оқибат хулқи бузуқ бир беадаб жоҳил бўлур[122].

Парчанинг *аава* тарзида қофияланиши ғазалнинг биринчи ва иккинчи байтини эслатиши билан бирга унинг *рамали мусаммани маҳзуф* вазнида ёзилгани рубоий эмас, балки қитъа шаклида қабул қилиш лозимлигини кўрсатади.

“Туркий Гулистон...”даги ҳикоятларда муаллиф фикрини хулосаловчи назмий парчалар, биринчидан, насрий баёндаги фикрларга якунловчи маъно беради, иккинчидан, муаллиф илгари сурган ғоянинг таъсирчан чиқишини ва бадиий баркамоллигини таъминлайди. Саъдий ҳикоятларининг аксариятида шеърлар матн ўртасида ва охирида келади. Масалан, подшоҳ ва дарвеш ҳикоятини олайлик. “Воқеан бир саҳронинг хилват ерида ўтирар эди. Қаноат мулки ичра фароғатда бўлган дарвеш олдидан ўтган шоҳга эътибор қилмади, илтифот ҳам кўрсатмади. Бундан подшоҳ қаттиқ ғазабланади. Шунда вазир: “Эй дарвеш, подшоҳ сенинг олдингга келди, нима сабабдан иззат-икром қилмадинг, одоб қоидаларини бажо келтирмадинг?” деб сўради. Дарвеш: “Подшоҳга дегилким, неъмат ва илтифотидан умидвор оламдан иззат ва хизмат кутсин. Яна шуни ҳам айтиб қўйгилки, фуқаролар подшоҳларга итоат этмоқ учун эмас, балки подшоҳлар фуқарога хизмат этиш учун яшайдилар”

---

[121] Мана шу каби яхшилик сифатлари Ҳазрат Навоийнинг “Маҳбубу-л-қулуб” асарида келтирилганини эсга оламиз.

[122] Авлоний Абдулла. Танланган асарлар: Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.41.

деб жавоб беради ва дарвеш фикрини таъкидловчи қуйидаги шеърни келтиради:

Гарчи неъмат билан давлат уники,
Лекин дарвешларга шоҳдир посбон.
Қўйлар чўпон учун хизмат қилмайди,
Балки қўйлар учун керакдир чўпон...

Жадид ёзувчиларининг диққат марказидаги бош масала ўтмиш ўзбек насри анъаналарини чуқур ўрганиш, ўзлаштириш ва улардан унумли фойдаланиш зарурияти бўлган. Бу даврда яратилган аксарият йирик эпик асарлар, хусусан, А.Қодирийнинг "Ўткан кунлар", "Меҳробдан чаён", А.Чўлпоннинг "Кеча ва кундуз"ида реализм тамойиллари ўз тасдиғини топади, яъни ҳаётдаги воқеликларни ҳаққоний акс эттирувчи тасвир маданияти мавжуд бўлган асар сифатида бўй кўрсатади. XX асрда яратилган мазкур романлар тарихий фактик материаллар қобиғидагина ўралашиб қолмай, асарда воқеаларни жонли ва эмоционал равишда юқори пафосда акс эттириш, гўзаллик ва эзгулик нуқтаи назаридан воқеа-ҳодисаларга баҳо бериш мақсадида, қолаверса, мумтоз наср анъаналарига таянган ҳолда бадиий тўқима тимсоллар ва тўқима воқеалар яратилган. Айниқса, Отабек ва Кумуш, Анвар ва Раъно, Ўлмас ва Зебининг покиза муҳаббати, уларнинг руҳий ва маънавий кечинмалари, бу кечинмаларнинг гўзал ифодалардаги тасвири бадиий тўқима кучи билан ҳаракатга келади. Халқ китоблари ёки ёзма адабиётнинг эпик намуналарида бадиий тўқима асосий омил воситасини бажарса, жадидчилик даврининг тўнғич романлари саналган "Ўткан кунлар", "Меҳробдан чаён", "Кеча ва кундуз"да бадиий тўқима кучи билан воқеалар реализмининг уйғунлашуви ўзига хос анъанани сақлаган ҳолда унинг замонавийлик асосини пайдо қилади.

XX аср ўзбек адабиёти ўз тараққиётида романнинг жанр сифатида ўз мавқеини топганлиги билан ўзига хос юқори поғонага кўтарилди. Бу жиддий юксалишнинг негизида Абдулла Қодирий романлари бўй кўрсатади. Қодирий ижодиётининг ўзига хос абадиятини таъминлаган омил – бой фольклор ва ўзигача бўлган шарқ мумтоз насрининг зарурий хусусиятларини ўрганди ва ўзлаштирди, ёзма адабиёт анъаналарига тўлиқ таянди. Бу таъсирни биз сюжетнинг берилиши, воқеаларнинг изчил, муфассал ва тугал баёни, тимсоллар галареясини яратиш, қаҳрамонлар портрети, хуллас, ёзувчи услубидан тортиб, асар тилигача бўлган ҳолатларда яққол кўзга ташланади. А.Қодирий XX аср адабиётида янги жанрни бошлаб берган ёзувчи сифатидагина эмас, воқеликни кенг ва чуқур тасвирини беришда реалистик бадиий тамойилларга суяниш зарурлигини англаган ва исботлаб берган, салафлар ижоди анъаналарини муттасил ўрганиш натижасида ўзига хос янги тамойилларини ишлаб чиқиш билан уни ўзлаштирган пешқадам адиб сифатида қадрли.

А.Қодирийнинг ҳамзамони Абдулҳамид Чўлпон насрнинг диққатга сазовор намуналарини яратган. Хусусан, "Кеча ва кундуз" романида жамият

оддий халқнинг эрк ва ҳақ-ҳуқуқларидан маҳрум қилиб, жисман ва маънан оғир фожиаларга дучор этганлигини Зеби тимсолида баён этган бўлса, А.Қодирий ўзининг ҳар икки йирик романида ҳаёт имтиёзли табақа вакилларига нисбатан доим ҳам бирдай мурувватли эмаслиги, кези келганда ҳеч нарса ўрнини боса олмайдиган бешафқатликлар кўрсатишини Отабек ва Кумуш, Анвар ва Раънонинг муҳаббат кечинмалари орқали намоён этади. Абдулла Қодирий бахт ва муҳаббат учун фидойилик йўлига кирган бу икки жуфтликнинг дийдорлашувдаги қувончли, айриликдаги қайғули ҳолатини юксак бадиий шаклда тасвирлашда, ўзи кўзлаган ғояни ифодалашда муҳим манбага суянган, асосий воситадан тўғри ва унумли фойдалана олган.

Адабиётшунос олим Собир Мирвалиев роман жанрининг таркиб топиши ва тараққиёти борасидаги тадқиқотларида ўзбек адабиётида роман жанрининг пайдо бўлиш илдизи мумтоз адабиётга, хусусан, Алишер Навоий ижоди билан боғлиқлигига шундай ишора қилади: “Ўтмишда ўзбек роман прозаси бўлмаган бир шароитда унинг (Алишер Навоийнинг – Т.М.) “Хамса”сига кирган эпик асарлари роман бурчини бажарган, десак хато бўлмаса керак... Навоий яратган шеърий эпик романлар, хусусан, унинг “Фарҳод ва Ширин”, “Садди Искандарий” асарлари ўзларининг кўп томонлилиги, кўп проблемалиги, масштаблиги, эпиклиги, сюжет ва композицион бирлик ва мураккаблиги, тил ва стиль уйғунлиги билан роман жанрига хос хусусиятларни ўзида қамраб олган”[123]. Олим таъкидлаганидек, Навоий достонларидаги воқеалар кенг планли ва мураккаб сюжетлидир. Тўғри, Навоий яратган “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун”, “Садди Искандарий” достонлари жанр хусусиятига кўра том маънодаги роман талабига жавоб бермаса-да, асар табиати, романга яқинлаштирувчи жиҳатлар, деталлар роман жанрининг пайдо бўлишига туртки бўлди.

ҳақида сўз борганда, уни ғоявий-бадиий баркамол асар даражасига кўтарилганлигининг бош омили юқори даражада шаклланган бадиий савод ва такомил топган поэтик савия орқали халқ китоблари ва Навоий асарларига ижодий ёндашганлигида деб белгилаш ўринли. Бу ўринда мумтоз адабиёт анъаналарига нисбатан “эски приём” тамғасини босган, кенг оммага мутлоқ тушунарсиз ва зерикарли бўлган мураккаб тил услубини “сўнгги приём” деб қайд этган айрим танқидчиларга нисбатан қайтарган кескин ва дадил жавоби адибнинг мумтоз адабиёт ва унинг вакилларига бўлган чексиз садоқатини тасдиқлайди. Қолаверса, муаллиф ўзининг илк романидаёқ ахлоқий-дидактик руҳни асарга сингдирганлиги учун ҳам Шарқ адабиётига хос бўлган ижодий услубга тортилмайди, аксинча, уни изоҳлаб, бу ижодий позицияни тўлалигича қўллайди: “Дидактика усулини кўпроқ қўллашнинг сабаби “Ўткан кунлар”нинг оммамизнинг савиясига қараб ёзилишидир. Маълумки, бизнинг омма то шу кунгача ҳам ўрта аср достон ва ҳикоялари билан озиқланиб келадир. Омманинг шу ҳолина назарга олганда бармоқ билан санарлик беш-ўнтагина (улар ҳам ўз ҳунарларида нўноқдирлар)

[123] Мирвалиев С. Ўзбек адабиётида роман жанрининг таркиб топиши ва тараққиёти. Филология фанлари д-ри дисс... – Тошкент, 1971. – Б.60.

ёшларимиз учун “сўнгги приём”ни бериш тиши чиқмаган болага қурт шимитиш каби бўлар эди. Ҳолбуки, бу эски приём жўрттага халқимизнинг савиясини эътиборга олиб қабул қилингандир. Халқнинг завқини, руҳини назарда тутилмаса, “сўнги приём” деб Европанинг сўнгги модасини тақдим қилинса, бундан нима маъно чиқариб бўлар эди... Вақтики, биз кўпчилик ишчи ва деҳқон оммасига ёзар эканмиз, “эски приём билан ёзади, бинобарин, алайҳи бу ёзувчига биринчи номерни бермаймиз” қабилидаги танқидлардан қўрқмаймиз”[124].

Шарқ адабиётининг “Тоҳир ва Зуҳра”, “Чор Дарвеш”, “Фарҳод ва Ширин”, “Баҳромгўр” каби нодир асарларини ўқиб, ундан кўнглига завқ туйган адиб янги давр Тоҳир Зуҳралари, Фарҳоду Ширинларини яратишга киришди. “Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён” романлари халқ китоблари, Навоий асарларини чуқур ўрганганлигининг маҳсули сифатида бўй кўрсатди. Ҳар икки асардаги ахлоқий-дидактик руҳнинг устунлиги, ёзувчининг содда, аммо жозибали тили, бетакрор енгил сержило услуби, ижтимоий-фалсафий, таълимий-тарбиявий мазмунни ифодаловчи композицион қурилиши, сюжети (воқеалар ривожи, тугун, ечими), тимсоллар галареяси, қаҳрамонлар характерини шакллантириш, уларнинг ички ва ташқи тўқнашувдаги вазиятларни ривожлантириш, портретларини чизиш, табиат тасвиридаги санъаткорлик фикримизни далиллайди. Халқ романларида устивор бўлган сюжетнинг уч асосий тизими – воқеалар қамрови, тимсоллар силсиласи ва бадиий унсурлар Қодирий ижодида тўлиқ сақланди[125]. Абдулла Қодирий халқ китобларидан ва ёзма адабиёт анъаналаридан ўрганди ва таъсирланди, анъаналарга маълум даражада риоя қилди, айни чоғда ижодий ўзлаштириб, ўзига хос янгиликлар ҳам киритиб ижоддаги новаторлик истеъдодини намойиш этди.

Абдулла Қодирий таянган халқ китоблари ва мумтоз адабиёт намуналарида воқеалар асосан бир хил йўналишда, муайян сюжет чизиғида тараққий этган бўлса, адиб романларининг айрим ўринларида воқеалар оқимини тезлаштиришга, конфликтни кескинлаштиришга ҳаракат қилди. Бу билан мумтоз наср анъаналарини ривожлантирибгина қолмай, уни ичидан янгилашга ҳаракат қилади. Бу ҳолатни кузатган тадқиқотчи Н.Соатова шундай ёзади: “Агар халқ китобларида ҳам, мумтоз адабиёт намуналарида ҳам эпик тасвир қарийб бир хил оҳанг ва ритмда давом этган бўлса, “Ўткан кунлар”даги тасвир ранг-баранг шакл ва оҳанг касб этади; воқеалар тақозоси билан гоҳ тезлашиб, гоҳ секинлашади, ички монолог, лирик кечинма, сир сақлаш каби тасвир воситалари ва усуллари романдаги эпик тасвирга янги-янги тўлқин бериб туради”[126].

А.Қодирий баён услубида ва ҳаёт воқеаларини бадиийлаштиришда кўпинча бош қаҳрамонлар билан боғлиқ саргузаштлар орқали сюжетни

---

[124] Қодирий А. Ўткан кунлар ва “Ўткан кунлар” танқиди устида баъзи мулоҳазалар // Қодирий А. Кичик асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1964. – Б. 195.

[125] Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 1999. – Б.323.

[126] Соатова Н. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида эпик тасвир анъаналари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш ёзилган дис... авторефарати. – Тошкент, 2001. – Б. 8-9.

таранглаштиради, романнинг композицион тузилишида ҳам анъанавийлик доирасида янги имкониятлар ахтаришга ҳаракат қилади. “Ўткан кунлар” романидаги бош қаҳрамон Отабек тимсолида Алишер Навоийнинг идеал инсоний фазилатлар ва орзулар тажассуми бўлган Фарҳод тимсолининг янгича талқинини яратади. Фарҳод – шаҳзода, оилада ёлғиз фарзанд. Шунга қарамай, дунёдаги барча билимларни пухта эгаллаган билимдон йигит. Ишқ фаслида бахтли ҳам бахтсиз. Армания маликаси Ширинга эришиш йўлидаги қийинчиликлар, бу йўлдаги ҳам жисман, ҳам маънан кўрсатган жонбозликларни ифодалаш орқали Навоий Фарҳод тимсолида идеал инсон тимсолини гавдалантиради. А.Қодирий ҳам Отабек сиймосида ўзи орзу қилган инсон тимсолини яратган. Отабек ташқи кўриниши ҳам кўркам, ички маънавияти гўзал бўлган баркамол йигит бўлганлиги учун ҳам муаллифнинг ўзига ҳам ардоқли бўлганлиги табиий. Фарҳод ва Отабек, Кумуш ва Ширин тимсоллари ўртасида муштарак жиҳатлар бор. Ширин деганда ўқувчи кўз олдига ўта ақлли, ҳаётга нозик дид билан қаровчи, назокат ва латофатда тенги йўқ идеал аёл тимсоли гавдаланганидек, Кумуш исмининг ўзиёқ ўқувчиларда гўзаллик рамзи сифатидаги исм бўлиб сингиб кетган. Бу тимсоллар муайян даражада муаллифлар томонидан идеаллаштирилганлиги табиий, албатта.

Проф. Б.Каримов “Ўткан кунлар” романида Навоийдан кўра Бобур руҳига яқинликни кузатади: “Абдулла Қодирий феномени қуп-қуруқ саҳрода ўз-ўзидан пайдо бўлгани йўқ. Текис саҳрода ҳайбатли тоғ ўсиб чиқиши учун ер остида қайноқ вулқон булоқлари бўлиши шарт. “Ўткан кунлар” романи учун “Бобурнома” шундай булоқлардан бири вазифасини ўтаган бўлса, не ажаб!”[127]. Адабиётшунос олим “Бобурнома” ва “Ўткан кунлар” муносабатини тадқиқ қилар экан, “Бобурнома”даги ўгит ва ҳикматлар, вақт-замон ҳамда ҳуду масофани ифодалашда, портрет яратишда ва тил хусусиятларидаги яқинликни ўрганади. Мақола сўнгида “Алқисса, Абдулла Қодирийнинг руҳияти, адабий-эстетик концепцияси, одам ва олам хусусидаги қарашлари Заҳириддин Муҳаммад Бобурникига яқин. Икки адиб фитратидаги мардлик, жасорат, тўғрилик, ҳақгўйлик, истеъдод каби фазилатлар ўзаро уйғун келади... Орадаги масофа қанчалик узоқ бўлмасин, муштарак фикрли ижодкорлар адабиётнинг рамзий тилида ғойибона суҳбат қура олади. Уларни боғловчи руҳий ришталар эса пойдор, мустаҳкамдир”[128] деган хулосага келади.

“Меҳробдан чаён” романида эса тасвир объекти янгиланган бўлса ҳам адиб ўз тасвиридаги воқеаларга муносабатда ўзи учун синалган саргузаштлилик усулини сақлаб қолган. Бу жиҳат Раънога асарнинг иккинчи бир қаҳрамони Анварга нисбатан ҳам фаолроқ бўлишга, айрим воқеалар унинг иродаси билан содир этилаётганлигига урғуни қаратади. Натижада Раъно муаллиф назарда тутганидан ҳам фаолроқ бўлиб чиқади. Асардаги характерларнинг ёрқинлашуви, роман сюжети, мазмун ва шакл

[127] Карим Б. Бобур ва Қодирий // Тафаккур, 2017. – №2. – Б.79.
[128] Карим Б. Кўрсатилган мақола. – Б.85.

уйғунлигидаги ўзига хослик асарни замонавий тус олганлигини таъминлайди.

Ўзбек адабиёти тарихи қанчалик қадимий бўлса, насрнинг туғилиши ҳам шунчалик узоқ ўтмиш саналади. Ўзбек насрининг илк илдизи халқ оғзаки ижодига бориб тақалади. Демак, табиийки, Алишер Навоий насрий асарларини ёзишда халқ оғзаки ижоди ва ўзигача бўлган ва ўз давридаги Шарқ насри, ёзма адабиётдаги романтик руҳдаги достонларидан фойдаланган, энг сара жиҳатларини ўзлаштириб, ўз заминида янада ривож топтирган. Қодирий халқ оғзаки ижоди ва халқ китоблари, Навоийнинг "Хамса" асарини чуқур ўрганиб, ундаги анъаналарга таянган ҳолда замонавий Шарқ ва Ғарб романчилигини эътибордан четда қолдирмади. Асарларидаги қаҳрамонлар табиатини очишда романтик тасвир унсурларидан фойдаланган.

Алишер Навоий Фарҳод ва Ширин, Лайли ва Мажнунни фақат севги ва вафонинг тимсоли сифатида эмас, аввало, юксак маънавий-руҳий гўзалликнинг ажралмас бўлаги сифатида талқин этади. Фарҳод "Анингдек қилди хоро йўнмоғин вирд, Ки юз Қоран қошида бўлди шогирд" даражасидаги, яъни Қоранларнинг юзтасига тош йўниш бўйича устозлик қиладирган даражада тош йўнмоқликни ўрганиб олган илм ва ҳунарни эгаси эди. Отабек ҳам, Анвар ҳам ақли зукко, илмли, фикр-мулоҳазали, ор-номусли замонанинг олди йигитлардан. "Фарҳод ва Ширин"да эса бошқа романтик достонлардаги каби саргузаштлилик етакчилик қилади. Ширинни излаб йўлга чиққан Фарҳод кўпдан-кўп саргузаштларга дуч келади. Отабек Марғилонга ёр излаб эмас, савдо иши билан келган бўлса-да, бир махлиқонинг "савдосига" гирифтор бўлиб қолади. Ёзувчи анъанани эгаллашда тақлидчилик йўлидан эмас, балки ижодий йўлдан, яъни қаҳрамон характерининг мантиқийлиги йўлидан боради. Навоий достонларининг Қодирий романига таъсири қирралари фақат қаҳрамонлар, уларнинг ташқи ва ички кўринишлари, руҳияти ва асар қурилмаси билангина боғлиқ бўлиб қолмай, тил, услуб ва бадиий тасвирий воситалардан фойдаланишда ҳам кўзга ташланади. Масалан, табиат манзаралари, қушлар ва ҳайвонларнинг ҳаракатидан қаҳрамонлар ҳолат-руҳиятини кенгроқ очишда, асар мазмунини чуқурлаштиришда истифода этиш бунинг яққол мисолидир. "Лайли ва Мажнун"даги ишқ даштининг тасвири билан "Хўжа Маоз"да Отабек ўтказган тун манзараси ўртасида муайян умумийликлар бор, ҳар иккаласи ҳам қаҳрамоннинг мажҳул ҳолати, мавҳум истиқболидан сўз очади: "Ойнинг ўн бешларида бўлса-да ҳавонинг булутлиги билан ой кўринмас, чин маъноси билан қоронғу кузнинг қоронғу бир туни эди. Бир неча юз йиллардан бери яшаб фавқулодда зўрайиб кетган "Хўжа Маоз" мозорининг чакалаги бу қоронғуликка бир манба каби эди. Кучли бир ел турган: қандайдир бир ишга ҳозирланган каби тўрт томонга югуриб юрар эди... Ел борган сайин кучлана борди, чакалак тартибсиз ҳолга кириб кетди, битта-яримта тўкилмай қолган япроқлар шитир-шитир тўкилишга олдилар, қарға ва зоғчалар айни уйқу замонида тинчсизлангани учун елга қарши намойиш қилгандек ға-ғу билан

чакалак устидан айлана бошладилар. Ел кучайгандан кучайиб борар ва шу нисбатда мозор ичи ҳам яна бир қат қўрқинч ҳолга кирар эди, ел кетма-кет бўкирар, бунга чидай олмаган шох-шаббалар қарс-қурс синар, кекса ёғочлар “ғийқ-ғийқ этиб ёлбориш товуши чиқарар эдилар. Ел ортиқча бир ғазаб устида эди, ер юзидаги тиккайган нарсани букиб-янчиб ташламоқчи бўлгандек пишқирар эди”[129]. “Лайли ва Мажнун”даги саҳронинг бепоёнлиги ишқ-муҳаббатнинг кенглиги ва ҳар қадамда тўсиқлар учраши мумкинлиги ва Қайс қалбини кенглигига ишора бўлса, А.Қодирий мозор тасвирида худди шеъриятдаги каби такрир санъатига мурожаат қилади: “Ел борган сайин кучлана борди...” “Ел кучайгандан кучайиб борар...” ва ниҳоят “ел ортиқча бир ғазаб устида...” каби тасвирлар оддий такроргина эмас, шамолнинг тезлиги кучайишига ҳамоҳанг равишда айни бир ҳолат тасвирига қайтиш (ружуъ санъати) орқали нафақат “елнинг ғазаби”ни кўрсатиш, балки “хуши бошидан учган” Отабекнинг руҳий ҳолатини ифодалашга қаратилган. Романда бу каби мумтоз санъатлар тўйинган сатрларни кўплаб учратиш мумкин.

А.Қодирий халқ оғзаки ижоди ва ўрта аср достончилигидан озиқланиб келган халқнинг савиясини назарда тутиб, мумтоз адабиёт усулларидан онгли равишда фойдаланди. “Ўткан кунлар” тил, ифода тарзи жиҳатидан мумтоз наср билан янги, реалистик наср, қолаверса, бутун бошли мумтоз адабиётимиз билан янги ўзбек адабиёти ўртасида олтин кўприк вазифасини бажарди. У Навоий анъаналарини насрга шунчаки кўчирмади, балки уларга ижодий ёндошиб реалистик роман жанрини юксак намунасини яратди. Табиийки, бирон бир асар йўқ ердан пайдо бўлмайди ёки бутунисигача оригинал ҳолатда дунёга келмайди.

А.Қодирий фольклор анъаналари ва ёзма достонлар доирасида қолиб кетмади. У халқ китоблари ва анъанавий қаҳрамонларга кўниккан ўқувчилар табиатини янги давр асарларига қарата олди. Мумтоз эпик асарлардаги воқеалар силсиласини замонавий концентрик сюжетларни қабул қилиш учун ҳам тайёрлади. Бу йўлда ўзи нафақат замона талабларига жавоб берадиган асарлар, балки ўзбек насрининг истиқболини белгилаб бера олган адабий мактаб яратди.

XX аср романчилигини халқ китоблари, ўзбек халқ эртаклари, “Қисаси Рабғузий”, Навоий ва Фузулийнинг эпик достонлари, “Бобурнома” ва бошқаларни замонавий романларнинг илдизи сифатида қараш орқали уларда фақат романбоп воқеа ва қаҳрамонлар, балки эпик тасвир унсурлари ҳам борки, Қодирийнинг улардан бевосита ва билвосита таъсирланмаслиги, ўз романи шакли ва мазмунини қуришда улардан фойдаланмаслиги мумкин эмас эди. Бу таъсирининг у ёки бу даражадаги акс-садосини биз адибнинг роман сюжетини қуриши, конфликтларни шакллантириши, характерлар яратиши, қаҳрамонлар ташқи портрети ва руҳий оламини чизиши, ички коллизияларни акс эттириши, шунингдек, асарнинг тили ва услуби, бадиий тасвир воситалари ва бошқаларда кўрамиз.

---

[129] Қодирий А. Ўтган кунлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1974. – Б.224.

XX асрнинг бошларида ўзбек насрида роман-хотиранинг пайдо бўлишида “Бобурнома”, “Бадоеъу-л-вақое” каби давр воқеаларини кенг акс эттирувчи асарларнинг таъсири катта. “Бобурнома” миллий адабиётда мумтоз тарихий-бадиий насрнинг юксак намунаси сифатида эътироф этилган. Асардаги тарихий воқеаларнинг бадиий тасвирий унсурлар воситасида ифодаланиши, эпик кўламнинг кенглигига мос тарзда сюжет, композиция яратилиши, ўз ўрнида воқеликни ҳаққоний кўрсатиб бериши ва бошқа жиҳатлари билан XX аср бошларида яратилган асарларга ҳам ўз таъсирини ўтказган.

“Бобурнома”да XV асрнинг охиридан XVI асрнинг 30-йилларигача бўлган Мовароуннаҳр, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистондаги воқеалар – ўзаро урушлар, уларнинг оқибатлари, хуллас, асарда йирик ҳодисалардан тортиб майда воқеалару кичик деталларгача батафсил баён этилади. Воқеалар тавсифи давомида муаллиф тасвирдаги ҳодисаларнинг шоҳиди ва фаол иштирокчиси бўлиши билан бирга уни бадиий бетакрор рангларда бера олган асар сифатида қадрлидир.

Мўминжон Тошқиннинг “Турмуш урунишлари” асарида болалик, ўсмирлик ва ўрта ёшлик даври билан боғлиқ бўлган хотиралар, қолаверса, ўзи шоҳид бўлган давр воқеаларининг тасвири яққол кўзга ташланади. Асардаги тарихий воқеалар тасвири бадиийлик билан уйғунлашган ҳолда тасвирланади, натижада асар ўтиш воқеаларини тасвирлаш билан тарих учун, бадиийлик хусусиятларига эга бўлганлиги билан адабиёт учун зарурий манба сифатида эътиборли. М.Тошқин қўллаган хронологик тартиб унинг композицион қурилишидаги бадиий бутунликни таъминлашда муҳим омил бўлган.

“Турмуш урунишлари” асарида 1895 йилдан бошланиб, 1921 йил сентябрь ойигача бўлган воқеалар хронологик тартибда, йиллар кетма-кетлигида изчилликда баён қилинган. 1921-1925 йиллардаги воқеалар давомийлигида эса узуқ-юлуқ ҳолатлар учрайди. “Турмуш урунишлари”даги бундай хронологик тартиб “Бобурнома”даги воқеалар баёни таъсирида юзага келган. Айни шундай таъсир ва анъаналар ўзбек адабиётида роман-хотира жанрининг туғилишига йўл очган дастлабки омиллардан бири бўлди.

“Бобурнома”даги каби “Турмуш урунишлари”ида ҳам муаллифнинг ўзи ҳақидаги маълумот ва тафсилотлар асарнинг асосини ташкил қилади. Мўминжон Тошқин роман-хотира жанрининг композицион қурилиши талабларига риоя қилгани ҳақида асарнинг прологида маълумот беради: “Мен биринчи йиллар азиз умримни эски мактаб ва эски мадрасаларда ўтқазған бўлсам ҳам 25 ёшим тўлған чоғларда ички Русиядаги Уфа деган шаҳарда очилған Мадрасаи олияга бориб ўқиб, бир оз бўлса-да, фикрим очилған эди. Шул фикрим очилиши соясида Татаристон, Озарбойжон ва Туркия адиб ва шоирлари томонидан ёзилған ҳар турли рўмон, ҳикоя китобларини мутолаа қилиб, мен ҳам ўз турмушимиздан ҳикоялар ёзиш

томонига оғиб, 1911 йилларда ушбу таржимаи ҳолимни ёзған ҳам бунга “Турмуш урунишлари” деб ном берган эдим”[130].

“Турмуш урунишлари” асари муаллифнинг болалик йиллари, 6-7 ёшли чоғлари тасвири билан бошланган. Муаллифнинг тасвирича, бу ёшда у мактабга бориб, энди бошланғич таҳсилга киришган эди. “Бобурнома” “Шоҳнома” типидаги асар бўлгани учун ўзининг болалик даври тасвири воқеаларига ўрин бермаган. “Турмуш урунишлари”да эса асосий ғоя маърифат масаласи бўлгани учун ҳам муаллиф асар воқеасини ўзининг туғилишидан эмас, балки мактабга бориш воқеасидан бошлайди. Демак, ҳар икки адиб ҳам асар моҳияти учун асос бўлган воқеалар: бири тахтга чиқиши, иккинчиси мактабга бориши воқеалари билан бошланган.

“Бобурнома” бошланмасидаёқ ўз юртининг таъриф-тавсифи, Фарғона вилоятига кирувчи шаҳарлар – Андижон, Ўш, Марғилон, Исфара, Хўжанд, Кандибодом, Ахси, Косон ва уларнинг аҳолиси, табиати, иқлими, халқининг турмуш тарзига доир маълумотлар келтирилган. “Бобурнома”даги тасвирга кўра, Фарғона вилоятининг пойтахти Андижоннинг “ошлиғи вофир, меваси фаровон, қовун ва узуми яхши бўлур. Андижоннинг ношпотисидин яхшироқ ношпоти бўлмас”, Ўшнинг “ҳавоси хўб ва оқар суйи фаровондур. Баҳори бисёр яхши бўлур”, “Яна бир Марғинондур. Андижоннинг ғарбидадур, Андижондин етти йиғоч йўлдур. Анори ва ўруги асру кўп хўб бўлур”, “Хўжанднинг овлоғи ва қушлоғи бисёр яхшидур. Оқ кийик, қирғовул ва товушқони кўп бўлур”, “Ахси қасабаси Сайхун дарёси қўрғонининг остидин оқар. Қўрғони баланд жар устида воқе бўлубтур” қабилида Фарғона водийсининг шаҳарлари тасвирини беради. “Турмуш урунишлари”да ҳам “Бобурнома”даги географик тасвир анъаналари сақланган ҳолда муаллиф қайси шаҳар ёки қишлоққа борса, унинг табиати, иқлими кишиларининг турмуш тарзи ҳақидаги маълумотларга дуч келамиз, дейилган. “Турмуш урунишлари”даги тасвирга кўра, “...Паркент қишлоғи юқори-қуйи, тепа-сойларға бино қилинған каттагина бир қишлоқ. Унинг ўрта бир ерида сой бўлиб, унда ҳар вақт сув оқиб турадир”. Қишлоқнинг баҳорини эса қуйидагича таништиради: “Кўклам чоғларида, қуёшнинг иссиғи билан тоғлардаги қорлар эриб суви тошқин бўладир. Қайси йиллари, бу сойға бино қилинған дўкон ва иморатларни эгаларининг дод ва фарёдиға қарамасдан шул сув тошқинлари олиб кетадир”. Шундай маскан маҳаллий аҳолининг дам олувчи истироҳатгўшасига айланганлиги, тепалик ва сойларнинг кўплиги, *қишлоқ аҳлининг сердарахт, серсув, сермева, серузум, серқовоқ ва дилкаш боғ ва майдонлари* шул ердалигини, Паркент аҳлининг буғдой ва бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари билан машғул бўлишини тасвирлаб,

[130] Мўминжон Муҳаммаджон ўғли. Турмуш урунишлари Роман-хотира. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2015. – Б. 11.

“шаҳарга ҳар йили келтирилиб сотиладиган ғаллалар шу ерларнинг унимлари (хосилати)дир” деган хулосани беради[131].

Жадид ёзувчиларининг диққат марказидаги бош масала ўтмиш ўзбек насри анъаналарини чуқур ўрганиш, ўзлаштириш ва улардан унумли фойдаланиш зарурияти бўлган. Даврнинг энг яхши асарлари “Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён”, “Кеча ва кундуз” романлари халқ ҳаётидаги мураккаб тарихий ҳодисалар ҳаққоний акс эттирилиши билан эътиборлидир. Бу жараёнда эпик ровийлик тасвир аниқлиги билан алмашинади, санъатларга ўта бой узун тафсиллар аниқ портрет ва манзаралар сари ривожланиб боради.

Қодирий ижодиётининг ўзига хос абадиятини таъминлаган омил Шарқ мумтоз насрининг адабий анъаналарига таяниш бўлди. Бу ҳолат сюжетнинг таранг тортилиши, воқеаларнинг изчил, муфассал ва тугал баёни, характер яратишда қаҳрамонлар портрети тасвирига алоҳида “юк ортиш”, асар тилининг имкон қадар ўртача даражада тутиб туриш кабилар билан алмашинган ҳолда кўзга ташланади. А.Қодирий баён услубида ҳаёт воқеаларини бадиийлаштиришда бош қаҳрамонлар билан боғлиқ саргузаштлар орқали сюжет таранглаштирилади, романнинг композицион тузилишида янги структурал имкониятлар ахтаришга ҳаракат қилинади.

Мумтоз анъаналардан узоқлашиб, замонавий роман усулларига боғланишни Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романи поэтикасида кузатамиз. Муаллиф асарнинг кучли ижтимоий мазмунга эга бўлишини назарда тутиб, романда мумтоз адабиётга хос таърифларга ўрин берилиши баробарида янги замон техникаси талаб қилган сюжет сиқиқлиги ва таранглиги, характерларни ифодалашда аниқлаштирувчи деталларга кўпроқ юк ортилиши каби жиҳатлар синтезлаштирилган.

12-мавзу. Жадид драмаси ва унинг поэтикаси масалалари Драмаларнинг оммавий ва бадиий идрок йўсинига таъсири

Tinib-tinchimas inson o`z g`oya va qarashlarining keng xalq ommasiga yetib bormayotganligini ko`rib, yo savodsizligi, yoxud qo`lining kaltalik qilayotgani orqasida ma’rifat nurlaridan bebahra qolayotgan odamlar uchun milliy teatrni yaratishni lozim, deb topdi va hali dunyoga kelmagan o`zbek teatri uchun 1911-yili *“Padarkush”* pesasini yozdi. Bu birinchi o`zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo`lib, o`qimagan, johil va nodon bolaning o`z otasini o`ldirgani haqida.

“Padarkush” asarining negizida o’z davridagi ilg’or fikrlilarning omi xalqni ma’rifatli qilish maqsadi turadi. Asar adabiyotshunoslar tomonidan badiiy jihatdan u darajada qiyomiga yetmagan, deb baholangan bo’lsa-da, asarda ilgari surilgan g’oyaning dolzarbligi, obrazlar timsolida o’ziga xos xarakterlarning yaratilganligi

[131] Мўминжон Муҳаммаджон ўғли. Турмуш урунишлари (Бир муллабаччанинг хотира дафтари) – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1926; Қайта нашри: Мўминжон Муҳаммаджон ўғли Тошқин. Турмуш урунишлари. Роман-хотира (Нашрга тайёрловчи М.Тожибоева). – Тошкент: «MUMTOZ SO‘Z», 2015. – Б. 63.

bilan katta ahamiyatga ega. Boy timsoli orqali gumroh, loqayd, hayotga, farzand tarbiyasiga bepisand, noshud va notavon xarakter yaratilgan bo'lsa, Toshmurod qiyofasida ota degan tushunchaning ulug'ligini his qilish u yoqda tursin, hech bo'lmaganda otaning yonida turgan mehmonning borligiga ham e'tibor bermay, juda qo'rs va beadablarcha muomalada bo'lgan, salom berish nimaligini unutgan odobsiz o'g'il xarakteri namoyon bo'ladi. Toshmurod asarning boshidayoq o'quvchida o'taketgan tarbiyasiz farzand sifatida taassurot qoldiradi. Toshmurod go'l, laqma, otasining puli evaziga og'aynilari orasida "obro'" qozongan, hovliqma yigit. O'rtoqlari uning sha'niga aytgan "maqtovlari"dan va ko'targan "ura-ura" qadahlaridan havolangan Toshmurod qanday ishga qo'l urayotgani va buning oqibati nima bo'lishini ham unutadi. Nafaqat unutadi, hatto o'ylamaydi ham. Yozuvchi noqobil farzand xarakterini yaratar ekan, o'qimaslikning oqibati qanday fojialarga olib kelishini asosli lavhalarda tasvirlab beradi.

"Padarkush" asarida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyasi, bola tarbiyasida oila bilan bir qatorda maktablarning nechog'lik tutgan o'rnini belgilab beruvchi jihatlari (domla va ziyoli nutqini esga oling) bugungi kun uchun ham o'z qadrini yo'qotmagan, aksincha muhim fikr sifatida qimmatli. "Padarkush" millatning ehtiyoji va zaruratidan tugilgan yangi asar edi, shuning uchun ham u Turkistonda katta shov-shuvdor voqeaga aylandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy juda qisqa umr ko'rdi. 44 yoshida qatl etildi. Uning vafoti haqidagi xabar bir yildan keyin Samarqandga ma'lum bo'ldi. Behbudiyning sirli o'limi butun Turkiston xalqini ham hayratga, ham qayg'uga soldi. Zamondosh shoir do'stlari tomonidan o'nlab marsiyalar yozildi.

S.Ayniyning 1923-yil Buxoroda chop etilgan «Inqilob uchqunlari» she`riy to'plamida Behbudiyga bag'ishlangan (yozilish sanasi 1920-yil aprel) uch she`ri bor. Birinchisi, "Behbudiy uchun" deb nomlanib, "Sen Turonning quyoshi eding" deb boshlanadi. Ikkinchisi, "Behbudiy ruhiga atab" – "Sani bundin buyon Turon ko'ra olurmu, ko'rolmasmu, Saning mislingni Turkiston topa olurmi, topolmasmu?" bayti bilan boshlanadi. Uchinchisi, "Behbudiy afandini esga tushurib, qatl va qatlgohiga xitob" deb nomlangan bo'lib, "Yo'q, yo'q, kelur albat, kelur albat! Zolimlarni rad etmaga, mahv etmaga navbat!" deb boshlanadi.

1922-yilgi "O`zbek yosh shoirlari" to`plamida Fitratning "Behbudiy sag'anasini izladim" sarlavhali she`ri bor. Cho'lponning Behbudiyga atalgan "Sizning uchun yoz boshining qoridek erur kunlar keladi" misralari dunyoga keldi.

Tarixshunos va manbashunos olim Laziz Azizzoda 1926 – Behbudiy qatl etilganiga yetti yil to'lgan yilda o'z davrining faol matbuoti bo'lgan "Maorif va o'qitg'uchi" gazetasida Behbudiyning xizmatini fransuzlarning Jan Jak Russo, ruslarning Lomonosov, Chernishevskiy va Pisaref, Kafkaz turklarining Fathali va Najifbek, tatarlarning Marjoniy va Nosiriy kabi yetakchi adiblariga tenglashtirib, o'z fikrlarini shunday davom ettiradi: "Endi uning ismini abadiy qoldirmoq uchun hech bo'lmasa, uning nomig'a maktablar solmoq, talabalar tarbiyasi uchun sarmoya tashkil etmoq, bosilmagan asarlarini bostirmoq, tarjimai holini yozdirib chop etdirmoq, muhim asarlarini to'plab bosdirmoq vaqti yetgandir. Agar

O’zbekistonda Navoiy va Ulubekdan boshqa uchinchi bir kishiga haykal qo’yiladurg’on bo’lsa, shubhasiz, bu Behbudiyning haykali bo’lg’usidur”[132].

Avloniy “Advokatlik osonmi?” (1914), “Pinak” (1916), “Biz va siz” (1917) “Ikki sevgi”, “Portugaliya inqilobi”, “Bo’ron” kabi dramalar yozgan. Professor B.Qosimov fikrlariga tayanib shuni aytish mumkinki, mazkur dramalarni o’zi sahnalashtirgan bo'lsa-da, ulardan ayrimlarining qo'lyozmalari yoki nashr qilingan nusxalari saqlanib qolmagan.

,,Advokatlik osonmi?’’ dramasida o`sha davrning ijtimoiy muammolari ko`rsatib berilgan. Dramadagi har bir obraz jamiyatdagi ma’lum bir muammolarni aksidir. Obrazlar tizimining markazida turuvchi Davronbek yetti yil davomida Yevro`pada tahsil olib qaytgan ilmli kishidir. U Yevro`padagi ijtimoiy hayotning taraqqiy topganligini ko`rib, u yerdan madaniyat va maorif ishlarini o`rganib qaytadi. Shu bilan birga Turkistondan chiqayotgan gazeta va jurnallarni mutolaa qilar edi. Turkistondagi bo`layotgan yuksalishlarni ko`rib, o`zida yo`q xursand edi. Lekin u Turkistonga qaytib kelganida jamiyatda eskicha turmush tarzi saqlanib qolgan, madaniyat va taraqqiyotdan nishon ham yo`q edi. Davronbek jamiyatdagi kishilarning savodsizligi, ilmsizli tufayli azob chekadi. Uning oldiga kelgan har bir kishining savodsizligini ularning gap-so`zidan, o`zini tutishidan ham bilish mumkin. Masalan, Xudoyberdi ismli kishi davlatning qonun-qoidalarini bilmay turib, oldi-sotdi xujjatlariga imzo chekadi. Berilgan muddatni unitib, o`z yeridan ajralish darajasiga borib yetadi. Uning muammolari faqat belgilangan qonun-qoidalar, hujjatlar asosida hal bo`lishini tushunmaydi. Xushvaqt ham eskicha qarashlar, eskicha fikrlar bilan yashaydi. U advokatning yoniga kelganida folbinga borganligi haqida gapiradi. Fobinning gaplariga ishonib advokatning yoniga kelgan bo`ladi. Advakotning rus tilini bilganligi uchun u bilan birga asalxonaga borishini iltimos qiladi. Agar Xushvaqt rus tilini o`rgangan bo`lganida edi, o`zining muammolarini hech qanday qiyinchiliksiz hal etgan bo`lar edi. Dramadagi Mehriniso o`brazi turmush o`rtog`ini qimorboz bo`lganligidan, ichkilikka berilganidanidan shikoyat qijib advokat huzuriga keladi. Advokatga ariza yozdirib, muammolarini bartaraf etmoqchi bo`ladi. Ayol turmush o`rtog`ining yomon muomalasidan qutilishni xohlaydi. Advokat esa domla, imom, ellikboshilardan yordam so`rashini aytganida, ularning poraxo`rligi, inson hayotidan o`zlarining moddiy manfaati ustun turishini aytadi. Bu bilan jamiyatdagi ayollar qadr-qimmati, o`rni nechog`lik achinarli bo`lganligini bilish mumkin. To`y qilaman deb bor-budidan ayrilgan Egamberdi ismli kishi ham dunyoqarashi torligidan og`ir ahvolga tushib qoldi.Qarzni olib vaqtida qaytara olmay, hovli–joyi , uy asboblari , mol-mulki xatlanadi. Hammasi orzu-havas, ya`ni to`yni dabdabali o`tkazish uchun qilingan edi.,,Ko`rpangga qarab oyoq uzat’’ maqoli aynan shu qahramonga o`xshaganlar uchun aytilgan. Bu faqat Egamberdining muammosi emas, balki jamiyat kishilarning muammosi edi. Advokatning xizmatchisi Abdujabbor advakatlikni oson ish, bitta ariza bilan uch-to`rt so`m pul topish mumkin deb biladi. Davronbek ketishi bilan uning o`rniga o`tirib, advokatlik qilmoqchi bo`ladi. Ilimsizligi tufayli har narsani pul bilan hal etiladi deb

[132] Laziz Azizzoda. Behbudiy. Maorif va o`qitg`uchi. – T., 1926. 2-son.

biluvchi kishilarning pulini olib o`zi ariza yozib beradi. Abdujabbor ham ilmsizlarning biri edi. Uning dunyoqarashining torligi, o`zining kaltafaxmligi o`zining boshiga etadi. Har bir qahramon o`sha davr insonlar hayotini ko`rsatib bergan. Har biri advakatning oldidan chiqayotganida "Advokatlik osonmi?" deya kinoyali gaplarni aytadi. Advokat Davronbek muhitning bu darajaga borib yetadigan o`zining olgan bilimlariga achinadi. Advokat bo`lib jamiyatga nafim tegmadi. Undan ko`ra tabib bo`lsam bo`lardikan deydi. U dunyodan xabarsiz kishilar orasida ilm-marifatni yoymoqchi bo`lgan. Afsuski, ijtimoiy ahvol, insonlar ongi eski sarqitlar bilan qoplangan edi.

Abdulla Avloniyning „Pinak'' dramasining nomlanishida ham o'ziga xos ma'no mujassam. Yozuvchi turli obrazlar yordamida o`sha paytdagi xalqning, jamiyatning ma`naviy qiyofasini, haqiqiy ahvolini ochib bergan. Ya`ni biz pinak deganimizda insonlarning yarim uyqu holati, mudrashini nazarda tutamiz. Xuddi shunday Turkistonning turmushi iztirobli edi. Yozuvchi kulgi ostida achchiq haqiqatni bayon etadi. Xalqning deyarli savodsiz va omi bo`lgani, ilm-ma'rifatdan yiroq ekanini ko`rsatib beradi. Ayniqsa, insonlar o`zlari savodsiz bo`lishlaridan tashqari farzandlarini ta`lim-tarbiya olishlariga yetarlicha ahamiyat qaratishmagan. Jamiyatdagi kishilarning asosiy maqsadi oylikka erishish hisoblangan. Lekin Tolib misolida ilmga intilgan, ammo imkoniyati cheklangan insonni ko`rishimiz mumkin. Tolib pul topishga majburligi uchun qimorga beriladi. Eng achinarli jihati esa qimor o`ynash unga odat bo`lib qolgan. Tursun qimorbozlik yomon odat ekanligini Tolibga tushuntiradi. Aksincha Tolib esa ko`knori odamni odamgarchilikdan chiqarishini aytadi. Yozuvchining mahorati ham shunda, achchiq kulgu ostida xalqning hayotini ko`rsatib bergan. Tursun obrazi boy kishi bo`la turib, pullarni o`rnida emas, qandaydir bir insonlarning qimor o`ynashi uchun, ko`knor sotib olish uchun sarflaydi. O`zi ko`knor istemol qilishi yetmaganidek, o`g`liga ham ko`knor beradi. Hech qanday ish bilan shug`ullanmaydigan bu boyning Tolib ismli yosh yigit rosa adabini beradi. Tolib qimorboz bekorchi bo`lsa ham, boyga o`g`lingizni o`qiting, deb maslahat beradi. Buning bitta qilgan yaxshi ishi o`g`lini Tolibning so`zi bilan maktabga bergani edi.Tolibning aytgan gaplarida uning onasi ilm-ma`rifatga ko`ngil bergan inson bo`lganligini bilish mumkin. Lekin otasi eskicha turmush asiri bo`lganligidan uni o`qishini emas, balki pul topishini istaydi. Natijada, yosh yigit pul topaman deb qimorga beriladi. Jamiyatda ta`lim-tarbiyali yoshlarni yetishtirish ota-ona qo`lida boladi. Tolibning qismati ham uning otasi qo`lida edi. Agar uni pulga emas, ilmga o`rgatganda, bunday ahvolga tushib qolmasdi. Tolib yosh bo`lishiga qaramay, juda uddaburon bo`lgan. Ish qilishdan avval fikr qilardi. O`zining qilayotgan ishini anglab yetgandi. Shunda ham bu yo`ldan chiqish haqida o`ylamaydi. Jamiyatdagi kishilar bu kabi yoshlarga maslahat berish, o`rnak bo`lish o`rniga o`zlari noo`rin harakatlar qilishardi. Masalan, Tursun, Otajon, Fo`lad kabi yoshi katta bo`lgan kishilar hech qanday ish bilan shug`ullanmay, bir joyga to`planib, ko`knor istemol qilardi. Ko`knor faqat moddiy tarafdan zarar bo`lib qolmasdan, insonning ma`naviy olamiga, uning sog`lig`iga zarar hisoblanadi. Ular shuni ko`ra bila turib o`zlarini ko`knoridan tiya olmasdi. Jamiyat kishilari nafsning botqog`iga tobora botib borishardi.

„Portugaliya inqilobi'' dramasini yozishdan yozuvchining maqsadi Turkistonning o`sha paytdagi ahvolini o`zgartirishga xalqni undashdan iborat edi. Yozuvchi shohparastlar va jumhuriyatchilar jamoasini taqqoslash orqali ularning afzallik va kamchiliklarni ko`rsatib bergan. Yozuvchi jumhuriyatchilarning so`zlari orqali xalqning haqiqiy ahvolini ko`rsatib bergan. Masalan, qiynalgan xalqning pullari ma'shuqalarga, sayohatlarga sarf bo`layotgani ko`rsatiladi: "Bunda ro`l o`ynovchilar xalqni talovchi boylar bilan tushunmagan poplardir. Bechora xalq bo`lsa , kundan kun zulm va istibdod ostinda ezilib turmushdan bezmishdir". General Dolqoriyo guruhi adolat qilish uchun shoh va vazirlarni o`ldirish kerak deb hisoblashadi. Lekin adolatga qilich bilan emas, tadbirkorlik bilan ham erishish mumkin. Bir tomondan jumhuriyatchilar Yevropa mamlakatlaridan xavfsirashgan. Chunki inqilobdan foydalanib, ular bosqinchilik xujumimni uyushtirish mumkin. Jumhuriyatchilar erk va ozodlik yo`lida tinimsiz harakatda bo`lishgan. Buni Garsioni quyidagi so`zlari ham isbotlaydi: „Eng muqaddas maqsadimiz hurriyat va ozodlik. Bu zolim va mustabid hukumatni yiqub, jumhuriyat bayrog`ini tikmagunumizcha vujudga chiqmas. Bu ishni yuzaga chiqarmoq uchun allaqancha sa`y va g`ayrat, fidokorlik lozimdir''. Yozuvchi shohparastlarning ham g`ayratli ekanini ularning so`zlarida aks ettirgan: „Bizlar surat emasmiz, odam bolasimiz. Inson bolasi g`ayrat qilsa, tog`ni qo`paradi. Dunyoda mumkin emas ish yo`q. Inson harakat qilsa, chorasini ko`rsa, har ishni uddasidan chiqadur''. Dramadagi Margaret ismli qiz ham ma`lum ma`noda tub burilishga sabab bo`lgan. Aslida qiz bola otasiga itoat qilishi kerak. Lekin Margaret otasining dushmanlari bilan hamfikr bo`ladi. Otasi hokimiyatdan chetlatib yo`q qilmoqchi bo`lgan insonni Margaret sevib qoladi. Uning hayotini saqlab qolish uchun hattoki, o`z jonini xatarga qo`yadi. Sevgisi yo`lida uning ko`ziga hech narsa ko`rinmaydi. Shu sababli ham u otasiga qarshi chiqadi. Shu o`rinda Margaret obrazi bilan Afrodito` obrazini hatti-harakatlarini qiyoslasak bo`ladi. Margaret shohparast bo`lib, shohning tirik qolishi uchun o`zini va yaqinlarini jonini xavf ostiga qo`yadi. Afrodito' esa xalq ozodligi uchun o`zini va boshqalarni jonini xavfga qo`yadi. Margaret shohni chin dildan sevadi. Afrodito` esa shohga yuzaki muomala qiladi. Ya`ni uning muhabbati tildagina, qalbining tubida esa boshqa maqsad bo`lgan. Shoh Manuil esa kalta fikr yuritganidan o`ziga kelayotgan falokatlarni bartaraf etish tugil, hayoliga ham keltirmagan. Bo`layotgan voqealardan to`g`ri xulosa chiqara olmagani uchun oxir-oqibat taxtdan ketishga majbur bo`ldi. Dramaning so`ngida jumhuriyatchilar qizil bayroq bilan g`alaba kuyini chalib keladilar. Hurriyat, ozodlikka erishdilar. Bu bilan yozuvchi Turkiston xalqi ham agar harakat qilsa, hurriyatga, ozodlikka erishishi mumkin degan g`oyani ilgari surgan.

Abdulla Avloniyning "Biz va siz" dramasida jamiyatdagi kishilarning ilmsizligi va jaholat qurboni bo`lishlari ko`rsatib berilgan. Xuddi "Advokatlik osonmi?" dramasi bosh qahramoni singari ushbu dramaning bosh qahramoni ham Yevropada tahsil olib qaytgan yosh yigit Kamol edi. Uning Turkistonga qaytib kelganida boshqacha bir taraqqiy qilgan xalqni ko`rishni istashi, lekin xato o`ylagani uning quyidagi so`zlarida aks etgan: "O`n yil ichinda Yevropada o`qib yurgan vaqtimda Turkiston allaqachon o`zgargan, madaniy hayot

o`rnashgan deb eshitg`on edim. Afriqo, Amriqoning vaxshiylari madaniyat, yangi turmush orqasidan ergashg`on holda bizning Turkiston bolalari ham uncha-muncha yo`lg`a kirgan, o`zgarishlar orqasida taraqqiyg`a qadam bosg`andur deb o`ylag`on edim. Hayhot, bu fikrimda zo`r yanglishg`onman, xato o`ylag`onman. O`zgarish bizning elning ko`chasidan o`tgan. Faqat o`zgarish ko`chadagina bo`lg`on. Ammo turmushda, uy ichida zig`ircha ham o`zgarish yo`q. Hamon eski hammom, eski tos''. U Yevropada yurgan paytlarida tarbiyali oilalarni ko`rub, o`shanday madaniy turmushga o`rganib qolgandi. Bu yerdagi eski turmush tarziga moslasha olmay qiynaladi.

Kamolning ota-onasi savodsiz, ko`p narsalarni obro`-e`tibor, pul bilan bog`laydigan kishilar edi. Otasi Karimboy obro`li xonadon bilan quda bo`lishni istaydi. Kamol esa o`zining suygani borligini, uning qanchalik ilmli adiba va shoira ekanligini, uni yaxshi tanishini hamda ayol kishi faqat uy ishlarini qilish uchungina, emas balki oila tarbiyasiga mas'ul shaxs deb biladi. Tanimagan, bilmagan, savodsiz, o`qimagan qizga uylanmasligini aytadi. Kamolning onasi esa faqatgina otasining aytganini qiladi. O`g'lidan rozilik olmay turib, birovnikiga sovchilikka boradi va rozilik olib qaytadi. Oqibatda to`y kuni Kamol majnunsifat bo`lib qoladi. Shunday bir savodli, kelajagi bor, taraqqiyparvar, ma`rifatli insonni shu ahvolga tushishiga uning ota-onasi sababchi bo`ladilar. Bu ham yetmaganidek, uning suygan qizi Maryam to`y xabaridan so`ng zahar ichadi. O`limi so`nggida Kamolga vidolashuv maktubini yozadi. Kamol maktubni o`qib, u ham bu dunyodan xabarsiz kishilar orasida yashashni istamaydi. U ham o`zini osib o`ldiradi. Shu tariqa Turkiston yoshlari jaholat qurboni bo`ladilar. Ongsizlik, ilmsizlik, eski turmush tarzi ularni halok etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy dramalari bilan o'sha paytdagi xalqning ilmsizligi, ongsizligini ko'rsatgan. Eski turmush, eskicha fikrlovchi insonlar taqdirini yoritib bergan. Ayolllar, qizlarning, qadr-qimmati, or-nomusi, yoshlarning muhabbati, ota-onalarning dunyoqarashi torligini yorqin ifodalab bergan. Ilmsizlik insonlarni tubanlikka yetaklagan holatini yuksak mahorat ila chib bergan.

Fitratning dramaturg sifatidagi xizmatlari e'tiborga molik. Mutaxasislarning ma'lumotlariga qaraganda, uning o'ndan ortiq dramalari bor. Abdurauf Fitrat iste'dodli dramaturg sifatida "O'g'uzxon", "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Arslon" kabi dramatik asarlar yaratgan bo'lib, bu asarlarning har biri o'zining badiiy qimmatiga ega. Xususan, "Chin sevish" dramasining poetikasi, g'oyaviy-hissiy qurilishi o'quvchiga o'zgacha ta'sir o'tkazadi. Ushbu asarda nasriy an'analar tadriji bilan bir qatorda tasavvufiy ruhning yangicha talqiniga guvoh bo'lamiz. Asarning bosh qahramoni bo'lmish Nuriddinxon o'z sevgisini ko'nglining tubida, hech kimga oshkor etmay saqlaydi. Uning uchun ishq oshiqlarning mahbubiga yetishish uchun emas, uning yodi bilan yashamoqlik uchun, faqat ezgu o'y fikrlar uchun insonga beriladi. Uning qalbidagi ishq esa zohiran olib

qaraganda, Zulayxoga bo‘lgan muhabbati orqali namoyon bo‘lsa-da, aslida yurt erki, osoyishtaligiga bo‘lgan sevgi tuyg‘usi edi. Nuriddinxon bu tuyg‘udan ruhlandi, zo‘ravonlik, erksizlikni yengish uchun bir tomchi qoni qolguncha kurashdi. Fitrat dramatik qahramonlar xarakterini to‘laqonli yoritib bergan.

Nemis adabiyotshunosi Shelling “Roman taqdirni dramadan oladi” deganda mutlaqo haq edi. Chunki “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” dramalarida ham asar qahramonlari vositasida Hindistondagi erksizlik iskanjasida qolgan turmush tarzini yoritib berishlik dramaturgning asosiy maqsadi bo‘lgan. Ikkala asarda ham bosh qahramonlar ijtimoiy hayotdagi mute’likka, ilojsizlikka qarshi chiqadilar. Mustaqillik uchun kurashlar natijasi ikkala asarda turlicha. “Chin sevish”da ozodlik uchun harakatlar muvoffaqiyatsiz va ayanchli, “Hind ixtilolchilari”da esa baxtli yakun tarzida berilgan. Muhimi bu emas. Asosiysi, asar qahramonlari doim harakatda, kurashda bo‘ldilar. O‘z maqsadlari yo‘lida chekinmadilar. Dramatik qahramonga yuklatilgan vazifa ham shu edi aslida.

A.Fitratning “Abulfayzxon” dramasi o‘z salmog‘i bilan boshqa dramatik asarlaridan tub mohiyati jihatidan ajralib turadi. Unda so‘ngi Buxoro xoni bo‘lmish Abulfayzxonning achchiq qismati, o‘z gunohlari uchun vijdoni oldida javob berishi, ruhan azoblanishi ta’sirli ochib berilgan.

Muallif uni “Yo‘qsul o‘lkasining tarixidan besh pardali fojia” deb ataydi. Drama 1924-yil Moskvada “Markaziy Sharq” nashriyotida chop etildi. Ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili, Buxoro xoni Abulfayzxonning achchiq qismati, o‘z gunohlari uchun vijdoni oldida javob berishi, ruhan azoblanishi ta’sirli ochib berilgan. Mazkur pyesa markazida XVIII-asrdagi tarixiy voqealar – Abulfayzxon saltanatining tanazzuli va uning natijasida Buxoroda mang‘it amirlarining hokimiyat tepasiga kelishlari bilan bog‘liq tarixiy voqealar tasviri yotadi.

Abulfayzxon 1711-1747-yillar oralig‘ida Buxoro taxtining xukmfarmosi bo‘lgan. Dramada Abulfayzxon hayotining so‘nggi davrlari, xonlik tartibi, qolaversa, o‘tmish hayot bilan bog‘liq voqea-hodisalar realistik ruhda o‘z aksini topgan. Salkam qirq yillik hukmronligidagi olib borgan nojoiz siyosati, qanchadan-qancha begunoh insonlarning to‘kilgan qonlari, saroyda avj olgan fisqu-fujurlar, zulm-zo‘rliklar mamlakat hayotini izdan chiqardi. Xon sifatidagi eng katta xatosi – uquvsizligiyu maishatparastligi bo‘ldi. Atrofidagi xoin amaldorlarning har bir hiylanayranglariga ishondi, ularga quloq tutdi. Natijada mamlakatda boshboshdoqlik paydo bo‘ldi. Eron hukmdori Nodirshoh bu imkoniyatdan

foydalanib, Buxoro xonligini jangsiz qo‘lga kiritadi va u bilan pinhona “do‘stlik rishtalarini” o‘rnatgan Rahimbiy otaliqni “Chingizxon avlodidan bo‘lmagan kishi xon bo‘la olmasligi” tayin bo‘lsa-da, xon qilib ko‘taradi. Rahimbiy birinchidan xon avlodidan emas, ikkinchidan, xonlikni boshqarishdagi siyosatdonlik qobilyati ham yo‘q. Xalq uni xon deb atamaydi, davlatni boshqarish davrida ham xonlik maqomiga erisholmaydi. Buxoro xonligining Buxoro amirligi deb yuritilishining sababi ham ana shunda. Asarda bir sulolaga mansub xonlikning tugatilishi, o‘rniga amirlik hukmronligining o‘rnatilishi bilan bog‘liq voqealar o‘z ifodasini topgan. Muallif Buxoro xonligining parchalanish fojiasini tasvirlash orqali davlatni boshqaruv masalasiga alohida e’tibor qaratadi, ya’ni o‘z manfaat va maishatini hokimiyat mas’uliyatidan ustun qo‘ygan hoqonlarning taqdiri inqirozga yuz tutishligi tayin ekanligiga ishora qiladi.

Dramadagi voqealar tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Abulfayzxon o‘z akasi Ubaydullohxonni o‘ldirtirish evaziga manfur niyatiga yetadi. Qatl orqasidan ketma-ket yangi qatllar paydo bo‘ldi. Qabihlik orqasidan erishgan taxt unga ham vafo qilmadi. Abulfayzxon aynan shundan qo‘rqar edi. Akasining qatlidan keyin oromi yo‘qoladi. O‘ngida halovati yo‘q, tushida esa o‘ldirtirib yuborganlarning ta’qiblari qurshovida. Abulfayzxon to‘kilayotgan qonlardan, aniqrog‘i, ularning xunidan cho‘chiyotganday, ko‘ngli bezovtalanayotganday, hatto bir oz vijdoni qiynalayotganday ko‘rinadi: “Shultiriklikdan-da bezdirdilar meni. Bir dushmanimning qoni qurumayin, yana birtasi chiqib qoladir... Qachong‘acha o‘ldiraman bunlarni”. Bir lahzalik kichik bir insoniy kechinmalarni o‘rnini birdan yana o‘sha qabih va manfur niyatlar egallaydi. Ulfatning “podshohlik qon ila sug‘orilgan bir yog‘ochdir. Qon oqib turmagan yerda bu yog‘ochning qurib qolishi aniqdir” degan “o‘gitlar”i unga qanot beradi. Ulfatning bu gapi xonning ko‘nglidagi gap bo‘lib, uning ruhiyatiga mos tarzda topib qo‘llangan. Buning natijasi o‘laroq, “O‘lduraman, o‘lduraman. Dunyoda birta dushmanim qolmag‘ancha, qon to‘kaman” deya o‘z xunrezligini namoyon qiladi. Fitrat dramalarining tadqiqotchisi I.G‘aniyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “...uning (Abulfayzxonning – T.M) yurt boshi sifatidagi butun faoliyati Ulfatning qutqulari va o‘zining turli kishilar o‘limiga sababkorligi bilan kechadi. Xonning har bir so‘zida xarakterining kichik bir qirrasi zuhur etgan”. Bu o‘rinda xonning Ulfat bilan Farhod otaliq haqidagi suhbatida “Yaxshikim, bularning o‘limi qo‘limizdadir. Yo‘qsa, oz zamonda bizni eshak qilib minmak istaylar” degan gapidan Abulfayzxonning xarakteri to‘laqonli namoyon bo‘ladi, shu bilan birga o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘sha zamon dahshatlari

gavdalanadi. Asardagi boshqa obrazlar nutqida ham Abulfayzxonning kirdikorlari, qilmishlari yanada izchil ochib beriladi. Masalan, Hakimbiyning Doniyolbiy bilan bo‘lgan suhbatidagi so‘zlaridan xonning taxtga chiqqandan keyingi o‘n yil ichida amalga oshirgan qotilliklari yanada ravshanlashadi: “Hakimbiy: Uka, xoningizning qilg‘an ishlarini bir o‘ylab ko‘ringiz: otamiz bilan kelishib, Farhod otaliq kabi beklarning yordami bilan akasini o‘ldurub, xon bo‘ldi. Taxtga mingach, boshlab otamizni Erong‘a qochirdi. O‘ziga yordam bergan beklarni birta-birta o‘ldurub bitirdi. Eng so‘ng Farhod otaliqni ham o‘ldurub, qizini oldi. Meni ranjitmak uchun, buyuk dabdaba bilan Ibrohim kenagasni otaliq qildi. Yana uni o‘ldirmoqchi bo‘lub, qochirdi”. Dramaturg Hakimbiyning nutqi orqali Abulfayzxonning qonxo‘rliklarini yanada chuqurroq ta’kidlashni maqsad qilgan.

Asardagi Ulfat, Davlat obrazlari xondagi qonxo‘rlik va johillikni rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Rahim qo‘rchi obrazi asarga dramatik ruh beradi. U otasi Hakimbiyning maslahati yordamida Buxoro davlati darvozasini Eron shohiga ochib berish va Abulfayzxonni taxtdan ag‘darish maqsadida turli rejalar tuzadi. Rejalar ish berdi. Abulfayzxon o‘ldirildi. Taxt Rahimbiy otaliq qo‘liga o‘tdi. Bir vaqtlar “hazrati meson bo‘lsunlar” deya xonni duo qilib yurgan, “hoqonning muborak xizmatlarini har narsadan ortuq” ko‘rgan Mir Vafo va Doniyol biylar Rahimbiyning o‘ng qo‘li bo‘lib olgan. Rahimbiyning navbatdagi manfur rejasi Abulfayzxonning o‘g‘li Abdumo‘minxonni o‘ldirish edi. Rahimbiy shahzodani “chumchuq kabi kichkina bir xon” deb pisanda qilmasa-da, uning o‘limini tezlik bilan amalga oshirishni istaydi. Shuning uchun u bolani jallodlar qo‘liga tushishini ham kutmay, o‘zi zaharlab o‘ldiradi. Ma’lum bo‘ladiki, saltanat endi avvalgidan ham kuchliroq qonxo‘r qo‘lida qoldi.

Asar Rahimbiy va Xayol timsolining muloqoti bilan yakun topadi. Bunda ramziylik bor. Xayolning “Ey, qora yurakli boyqush, bundan senga qolg‘an vayronani qutlamoq uchun keldim. Insonliq dunyosi, esini bir joyga to‘plab, o‘zishiga o‘zi ega bo‘lancha, sen ham, sening kabilarning ham ixtiyoring izdadir. Istaganing izcha hukm sura olarsiz” degan so‘zlari Rahimbiy kabi o‘z manfaati yo‘lida har qanday noboplikklardan qaytmaydigan hukmdorlarga qaratilgan bo‘lib, zulm va xiyonatga yo‘g‘rilgan hayot manzaralarini fosh etadi.

Fitrat “Abulfayzxon” dramasi bilan XX asr o‘zbek adabiyotida tragediya janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

13-мавзу. Жадидчилик ва адабий танқид шаклланиши ҳамда ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари

Ўзбек мумтоз адабиётига ворислик масалалари хусусида сўз юритилганда, унинг аниқ шакллари бўлган жиҳатлар, яъни мумтоз жанрларнинг янги адабиётдаги яшаш “тарзи”, аруз вазни, унинг XX аср бошларидаги ўзгаришлари ҳамда қофия ва бадиий санъатлар ҳақидаги қарашлар Фитрат, Чўлпон ва Вадуд Маҳмуд мақолаларида ўз аксини топган.

Фитрат “Форс шоири Умар Хайём” (1929) рисоласида улуғ шоир ва аллома яшаган давр хусусида гапириб, Хайём ижод билан машғул бўлган даврдаги адабий жанрлар, хусусан, *маснавий, қасида, ғазал, рубоий* каби жанрларнинг хос хусусиятларини аниқлайди. Маснавий ҳақида сўз юритар экан, Асадий, Фирдавсий, Дақиқий каби шоирлар бу жанрда “донг қозониб”, Низомий эса форс тилидаги достончиликни юқори босқичга кўтарганини айтади. Қасида жанри “сосоний, ғазнавий, хоразмшоҳий саройлари ҳукмдорларини” ҳимоя қилиш руҳида битилганини қайд этади.

Фитрат Саъдий Шерозийни ғазал ва маснавий шаклини ривожлантиришга ҳаракат қилган шоир сифатида эътироф этади, у ҳақда “қасидачилиққа қарши исён байроғини кўтарди... ғазалчилик ва маснавийчиликни илгари бостирмоқ истади”, деб ёзади. Кўринадики, қасида кўҳна адабий жанр сифатида мавжуд бўлса, ундан кейинги шеъриятда ғазал ва маснавийга мурожаат этиш орқали жанр имкониятлари кенгайгани ҳақида назарий хулосага келади.

Фитрат қарашларида рубоийнинг илдизлари миллий адабиётимизда пайдо бўлгани, форс адабиётидаги рубоийлар турк шеърларининг таъсирида шаклланган таъкидланади. Унсурий, Асжадий, Фаррухий, Фирдавсий томонидан уларнинг ҳар бири бир мисрадан айтилган рубоийни келтириш орқали улар орасида Унсурийни рубоийнависликда бошқалардан юқори эканлигини эътироф этади. Фитрат домла форс шоирлари ва шеърий шакллар ҳақида ёзар экан, *мусаммат, қитъа, мустаҳзод* каби жанрларни ҳам эътибордан соқит қилмаган ҳолда шоирлар ҳар бир шеърий шаклда бирдай ижод қилмаслиги, бирлари маснавийда, бирлари ғазалчиликда, айримлари қасидачиликда устун эканлигини айтиб, рубоийчиликни бутун дунёга танитган бирдан-бир шоир Умар Хайём бўлганига алоҳида урғу беради. Шу ўринда туркий шеъриятда рубоийнинг ўрни ҳақида сўзлаб, Бобур рубоийнависликда улуғ шоирга яқинлашган бирдан бир ижодкор эканини таъкидлайди.

Фитрат адабиётга “фикр, туйғуларимиздағи тўлқунларни сўзлар, гаплар ёрдами билан тасвир қилиб, бошқаларда ҳам худди шу тўлқунларни ярат-

моқдир”[133] дея таъриф берган бўлса, шеърга алоҳида эътибор қаратиб, “вазн ва қофияси бўлған ҳар бир сўз тўдасини” шеър деб аташ янглиш эканлигини кўрсатади, форс-тожик адабиётшуносларининг бу борадаги “шеър қофияси, вазни бўлган гапдир” деган таърифига ҳам танқидий муносабатда бўлади.

Фитрат “эски ёзғучиларимиз асарнинг бирлигини сақламоқчи бўлиб, “аммо ровиёни ахбор ва ноқилони осор андоқ ривоят қилурларким” деб ҳикоя қаҳрамонларининг туғилган кунидан бошлаб вафотига қадар бўлиб ўтган воқеаларни бир йўсинда тизишликни оқламайди, бу ўқувчиларни “бездиради ва уларнинг миясига оғирлик қилади” деб ҳисоблайди. Чўлпоннинг “Қор қўйнида лола” ҳикояси эски шаклда “Андоқ ривоят қилурларким...” деб бошланмагани, муаллиф тўғридан-тўғри воқеалар ичига кириб боргани ўринли эканини тасдиқлайди. Демак, Фитрат талқинидаги шоир Чўлпон шеъриятда янгиланишлар тарафдори бўлгани каби насрда ҳам анъанавий ровийликни бевосита воқеалар тасвири билан алмаштириб реалистик услуб тамойилларига яқинлашди.

Фитрат ишқ мавзусида “эски-янги шоирлар” кўп ёзгани, “фикрларнинг бир-бирига ўхшағанлари очиқ кўринадур” дейиш билан бирга бу мавзуда янги шаклда шеърлар ҳам пайдо бўлганлигини қайд этиб, Чўлпоннинг “Кетдингми мангуга ташлаб, Қолдимми қайғуларим-ла?” мисраси билан бошланувчи шеърини бунга мисол қилиб кўрсатади.

Фитрат “услубнинг хусусий ҳоллари” деб белгилаган бадиий санъат турларидан жонлантириш ҳақида “инсондаги даражада тириклиги бўлмаган нарсаларга, жониворларга инсондаги тирикликнинг ҳолларини, сифатларини тақмоқдир” деб таъриф беради. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достонидаги Мажнунга қайғудош бўлган *гул, булбул, оғоч* тасвирини жонлантириш санъатининг “жонли бир ўрнакидир” дея баҳолайди. Жадид шоирларидан Чўлпон ва Элбекдан мисоллар келтириш орқали уларни “жонлантириш санъатининг чиройлик ўрнаклари” эканини таъкидлайди.

“Адабиёт қоидалари”да муаллиф “Сўраш” деб номланган санъатга мумтоз шеъриятдан Лутфийнинг “Боқмас менга жанона, ажаб ҳолат эмасму?” деб бошланувчи ғазалини мисол келтириш билан “чинликни йўқотмасдан, кучли туйғуларни англатган”ини эътироф этади. Чўлпоннинг

“*Бир-ики яхши сўз айтдик,*
Ҳолимни онглағанингми?”

деб бошланувчи шеърини “билмасликка солиш”, яъни тажоҳули орифонанинг “кучли ўрнаги” сифатида қайд этади. Демак, бу ўринда ҳам мумтоз поэтик санъатларга мурожаатда шоир Чўлпон самарали ижод қилаётгани таъкидланади. Фитрат “қаршилик” санъатига Бобур, Боту, Чўлпондан мисол келтираркан, бу ўринда мумтоз ва замонавий деган айирмаларга бормайди. Балки ушбу санъат мумтоз шеъриятда ҳам, замонавий шеърларда ҳам бирдай қўлланила оладиган санъат тури эканлигини ёзади. Бобурнинг “Юз ёмонлиғ кўриб ондин телба бўлдунг, эй

[133] Фитрат. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма. – Б.21-22.

кўнгул, Яхшиликни кўз тутарсан ул паривашдин яна” байтида ҳам, Ботунинг “Ёруғликни севатурған бизнинг тинуқ кўнглимиз, Қачонғача қоронғулар ичра қолар бўғулуб” мисраларида ҳам қаршилик санъати борлигини аниқлайди. Аммо олим “қаршиликнинг энг яхшиси “фикрлар”аро қаршиликдир” деб белгилайди ва бунга мисол қилиб, Чўлпоннинг “Мен ва бошқалар” шеърини ҳамда Бобурнинг “Эл барча пушаймон бўлуру тавба қилур, Мен тавба қилибмену пушаймондурмен” байтини келтиради[134]. “Қайтиш” (ружуъ) санъатининг “сўнграғи фикрнинг бурунғи фикрдан кучли бўлиши лозим” бўлишлик талаби билан Навоий шеъриятига юзланади. Бунинг давомчиси сифатида Ботунинг “Йиғлаб турдим, йиғлаб турдим эмас, унда тийрак ўлдим” мисрасини беради. Аммо биринчи мисрадаги фикрдан кейинги фикр кучсизроқ чиқса, “қайтишнинг маъноси қолмайди” дея таъкидлайди[135].

“Аруз ҳақида” рисоласида “инқилобдан кейин ўзбек совет адабиётида аруз жуда оз ишлатила борди, бунга ижтимоий сабаблар бор эди” дейиш билан арузга танқидий кўз билан қараганликларининг сабабини тушунтириб берди. “Аруз вазни шеър вазнларининг бой ва энг музикалиларидан бири-дир... аруз системаси шундай бир системаки, уни яхши ўрганган одам шунга мувофиқ янги-янги вазнлар ҳам туза олади... Арузнинг энг жонли, ўйноқи ва энг музикали вазнлари шу қўл текизилмаган қисмда туради” деб замондош шоирлар шеърларидан намуна олади. “Булардан (яъни аруз вазнидан – Т.М.) фойдаланиш, албатта, фойдали иш. Букун ўзбек совет шоирларидан баъзилари аруз вазнларида муваффақият билан фойдаланмоқдалар” дея Ғафур Ғулом мухаммаси ва Усмон Носирнинг маснавий вазни – мутақорибда ёзган шеърини мисол тариқасида келтиради. Бунинг натижасида Фитрат янги шеърият ҳар “иккала системадан фойдаланишга тиришса бўлур” тарзида хулосага келади[136]. Бу билан “Аруз ҳақида” рисоласи замонавий шоирлар учун амалий дастур ҳам бўлиб хизмат қилиши мумкинлигига ишора қилади.

Демак, Фитрат XX аср бошлари жадид шеърияти мумтоз анъаналарни давом эттира олиш билан мумтоз адабий жанрлар, бадиий санъатлар, аруз вазнини қўллаш борасида фаоллик кўрсатганини таъкидлайди. Чўлпон, Боту, Ғафур Ғулом ва Усмон Носир каби замонасининг пешқадам шоирлари ижодида бу анъаналар давом этаётганлигини асосли мисоллар билан исботлай олди.

Вадуд Маҳмуд “Фузулий Боғдодий” мақоласида ворислик ва адабий таъсир масаласини ўрганишда Навоий-Фузулий-Амирий муносабатини асос қилиб олган. Мақолада “Фузулийнинг Туркистонга таъсири” сарлавҳали махсус бўлим ажратиб, унда буюк озарбойжон шоирининг Абдулҳамид Чўлпон лирикасига таъсирига алоҳида тўхталади. Бундай таъсир натижасида ёзилган “ғарб туркчасида”ги уч бандлик *“Илк аввал гўзими ишқ ила очдим”* деб бошланувчи шеърини келтиради[137]. Мумтоз адабиётнинг XX аср

---

[134] Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Б.73.
[135] Кўрсатилган асар. – Б. 74.
[136] Абдурауф Фитрат. Аруз ҳақида / Танланган асарлар. 5-жилд. – Б. 230.
[137] Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б.48.

шеъриятига таъсирининг яққол намунаси бўлган ушбу муносабатни эътироф этган ва Вадуд Маҳмуд мақоласини чуқур таҳлил қилган озарбойжон олимаси Гулшан Алиева-Қанғарли мунаққид ҳақида шундай хулоса қилади: “Вадуд Маҳмуднинг “Фузулий Боғдодий” мақоласи XX асрнинг 20-йилларидан эътиборан янги босқичга қадам қўйган ўзбек фузулийшунослигининг илк илмий-назарий изланишлари каби ўзидан кейинги жиддий тадқиқотлар яратилишига асос бўлди. Маълум маънода тўлалигича озарбайжон-ўзбек адабий-маданий алоқаларининг ривожланишида етарлича муҳим рол ўйнади. Шунга кўра ҳам ўзбек фузулийшунослигининг кейинги босқичларидаги ютуқларини изларканмиз, биз Вадуд Маҳмуд тадқиқотига қайта-қайта мурожаат қиламиз”[138].

Вадуд Маҳмуд Фузулий шеъриятини ўрганиш кераклиги ҳақидаги умумий фикр билан чекланмай, балки унинг изидан бориб, вазнда ва ҳатто тилда “ғарб туркчасига” эргашишнинг амалий намунасини берган шоир Чўлпон шеърини тақдирлайди (ушбу шеърнинг бадиий хусусиятлари кейинги фаслларда таҳлилга тортилган – М.Т.). “Бу кунги шеърларимиз ва санъаткорларимиз” тадқиқотида “Бу эски ва янги адабиётнинг хусусиятларида кўриндики, янги адабиёт эскидан назм техникаси эътибори билан анча айри ва асл хусусиятларга моликдир. Фақат кўрайлик, қани, бизнинг шоирлар бу хусусиятларни қанча ўзлаштирганлар ва қанча муваффақ бўлганлар... Бу робиталарни эски шеърга уста Фитрат билан янги шеъримизнинг биринчи намояндаси Чўлпоннинг оз-моз риоя қилғанини кўрамиз”[139], – дейиш билан мумтоз вазн ва бадиий воситаларнинг замонавий шеъриятда қўлланилиш “техникаси”га эътибор қаратади.

Чўлпон “Ўзбек билим ҳайъати” эътиборига ҳавола қилинган “500 йил” мақоласида[140] Навоийнинг ҳижрий-қамарий йил ҳисобида 500 йиллик тантанасини ўтказиш талаби билан мурожаат қилиб, “Навоийнинг босилмаған асарларини топиб босдиришга, лозим кўрилганларини босдириш чорасини кўриш” ва Навоийнинг мукаммал таржимайи ҳолини эълон қилинишини талаб қилади.

Чўлпоннинг мумтоз адабиёт манбаларига муносабати масаласи кескин акс этган мақолаларидан бири “Улуғ ҳиндий” асаридир. Мақолада ёзилишича, “Эски адабиёт билан янги адабиётнинг ўртасида қолған шарқли ёш чинакам чучмал бир вазиятдадир. Эски адабиёт бир ширин, янгиси яна ширин, ғарбники тағин – яна ширин. Қайси биттасига кўпроқ берилсин? Бири биридан ширин ахир!”[141] деб мумтоз манбаларга мурожаатда “йўлсизлиқ” ҳолидан сўз очади. Мумтоз шоирлардаги “бир хил”лик Чўлпонни қониқтирмайди. Аввало, бу ерда “бир хил” дейилганда шоир кўпроқ вазн хусусиятини назарда тутган. Қолаверса, мумтоз адабиёт намуналаридаги анъанавий бир хил бошланмалар шоирни мураккаб ҳолга

---

[138] Алиева-Канғарли Г. Фузулийшунослик тарихи ва назарияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2012. – Б. 263.
[139] Маҳмуд В. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б.83.
[140] Чўлпон. 500 йил / Асарлар. 4-жилд. – Б. 20.
[141] Чўлпон. Улуғ ҳиндий / Асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.31-32.

солади. Бундан ташқари, татар, озарбойжон, турк насридаги айрим асарларни санаб ўтаркан, “улар шу қадар озки...” деган хулосага келади. Чўлпон бу ўринда мумтоз шеъриятни бутунлай рад қилмайди, балки янги ғарб руҳидаги реалистик насрга ташна эканлигини ёзган эди. Шунингдек, шоир мумтоз анъананинг бутунлай йўқ бўлиш тарафдори ҳам эмас, балки анъанавийлик билан замонавийлик ўртасига “олтун кўприк” қурган Тагорни эътироф этмоқчи бўлган холос. Чўлпоннинг бу қарашлари “Тагўр ва тагўршунослик”[142] мақоласида янада аниқроқ кўринади: “Тагорнинг энг катта ва Шарқ руҳи билан Ғарб асосини бирлаштирган асари” хусусида гапираркан, шоир уни бир адабий мактаб яратувчиси сифатида таништиради.

Шоирнинг “Увайсий” мақоласида Ғулом Зафарийнинг “Ҳалима” операсида куйга солиб айтилган Увайсий ғазали ва “Ироқ” муносабати билан келтирилган

Забонингни кетургил, эй шакарлаб, тўти гуфтора,
Нечукким, марҳамат бўлсин неча мандек дилафгора, –

байти орқали ушбу ғазал таҳлилига киришилган[143]. Чўлпон шоиранинг “Карбалонома”, “Девон”, “Хитой сафари” (Муҳаммад Алихонга бағишланган) асарларига баҳо бериб, унинг бадиҳагўйликда шуҳрат қозонгани ва бир тўртликда “анорни қандай гўзал ва санъаткорона тасвир қилган”ини таъкидлайди. Бу мақола орқали Чўлпон мумтоз шеъриятнинг гўзал намуналарини қадрлаш билан бирга унга кўр-кўрона эргашиш эмас, балки миллий анъаналарни янги заминга пайванд қила оладиган адабий асарлар ёзиш кераклигини уқтиради. Бундай фикрнинг давомини унинг “Базм-чолғи тўдаси” мақоласида ҳам ўқиймиз: “Чинакам бизнинг чолғимиз йўқолиб кетишидан сақланмоғи лозим, куйларимиз унутилиш ва бузилишдан асралмоғи даркор... Бизнинг вазифамиз – ўшаларни тор бурчаклардан кенг майдонларга олиб чиқиш, ўсдириш, парвариш қилиш, тарбия беришдир”[144]. Бу сўзлар тамомила мумтоз адабиётга ва унинг юксак адабий тури бўлган шеъриятга ҳам тааллуқлидир. Чўлпон дунёқарашидаги ушбу йўналишни чуқур англаган У.Султонов ўзининг номзодлик диссертациясида Чўлпоннинг “изланиш, тажрибалар, жаҳон адабиётини ижодий ўрганиш хусусидаги фикрлари янги давр адабиёти принципларини қарор топишида ижобий таъсир кўрсатди”[145] деган хулосага келади.

Демак, Чўлпон мумтоз адабий жанр ва тимсолларга муносабатда уларни рад этиш йўлидан бормаган, аксинча, мумтоз адабиётнинг чексиз бадиий имкониятларини ўрганиш орқали замонавий шеърият тараққий этиши мумкин эканини кўрсатиб берган.

Адабий жараён ҳодисасини ўрганишда *анъана ва янгилик*, маданий меросга *ворислик* ва *адабий таъсир* масалалари адабиётшуносликнинг муҳим илмий муаммолари саналади. Мумтоз адабий меросга ворислик мавжуд

---

[142] Чўлпон. Тагўр ва тагўршунослик / Асарлар. 4-жилд. – Б. 33-38.
[143] Чўлпон. Увайсий / Асарлар. 4-жилд. – Б. 45.
[144] Чўлпон. Базм-чолғи тўдаси / Асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 96.
[145] Султонов У. Чўлпоннинг адабий-танқидий қарашлари. Филология фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 87.

анъаналарни янгилашда, уларни янги давр шароитига мос ҳолда келажакка ҳам тақдим қилишда кўринади.

12. Жадид адабиётида таъсирланишни икки аспектда кузатамиз. Биринчи ҳолат нисбатан фаол бўлиб, унда жадид шоирлари тўғридан-тўғри улуғ ижодкорлар асарларига мурожаат қиладилар. Иккинчи тур боғланишда ижодкорлараро муносабат бевосита амалга ошиши мумкин (буни Д.Дюришин "генетик алоқадорлик" деб атаган), даврлараро муносабатда эса бевосита таъсирдан ташқари, "таъсир этувчи" ва "таъсирланувчи" ўртасида учинчи объект орттирилиши мумкин экан.

13. Араб-форс шеърияти билан ўзбек адабиёти ғоя ва мотивлар, тимсоллар силсиласи, ифода шакллари, шеър навълари ва насрий жанрлардан тортиб бадиий воситаларгача муштарак бўлгани маълум. Бу анъана ва адабий таъсирнинг бир минтақада мавжуд бўлган бир неча адабиётлар кесимида ўрганилиши лозим бўлган масалалардандир. Адабий анъана доирасига ўтмиш адабиёти эришган ютуқлар, тўплаган тажрибаларнинг ҳаммаси ҳам эмас, балки унинг муайян давр ижодкорлари томонидан долзарб деб топилган, боқий қадрият сифатида баҳоланган ва ўз ижодий фаолиятларида намуна деб ҳисоблаган қисмигина киради.

14. Ҳар бир авлод ўтмиш адабиётига муносабатда бўлар экан, унга фаол ижодий ёндашади, салафлар тажрибасини ўз даври қўйган бадиий-эстетик вазифаларни бажаришга хизмат қилдиради. Жадид адабиёти ҳам мумтоз адабий манбаларга мурожаат масаласида Қуръони карим, Ҳадиси шарифга оид манбалар асосида миллат тарбиясига киришмоқ истагини ифода қилган. Фитрат, Абдулла Авлоний, Беҳбудий каби ижодкорларнинг ислом тарихига оид ихчам рисолаларида Носириддин Рабғузийнинг "Қисаси Рабғузий", Алишер Навоийнинг "Тарихи анбиё ва ҳукамо" асарларида тилга олинган сиймо ва анъанавий тимсолларга мурожаат қилинган.

15. Жадид олимлари мумтоз адабиётнинг илк даврида юксак маърифатпар-варлик ғоялари, жумладан, Юсуф Хос Ҳожиб ва Адиб Аҳмад Югнакий ижодидаги маърифий тарбия масалаларини ўз замонасининг адабиёти ва амалий фаолияти билан боғлаш учун "Мунозара", "Ҳинд сайёҳи баёноти", "Нажот йўли" (Фитрат) каби асарларда маърифатга чорловчи қаҳрамон тимсолини киритди ҳамда маърифий ғояларни ўз ҳолича адабий тамойил сифатида адабиётга олиб кирдики, бу ҳолат Авлоний, Ибрат, Ажзий ижодида ҳам бош тамойилга айланди.

16. Ўзбек жадид адабиётининг форс мумтоз достончилигига алоҳида эҳтиром билан қараганини Фирдавсийнинг "Шоҳнома" асарига муносабатда кўришимиз мумкин. Фитрат Фирдавсий ижодига бир неча мақолалар бағишлади, Чўлпон "Шоҳнома" сюжети, мотивлари, тимсоллар тизими ва қаҳрамонларини жадид адабиёти билан боғлашга ҳаракат қилди. Фитрат ва Чўлпон "Шоҳнома" мавзулари асосида яратилган саҳна асарлари ҳақида ёзилган мақола ва тақризларида жадид адиблари мумтоз адабиётнинг қайси жиҳатларидан озиқланганини кўрсатиб бердилар.

17. Алишер Навоийдай буюк сўз соҳири ижодига муносабатда унинг ўлмас анъаналари: тимсоллар тизими, поэтик воситалар, ифода ва баён услуби орқали замонавий адабиёт ўзлаштириши лозим бўлган жиҳатларни тарғиб этиб, ҳар бир ижодкор бу беназир ҳикмат ва санъат мактабидан озиқланиши лозимлигини ўзларининг назарий қўлланма ва мақолаларида эслатдилар, амалда қўллаб-қувватладилар.

18. Вадуд Маҳмуднинг Фузулий ҳақидаги мақоласида адабий таъсир масаласи – Навоий-Фузулий-Амирий муносабатида кўрсатиб берилди. Фузулий ижодининг ўзбек шоирларига таъсири жиҳатидан Абдулҳамид Чўлпон лирикасига тўхталиб, бу таъсир натижасида ёзилган "ғарб туркча-сида"ги шеърларни таҳлил қилиш орқали Фузулий анъаналарининг давомийлигини қайд этиш билан адабий ворисликнинг яна бир шаклини аниқлаб берди.

19. Жадид олимларидан Фитратнинг ишларида мумтоз бадиий санъатларга муносабатда "услубнинг хусусий ҳоллари", "сўз ўйинлари" каби таснифлар орқали ўнлаб бадиий санъатларнинг жадид шеърияти поэтикасидаги ўрни кўрсатиб берилди. Мумтоз бадиий санъатлардан фойдаланиб, самарали ижод қилаётган Чўлпон, Боту, Элбек каби шоирларнинг шеърлари таҳлилга тортилди, асар бадиийлигини таъминлашдаги ўрни илмий асосланди.

20. Аруз вазнига муносабатда Фитрат "Аруз ҳақида" тадқиқоти орқали бу вазн "музей экспонати" (Абдулла Қаҳҳор) эмас, балки адабий жараёнда фаол қўлланилаётган вазн экани, Ғафур Ғулом, Ҳамид Олимжон, Усмон Носирнинг шеъриятини бойитиб турган омиллардан бири бўлганини асосли мисоллар билан исботлаб берди.

21. Чўлпоннинг мумтоз адабиёт манбаларига муносабатда кескинроқ айтилган танқидий мулоҳазалари, мумтоз анъаналарни рад этувчи қараш деб эмас, балки уларга мурожаат этишда "бир хил"ликдан қутилиш учун янги замин билан пайвандлаш зарурати нуқтаи назаридан талқин қилиниши мумкин.

14-мавзу. Ўзбек жадид адабиётида ижтимоий таҳлил

Avloniy ijodiyotining ko‘pchilik qismini ijtimoiy ruhdagi she’rlar tashkil qiladi. Majmuadan o‘rin olgan “Biz, millat”, “Olam ichra ko‘r-madim” (Birinchi juz’), “Maishatdan bir manzara”, “Hasratlik holla-rimiz”, “Taajjublik hollar”, “Millat holindan bir ya’s”, “Girdobi g‘amdin bir po‘rtana”, “Falakdan bir shikoyat” (“Ikkinchi juz”), “Bizlarda nima bor?”, “Millat holindan bir jigarso‘z”, “Xarobalarga xitob” (“Uchinchi juz”), “Falak bizni nalar qildi”, “Ta’rifi gul” (“To‘rtinchi juz”) kabi g‘azallarda ijtimoiy mavzuda bahs yuritadi. Ma’lumki, g‘azalda ijtimoiy ruhni berish Navoiy she’riyatidan boshlangan bo‘lib, keyinchalik Bobur,

Amiriy, Ogahiy she’rlarida bu an’ana davom ettirilgan edi. XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida, ayniqsa, jadid shoirlari ijodida ijtimoiy motivlar badiiy asarning mohiyatini tashkil etuvchi unsurga aylandi. G‘azalday intim kayfiyatni ifodalovchi janrlar tabiatiga ham ijtimoiy ruh singib, davrning muhim jihati – mustamlaka siyosatiga qarshi turishlik, millatning erk va ozodligi uchun kurash yetakchi g‘oyaga aylangan edi. Avloniy she’riyati ham bu muhim jihatni o‘zida aks ettirgan bo‘lib, bu holat mumtoz lirikaning nisbatan faol janrlaridan biri – g‘azalda bo‘y ko‘rsatadi. Shoirning “do‘ndurdi” radifli g‘azali bu jihatdan Vatan tufrog‘i deb motamsaro ko‘z yoshlarini qonga to‘ldirgan lirik qahramonning e’tiqodi ijtimoiylik talabida ekanini ko‘rsatadi:

Falak motamsaro ko‘zyoshimni qona do‘ndurdi,
Muruvvatsizlig‘i-la bag‘rimiz bir yona do‘ndurdi.

Biza g‘amxona qildi bu Vatan tufrog‘ini holo,
Bo‘laklarga maishat yo‘llarin osona do‘ndurdi.

To‘qqiz baytli bu g‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan *(V - - - V - - - V - - - V - - - mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun)*. G‘azalda lirik qahramonning davr voqeliklarini kuzatishi zaminida paydo bo‘lgan ijtimoiy xulosalari mujassamlashgan. G‘azal boshlanmasidayoq lirik qahramon – muallif “men”ining ichki tug‘yonlarini aks ettiruvchi hayqirig‘i jaranglaydi. Lirik qahramon davrning jabr-zulmiyu kulfatu g‘amidan, zamonning shafqatsizligidan, o‘zgalarni izzatu sharafdaligiyu kambag‘al xalqning beqadrligidan mungli shikoyat qiladi, keskin norozilik bildiradi. Shoir jiddiy ijtimoiy norozilik kayfiyatni keskin va o‘ta ta’sirchan ifodalashda yuksak badiiy mahoratini namoyish etadi. Shoir qo‘llagan istiora (*falak*), sifatlash (*motamsaro ko‘zyosh*), mubolag‘aning tablig‘ turi (*qona do‘ndurdi*), tazod (*biza bo‘laklarga g‘amxona qildi – maishat yo‘llarini osona do‘ndurdi*) mantiqiy qo‘llangan bo‘lib, g‘azalning umumiy ruhi va shiddatli ohangini kuchaytirishga xizmat qiladi. G‘azalning keyingi baytlari ham erk-huquqlari cheklangan, g‘ururlari toptalgan, ma’rifatdan yiroq tutilgan lirik qahramonning chuqur qayg‘usi, cheksiz iztirobi, qahr to‘la g‘azabi bilan yo‘g‘rilgan:

Funun ilmdin zolim falak bizlarni dur aylab,
Butun avqotimizni xayr ila ehsona do‘ndurdi.

Misralar mazmunidan zamonaning yovuz kuchlariga nisbatan qattiq nafrat ufuradi. Yovuz kimsalar tomonidan azob-uqubatlar girdobiga o‘ralgan tolei past qalb egasining nohaqlik va tengsizlikdan kuyunishidan ruhiy isyon ko‘tariladi. G‘azalning boshlanmasidayoq

yetakchilik qilgan falak gardishidan keskin norozilik va isyonkorona ruh keyingi baytlarda shiddat bilan tus oladi:

Nalar qildi jahonda bizni beparvo falak makkor,
Farog‘at ayshimizni oh ila afg‘ona do‘ndurdi.

Battol zamon lirik “men” va bechora xalqning boshiga ne-ne og‘ir kunlarni solmadi, huzur-halovatini oldi, osuda hayotini ohu fig‘on, hasratu armon bilan to‘ldirdi, ham ma’nan, ham jismonan ayovsiz ezdi. Baytdagi “falak” so‘zi asl ma’nosini o‘zgartirib, xudbinlik, zo‘ravonlik, adolatsizlikni o‘zida ifoda etadi.

G‘azalning keyingi baytlarida mazkur badiiy obraz – “falak”ning qirralari yanada yorqinroq ochiladi: faqirlikka botmoq; oshlarida lazzat qolmaganlik; qaqshagan qoq non; razolat dardiga mubtalolik; salomatlikda bedavolik. Ya’ni:

Faqirlikg‘a boturdi, oshimizda qolmadi lazzat,
Palov, norinlarimiz qoqshagan qoq nona do‘ndurdi.

Yanada g‘amgin va qayg‘uli ohangda bitilgan mazkur baytlarda ezilgan qalbning ruhiy holati bo‘rttirilib ifodalangan. Shoir lirik qahramon – “biz”ning nochor ahvolini, qalbini tirnayotgan azobni yorqin ifodalashda sodda, ammo kuchli, zalvori og‘ir, qat’iy so‘zlarni (*boturdi, qolmadi, mubtalo qildi)* qo‘llaydi. Shoir so‘zlarga mantiqiy urg‘u berib ma’noni kuchaytiradi, vaziyat keskinligini ta’kidlaydi, holatni chindan ham fojiaviy tus olganligini chertib ko‘rsatadi, ohangga shiddat va surat baxsh etadi. Qolaversa, umumiy yagona qofiyalanishdan tashqari ichki qofiyani ta’minlaydiki, bu hol asarning badiiy jihatdan barkamolligini ko‘rsatadi, misralarga tizilgan ichki va tashqi qofiyalar bosh maqsad – g‘oyaga to‘la-to‘kis xizmat etadi:

Biza ozor vermakdin soqinmaz, rahmi kelmazmi,
Umidu orzumiz(ni) dam-badam Hijrona do‘ndurdi

Ko‘ringanidek, g‘azalning barcha baytlari biri-birini to‘ldiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, voqelikka yanada aniqlik kiritib boradi. Avloniyning bu g‘azali mohiyatan inson qadr-qimmatining poymol etilishi, ma’naviy huquqsizlikka qarshi norozilikni lirik vositalar orqali ifodalashning yorqin namunasidir. G‘azalda *qona, bir yona, osona, ehsona, somona, afg‘ona, armona, qoq nona, darmona, Hijrona* so‘zlarining qofiya bo‘lib kelishi, radifga *do‘ndurdi* fe’li tanlanishi o‘ziga xos badiiy mutanosiblikni vujudga keltirgan. Shoir ijtimoiy norozilik kayfiyatini keskin va o‘ta ta’sirchan ifodalashda har bir misrada tazod, tanosub, sifatlashlarni mantiqiy qo‘llaganligi g‘azalning shiddatli va isyonkorona ruhiga jiddiy hissa qo‘sha olgan. G‘azalning mazmun-mundari-

jasi badiiy tasvir uyg‘unligi bilan boshdan-oyoq izchil davom etadi. Bu esa she’r mazmunining salmoqdorligini va ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Abdulla Avloniyning ijtimoiy lirikasida zamona kulfatidan shikoyat, norozilik pog‘onama-pog‘ona yuqori bosqichlarda ko‘rsatiladi. Endilikda ijtimoiylik va kurashuvchanlik old o‘ringa o‘tadi – lirik “men” to‘g‘ridan-to‘g‘ri Allohga nido qilib, sarhadsiz ruhiy taloshlarga o‘ziga xos aniqliklar kiritadi:

Ey Xudovandi jahon, mahfiy emasdur sanga hol,
Bizlara berding jaholat, o‘zgag‘a izzu kamol.

g‘azallarining ko‘pchilik qismini ijtimoiy mavzu bilan bir qatorda, axloqiy-ma’rifiy mavzuga bag‘ishlangan g‘azallar ham tashkil qiladi. ijodida axloq va ma’rifiy kamolot masalalari birlamchi o‘rinda turadi, bu masalalar shoir ijodida o‘zining izchil talqinini topgan:

Sadoqat bizda yo‘qdur, demakim, yalg‘onimiz bordur,
Ulumu ma’rifatdan demakim nuqsonimiz bordur.

Demakim, amri ma’ruf aylamakka bizda yo‘q bir kas,
Ki har bir go‘shai jome’da mashrabxonimiz bordur[146].

Shoir xalq ma’naviy hayotiga, turmush tarziga teran munosabat bildiradi, hayot hodisalarini jiddiy idrok qiladi, inson xarakteri va shaxsini uning ruhiy tadrijida ko‘rsatadi. Avloniy zamonaning ma’rifiy-ma’naviy muammolariga bepisand emas. U ijtimoiy-ma’rifiy dard mavzusini yoritish bilan, avvalo, davrga, kechayotgan umr ma’nosiga, shaxs qismatiga o‘zining xolis munosabatini bildiradi, g‘ofillik balosidan ogoh etadi. “Maorif rahnamo yo‘lboshchidur rohi haqiqatga” deb hisoblagan shoir shaxs kamolotini jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida ko‘radi.

Avloniy g‘azallarining asosini eng yuksak va muqaddas tuyg‘u – Vatan tuyg‘usi tashkil qiladi. Shoir she’rlarida zaminiy dard – ijtimoiy haqsizlik, ma’naviy qoloqlikni kuylar ekan, buning sabab va oqibatini chuqur mulohaza bilan idrok qiladi. Bunday holatlarda lirik qahramon g‘azab va nafratini shunchaki bildirmaydi yoki jimgina ichiga yutib qolmaydi, aksincha, bu holatga qarshi kurashga chorlaydi. Shoir kurashuvchanlik, qalbi jo‘shqinlikni yaxshi qadrlaydi, millat taqdiriga sust nazarni yoqtirmaydi:

Bo‘lmag‘il navmid hargiz, bexabarsan g‘aybdan,
Parda ichra bo‘lg‘usi ko‘b sirri pinhon, chekma g‘am.

she’riyatida ham millat taqdiri, Vatan qismati alohida o‘rin tutadi. Shoir “g‘unchasi maorif uchun zor o‘lan Vatan” obrazini chizar ekan, uning

[146] Ko`rsatilgan asar. 86-bet.

ertangi kuni haqida umidbaxsh satrlarni keltirish bilangina chegaralanmaydi, balki Vatan mustaqilligi uchun xalqni uyg‘otishga undaydi:

Etarsan tobakay g‘aflat quchog‘inda, uyon millat,
Jaholat jomasin ustingdan irg‘it tur zamon millat.

Avloniy she’riyatida millat va Vatan mavzulari doimo yonma-yon keladi. U millat istiqbolida Vatan erkini, Vatan istiqbolida milliy tuyg‘ular tantanasini ko‘radi. Ana shunday ruhdagi she’rlarida dunyoga yangicha nigoh bilan nazar tashlayotgan kishini lirik qahramon darajasiga ko‘taradi:

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas aqli pastdur.
Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.

Jadid adiblari, xususan, Abdulla Avloniy ijodidagi g‘azal, ruboiy, qit’a, musammatlarning ko‘rsatkichidan mumtoz an’analarning ta’sirini kuzatish mumkin. Uning murabba’larida insonning chigal ruhiy kechinmalari favqulodda sodda, ammo kezi kelganda, juda o‘ylantiradigan ta’sirli misralarda o‘quvchi diliga ko‘chadi:

Jahon bog‘ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,
O‘turdi nag‘mazorinda gulin yod etdi bir bulbul,
Ko‘rub gul yafrog‘ini hajridin dod etdi bir bulbul,
Visoli yor uchun yuz navha inshod etdi bir bulbul.

Murabba’ sof lirik janr sifatida ishq-muhabbat, oshiq sadoqati, ma’shuqa nozu karashmasi, jabru jafosini namoyish etadi. Avloniyning salaflar ijodidan yaxshi xabardor ekanligini mazkur murabba’ ham tasdiqlaydi. Shoir she’rni jahon bog‘ida bulbulning faryod etishi voqeasini bayon etish bilan boshlaydi. Birinchi bandda markaziy qahramon – bulbul (oshiq)ning otashin sevgisi, firoqda kuyinishi, yor vasli yo‘lidagi o‘rtanishi o‘quvchi ko‘z oldida gavdalanadi. Ikkinchi bandda bu ayriliq va nohaqlikka mavjud zamonani sabab qilib ko‘rsatadi, “dili bizlar kabi majruh” deyishini o‘zida zamonadan shikoyat va uni qoralov mazmuni jamlanadi.

Murabba’ning boshlanmasida bulbul yor hajrida o‘rtangan oshiq yigit timsolida ko‘ringan bo‘lsa, keyingi bandlarda oshiq qahramon kurashuvchan qahramonga aylandi. Ya’ni bulbul oshiq bo‘lib emas, Turkistonning taqdiridan kuyungan, uning istiqboli uchun kurashayotgan, “xonumonidan adashgan” millatning boshdan oyog‘ (sarupo) limmo-lim (sarshor) “g‘aflat”ga botayotganidan tashvishga tushgan lirik

qahramon – shoir bo‘lib bong urdi. Lirik qahramonning har bir aytganlari go‘yo bir ibrat darsi bo‘ldi. U Vatanda turib Vatan hajrida o‘rtandi, ma’nan undan uzoq yashayotganlardan shikoyatlandi, ma’naviy–ijtimoiy nosozlik va nohaqlikdan noroziligini samoga boqib, “virdu avrod” etib, qayta-qayta takror duo qilish orqali bu holatni isloh qilish yo‘llarini axtardi.

Murabba’da bulbul timsolida o‘z zamoniga befarq bo‘lmagan, millati uchun qayg‘urgan, zamona hayoti va uni tuzatish yo‘llari haqida fikr yurituvchi ilg‘or bir siymo gavdalanadi. Bu obraz orqali Avloniyning jamiyat hayotiga qarashlari davr ilg‘or kishisining o‘y-mulohazalari tarzida beriladi:

O‘lur behush inson gar falakdan aylasa faryod,
Emas javlon ko‘handa bir zamon to bir nafas dilshod,
Xazonning dasti zulmindan qilub bing shikvalar te’dod,
Fig‘onu nola birla dod-bedod etdi bir bulbul.

Ko‘ringanidek, jadidchilikning siyosiy, falsafiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy g‘oyalari Abdulla Avloniy ijodida to‘la to‘kis o‘z ifodasini topdi.

Avloniy Avloniy she’riyatida mumtoz adabiyotdagi an’anaviy gul (ma’shuqa), bulbul (oshiq), qafas (hijron) timsollari ijodida muhabbat kechinmalari bo‘lib emas, Turkiston dardi, qiyofasi sifatida o‘zga bir tasvirda namoyon bo‘ladi. Gul – bu bag‘riga botgan tikonlar zahmidan ozor topgan Turkiston. Bulbul – Turkistonning kelajagi uchun kurashayotgan qahramon:

Qo‘nub gul shoxiga bulbul der: Ey insonlar, insonlar,
Qilursiz tobakay g ‘ofil yotib afg‘onlar, insonlar.
Turing uyquni tashlang, ilm oling, yoshlik g‘animatdur,
Yo‘q ersa, bo‘lg‘ungizdur jahl uchun qurbonlar, insonlar...[147]

She’rda gul shoxiga qo‘ngan bulbul insonlarga murojaat etib, uni kurashga chorlovchi da’vatkor sifatida namoyon bo’ladi. U insonlarga qarata tobakay g‘aflatda yotib, afg‘onlar chekasiz, yoshlikni g‘animat bilib, ilm olishga chog‘laning, aks holda jaholat qurboni bo‘lasiz deya nido qiladi.

Avloniyning “Adabiyot yohud milliy she’rlar” to’plamidan birgina mustahzod o‘rin olgan bo’lib, u ham millat sha’ni va uning himoyasiga bag‘ishlangan:

Insof ila vijdondan uzoq ko‘ngli qarolar,
ul so‘finamolar,

[147] A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Ma’naviyat, 2006. B. 151.

Kofir qimog‘a muhri ani yonida tayyor,
tasbih sanar ayyor.
O‘z nafsi uchun o‘zgalari qilmadi qurbon,
qani ahvat so‘zi Qur’on,
Dindan xabari yo‘q sonur, ul o‘zini dindor,
ul mo‘mini jindor.

Mustahzodda insof va vijdon chegarasidan chiqqanlar tanqid qilinib, o‘zini dindor ko‘rsatayotganlar, Qur’oni karimga amal qilmayotgani, ya’ni jamiyatdan insof ko‘tarilgani xususida yozilgan. Mustahzod mumtoz talablarning barchasiga javob bersa-da, o‘zining tanqidiy ruhi va zamona kirdikorlarlarini fosh qilishga qaratilgani bilan salaflarining asarlaridan farqlanadi.

Abdulla Avloniy mumtoz adabiy manbalarni chuqur o‘rgangan holda ularni yangicha ruh va mazmun bilan to‘ldirib, yangi fikriy taraqqiyot g‘oyalari bilan sug‘orilgan she’riyat sifatida qadr topishida muhim rol egallaydi.

Shoir Tavallo she’riyatida millat, uning shu kundagi ahvoli, jahon hamjamiyatidagi tutgan o‘rni haqida kuylaydi. Professor B.Qosimov ta’kidlab o‘tganlaridek, “Millat”, “Milliyat” tushunchalariga Avloniy va Tavallolarga qadar she’riyatimizda bunchalik ko‘p e’tibor berilgan emas edi. Darhaqiqat, Tavallo ham boshqa millatsevar, vatanparvar shoirlar singari Vatan mavzusiga alohida e’tibor berdi. “Movarounnahrdur tarixda bizlarga Vatan” satri bilan boshlanadigan she’rini “Suyukli Vatan haqinda” deb atagan.

Uning she’rlari millatning fojiaga yuz tutayotganligi haqidagi o‘y-tashvishlar, iztiroblarga yo’g’rilgan:

Evrupo ahli, siz quloq solingiz,
Biz hunarlar yozub, tonushtiramiz.
Kelturung zanbarak, qurol necha xil,
Bizni sopqon ila otushtiramiz.
Aftamabil arobangiz qayda?
Xo‘qand aroba bilan chopushturamiz...
Qani ayriplonu gidropulon,
Varvarak bilan uchushtiramiz.
Bormi sizda bedona, kakliklar?
Pul tikub o’rtaga cho‘qushtiramiz...

Sezganingizdek, misralar bag‘riga singgan istehzolar zamirida qanchalar dard, qanchalar alam bor.

Tavallo hayoti va ijodiy faoliyatida millat va Vataniga xizmat hissi va shu munosabat bilan o‘z-o‘ziga hisob berish keng o‘rinni egallaydi. Uning she’rlaridan biri “O‘z vijdon-vujudima xitob” deb nomlangan. Muxammas shaklida yozilgan ushbu she’rning bosh g‘oya va maslagi o‘zini xalqning hur va ozodligi yo‘liga baxshida etish, xalqiga, Vataniga bir umr xizmat qilishga intilish:

Ey qo‘lim pul tutma, hech millatga yordamlashmasang,
Bo‘lma xushnud ey dilim millat g‘amin g‘amlashmasang.
Ravshan o‘lma, ey ko‘zim yoshing to‘kub namlashmasang,
Fikrim ochilma agar she’ring yozib hamlashmasang,
Chiq ichimdan jonim ey san mango hamdamlashmasang...

Tavallo she’rlarida “Turon” (“Ko‘rasiz Turon eli, Qarsda musulmon-lar-dur...”, “Yordam etmak kuni etdi aza Turon ahl...,”, “Yosh-qari qadrini bil, Turon elin mehmonidur”), “Turkiston” (“Bahora do‘ndi Turkiston, ochildi g‘unchalar xandon,..”, “Shuncha Turkiston elinda nodon ahli ko‘b vale,..”) atamalari, tabiiyki, ko‘p uchraydi.

Tavallo xalq hayotini ro‘y-rost ko‘rsatishda she’r, shoir zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi:

Kel, Tavallo, bo‘l musavvir, ol qalamni qo‘lg‘a san,
Chek frontlar suvratin, ko‘rsun hama naqqoshlar.

Shoir ijodida hurriyat mavzusiga keng o‘rin berilgan. U inson erkini hamma narsadan ustun qo'yadi. Shoir xotin-qizlar hurriyatiga keng e'tibor berdi. Uning mazluma xotin-qizlarni haq-huquqlarini tahqir etuvchi qonun-qoidalarga qarshiligi tayin. Masalan, “Qarindosh va hamshiralarimiz mazluma qizlar tilindan” she`rida qizlar otalariga murojaat qilishib, ularni ham o'qitishni, ular ham ilmga tashna ekanligini, ularga ham insoniy munosabatda bo‘lish istagini sodda va samimiy ifoda etadi:

Atolar, ko‘rsating yo’l bizga ham ilmu sanoatdin,
O‘qutung, qutqaring bechora qizlarni halokatdin,
Soling har yerga maktab, qo‘l yig’ing bug‘zu adovatdin,
Zarurdur ilm o‘qutmoq bizlara har qaysi bobatdin,
Kelingiz, foydasi yo‘q sizlara to‘yu ziyofatdin.

Shoirning bir qator she’rlari davr yangiliklari voqealari haqida. Chunonchi, “Oyna” jurnali, “Sadoyi Turkiston” gazetasining chiqishi, Ismoilbek Gasprinskiyning vafoti, Birinchi jahon urushi va u bilan bog‘-liq voqealar Tavalloning diqqatidan chetda qolgan emas. O‘zbek teatri va uning faoliyati haqida 4 ta she’r yozgan. Shulardan biri Behbudiyning “Padarkash” dramasining ilk sahnasi haqida.

Tavalloning “Ravnaqul islom” to‘plamidagi she’rlari ana shunday keng qamrovli. She’rlar aruzda yozilgan bo‘Isa-da, ruh va mazmunda barmoq vazniga hamohang. Shoir barmoqqa 20-yillarda hajviyalarida murojaat qildi va bu davr o‘zbek hajviy she’riyatining puxta namunalarini yaratdi.

Jadid she’riyatida Sidqiy Xondayliqiyning ijtimoiy-siyosiy she’rlari esa davrning muhim voqealari tasvirlangan. Masalan, “Muhoraba” she’ri 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi haqidadir. Shoir uning oddiy xalq boshiga keltirgan fojialaridan kuyunadi, raiyyat tomonida turib, muhoraba haybarakallachilarni la’natlaydi:

Keldi zamona ahlini hayron muhoraba,
Har go‘sha ichra ayladi giryon muhoraba,
Tang ayladi-yu, qildi bag‘ri qon muhoraba,
Girmon qirilsun aylaman e’lon muhoraba,
Bolqon ham o‘lsun etmayin e’lon muhoraba,

Bundan tashqari, shoirning “Nuqta ermas xatdagi ko‘zdin to‘kulgan yosh erur”, “Yo Rab, na yanglig‘ erdi bu baxti qaro mango” deb boshlanuvchi va “Ehtiyoj” radifli she’rlarida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar ilgari surilgan bo‘lib, bularda Sidqiyning shaxsiy noroziligi umumnorozilik darajasigacha ko‘tarilgan.

Sidqiyning bu kabi ijtimoiy mazmunga ega bo’lgan she’rlarida lirik qahramon davr, ijtimoiy muhit mahsuli sanaladi. Shuning uchun lirik qahramonning qarashlari muayyan muhit bilan chambarchas bog’langan.

Shoir she’riyatida hayotiy ruhning ustuvorligi mardikorlik voqeasi bilan bog’liq she’rlarida ham yaqqol seziladi. Mardikorlik voqeasi shoir Sidqiy ijodiga ham ta’sir qildi va asarlarida o‘z ifodasini topdi. Uning “Rabotchiylar namoyishi” asari shu munosabat bilan yaratildi. Unda “Rangimiz sinuq, holimiz zabun, bo‘ldi ham bila qadimiz duto” misralari borki, ular aynan mehnatkash xalqning tilidan aytilgandek jaranglaydi. Mardikorlarning o‘z yurtlariga qaytib kelishlariga bag‘ishlab “Rabotchilar kelishi” asarini yozdi.

Shoir yoshlarga alohida e’tibor beradi. Yangicha qarashlar bilan chiqqan yoshlarga ko‘pchilikning diqqatini tortmoqchi bo‘ladi. Uning “Toza hurriyat”ga kirgan she’rlaridan biri “Yashasun yoshlar” deb nomlangan. Shoir unda “Hozirgi namoyishchi taraqqiyparvar Toshkand yoshlari haqida” deb izoh bergan. Shoir yoshlarning urug‘chilik, mahalliychilik ayirmalaridan holi, umumturk, umuminsoniy tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshganliklarini, erkparvar, elparvar avlod ekanliklarini ta’kidlaydi.

S.Xondayliqiy mehnatsevarlik, halollik kabi sifatlarga ega bo‘lgan insonlarni ulug’lagan:

Barcha el qahramoni mehnatkash,
Balki onlarni joni mehnatkash

Shoir she’riyatida tabiat tasvirini ifodalovchi she’rlar ham bor:

O‘rgulay men bo‘yla kelgan maqdamingdan, ey bahor,
Murdaga jon bergan Isodek damingdan, ey, bahor

“Rusiya inqilobi” dostoni haqida. Sidqiyning *“Rusiya inqilobi”* dostoni o‘ziga xos original asardir. Uning hajmi ham anchagina katta, 1502 satrdan iborat bo‘lib, shundan 72 misrasi fors-tojik tilida, qolgan 1430 misrasi esa o‘zbek tilida bitilgan. Asar hajm jihatidan bir-biridan farqlanuvchi 13 bobdan iborat. Yillar davomida ezilib kelgan Turkiston xalqlarining taraqqiyot sari qo‘yilgan dastlabki qadamlaridan biri sifatida shoir bu inqilobga katta umidlar bilan qaraydi. Asarda o‘z insoniy huquqi va qadrini talab qilib chiqqan begunoh kishilarning o‘qqa tutilishi tasvirini shoir g‘oyat achinish bilan tasvirlaydi:

Falak uzra yuzlandi sonsiz suron,
Der edingiz yiqildi magar osmon,
Bo‘lub nechaning ro‘zg‘ori qaro,
Ajal ilkida bo‘ldi umri ado.
Chidolmay munga yiglab el hoy, hoy,
Der ediki, rahm aylagil ey Xudoy.

Dostonda mardikorlik voqealarining tasvirlari berilgan, bundan tashqari yana aytish zarurki, shoir mardikorlikka olishni inson huquqlarining paymol qilinishi bilan tengligini uqtirib o‘tadi:

Na bor erdi fannon aro muhlati,
Na bor erdi anda haqi-xizmati.

Har bir bob juda chiroyli nomlar bilan boshlanadi. Masalan, dostondagi eng yirik boblardan biri 314 misradan iborat bo‘lib, u shunday nomlanadi: “Xoin, zolim eski amaldorlardan faryodi tazallum”. Mazkur bobda milliy zulm haqida shoir iztirob bilan fikrlar aytadi:

Ayog‘ ostida ayladi poymol,
Nechukkim yotar mol tagida poxol.

Bir so‘z bilan aytganda, “Rusiya inqilobi” asarida ozodlik kurashi bu sinfiy kurashdir, qurolli qo‘zg‘olon esa uning asosiy shartidir degan fikrlarni ilgari suradi:

Butun dunyoda hurriyatchi aro,
Bu so‘ z bor erur anglangiz, ey og‘o.

Hurriyat olinmas hech imkon ila,
Magar olsa mumkin erur qon ila.

Arab, fors tillarini yaxshi bilgan shoir tarjima bilan ham jiddiy shug‘ullanadi. Masalan, u mashhur “Ming bir kecha”ni, Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston”ini, o‘nlab hikoya va latifalarni tarjima qilgan.

Shoirning lirik she’rlarida mumtoz adabiyotimiz an’analarini davom ettiradi, ammo uning ijodiyotida demokratik ruh va ma’rifatparvarlik boshqa mavzulardan ko‘ra etakchi mavqeda turadi. Quyidagi she’riy parcha fikrimizni tasdiqlaydi:

Burqani olib yuzdin oy kabi duraxshon qil,
El qizini husningga o‘yla nargiziston qil,
Qad chekib, hirom aylab, savrlarni yakson qil,
Subhidan kirib jono, bog‘ ichida javlon qil,
Domaning nasimidin g‘unchalarni handon qil.

Ijtimoiy-siyosiy she’rlari esa davrning muhim voqealari tasvirlangan. Masalan, “Muhoraba” she’ri 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi haqidadir. Shoir uning oddiy xalq boshiga keltirgan fojialaridan kuyunadi, raiyyat tomonida turib, muhoraba haybarakallachilarni la’natlaydi:

Keldi zamona ahlini hayron muhoraba,
Har go‘sha ichra ayladi giryon muhoraba,
Tang ayladi-yu, qildi bag‘ri qon muhoraba,
Girmon qirilsun aylaman e’lon muhoraba,
Bolqon ham o‘lsun etmayin e’lon muhoraba,

Bundan tashqari, shoirning “Nuqta ermas xatdagi ko‘zdin to‘kulgan yosh erur”, “Yo Rab, na yanglig‘ erdi bu baxti qaro mango” deb boshlanuvchi va “Ehtiyoj” radifli she’rlarida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar ilgari surilgan bo‘lib, bularda Sidqiyning shaxsiy noroziligi umumnorozilik darajasigacha ko‘tarilgan.

Sidqiyning bu kabi ijtimoiy mazmunga ega bo’lgan she’rlarida lirik qahramon davr, ijtimoiy muhit mahsuli sanaladi. Shuning uchun lirik qahramonning qarashlari muayyan muhit bilan chambarchas bog’langan.

Shoir she’riyatida hayotiy ruhning ustuvorligi mardikorlik voqeasi bilan bog’liq she’rlarida ham yaqqol seziladi. Mardikorlik voqeasi shoir Sidqiy ijodiga ham ta’sir qildi va asarlarida o‘z ifodasini topdi. Uning “Rabotchiylar namoyishi” asari shu munosabat bilan yaratildi. Unda “Rangimiz sinuq, holimiz zabun, bo‘ldi ham bila qadimiz duto” misralari borki, ular aynan mehnatkash xalqning tilidan aytilgandek

jaranglaydi. Mardikorlarning o‘z yurtlariga qaytib kelishlariga bag‘ishlab “Rabotchilar kelishi” asarini yozdi.

Shoir yoshlarga alohida e’tibor beradi. Yangicha qarashlar bilan chiqqan yoshlarga ko‘pchilikning diqqatini tortmoqchi bo‘ladi. Uning “Toza hurriyat”ga kirgan she’rlaridan biri “Yashasun yoshlar” deb nomlangan. Shoir unda “Hozirgi namoyishchi taraqqiyparvar Toshkand yoshlari haqida” deb izoh bergan. Shoir yoshlarning urug‘chilik, mahalliychilik ayirmalaridan holi, umumturk, umuminsoniy tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshganliklarini, erkparvar, elparvar avlod ekanliklarini ta’kidlaydi.

S.Xondayliqiy mehnatsevarlik, halollik kabi sifatlarga ega bo‘lgan insonlarni ulug’lagan:

Barcha el qahramoni mehnatkash,
Balki onlarni joni mehnatkash

Shoir she’riyatida tabiat tasvirini ifodalovchi she’rlar ham bor:

O‘rgulay men bo‘yla kelgan maqdamingdan, ey bahor,
Murdaga jon bergan Isodek damingdan, ey, bahor

Адабиётлар:

1. “Таржимон” , 1884 йил, 11-сон.
2. “Тасвири афкор”, 1908 йил, 27 июлғ.
3. “Шўро” журнали, 1909 йил, май.
4. “Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1927 йил, 7 июнғ.
5. Исмаил бей Гаспринский (Гаспрали). Из наследия: Русское мусулғманство. Симферополғ, 1991, стр. 29.
6. “Таржимон”, 1906, 18 декабрғ.
7. “Туркистон вилоятининг газети”, 1898, 14 август.
8. Исмаил бей Гаспринский. Из наследия, стр. 24.
9. Исмаил бей Гаспринский. Из наследия, стр. 49.
10. Какие главне принципқ должнқ бқтғ положенқ в основу образования И народцев-мусулман? «Туркестанский сборник», том 361, стр. 142.
11. Қаранг: И.Гаспринскийнинг ушбу мактуби тарихчи олим С.Холбоев томонидан ўзбек тилига ўгирилиб, “Гулистон” журналининг 1995 йил 2-сонида эҳлон қилинган.
12. Протокол заседания собрания учителей городских училиў

Туркестанского края (30 декабря 1883 – 3 января 1884). Т.: 1884.Стр. 17.
13. Lazzerini E. Ismail Bey Gasprinskiy and Muslim modernism in Russia, 1878
14. Universiti of Washington, Ph. D, 1973, p. 31.
14. “Таржимон”, 1912, 30 июлғ.
15. Мусулманские депутат Государственной Думқ России 1906 -1917 г.г. Уфа, «Китап», 1998. стр. 120.

Xorijiy manbalar

1. Исмаилбей Гаспринский (Гаспрали). Из наследия: Русское мусулғманство. Симферополғ, 1991, стр. 29.
2. И.Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Т.: Маҳнавият, 2006.
3. Гаспринский И. Наёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. –Т.: Ма`навият, 2006.
4. Какие главнқе принципқ должнқ бқтғ положенқ в основу образования и народцев-мусулман? «Туркестанский сборник», том 361, стр. Протокол заседания собрания учителей городских училиў Туркестанского края (30 декабря 1883 – 3 января 1884). Т.: 1884.Стр.
5. Lazzerini E. Ismail Bey Gasprinskiy and Muslim modernism in Russia, 1878 /1814. Universiti of Washington, Ph. D, 1973, p. 31.
6. Мусулғманские депутатқ Государственной Думқ России 1906 -1917 г.г.Уфа, «Китап», 1998. стр. 120.
7. Allworth Edward. Uzbek literary politics. London – Paris, 1964
8. www.ен.wикипедиа.орг/wики/Структурализм
9. Davlat Nodir. 1905-1917 yillari arasinda Rusiya Turklarinin Milli Mucadalsi Tarihi Anqara-1985
10. Prof. Dr. A. Ahat Andican. Cedidizmden Bagimsizliga Haricte Turkistan Micadelesi. Istanbul – 2003

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAVZU.LARI

Magistrantlar seminar mashg‘ulotlarida jadidchilik harakati namoyandalari asarlarini o‘rganadilar. Shu davr bo‘yicha nazariy va amaliy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. O‘zlashtirilgan ma’lumot asosida jadid adabiyoti tarixi borasida tushunchaga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Xonliklar davri va Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti

Mustamlakaning ilk davralarida mamlakatda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Xonliklar, Chor Rossiyasi va Turkiston general gubernatorligining ijtimoiy jabhalar, xususan, adabiyotdagi in’ikosi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;Q2;Q3;Q8;Q11;Q12;Q14;Q15;Q16;Q18;Q19;Q20;Q21; Q23;Q24;Q25;Q26;Q27;.

Ma’rifatparvarlik jadidchilik harakatidan oldingi ijtimoiy bosqich

X1X asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi tarixiy sharoit. Ijtimoiy hayot va badiiy adabiyotning o‘zaro ta’siri. Bu davr adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari.

Mashg'ulot shakli:	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti

Mashg'ilot rejasi:	1. Jadidchilik va milliy istiqlol g'oyasi 2. Jadid adabiyoti davrida yaratilgan asarlarga qo'yilgan asosiy talablar. 3. Sof san'at tushunchasining o'z o'rnini ijtimoiy, dolzarb adabiyotga bo'shatib bergani. 4. Jadidchilik g'oyalarining hozirgi kundagi ahamiyati
O'quv mashg'ilotining maqsadi:	Talabalar bilimini chustahkamlash va baholash. Bu seminar mashg'uloti jarayonida savollar va muammolar asosida suhbat o'tkaziladi. Mazkur darsda «aqliy hujum» usulini ham qo'llash va test yechish mumkin.
Pedagogik vazifalar mavzu. bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustaxkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.	**Oquv faoliyati natijalari** Talaba: Mavzu. rejalari asosida ma'lumot beradi;
Ta'lim berish usullari: pedagogik texnologiyaning interaktiv vositalari	Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, « doston » So'ziga klaster, munozara Talabalar faoliyatini optimal loyixalashga erishiladi
Ta'lim berish shakli: vizualizatsiya, og'zaki bayon	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish. Talabalarda ko'rish hamda tinglash ko'nikmasini shakllantiradi
Ta'lim berish vositalari: axborot texnologiyalari, kitob, internet ma'lumotlari, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar. Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proektor, doska	.Talabalarda tahlily, tanqidiy va amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi
Ta'lim berish sharoiti: davra suhbati	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya. Talabalarda o'zini erkin tutish, kuzatish, tinglash ro'nikmalarini shakllantiradi

Monitoring va baholash:	Talabalarning faolligini inobatga olish ularda ishonch tuyg'usini rivojlantiradi

seminar mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar,	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. Mavzu.ni, mashg'ulot maqsadini, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishini ma'lum qiladi. 1.2. Davra suhbati uchun quyidagi savollar bilan mujoaat qiladi: 1. Jadidchilik va milliy istiqlol g'oyasining o'zaro aloqasi haqida mulohazalaringiz? 2. Jadidchilik g'oyalarining hozirgi kundagi ahamiyati haqida gapiring	1.1. Mavzu.ni yozadi va savollarga javob beradi.
2-bosqich asosiy (60 min)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarrini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi.Guruhda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobini sharhlaydi, xulosalarga	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollarga javob beradi. 2.3. Javoblarni to'ldiradi. 2.4. Jadval ustunlarini toldiradi va muhokomada ishtirok etadi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish: Adabiyotlar bilan tanishing,	3.1. eshitadilar. 3.2 Topshiriqni oladilar.

Badiiy adabiyotlar:

1. “Tarjimon” , 1884 yil, 11-son.
2. “Tasviri afkor”, 1908 yil, 27 iyul.
3. “Sho‘ro” jurnali, 1909 yil, may.
4. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1927 yil, 7 iyun.
5. Ismail bey Gasprinskiy (Gasprali). Iz naslediya: Russkoe musulmanstvo. Simferopol, 1991, str. 29.
6. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari. –T.: Sharq, 1994.
7. Yunusov M. Komil Xorazmiy. –T., O‘zadabiynashr. 1960.
8. Jumaxo‘ja Nasrullo. Feruz-madaniyat va san’at homiysi. –T.: Fan, 1995.
9. I.Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 2006.
10. A. Qodiriy . “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”
11. Cho‘lpon.”Kecha va kunduz”
12. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 3-jild, T.: Ma’naviyat, 2003,

Glossariy

“Adabiyot” - arabcha so‘z bo‘lib, u “odob” (ko‘plik shakli “adab”) so‘zidan olingan.

“Adabiyotshunoslik” - so‘zi ham ikki qismdan iborat bo‘lib, u “adabiyot bilan shug‘ullanish”, “adabiyotni o‘rganish” ma’nosini anglatadi. Bundan ayon bo‘ladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandir.

“Absurd adabiyot” – XX asrda Yevropada paydo bo‘lgan modernizmga doir adabiy oqim.

“Adabiyot nazariyasi” - adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog‘liqlikni, so‘z san’atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo‘nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o‘rganadi.

“Apokaliptik adabiyot” – insoniyatning kelajagi haqida, xususan, dunyoning inqirozi haqidagi qarashlarni talqin etuvchi adabiyot.

“Jahon adabiyotida adabiy tanqidiy tafakkur” - joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning g‘oyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo‘layotgan o‘zgarish, yo‘nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta’siri haqida fikr bildiradi.

“Jahon adabiyoti tarixi” – jahon xalqlari adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o‘rganadi.

“Jahon adabiyoti tushunchasini belgilovchi mezonlar” – umuminsoniylik, milliylik, individuallik.

“Filologiya” - grekcha so‘z bo‘lib, philo - *sevaman*, logos - *so‘z, bilim* demakdir.

“Obraz” - so‘zning o‘zagi “raz” (chiziq) bo‘lib, undan “razit”(chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq), undan “obrazit”(chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq) paydo bo‘lgan. Ana shu “obrazit” so‘zidan “obraz” atamasi vujudga kelgan. Bu so‘z “umuman olingan tasvir” ma’nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o‘zida gavdalantirgan hodisadir.

“Badiiylik” - hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta’sirlantiradigan, unda tasavvur uyg‘otadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha san’at turlariga xos hodisa.
“Badiiy to‘qima” - obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o‘ylab topishdir.
“Realistik obrazlar” - xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar.
“Romantik obrazlar” - ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to‘g‘risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo‘ladi.
“Xayoliy-fantastik obrazlar” - romantik obrazlarga o‘xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo‘ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo‘’jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko‘rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin.
“Majoziy obrazlar” - muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so‘fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.
“Allegorik obrazlar” - majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo‘ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe’l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko‘rsatiladi.
“Xarakter” - o‘z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o‘y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe’l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to‘laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo‘la olmaydi. Asardagi yetakchi qahramon har jihatdan faol bo‘lsa, o‘zining barcha jihatlari bilan yorqin ko‘rinib tursagina u badiiy xarakter bo‘la oladi.
“Personaj” - badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko‘tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.
Kosmogonik mif – samoviy jismlarning paydo bo‘lishi haqidagi miflar.
Antropologik mif – odamning yaratilishi haqidagi miflar.
“Shakl va mazmun” - voqea-hodisalarning tashqi ko‘rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.
“Mavzu.” - ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzu.sidir.
“G‘oya” - ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma’lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa**.**
“Konflikt” - lotincha conflictus degan so‘z bo‘lib, “to‘qnashish” degan ma’noni bildiradi. Ziddiyat, to‘qnashuv hayot taraqqiyotini ta’minlovchi asos bo‘lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo‘lishining yetakchi vositasidir.
Klassitsizm – aniq qonun-qoidaga asoslanuvchi, an’anaviylikni asos qilib olgan adabiy oqim. Yevropada 17-asrdan boshlab rasman maydonga chiqqan.

“Kompozitsiya” - lotincha compositio so‘z bo‘lib, “tuzilish, qurilish, tarkib” demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga quyidagicha ta’rif-tavsif berish keng tarqalgan: “badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma’lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi”.

“Syujet” - fransuzcha sujet so‘z bo‘lib, “narsa, mazmun, mavzu.” degan ma’noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.

Sentimental adabiyot – mohiyatida voqelikni hissiy talqin qilish turuvchi 18-asrda Angliyada paydo bo‘lgan adabiy oqim.

“Fabula” - lotincha fabula so‘z bo‘lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo‘lgan hayotiy material nazarda tutiladi. “Fabula — asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog‘liqlikdagi yaxlit silsilasi” ham deyiladi. O‘z ma’no va mohiyatiga ko‘ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo‘lib, hozirgi adabiyotshunoslikda **syujet** termini faol qo‘llaniladi. **Fabula** termini esa asta-sekin iste’moldan tushib qolmoqda”.

“Ekspozitsiya” - lotincha expositio so‘z bo‘lib, “tushuntirish” degan ma’noni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-o‘sgan muhit shart-sharoiti kabilar tasviri ekspozitsiya deb yuritiladi. Ekspozitsiya asarning istalgan o‘rnida bo‘lishi mumkin.

Tugun - badiiy asarda qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo‘lishi. Tugun, ko‘pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo‘ladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o‘rtasida emas, qahramonning aynan o‘zining o‘y-kechinmalari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Voqea rivoji - syujetdagi voqealarning ma’lum tugundan so‘nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to‘satdan yuzaga kelganday bo‘lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.

Perepetiya - syujet voqealari rivoji davomida paydo bo‘lgan yangi tugunlar yoki chigalliklar.

Voqealar kulminatsiyasi - asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko‘tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko‘rsatadigan epizod. Ye**chim** - syujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo‘lishini gavdalantiruvchi epizod.

Muqaddima - muallif o‘quvchiga o‘z maqsad-muddaosini ma’lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.

Xotima - qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma’lumot beruvchi qismi.

Portret - fransuzcha portrait so‘z bo‘lib, “tasvir” degan ma’noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo‘ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o‘ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo‘lgan qahramon qiyofa, ko‘rinishini albatta gavdalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko‘rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o‘zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo‘ladi.

Detal - ijodkor e’tiborni qaratgan personajlar ko‘rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to‘g‘risida

ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa detallar asosida hosil bo‘ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe’l-atvorini ko‘rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo‘ladi.

Kulteranizm – 17-asr Ispaniya adabiy muhitida maydonga kelgan adabiy oqim. Antik Yunon madaniyatini ideallashtirish, san’atda noziklik va jimjimadorlikni targ‘ib etish ushbu adabiyotning muhim xususiyati sanaldadi.

Lirik chekinish - ijodkorning syujet voqealarini to‘xtatib, ular tufayli o‘zida paydo bo‘lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.

Peyzaj - fransuzcha paysage so‘z bo‘lib, “mamlakat”, “joy” degan ma’noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

Sayyor syujet - bir xil mavzu., bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor syujet barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa.

Badiiy asar tili - adabiy til me’yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan **tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm** kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Dialog - yunoncha dialogos so‘z bo‘lib, “ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv” degan ma’noni anglatadi.

Monolog - ham yunoncha (monos — bir va logos — so‘z, nutq) so‘z bo‘lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

Jargon - fransuzcha jargon so‘z bo‘lib, “buzilgan til” degan ma’noni bildiradi. Binobarin, jargon sun’iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo‘llanadi. Jargon so‘zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so‘z, iboralardan tarkib topgan bo‘ladi.

Metafora - yunoncha metaphora so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma’noni anglatadi. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi. Biroq metafora aynan o‘xshatish emas.

Metonimiya - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha metonomadzo so‘z bo‘lib, “qayta nomlash”dir.

Sinekdoxa - yunoncha synekdoche so‘z bo‘lib, unda bir qism yoki bo‘lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya’ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo‘lagi haqida mulohaza yuritiladi.

Allegoriya(majoz) - yunoncha allos — boshqa, o‘zga va agoreuo — gapiraman, demakdir. U ertak va masallarda, ayniqsa, keng qo‘llanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda tutiladi. Chumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng o‘ng‘ay shakli hisoblanadi

Jonlantirish - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘-tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

Sifatlash - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta’kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

O‘xshatish - narsa-buyumning ma’lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

Mubolag‘a narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.

Intonatsiya - lotincha intonare so‘z bo‘lib, “qattiq talaffuz etish” degan ma’noni bildiradi. U so‘zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

Parallelizm - ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo‘yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo‘l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta’sirchanligi kuchaytiriladi.

Takror - parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko‘rinib turadi. Chunki takror ayrim so‘z, iboralarning ma’lum bir tartib asosida qayta-qayta qo‘llanishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo‘llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko‘rinishlari bor.

Anafora - yunoncha anaphor so‘z bo‘lib, “yuqoriga ko‘tarilish” degan ma’noni bildiradi. Bunda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi she’r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

Inversiya - lotincha inversi so‘z bo‘lib, “o‘rin almashtirish” degan ma’noni bildiradi. Bunda gap bo‘laklari grammatika me’yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo‘llanadi. Inversiya ta’kidlanmoqchi bo‘lgan fikrga mantiqiy urg‘u berish, uni kuchaytirish, ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadi.

Antiteza - fikr ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Ritorik murojaat - tantanavorlik, ko‘tarinkilik yoki kesatish, kuchli g‘azab, nafratni ifodalash uchun qo‘llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir.

Rapsod – yunoncha baxshi, doston aytuvchi, qo‘shiqchi ma’nosini bildiradi.

Ritorik – notiqlikdan dars beruvchi muallim.

Ritor – notiqlik san’atini egallagan mutaxassis, notiq.

Sillabik she’r tizimi - bo‘g‘inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalq she’riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she’riyati ham sillabik she’r tizimiga mansubdir.

Metrik she’r tizimi - esa bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she’riyati shunday xususiyatga ega.

Mif – obrazli tafakkurning ilk shakli. Ilohiy axborotlarning insoniyat tomonidan qayta talqin etilgan (buzilgan) namunasi.

Sillabo-tonik she’r tizimi - bo‘lsa, urg‘uli, urg‘usiz bo‘g‘inlarning ma’lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she’riyati shundaydir.

Tonik she’r tizimi - misralarda urg‘usiz bo‘g‘in qancha bo‘lishidan qat’i nazar, ritm hosil bo‘lishi, urg‘ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.
Tipologik yondashuv – jahon adabiyoti namunalarining syujet, obraz, badiiy g‘oya nuqtai nazaridan o‘rganilishi.
Epos – jahon xalqlarining milliy, umuminsoniy, badiiy-estetik qarashlari aks etgan folklor namunasi.
Ekzistensializm - modernizm falsafasi negizida XX asrda shakllangan falsafiy-badiiy oqim. Ekzistensiya – mafjudlik demakdir.

Referat mavzu.lari

1. Jadidchilik va milliy matbuot.
2. “Oyna” va “Al-Isloh” jurnallarida adabiyot materiallari.
3. Matbuotdagi mahs-munozaralar.
4. Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida ijtimoiy hayot.
5. Muqimiy ijodida ijtimoiy turmush manzarasining aks etishi.
6. Furqat ijodini o‘rganish muammolari.
7. Adabiy maktablarning ma’rifatparvarlik adabiyotida tutgan o‘rni.
8. Mustaqillik davri hamzashunosligi.
9. Hamza ijodi: lirikasi, nasri va dramaturgiyasi.
10. Jadid she’riyatining xos xususiyatlari.
11. Cho‘lpon she’rlarining mavzu. doirasi, tanlangan so‘z o‘zgachaligi va
12. vazn tafovuti.
13. Cho‘lponning nasriy asarlari.
14. Jadid maktablari.
15. A.Avloniy va jadid adabiyotida ijtimoiy-estetik ideal muammosi.
16. Jadid nasrining o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni.
17. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida jadidchilik unsurlari.
18. “Padarkush” va o‘zbek dramaturgiyasining rivojlanish tamoyillari.
19. Fitrat dramalarida tarixiy jarayon in’ikosi.
20. Fitrat asarlaridagi e’tiqod o‘zgachaliklari.

Adabiyotlar ro‘yxati
1.Асосий адабиётлар.

1. Каримов И. Юксак маҳнавият – енгилмас куч.-Тошкент: Маҳнавият, 2008.
2. Каримов И. Адабиётга эҳтибор – маҳнавиятга, келажакка эҳтибор//ЎзАС., 2009, 3 июлғ.
3. Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. -Т.: Университет, 1993.
4. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. –Т.: Адабиёт ва санҳат, 1984.
5. Қосимов Б., Долимов У. Маҳрифат дарғалари. Т.: Ўқитувчи, 1990.
6. Қосимов Б. Миллий уйғониш: маҳрифат, жасорат, фидойилик. –Т.: Маҳнавият, 2002.
7. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маҳнавият, 2004.
8. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т., "Ўқитувчи" нашриёти. 1999.
9. С. Содиқ. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. Т., "Университет", 2005.
10. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. –Т., 1999.
11. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. –Т., 2003.
12. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 1970.
13. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. –Т.: Шарқ, 1997.
14. Жабборов Н. Ватан иштиёқин тортарам. // Тафаккур, 2002, 1-сон, 48-57-бетлар.
15. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. Истиқлол фидойилари. –Т.: Шарқ, 1994.
16. Ш. Ризаев, Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997.
17. Б. Қосимов. Излай-излай топганим. –Т.: Адабиёт ва санҳат, 1983.
18. У. Норматов. Қодирий боғи. –Т., 1995.
19. Ҳ. Болтабоев. Фитрат ва жадидчилик. -Т., 2007.
20. Б. Каримов. Абдулла Қодирий. -Т., Фан, 2006.
21. У. Долимов. Туркистонда жадид мактаблари. -Т.: Университет, 2006.
22. Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. -Т.: Университет, 1993.
23. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маҳнавият, 2002.
24. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий таҳлим муассасалари талабалари учун дарслик. -Т.:Маҳнавият, 2005.
25. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. Т.:Университет, 2006.
26. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида.–Т.: Адабиёт ва санҳат, 1984.
27. Қосимов Б., Долимов У. Маҳрифат дарғалари. Т.: Ўқитувчи, 1990.
28. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. –Т., 2003.
29. Юнусов М. Комил Хоразмий. –Т., Ўзадабийнашр. 1960.
30. Жумахўжа Насрулло. Феруз-маданият ва санҳат ҳомийси. –Т.: Фан, 1995.

31.Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 1970.
32.Тўлабоев О., Каримбек Камий, Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 4-сон.
33.Ғ. Каримов. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. –Т., 1975.
34.С. Аҳмедов. Ўзбек демократик адабиётида шеҳрий ҳикоя. –Т., 1987.
35.Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. –Т.: Шарқ, 1997.
36.Жабборов Н. Фурқат мероси ва Хитой манбалари. // Шарқ юлдузи. 2001. Иккинчи фасл, 121-127-бетлар.
37.Ҳ. Болтабоев XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида драматургия. –Т., 1993.
38.М. Қўшжонов. Ўзбекнинг ўзлиги. –Т., 1994.
39.У. Норматов. Қодирий боғи. –Т., 1995.
40.О. Шарафиддинов. Чўлпонни англаш. –Т.: Хазина, 1994.
41.Н. Каримов. Чўлпон. –Т.: Фан, 2004.
42.И.Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Т.: Маҳнавият, 2006.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди

№ MD5A120101-2.6
MD5A120104-2.5
2012 йил "14" 03

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2012 йил "14" Март даги "107"-сонли буйруғи билан тасдикланган

ЖАДИД АДАБИЁТИ ТАРИХИ

фанидан

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Билим соҳаси:	100000	– Гуманитар соҳа
Таълим соҳаси:	120000	– Гуманитар фанлар
Мутахассислик:	5А120101	– Адабиётшунослик (тиллар ва тадқиқот йўналишлари бўйича)
	5А120104	– Шарқ мумтоз адабиёти манбашунослиги ва матншунослиги

Тошкент - 2012

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2012 йил “6” мартдаги “1” -сон мажлис баёни билан маъқулланган.

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Жабборов Н. - Матншунослик, миллий уйғониш ва ҳозирги ўзбек адабиёти кафедраси профессори, филология фанлари доктори

Амонов Ш. - Матншунослик, миллий уйғониш ва ҳозирги ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси, филология фанлари номзоди

Тақризчилар:

Ҳасанов С. - ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи директори, филология фанлари доктори, профессор

Тўхлиев Б. - Низомий номидаги ТДПУ Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш услубияти кафедраси мудири, филология фанлари доктори, профессор

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий-методик кенгашида тавсия қилинган (2011 йил “25” 10 даги “2” -сонли баённома).

Кириш

“Жадид адабиёти тарихи” фанини ўқитишнинг мақсад ва вазифалари. Фанни ўқитишдан кузатилган асосий мақсад – юқори малакали матншунослар тайёрлаш эканлиги. Фаннинг моҳияти, текшириш объекти ва аҳамияти. Предметни ўқитишнинг замонавий методлари.

Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари

Фаннинг мақсади-магистрантларда “Жадид адабиёти тарихи” бўйича билим, малака ва кўникма ҳосил қилиш, уларни миллий истиқлол ғояси руҳида тарбиялаш ҳамда келажакда илмий фаолият билан шуғулланишлари учун замин ҳозирлашдан иборат.

“Жадид адабиёти тарихи” фанининг **вазифалари** магистрантларда шу фаннинг асосий масалалари, мавзулари, хулосалари, умумлашмалари ҳақида тасаввур туғдириш, уларни бадиий асар таҳлилига ўргатишдан иборат.

Фан бўйича талабаларнинг билими, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар

“Жадид адабиёти тарихи” фани бўйича магистрант қуйидагиларни ***билиши керак:***

- жадид адабиёти тарихини даврлаштириш тамойиллари;
- жадид адабиёти тарихини илмий ўрганиш босқичлари;
- жадидчиликнинг мамлакатимиз ва хорижда ўрганилиши;
- жадид адабиётини тадқиқ этишнинг долзарб масалалалари;
- жадид адабиёти тарихини ўрганишнинг назарий муаммолари.

“Жадид адабиёти тарихи” фани бўйича магистрант қуйидаги ***кўникмаларни эгаллаган бўлиши керак:***

- бадиий асарни мустақил ўқиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш;
- жадид адабиёти тарихи бўйича умумлашмалар чиқариш.

“Жадид адабиёти тарихи” фани бўйича магистрант қуйидаги ***малакаларга эга бўлиши керак:***

- жадид адабиёти намуналарини ўқиш ва тўғри баҳо бера олиш;
- шу давр адабиётининг хос хусусиятлари ҳақида тасаввурга эга бўлиш.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвий кетма-кетлиги

“Жадид адабиёти тарихи” фани адабиётшуносликнинг таркибий қисми ҳисобланади. “Жадид адабиёти тарихи” предмети тарих, фалсафа, адабиёт назарияси фанлари билан чамбарчас боғлиқ.

Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни

Олий ўқув юртларида филологик таълимни йўлга қўйишда ушбу фан муҳим аҳамият касб этади. “Жадид адабиёти тарихи” фанини тўлиқ ўзлаштириш нафақат таълим тизими, балки магистрантнинг мустақил илмий тадқиқот олиб бориши учун замин ҳозирлайди.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

“Жадид адабиёти тарихи” фани жадид адабиёти намояндаларининг илмий фаолияти ҳамда шу даврга оид асарларни ўрганишда ўша даврда ёзиб олинган плёнкаларни намойиш қилишда комьютерлар, интернет, мавзуга оид слайд маълумотларидан кенг фойдаланади.

Асосий қисм

Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни

Туркистон ўлкаси истилоси ва унинг бадиий адабиётда акс этиши

Мустамлаканинг илк давраларида мамлакатда содир бўлган ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Хонликлар, Чор Россияси ва Туркистон генерал губернаторлигининг ижтимоий жабҳалар, хусусан, адабиётдаги инъикоси.

Жадид адабиётининг манбалари, юзага келишининг ижтимоий-сиёсий ва адабий-эстетик омиллари

Х1Х аср охири – ХХ аср бошларида Туркистондаги тарихий шароит. Ижтимоий ҳаёт ва бадиий адабиётнинг ўзаро таъсири. Бу давр адабиёти шаклланишининг ижтимоий-сиёсий ва адабий-эстетик омиллари.

Жадидчилик ва жадид адабиётини илмий ўрганиш босқичлари

Жадидчилик ва жадид адабиётининг мамлакатимиз ва хорижда ўрганилиши: ютуқлар ва муаммолар. Бу давр адабиётини тадқиқ этишнинг босқичлари. Ҳар бир босқичнинг ўзига хос хусусиятлари.

Жадид адабиётини даврлаштириш тамойиллари. Ўзбек маърифатпарварлик адабиёти

Жадид адабиётини даврлаштириш масалалари. Даврлаштириш юзасидан илмдаги баҳслар. Маърифатпарварлик – ижтимоий ҳаракат тарзида. Маърифатпарварлик адабиёти тарихи, тадрижи. Маърифатпарварлик адабиёти жадид адабиётининг илк босқичи сифатида. Маърифатпарвар ижодкорлар (К. Хоразмий, Феруз, И. Ибрат, К. Камий ва ҳ.к.**)**.

Адабий мактаблар ва уларнинг ўлка ижтимоий, бадиий ҳаётида тутган ўрни

Қўқон адабий муҳити. Муқимий. Фурқат, фурқатшунослик тадрижи. Тошкент адабий муҳити ва Камий. Адабий мактабларни ўрганишнинг долзарб муаммолари.

XX аср бошидаги адабий баҳслар ва уларнинг адабий-эстетик тафаккур ривожидаги ўрни

“Ойна”, “Ал-Ислоҳ” журналлари, “Садои Туркистон”, “Садои Фарғона” газеталари ва бошқа матбуот нашрларидаги адабий баҳслар. Уларнинг адабий-эстетик тафаккур ривожига қўшган ҳиссаси.

Жадид адабиётида Шарқ ва Ғарб маданияти масалалари талқини

Жадид адабиёти намояндалари (И.Гаспрали, Фитрат, Чўлпон ва б.) ижодида Шарқ ва Ғарб маданиятига муносабатнинг акс этиши. Оврупо ва мусулмон маданиятига оид қарашлар тадрижи.

Жадид адабиёти: анъана ва янгилик уйғунлашуви

Жадид адиблари ижодида миллий хусусиятларнинг ғарбона шаклда берилиши; янги мавзуларнинг янги бадиий тасвир воситалар орқали ифодаланиши; кўникилган, анъанавий шаклда ўзгарган бадиий мақсаднинг намоён бўлиши.

Жадид адабиётида лирика

Ўзгарган шеърий талаблар, лирикада ижтимоий ҳаётнинг акс этиши. Лирик мавзулар доирасидаги сифат эврилишлари. Ижтимоий шеърият ва бармоқ вазнининг оммалашуви.

Жадид шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи

Жадид шеърияти миллий поэзиямизнинг ўзига хос босқичи сифатида. Жадид шеъриятининг мавзу кўлами, вазн ва жанр хусусиятлари, образлар олами.

Жадид адабиёти ва оқимлар

Шеъриятда бошланган ўзгаришларнинг насрда намоён бўлиши. Реализм, модернизм, структурализм тушунчаларининг истеъмолга кириб келиши ва жадид адибларининг уларга муносабати.

Жадид насри ва унинг поэтик хусусиятлари. Романлардаги ижтимоий ва миллий руҳ тасвири йўсинлари

Жадид насри. Роман ва унинг поэтикаси. Кичик насрий жанрлар тараққиёти масалалари. Жадид романларида ижтимоий ҳаёт, ундаги ўзгаришлар ва мазкур жараёнда ўзбек миллатининг ҳолатининг ҳаққоний акс этиши.

Жадид драмаси ва унинг поэтикаси масалалари

Драма: унинг шаклланиш ва тараққиёт босқичлари. Жадид драмаларининг поэтик хусусиятлари ва драма жанри ривожида тутган ўрни.

Драмаларнинг оммавий ва бадиий идрок йўсинига таъсири

Туркистондаги илк халқ томошалари. Театр труппалари, уларда саҳналаштирилган асарларнинг жамоатчиликка таъсири ҳамда адабиётдаги акс-садоси.

Жадидчилик ва адабий танқид шаклланиши ҳамда ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари

Адабий танқид янгича тафаккур ривожининг муҳим омили сифатида. И.Гаспринский, Беҳбудий, Вадуд Маҳмуд ва бошқа жадид ижодкорларининг адабий танқид тараққиётида тутган ўрни.

Ўзбек жадид адабиётида ижтимоий таҳлил

Жадид адабиёти даврида яратилган асарларга қўйилган асосий талаблар. Соф санъат тушунчасининг ўз ўрнини ижтимоий, долзарб адабиётга бўшатиб бергани.

Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Амалий машғулотлардан магистрантларнинг асарларни ўқиш, таҳлил қилиш бўйича кўникмалар ҳосил қилиши ва эришилган натижаларни келгуси илмий тадқиқотларида қўллай билиши назарда тутилади.

Амалий машғулотларни ўтказиш бўйича тавсия этиладиган тахминий мавзулар:

1. Жадид адабиёти юзага келишининг ижтимоий-сиёсий ва адабий-эстетик омилларига оид илмий адабиётларни ўрганиш.
2. Маърифатпарварлик ҳаракати, уни пайдо қилган омиллар ва тарихий вазият.
3. Ўзбек маърифатпарвар адабиёти тарихида Феруз ва К. Хоразмийлар ижодининг сиёсий ҳамда бадиий аҳамияти.
4. Туркистондаги ижтимоий, сиёсий, иқтисодий вазиятни тўғри баҳолашда адабий мактаблар ўрни. Муқимий ва Ибрат асарлари асосида.
5. Жадидчилик ва жадид адабиётини илмий ўрганиш босқичлари ва уни даврлаштириш юзасидан илмий асарлар билан танишиш.
6. XX аср бошидаги адабий баҳслар ва уларнинг адабий-эстетик тафаккур ривожидаги ўрни ҳақидаги илмий-назарий адабиётларни ўрганиш.
7. Жадид адабиётида Шарқ ва Ғарб маданияти масалалари талқин этилган илмий асарлар устида ишлаш.
8. Жадид шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи масаласига доир илмий-назарий адабиётларни ўрганиш.

9. Жадид насри ва драмасининг поэтик хусусиятларига оид илмий адабиётлар таҳлили.
10. Романлардаги ижтимоий ҳаёт акси. Жадид ҳикоялари, улардаги мавзу чекланганлиги, шакл ва ифода усулига кўра янги бадиий тасвир воситаларини қабул қилишга мойиллиги.
11. Жадидчилик ва адабий танқид мавзуидаги илмий-назарий адабиётлар устида ишлаш.
12. Жадидчилик ва адабий оқимлар ҳамда уларга жадид адибларининг муносабати.

Изоҳ: Мазкур рўйхатдаги мавзулардан амалий машғулотлар учун ажратилган соатлар ҳажмига мос ҳолда фойдаланиш тавсия этилади.

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Магистрантлар семинар машғулотларида жадидчилик ҳаракати намояндалари асарларини ўрганадилар. Шу давр бўйича назарий ва амалий маълумотларга эга бўладилар. Ўзлаштирилган маълумот асосида жадид адабиёти тарихи борасида тушунчага эга бўлиши кўзда тутилади.

Семинар машғулотларини уюштириш бўйича тавсия қилинадиган тахминий мавзулар:

1. Хонликлар даври ва Туркистон ижтимоий-сиёсий ҳаёти.
2. Чор Россияси босқини, унинг пайдо бўлиш омилларининг адабиётда акс этиши.
3. Маърифатпарварлик ҳаракати ижтимоий зарурат сифатида.
4. Маърифатпарварлик жадидчилик ҳаракатидан олдинги ижтимоий босқич.
5. Жадидчилик ҳаракатининг адабиётга кўчиб ўтиши.
6. Жадид адабиётининг мавзу ва шакл янгиланишлари.
7. Ўзбек адабиётига кириб келган бадиий тур ва жанрларнинг жадид ижодкорларига берган имкониятлари.
8. XX аср бошидаги адабий баҳслар ва уларнинг адабий-эстетик тафаккур ривожидаги ўрни.
9. Жадид насрининг реал ҳаёт билан ҳамоҳанглиги.
10. Жадид шеъриятидаги оддийликка интилиш, жонли тилнинг бадиий тус олиши.
11. Жадид драматургиясининг ижтимоий моҳияти.
12. Жадидчилик ва миллий истиқлол ғояси.

Изоҳ: Мазкур рўйхатдаги мавзулардан семинар машғулотлари учун ажратилган соатлар ҳажмига мос ҳолда фойдаланиш тавсия этилади.

Мустақил таълимни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни

Магистрант мустақил ишни тайёрлашда “Жадид адабиёти тарихи” фанининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда қуйидаги ишларни амалга ошириши мақсадга мувофиқ бўлади:

- амалий машғулотларга тайёргарлик;
- семинар машғулотларига тайёргарлик;
- дарслик ва ўқув қўлланмалар бўйича фан боблари ва мавзуларини ўрганиш;
- тарқатма материаллар бўйича маъруза қисмини ўзлаштириш;
- махсус адабиётлар бўйича фан бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш;
- талабанинг ўқув, илмий-тадқиқот ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган фан бўлимлари ва мавзуларни чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубидан фойдаланиладиган ўқув машғулотлари;
- масофавий таълим.

Тавсия қилинаётган мустақил иш мавзулари:

1. Илк мустамлакачилик даври: ижтимоий-сиёсий, маданий адабий ҳаёт.
2. Жадидчилик ва миллий матбуот.
3. “Ойна” ва “Ал-Ислоҳ” журналларида адабиёт материаллари.
4. Матбуотдаги маҳс-мунозаралар.
5. Ибратнинг “Тарихи Фарғона” асарида ижтимоий ҳаёт.
6. Муқимий ижодида ижтимоий турмуш манзарасининг акс этиши.
7. Фурқат ижодини ўрганиш муаммолари.
8. Адабий мактабларнинг маърифатпарварлик адабиётида тутган ўрни.
9. Мустақиллик даври ҳамзашунослиги.
10. Ҳамза ижоди: лирикаси, насри ва драматургияси.
11. Жадид шеъриятининг хос хусусиятлари.
12. Чўлпон шеърларининг мавзу доираси, танланган сўз ўзгачалиги ва вазн тафовути.
13. Чўлпоннинг насрий асарлари.
14. Жадид мактаблари.
15. А.Авлоний ва жадид адабиётида ижтимоий-эстетик идеал муаммоси.
16. Жадид насрининг ўзбек насри тараққиётидаги ўрни.
17. А. Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида жадидчилик унсурлари.
18. “Падаркуш” ва ўзбек драматургиясининг ривожланиш тамойиллари.
19. Фитрат драмаларида тарихий жараён инъикоси.
20. Фитрат асарларидаги эътиқод ўзгачаликлари.

Изоҳ: Ишчи дастурни шакллантириш жараёнида мустақил таълим соатлари ҳажмига мос ҳолда белгилаш тавсия этилади.

Дастурнинг информацион-методик таъминоти

“Жадид адабиёти тарихи” фанини ўқитишда таълимнинг замонавий усулларидан фойдаланиш кўзда тутилган:

- таълим методлари мавзусини ўтишда “кенг мулоҳаза” усулидан фойдаланилади;
- мавзуни ўргатишда матн тарихи моҳияти тушунтирилади;
- матннинг илмий тавсифини тузишда "ички ва ташқи омиллар" таснифи бўйича иш олиб борилади.

Фойдаланиладиган асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар рўйхати

Асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар

1. Каримов И .А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
2. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
34. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий таълим муассасалари талабалари учун дарслик. –Т.: Маънавият, 2005.
35. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. -Т.: Университет, 2006.

Қўшимча адабиётлар

36. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида.–Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.
37. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. –Т.:Ўқитувчи, 1990.
38. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. –Т.: 1999.
39. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. –Т.: 2003.
40. Юнусов М. Комил Хоразмий. –Т.: Ўзадабийнашр. 1960.
41. Жабборов Н. Ватан иштиёқин тортарам. // Тафаккур, 2002, 1-сон, 48-57-бетлар.
42. Жабборов Н. Фурқат мероси ва Хитой манбалари. // Шарқ юлдузи. 2001. Иккинчи фасл, 121-127-бетлар.
43. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тўплам. – Т.: Университети, 1999.
44. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 1970.
45. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. –Т.: 1975.
46. Аҳмедов С. Ўзбек демократик адабиётида шеърий ҳикоя. –Т.: 1987.
47. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. –Т.: Шарқ, 1997.
48. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. Истиқлол фидойилари. –Т.: Шарқ, 1994.
49. Ризаев Ш. Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997.
50. Қосимов Б. Излай-излай топганим. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.

51. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004.
52. Жалолов А.“XIX аср охири ва XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти”. –Т.: 1991.
53. Ғаниев И. Фитрат. Эътиқод, Ижод. –Т.: 1994.
54. Каримов Б. Янгиланиш соғинчи. Адабиёт жамғармаси нашриёти. –Т.: 2004.
55. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. –Т.: 1994.
56. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
57. Норматов У. Қодирий боғи. –Т.: 1995.
58. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. –Т.: Хазина, 1994.
59. Каримов Н. Чўлпон. –Т.: Фан, 2004.
60. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
61. Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2006.
62. Жадид адабиёти тарихи. ЎУМ, ЎзМУ 2011. Ўзбек филологияси факультети кутубхонаси.
63. www.en.wikipedia.org/wiki/Structuralism

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Ro’yxatga olindi.
№ _____
2017__ “__” _____

“Tasdiqlayman”
O’quv ishlari bo’yicha prorektor:
_____t.f.n. dots.A.SH. MAMATYUSUPAV
“____” _____2017-yil

JADID ADABIYOTI TARIXI FANIDAN

ISHCHI O’QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 -Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 120000 -Gumanitar fanlar
Mutaxassislik: 5A120101 -Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo’nalishlari bo’yicha)

Mazkur o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 6-apreldagi 137- sonli buyrug’I bilan tasdiqlangan o’quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **Tojiboyeva Muqaddas** O`zbek adabiyoti kafedrasi katta o`qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: **Karimov Xalimjon** “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi dotsenti
filologiya fanlari nomzodi.

Abdullaeva Dildoraxon - “O’zbek adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fanning ishchi o’quv dasturi “O’zbek adabiyoti” kafedrasining 2013-yil 27-avgustdagi 1 – son yig’ilshida muhokamadan o’tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____f.f.d. Mirzayeva S.

Fanning ishchi o’quv dasturi Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti kengashining 2013-yil 28-avgustdagi 1 – son majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

Fakultet kengashi raisi: _____ v.b. Soliboyev N.

Kelishildi: O’quv uslubiy boshqarma boshlig’i: _____ dotsent Abdullayev Q.

Kirish

“Jadid adabiyoti tarixi” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Fanni o‘qitishdan kuzatilgan asosiy maqsad – yuqori malakali matnshunoslar tayyorlash ekanligi. Fanning mohiyati, tekshirish ob’ekti va ahamiyati. Predmetni o‘qitishning zamonaviy metodlari.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi-magistrantlarda “Jadid adabiyoti tarixi” bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish, ularni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun zamin hozirlashdan iborat.

“Jadid adabiyoti tarixi” fanining **vazifalari** magistrantlarda shu fanning asosiy masalalari, mavzu.lari, xulosalari, umumlashmalari haqida tasavvur tug‘dirish, ularni badiiy asar tahliliga o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Jadid adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha magistrant quyidagilarni

bilishi kerak:

- jadid adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari;
- jadid adabiyoti tarixini ilmiy o‘rganish bosqichlari;
- jadidchilikning mamlakatimiz va xorijda o‘rganilishi;
- jadid adabiyotini tadqiq etishning dolzarb masalalalari;
- jadid adabiyoti tarixini o‘rganishning nazariy muammolari.

“Jadid adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha magistrant quyidagi

ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi kerak:

- badiiy asarni mustaqil o‘qish, tahlil qilish va baholash;
- jadid adabiyoti tarixi bo‘yicha umumlashmalar chiqarish.

“Jadid adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha magistrant quyidagi

malakalarga ega bo‘lishi kerak:

- jadid adabiyoti namunalarini o‘qish va to‘g‘ri baho bera olish;
- shu davr adabiyotining xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Jadid adabiyoti tarixi” fani adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi hisoblanadi. “Jadid adabiyoti tarixi” predmeti tarix, falsafa, adabiyot nazariyasi fanlari bilan chambarchas bog‘liq.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Oliy o‘quv yurtlarida filologik ta’limni yo‘lga qo‘yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. “Jadid adabiyoti tarixi” fanini to‘liq o‘zlashtirish nafaqat ta’lim tizimi, balki magistrantning mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishi uchun zamin hozirlaydi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Jadid adabiyoti tarixi” fani jadid adabiyoti namoyandalarining ilmiy faoliyati hamda shu davrga oid asarlarni o‘rganishda o‘sha davrda yozib olingan

plyonkalarni namoyish qilishda komyuterlar, internet, mavzu.ga oid slayd ma'lumotlaridan keng foydalanadi.

Dasturdagi mavzu.larni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning «Aqliy xujum", "Klaster", "Bumerang", "Munozarali dars» kabi uslublaridan foydalaniladi, shuningdek, mavzu.larga oid slaydlar, multimediya namoyishidan foydalanish ko'zda tutiladi.

"Jadid adabiyoti tarixi" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzu.ga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Jadid adabiyoti tarixi” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Excel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzu.lar bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

“Jadid adabiyoti tarixi” fanidan o’tiladigan mavzu.lar va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

Tr	*FANNING BO’LIMI VA MAVZU.SI, MA’RUZA MAZMUNI*	*SOATLAR*					
		Jami	*ma’ruza*	*Amaliy*	*labora toriya*	*Seminar*	*Mustaqil ish*
1.	Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni Turkiston o‘lkasi istilosi va uning badiiy adabiyotda aks etishi	*8*	*2*	*2*	-	*2*	*2*
2.	Jadid adabiyotining manbalari, yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari	*8*	*2*	*2*	-	*2*	*2*
3.	Jadidchilik va jadid adabiyotini ilmiy o‘rganish bosqichlari	*10*	*2*	*2*	-	*2*	*4*
4.	Jadid adabiyotini davrlashtirish tamoyillari. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti	*8*	*2*	*2*	-	*2*	*2*
5.	Adabiy maktablar va ularning o‘lka ijtimoiy, badiiy hayotida tutgan o‘rni	*8*	*2*	*2*	-	*2*	*2*
6.	XX asr boshidagi adabiy bahslar va ularning adabiy-estetik tafakkur rivojidagi o‘rni	*6*	*2*	-	-	*2*	*2*
7.	Jadid adabiyotida Sharq va G‘arb madaniyati masalalari talqini	*6*	*2*	*2*	-	-	*2*
8.	Jadid adabiyoti: an’ana va yangilik uyg‘unlashuvi	*10*	*2*	*2*	-	*2*	*4*
9.	Jadid adabiyotida lirika	*8*	*2*	*2*	-	*2*	*2*
10.	Jadid she’riyatida poetik tafakkur tadriji	*6*	*2*	-	-	*2*	*2*
11.	Jadid adabiyoti va oqimlar	*6*	*2*	*2*	-	-	*2*

12.	Jadid nasri va uning poetik xususiyatlari. Romanlardagi ijtimoiy va milliy ruh tasviri yo‘sinlari	*10*	*2*	*2*	-	*2*	*4*
13.	Jadid dramasi va uning poetikasi masalalari	*6*	*2*	*2*	-	-	*2*
14.	Dramalarning ommaviy va badiiy idrok yo‘siniga ta’siri	*6*	*2*	-	-	*2*	*2*
15.	Jadidchilik va adabiy tanqid shakllanishi hamda rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari	*8*	*2*	*2*	-	-	*4*
16.	O‘zbek jadid adabiyotida ijtimoiy tahlil	*6*	*2*	-	-	*2*	*2*
		120	*32*	*24*	-	*24*	*40*

Asosiy qism

MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI

Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni.Turkiston o‘lkasi istilosi va uning badiiy adabiyotda aks etishi. Mustamlakaning ilk davralarida mamlakatda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Xonliklar, Chor Rossiyasi va Turkiston general gubernatorligining ijtimoiy jabhalar, xususan, adabiyotdagi in’ikosi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar:
A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q8;Q11;Q12;Q14;Q15;Q16;Q18;Q19;Q22;Q24; Q25;Q26;Q27;.

Jadid adabiyotining manbalari, yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari

X1X asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi tarixiy sharoit. Ijtimoiy hayot va badiiy adabiyotning o‘zaro ta’siri. Bu davr adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar:
A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q8;Q11;Q12;Q14;Q15;Q16;Q18;Q19;Q22;Q24; Q25;Q26;Q27;.

Jadidchilik va jadid adabiyotini ilmiy o‘rganish bosqichlari

Jadidchilik va jadid adabiyotining mamlakatimiz va xorijda o‘rganilishi: yutuqlar va muammolar. Bu davr adabiyotini tadqiq etishning bosqichlari. Har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar:

A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q8;Q11;Q12;Q14;Q15;Q16;Q18;Q19;Q22;Q24; Q25;Q26;Q27;.

Jadid adabiyotini davrlashtirish tamoyillari. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti

Jadid adabiyotini davrlashtirish masalalari. Davrlashtirish yuzasidan ilmdagi bahslar. Ma’rifatparvarlik – ijtimoiy harakat tarzida. Ma’rifatparvarlik adabiyoti tarixi, tadriji. Ma’rifatparvarlik adabiyoti jadid adabiyotining ilk bosqichi sifatida. Ma’rifatparvar ijodkorlar (K. Xorazmiy, Feruz, I. Ibrat, K. Kamiy va h.k.**)**.

